

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

---

**A. V. VAHOBOV, A. S. JO‘RAYEV**

# **SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT—2009

**T a q r i z c h i l a r:**

**E.F. Gadoyev** — O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi.

**M.I. Almardonov** — iqtisod fanlari doktori, professor.

**Vahobov A.V.**

Soliqlar va soliqqa tortish: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.V. Vahobov, A.S. Jo‘rayev; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, — Toshkent: Sharq, 2009. — 448 b.

I. Jo‘rayev A.S.

Mazkur darslikda O‘zbekiston soliq tizimida amalda bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va yig‘imlarning amaldagi holati, budjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy ajratmalar, ularni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlari hamda davlat budjetining soliqsiz daromadlari ko‘rib chiqilgan.

Darslik 5340800 — «Soliqlar va soliqqa tortish» bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida o‘qiyotgan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

**BBK 65.261.4ya73**

**ISBN 978-9943-00-327-9**

## KIRISH

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

2005-yilning 28-yanvarida mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga atroflicha to'xtalib, 2005-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalarini belgilab berdilar. Mamlakatimizda **soliq siyosatini yanada takomillashtirish** zarurligi ham muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. Mamlakatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida soliq to'lovchilarga soliqqa tortish tizimida qo'shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta'minlash hamda ushbu yo'nalishda ilg'or mamlakatlar ijobiy tajribalaridan foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tdilar.<sup>1</sup> Bundan tashqari, mamlakat Prezidenti «... islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot, soliq budjet siyosatini yanada erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish» asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tdi.<sup>2</sup>

Shu boisdan ham ta'lim tizimida soliq sohasidagi bilimlarni o'rgatishda respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq sohasidagi islohotlarni talaba-o'quvchilarga to'laroq yetkazish, ushbu yo'nalish bo'yicha istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlari ta'lim yo'nalishlari uchun

---

<sup>1</sup> «Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2005-yil 29-yanvar.

<sup>2</sup> «Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash — barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadida». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2008-yil 9-fevral.

o'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlash, soliq sohasida amaliy tadqiqotlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida tatbiq etishni amalga oshirish hukumatimiz diqqat-e'tiborida bo'lgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shuning uchun ham ushbu darslik soliqlar, yig'imlar va soliqqa tenglashtirilgan to'lovlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u 5340800 – «Soliqlar va soliqqa tortish» ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan oliy o'quv yurti talabalariga mo'ljallangan.

Darslik O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni, «Soliq kodeksi», O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlandi.

Ushbu darslikda soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar, davlat budjetining soliqsiz daromadlari hamda soliqqa oid qonunbuzilishlarga barham berish yettita guruhga bo'lib o'rganilgan.

Birinchi bobda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi, funksiyalari, soliq elementlari hamda soliqqa tortish tamoyillari berilgan.

Ikkinchi bobda soliqlar va soliqqa tenglashtirilgan to'lovlarga umumiy tushunchalar berilgan. Shuningdek, ushbu bobda soliqlarning guruhlanishi hamda soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari ko'rib chiqilgan va sharhlangan.

Uchinchi bobda hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida 80 foiz atrofida soliq tushumlari bilan hissa qo'shayotgan yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'imlar o'rganilgan. Ushbu bobda, asosan, soliqlarning to'lovchilari, soliq obykti, soliq bazi-si, soliq imtiyozlari, soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash muddatlari qisqa va lo'nda berilishiga harakat qilingan hamda har bir soliq turlari bo'yicha o'quvchilarning fanni o'zlashtirishlariga yordam beruvchi shartli misollar keltirilgan.

To'rtinchi bob – jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i, yer solig'i, daromaddan olinadigan soliq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning qat'i belgilangan soliqlari, shu-

ningdek, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqlarni ko'rib chiqishga harakat qilingan. Ushbu bobning mazmun-mohiyatini chuqurroq o'rganish maqsadida amaliy misollar ham keltirilgan.

Beshinchi bobda davlat budjetining nobarqaror xarakterga ega bo'lgan soliqsiz daromadlari berilib, unda soliqsiz daromadlarning zarurligi, mohiyati, ularning tarkibi keltirilgan. Ushbu bobda soliqsiz daromadlarning ayrim manbalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar berilib, ular izohlangan. Undan tashqari, soliqsiz to'lovlarning solikli to'lovlar bilan o'xshashlik va farqli tomonlari ham keltirilgan.

Oltinchi bobda budjetdan tashqari jamg'armalar: yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari, Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalari – ularning to'lovchilari, jamg'armalarga majburiy ajratmalarning obyekt, stavkalari va to'lash muddatlari ko'rsatilgan.

Yettinchi bobda soliqqa oid qonunbuzilishlarga soliq tizimi orqali ta'sir etishning asosiy yo'nalishlari, soliq to'lashdan bo'yin tovlashning asosiy usullari, soliqqa oid qonunbuzilishning oldini olish tadbirlarining samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Darslik oxirida yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishga, soliqlarning huquqiy asoslarini qamrab olishga harakat qilingan test savoli variantlari keltirilgan. Ushbu test savoli variantlari talabalarni o'zlarining ustida yanada ko'proq ishlashlariga, fanni chuqurroq o'rganishga yordam beradi, degan umiddamiz.

Ushbu darslik kamchiliklardan xoli emas. Ular keyingi nashrlarda albatta e'tiborga olinadi.

## 1.1. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA OBYEKTIV ZARURLIGI

### **Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi**

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu o'rinda *soliq kategoriyasi* davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliqlik tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: *birinchidan*, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, *ikkinchidan*, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydi-

gan vazifalar yo‘qola borsa, yangi vazifalar paydo bo‘la boshlaydi. Bularga bizning respublikamizda kam ta‘minlanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil qilish kabilar kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, talabalar, ko‘p bolali onalar va boshqalarni mablag‘ bilan ta‘minlash zarurligini anglab, ayrim cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budjet hisobidan qoplaydi va undan tashqari mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta‘minlanganlarga moddiy yordamlar ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a‘zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o‘zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga ham mablag‘lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o‘rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko‘plab mablag‘ yo‘naltirishga majburdir. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo‘lgan soliqlarni obyektiv zarur qilib qo‘yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo‘llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar amal qiladi. Ma‘lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo‘lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarni iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pullik munosabatlarni bildiradi. Bu munosabatlar soliq to‘lovchilar bilan ularni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida bo‘ladi. Davlat uchun budjet daromadlarining asosiy manbasi hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar to‘g‘risidagi qarashlar tarixan obyektiv va subyektiv omillarning ta‘sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta‘riflarni tahlil qilish, ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo‘lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo‘lgan soliqlarning tutgan o‘rnini aniqlash zarurdir. Chunki, davlat paydo bo‘lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri hisoblanib kelingan. Davlat tuzilish

shakllarini rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi o'zgar-gan va takomillashtirilgan. Soliq tizimining o'zgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va yig'ib olish usullari xilma-xil bo'lganligi bilan asoslanib kelingan. Masalan, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk, yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingan.

Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbayi hisoblanadi.

Insoniyat tarixida yirik davlat arboblardan biri, o'rta asrlarda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur soliqlarga katta e'tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. O'sha davrning davlat moliyasi bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlariga uzviy bog'langanligi bilan tubdan farq qilib turgani va ayni shu xususiyatga ko'ra boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy o'rinni egallaganligi bugungi kunga kelib hammaga ayon bo'lmoqda.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiborga olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. *Adam Smit* (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723—1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini ko'rsatib berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

*N.I. Turgenev* o'zining «Soliq nazariyasi tajribasi» nomli kitobida (1818-yil) shuni ta'kidlaydiki, «Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf-odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan», «...soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga



paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi. ...Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig'ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma'lumotlar to'g'risida; yig'iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikkita eng asosiy xususiyatdir». Bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida turgan vazifalarni bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

«Soliqlar, — deb yozadi *D. Rikardo*, — hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi».<sup>1</sup> Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, *D. Rikardo* soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida *A. Smit* tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan.

*S.G. Pepelyayev* «Soliq — ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir»<sup>2</sup> — deb, ta'kidlagan.

*D.G. Chernikning* fikricha «Soliqlar — davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi».<sup>3</sup>

*S.H. Gataulin* «...soliqlar o'zi nima va ular nimaga kerak», degan savolga quyidagicha javob beradi: «Soliqlar — bu davlat sarf-xarajatlarining asosiy manbayi bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqaror-

---

<sup>1</sup> *Рикардо Д.* Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. — М.: «Госполитиздат», с. 360.

<sup>2</sup> *Пепеляев С. Г.* Основы налогового права. М.: 1995, 24 с.

<sup>3</sup> *Черник Д. Г.* Налоги в рыночной экономике. «Финансы», 1992, №3, с. 19.

lashtiruvchi vositadir.<sup>1</sup> Soliqlar davlat budjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlarning mohiyatini to'raligicha yoritmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettirmaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar obyekt bo'lib nima hisoblanadi, degan savollarga javob bera olmaydi.

Ayrim iqtisodchilar soliqlarni milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi sifatida izohlashga harakat qilganlar, — «Soliqlar — milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir».<sup>2</sup>

*O. Olimjonovning fikriga ko'ra:* «Soliqlar — davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir».<sup>3</sup> Soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqlarning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini va rolini, soliqlarning harakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bugungi kunda soliq kategoriyasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, shuningdek, uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rnini, soliqlarning nazariy jihatlarini aniqroq va to'liqroq yoritmaydigan ta'rifni keltirish muammosi fanda mavjuddir.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning ham bilvosita quroli hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> *Gataulin Sh.* Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996. 18-bet.

<sup>2</sup> *O'lmasov A., Sharifxo'jayev M.* Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Mehnat», 1995-y. 377-bet.

<sup>3</sup> *Olimjonov O.* Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. «Hayot va iqtisod», 1992.

Soliqni to'lash xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar budjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga, raqobatbardosh mahsulotni ko'paytirishga, kichik biznesni rivojlantirishga, xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infrastrukturasi barpo qilishga, umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va shu kabilarga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

**Soliqlarning o'ziga xos belgilari** U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida muddatlilik, qaytarishlik, muayyan miqdorda ustama haq (foiz) to'lash kabi umumiy belgilarga egaki, ushbu belgilar kredit kategoriyasi mohiyatini kengroq yoritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi soliq kategoriyasi ham bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, ushbu belgilar soliqlarning boshqa to'lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Soliqlarning belgilari borasida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar mavjud. Masalan, prof. *Q. Yahyoyev* soliqlarni umumiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi.

1. Soliqlar va yig'imglar majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida budjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis

tasdiqlab bergan Soliq kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi.

2. Soliqlar xazinaga — davlat budjetiga tushadi. Ammo boshqa turdagi to'lovlar «Umid», «Ekosan» kabi jamg'armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi.

3. Soliqlar qat'i belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixan asrlab o'zgarmay harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qancha chuqur bo'lsa, shuncha qat'i va uzoq yillar o'zgarmasdan harakat qiladi.

4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir.<sup>1</sup>

Rus iqtisodchisi A. Medvedev o'zining «Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak?» nomli kitobida soliq'larga xos bo'lgan ikki belgini, ya'ni *majburiylik* va *ekvivalentsizlik* kabi belgilarni qayd etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. *Soliq to'lovchi daromadining u yoki bu summasini davlatga to'lap ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi.* Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko'ra soliq narxdan, ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt davlat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

Davlatga to'lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlariga sabab bo'ladi, vaholanki, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin.

Alohida olingan soliq to'lovchi, odatda, jamiyat va o'zining ko'rgan foydasi yoki manfaatini to'lagan soliqlari bilan solishtirib o'tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqi-

---

<sup>1</sup> *Yahyoyev Q.* Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «G'afur G'ulom», 2000-y. 10-bet.

batda fuqarolarning bir qismi soliqlar to'lashdan bo'yin tovlashga, o'z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o'z fuqarolaridan yig'ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatsa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy ijtimoiy va boshqa dasturlarini o'z mablag'lari hisobidan pul bilan ta'minlashga rozi bo'lgandagina yuksak soliq axloqi tamoyillari yuzaga keladi.

2. *Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi.* Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsada, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qonunchilikda belgilangan tartibda jazolaydi.

3. *Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi.* Ko'pgina davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan davlat organlari haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. O'zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kim haqli emas. To'lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo'lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi.

4. *Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy budjetga kelib tushishidir,* ya'ni soliqlar budjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. *Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir.* Soddaroq qilib aytganda, korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkining ma'lum bir qismini davlat hisobiga o'tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo'lgan mulk daromad shaklida majburiy to'lov bo'lib, davlat mulkiga aylanadi.

Yuqorida qayd etilgan soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilar ularning iqtisodiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shu o'rinda soliqlarning umumiy belgilarini to'liqroq va aniqroq, batafsil yoritishi mumkin bo'lgan, har qanday iqtisodiy vaziyatlarda o'zgarmaydigan optimal umumiy belgilarini yaratish muammosi hal etilishi lozimdir.

Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug'urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o'ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodchi olimlar tomonidan soliqlarga berilgan tariflarni o'ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
3. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimalarda ko'rinadi?
4. Soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimalardan iborat?
5. Adam Smit o'zining qaysi asarida ilk bor soliqlarning tamoyillarini asoslab bergan?
6. O. Olimjonov soliqlarga qanday ta'rif bergan?
7. Soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
8. Soliqlarga oid bilimlarni olimlar tomonidan turlicha talqin etilishi sabablari nimada?
9. Soliqlar belgilarining mohiyatini tushuntirib bering.
10. Soliqning ekvivalentsizlik belgisining mohiyatini tushuntiring.

## **1.2. SOLIQLARNING FUNKSIYALARI**

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o'z funksiyasi mavjud. Soliq mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funksiyalarga ega bo'lib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya deganda, odatda, kategoriyaning ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funksiyalari to'g'risida fanda turli xil qarashlar mavjud. Sobiq Ittifoq davrida soliqlar ikki xil funksiyani bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu

ikki funksiya sifatida fiskal va nazorat funksiyalari tan olinardi. Eng asosiy funksiya bu soliqlarning fiskal funksiyasidir, chunki bu funksiyasiz nazorat funksiyasining mavjud bo'lishi mumkin emas, deb qaralardi.

G'arb iqtisodchilari ko'pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J. M. Keynsning konsepsiyasiga asoslanadi. By konsepsiyaga ko'ra soliqlar fiskal funksiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funksiyalariga ega, soliqning bu funksiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L. Xarrot, N. Kaldor, A. Xansen va P. Samuelsonlarning fikriga ko'ra soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli xil imtiyozlar berish yo'li bilan bu funktsiyani bajarish mumkin, deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funksiyasini yuzaga kelishiga fransuz iqtisodchisi E. De. Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib amerikalik iqtisodchilar A. Ilersik, G. Koul, fransuz iqtisodchilari M. Klyudo, J. Furastye hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra davlat soliqlardan va transfer to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funksiyasi mavjud, degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

I. Malmiginning fikriga ko'ra soliqlar uch funktsiyani bajaradi, ya'ni fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish funksiyalaridir. Uning fikriga ko'ra birinchi funksiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Rag'batlantirish funksiyasi turli imtiyozlar va yengilliklar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.<sup>1</sup> O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, G'arb iqtisodiy

---

<sup>1</sup> *Мальмигин И.* Налоги как элементы финанса. М.: перевод с англ., 1997 г., стр. 69.

adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funksiyasi I. Malmiginda taqsimlash funksiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat'i takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida hozirga qadar olimlar o'rtasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb ta'rif berishadi.

### **Soliqlarning fiskal funksiyasi**

Soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: *soliqning fiskal funksiyasi, tartibga solish funksiyasi, rag'batlantirish funksiyasi, nazorat funksiyasi, soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.*

Soliqlarning asosiy funksiyasi — *fiskal funksiya* hisoblanib (lotincha *fiscus* so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat boshqaruvini, mamlakat mudofaasini, umuman noishlab chiqarish sohasini saqlab turish maqsadida undirib olish yo'li bilan davlat budjetining daromad qismini shakllantirish — soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funksiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tushaligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko'paytirishning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga ko'proq e'tibor bergan sari moliyaviy resurslarni ko'proq sarflaydi, lekin soliq tizimi o'zining fiskal funksiyasi vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarishning o'sishiga, jamg'arish jarayoniga halal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda iqtisodiyotning umumiy



tuzilmasida buzilishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, bozor jarayoniga putur yetkazmasligi kerak.

Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali paydo bo'ladigan pul resurslari davlat budjeti orqali qayta taqsimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarni bir qismi qayta taqsimlanadi.

### **Soliqlarning tartibga soluvchilik funksiyasi**

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagi *tartibga soluvchilik* roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan iqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funktsiya orqali davlat soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek, aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funksiyasining ahamiyati bozor munosabatlari sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin kuchsizlanib boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

### **Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi**

*Rag'batlantirish funksiyasi* soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek, moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-

mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag‘batlantiradi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi orqali davlat iqtisodiyot taraqqiyotini ta’minlaydi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi va ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlab, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish yo‘li bilan soliq yukini oshirmasdan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkin faoliyat ko‘rsatishi ta’minlanadi.

### **Soliqlarning nazorat funksiyasi**

obyekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to‘lovchilar o‘zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

### **Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta’minlash funksiyasi**

hajmi va konkret soliqli tushumlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to‘g‘risida axborot berib turilishi juda zarurdir. Shunday qilinsa, soliqlarning budjetga tushishi to‘liq, o‘z vaqtida va oson kechadi.

Soliq funksiyalarini qisqacha ko‘rib chiqilishi soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo‘jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo‘yicha muhim vazifalarni bajaradi, deb xulosa chiqarishi uchun imkon beradi.

Soliqlarning iqtisodiyotdagi yuqorida ta’kidlangan muhim o‘rnini belgilovchi bir qancha funksiyalari mavjud. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlantirish bosqichida soliqlarning o‘rnini belgilovchi quyidagi asosiy omillarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

● **Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilishning zarurligi.** Ma’lumki, respublikamizda

*Soliqlarning nazorat funksiyasi*  
soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish

Soliqlarni hisoblash jarayonini  
*axborot bilan ta’minlash funksiyasi* ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar

iqtisodiyotni isloh qilish va davlat qurilishini amalga oshirish mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan besh asosiy tamoyilga asoslanadi. Bu qoidalardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholi, ayniqsa, uning kam ta'minlangan qatlamlari yetarli darajada ijtimoiy himoyalangan bo'lishi kerak.

● **Agrar sektordagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish zarurligi omili.** O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eng asosiy tarmoq agrar sektor hisoblanadi. Masalan, Ikkinchi jahon urushidan keyin tiklanayotgan Yaponiya iqtisodiyoti uchun mashinasozlik yetakchi tarmoq sifatida rivojlantirilgan edi. Bu tarmoq Yaponiya iqtisodiyotini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Bu, eng avvalo, uning mamlakatga chet el valuta tushumlarini olib kelishda namoyon bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ana shunday asosiy tarmoq vazifasini o'tamoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, qishloq xo'jaligida soliq, kredit vositalari yordamida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrda 539-sonli qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun umumiy belgilangan tartibdagi soliq va yig'imlar o'rniga budjetga 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab yagona yer solig'ini to'lash tartibi joriy qilindi.

● **O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida soliqlarning o'rnini belgilovchi asosiy omillardan yana biri — hozirgi kunda ko'payib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va huquqiy shaxslarning daromadlarini jalb qiluvchi mukammal soliq to'lovini yuzaga keltirish.**

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi xususiyy tadbirkorlik faoliyatini keng quloch yoyishi va xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, tadbirkorlar daromadini hisobga olishni qiyinlashtiradi. Xususiylashtirilgan bitta korxonalar o'rnida o'nlab kichik, xususiyy va jamoa mulkiga asoslangan korxonalar paydo bo'ladi. Mukammal soliq mexanizmi yaratilmaganligi uchun daromadlar summasini aniqlashda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-sonli qaroriga muvofiq kichik korxonalar uchun umumiy belgilangan tartibdagi soliqlar o‘rniga budjetga ixchamlashtirilgan soliq to‘lash imkoniyati vujudga keldi. O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda ixchamlashtirilgan soliq tizimining joriy qilinishi bu tadbirkorlar uchun davlat tomonidan ko‘rsatilgan katta yordam bo‘ldi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta‘minlash maqsadiga bo‘ysunuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funksiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Shunday ekan, soliqlarning funksiyalari va vazifalari o‘rtasidagi aniq farqli jihatlarni o‘rganish va soliq munosabatlarini tashkil etish mobaynida bu chegaralarni asoslashni qayd etib o‘tish lozim.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko‘pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o‘xshashliklarga ega. Ana shunday an‘anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta‘minlab berish.* Soliqlarning fiskal funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, soliqlarning fiskal funksiyasi shunchalik faol bo‘ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlarining ko‘payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

- *Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko‘maklashish.* O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo‘naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirishning qudratli vositasi bo‘lishi kerak.

- *Aholining mehnat faolligini rag‘batlantirish.* Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi.

Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog'liq salbiy oqibatlarining oldini olishi mumkin. 70—80-yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarining aholi daromadlariga progressiv ravishda qo'llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

● *Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat prinsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish.* Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yimlarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o'zgarmaydigan bo'lishi kerak. Soliqqa tortish tizimida mustahkam ishonch bo'lmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

Soliqlarning budjetga ijobiy ta'siridan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi yangi paydo bo'lgan tijorat strukturalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarini tabaqalashtirish yo'li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat budjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga, balki davlat daromadlarini budjetning o'rta muddatli rejada hayotiyeligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
2. Soliqlarning funksiyalari va vazifalarini farqlab bering.
3. Soliqlarning fiskal funksiyasini tushuntirib bering.
4. Soliqlarning tartibga soluvchilik funksiyasini tushuntirib bering.
5. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini tushuntirib bering.

6. Soliqlarning nazorat funksiyasini tushuntirib bering.
7. Soliqlarning axborot bilan ta'minlash funksiyasini tushuntirib bering.
8. Soliqlarning o'rnini belgilovchi asosiy omillarni ko'rsatib o'ting.
9. Agrar sektordagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda soliqlarning o'rnini qanday?
10. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda soliqlarning o'rnini qanday ahamiyatga ega?

### 1.3. SOLIQ ELEMENTLARI

#### **Soliqqa tortish tizimi va uning elementlari**

Soliq elementlari haqida gap borganda ko'pincha adabiyotlarda soliqlar tizimi haqida so'z yuritiladi. Shu o'rinda soliqlar tizimi soliqlar tizimiga nisbatan tor tushuncha bo'lib, aslida soliqlar tizimi tarkibini tashkil etadi. Soliqlar tizimi soliqlar o'ld barcha munosabatlarni qamrab olsa, soliqlar tizimi esa soliqlarni undirish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan soliqlar tizimi qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qonun yo'li bilan belgilangan hamda ijro hokimiyati tomonidan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuasidan iborat. Soliqlar tizimining mohiyati garchand o'zgarmas bo'lib ko'rinsada, uning shakl-shamoyili va yo'nalishi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga, qolaversa, soliqlar siyosatining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Chunki, soliqlar tizimi o'z ichiga tarkiban soliqlar elementlari, soliqlarni tashkil etish tamoyillari va usullarini oladi, bu elementlarning qay darajada talqin etilishi esa bevosita davlat siyosati yo'nalishiga bog'liq. Masalan, soliqlar elementlariga kiruvchi soliqlar stavkasining qaysi turlarini ko'proq amal qilishi, soliqlar imtiyozlarining belgilanishi, soliqlarni undirishning qaysi usullaridan ustuvorlik bilan foydalanish asosan ijro hokimiyati faoliyatining mazmuniga bog'liq. Binobarin, shu ma'noda xuddi soliqlarni vazifalari kabi soliqlar tizimi ham har bir davlatda o'ziga xos tarzda amal qilishi va tashkil etilishi mumkin.

Demak, davlat qonunchiligi bilan belgilangan va uning maxsus idoralari tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil

etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi.

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq elementlari esa soliqqa tortishda ifodalanadigan tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va davlat budjeti o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to'liq va teranroq ifoda etish uchun iqtisodiy voqeliklarni har bir kichik guruhlari muayyan nomdagi iboralar bilan izohlanadi. Soliq elementlari ham xuddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushunchadir. Soliq elementlari tushunchasi soliqqa tortish tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya'ni soliq elementlari ham bir necha iqtisodiy kategoriyalarni yaxlit holdagi harakatini bildiradi.

Soliq elementlari bir nechta tushunchalardan iborat bo'lib, ular tarkiban: *soliq subyekti*, *soliq obyekt*, *soliq predmeti*, *soliq manbasi*, *soliqqa tortish birligi*, *soliq stavkasi*, *soliq imtiyozlari*, *soliq normasi*, *soliqni to'lash muddatlari*, *soliq yuki*, *soliq bazasini hisoblash usullari*, *soliqqa tortish usullari* kabi tushunchalarni qamrab oladi. Quyida soliq elementlarining har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

***Soliq subyekti*** — soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq subyekti — bu soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar), boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari — Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi. O'z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq subyekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki, bu yerda soliqlardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq subyekti sifatida soliq munosabatlarida ishtirok etmaydilar.

***Soliq agenti*** — yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat budjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunday yuridik shaxslar o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning mazkur korxonada o'z mehnati, investitsiyasi bilan ishtirok etishi natijasida

olgan daromadi (foydasi)dan soliqlarni ushlab qoladi va davlat budjetiga o'tkazib beradi. Soliq agentlari davlat budjetiga soliqlarni bevosita yoki bilvosita ishga yollanganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va budjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolingan va o'z vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun qonunchilikda belgilangan moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq subyekti bo'lishi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti iqtisodiy adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida qayd etiladi.

**Soliq obyekt** — soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq obyekt sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarning qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq obyekt aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq subyektlarining huquqlarini soliqqa tortishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklar soliq obyekt qilib albatta unga mulkiy huquqqa ega bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq subyekti mavjud emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq obyekt sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq obyekt aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

**Soliqqa tortish predmeti** — soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish obyekt bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq obyekt yoki soliqqa tortish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq subyektni namoyon qiladi. Demak, aytishimiz



mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq obyektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq subyektini yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

**Soliq manbayi** — bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbayi, ya'ni daromadi. Soliq obyekt va soliq manbayini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, foydaga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq obyekt ham, soliq manbayi ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima obyekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.

Shu o'rinda soliqqa tortish predmeti, soliq obyekt va soliq manbayini farqlash va ularning mohiyatini ochib berish uchun aniq soliq turi bo'yicha ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Yer solig'i bo'yicha ko'radigan bo'lsak, uning soliqqa tortish predmeti bo'lib, yer uchastkasi maydoni, unga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'lsa soliq obyekt paydo bo'ladi va ushbu yer solig'i qaysi manba hisobidan davlat budjetiga to'lansa, masalan, yerdan turli xil ko'rinishda foydalanish natijasida olinadigan daromad uning manbayi hisoblanadi. Demak, soliqqa tortish predmeti o'z-o'zidan kimdadir soliq to'lash majburiyatini vujudga keltirmaydi. Misolimizga qaytadigan bo'lsak, yerga bo'lgan huquqni joylardagi mahalliy hokimiyat organlari beradi va shu bilan birgalikda yerdan foydalanuvchida soliq to'lash majburiyati vujudga keladi, chunki unda ushbu yer uchastkasi-dan foydalanish huquqi mavjud. Demak, soliq predmetiga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'ladigan bo'lsa, u soliq munosabatlarida soliq subyekt sifatida ishtirok etadi.

**Soliq bazasi** — soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan obyektning miqdoriga ham bog'liq. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq obyektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq obyektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, soliq to'lovchiga soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq obyektidan

kichik, soliq obyektini qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa undan katta bo'lishi mumkin.

**Soliqqa tortish birligi** — bu obyektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida obyektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv. m yoki gektar hisoblanadi.

**Soliq stavkasi** — obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki, soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat, sohaga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin.

**Soliq imtiyozlari** — soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. Soliq imtiyozlarining turlari, amal qilish mexanizmlari, belgilash mezonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**Soliq bazasini hisoblash usullari.** Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, ular *kassa usuli* va *hisobga olish usullaridir*. Kassa usulida soliq to'lovchida soliqlarni to'lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushishidan qat'i nazar tovarlarni jo'natilishi o'z navbatida soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

*Soliqqa tortish usullari* uch xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Ular quyidagilarga: soliqqa tortishning *kadastrli, deklaratsiya* va *manba oldidan soliqqa tortish* usullariga ajratiladi.

*Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari.* Soliq qonunchiligida har bir soliq turining budjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat budjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati ifodalanadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: *avans (bo'nak) to'lovlari* va *haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlar*.

Soliqni to'lash tartibida esa: soliqni yo'naltirilganligi (budjetga yoki budjetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash

vositasi (milliy valuta, soʻmda yoki boshqa mamlakatlar milliy valutasida. Oʻzbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valuta — soʻmda toʻlanishi mumkin) hamda soliqni toʻlash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

**Soliq yuki** — soliq toʻlovchining muayyan vaqt oraligʻidagi faoliyati natijasida toʻlagan soliqlarining yigʻindisini ifodalaydi. Bunda soliq toʻlovchilarning toʻlaydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy toʻlovlarining yigʻindisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq toʻlovchilar zimmasiga qancha toʻgʻri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq toʻgʻri soliqlarda soliq ogʻirligi aynan soliqni budjetga hisoblab oʻtkazuvchi soliq toʻlovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda esa soliq yuki soliqni toʻlovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni isteʼmol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar boʻyicha soliq yukining bir yilda budjetga toʻlangan barcha majburiy toʻlovlar yigʻindisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi oʻz navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qoʻllashiga, qolaversa, bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bogʻliq boʻladi.

Soliqlarni yuridik va jismoniy shaxslardan undirish jarayonida beriladigan imtiyozlar natijasida soliq yukini soliq toʻlovchilarning biridan ikkinchisiga yuklash jarayoni kuzatiladi. Shu oʻrinda soliq boʻyicha soliq toʻlovchilarga soliq yukini tartiblash yoki mantiqan aytganda meʼyorlashtirish muammosi yuzaga keladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha koʻrinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy koʻrsatkich sifatida muayyan vaqt oraligʻida davlat budjetiga kelib tushgan soliqlar yigʻindisini ana shu vaqt oraligʻida yaratilgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki milliy daromad (MD)ga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga toʻgʻri keladigan soliq yuki ifodalansa, mikrodarajada esa aniq bir olingan subyektga toʻgʻri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

## Soliq stavkalari


Soliqlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri, asosan, ularning stavkalari darajasining miqdori bilan belgilanadi. Respublika soliq tizimining shakllanishini hozirgi bosqichida soliq stavkalarining darajasi eng munozarali masalalardan hisoblanadi.

Soliq stavkalari respublika va mahalliy budjetlar xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda muvozanat darajasini hamda xo'jalik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Demak, ular moliya-budjet munosabatlarini sog'lomlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq stavkalari korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaganlari holda, moliya-budjet munosabatlarining pul muomalasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siriga barham bera olishi ham kerak. Bu esa, respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq islohotining muhim jihatini tashkil etadi.

Soliq elementlari tarkibida soliq stavkalari alohida o'rintutadi. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq stavkasi deganda soliq obyektining har bir soliq birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor tushuniladi.

Soliq stavkasining ahamiyati soliq obyektini qancha qismi qanday miqdorda majburiy to'lov sifatida budjetga undirishini xarakterlaydigan masalaga javob beradi.

Soliq stavkalarini mohiyati shundaki, ular soliq obyektini, soliq birligi va soliq normalariga asoslangan holda soliq mexanizmini samarali ishlashini ta'minlaydi. Soliq stavkalaridan davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida foydalanilsa, boshqa tomondan soliq imtiyoz-



1.3.1-chizma. Soliq stavkasi turlari.

larini bir turi sifatida ular orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'batlantirish rolidan foydalaniladi.

Soliq stavkalari ikki xil ko'rinishda: qat'i stavkalarda va nisbiy (foiz) stavkalarda ifodalanadi. Soliq stavkasi qat'i stavkada belgilangan holda soliq obyektiga nisbatan qat'i so'mda belgilanadi. Masalan, yer solig'ining har bir gektari uchun qat'i so'mda soliq miqdori o'rnatilgan. Yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga, mol-mulklariga esa nisbiy stavkada yoki foizda soliq miqdori belgilangan.

Soliq stavkasi bilan soliqqa tortish obyekti o'rtasidagi bog'liqlik darajasiga qarab soliq stavkalarini proporsional, progressiv va regressiv kabi turlarga ajratish mumkin.

Soliq stavkalari undirilishga, mohiyatiga va amal qilishi nuqtayi nazaridan bir necha turlariga ajratiladi (1.3.1-chizma).

Soliq stavkalari turlaridan biri – bu proporsional soliq stavkalari bo'lib, bu soliq stavkalarining asosiy mohiyati shundan iboratki, soliq to'lovchi ega bo'lgan foyda (daromad), dividend, oborot yoki mol-mulk qiymatining hajmi (summasi) qancha bo'lishidan qat'i nazar bir xil tartibda, ya'ni bir xil foizda soliq stavkasi qo'llaniladi. Masalan, dividend uchun barcha soliq to'lovchilari soliq stavkasi 10 foiz qilib belgilangan. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi ham bugungi kunda proporsional soliq stavkasi hisoblanadi. Har qaysi soliq to'lovchi qancha oborot (realizatsiya)ga ega bo'lishidan qat'i nazar 20 foiz stavka bo'yicha soliq to'laydi. Shuningdek, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha ham proporsional soliq stavkasi qo'llaniladi. Respublikamiz soliq tizimida amal qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki-ga soliq uning obyekti 500 ming so'm bo'lganida ham 800 ming so'm bo'lganida ham soliq stavkasi o'zgar olmay qolaveradi, ya'ni soliq obyektining o'zgarishi soliq stavkasining o'zgarishiga ta'sir qilmaydi.

Proporsional soliq stavkasi o'zgar may soliq stavkasi bo'lib, uning miqdori (foizi) soliq obyektining hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Bu bir tomondan yuqori daromadga (oborotga) ega bo'lgan soliq to'lovchilar uchun qulay soliq stavkalari hisoblansada, ayrim soliq to'lovchilar uchun noqulaylik tug'dirishi mumkin, ya'ni ushbu soliq stavkasi soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini bajarmaydi.

Soliq stavkalarining keyingi turi progressiv soliq stavkasi hisoblanadi. Progressiv soliq stavkasi mohiyati jihatidan proporsional soliq stavkasiga nisbatan teskari holatda amal qilib, unga muvofiq soliq to'lovchilarning daromadlari, foydasi yoki oboroti ortib, o'sib borishiga muvofiq tarzda soliq stavkasining ham ortib borishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida buni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i misolida ko'rish mumkin. Bunga muvofiq, jismoniy shaxslarning olgan daromadi oshib borishi bilan birga belgilangan shkala asosida soliq stavkasi ham oshib boradi. Masalan, jismoniy shaxsning umumiy olgan daromadi eng kam ish haqining olti baravarigacha miqdoridan 13 foiz stavkada, eng kam ish haqining olti baravaridan o'n baravarigacha bo'lgan qismidan 18 foiz stavkada, eng kam ish haqining o'n baravaridan ortgan qismidan esa 25 foiz stavkada soliq undirilishi belgilangan (2008-yil uchun).

Demak, bundan ko'rinadiki, progressiv soliq stavkasida soliq obyektining oshib borishiga mutanosib ravishda soliq stavkasi ham oshib boradi. Qayd etish lozimki, ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda progressiv soliq stavkasi deganda faqat jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha stavkalar keltiriladi. Bundan tashqari, progressiv soliq stavkalaridan davlat tartibga soluvchi vosita sifatida ham keng foydalanadi, masalan, respublika soliq qonunchiligiga muvofiq me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan yuridik shaxslarning mol-mulkiga belgilangan stavkaning ikki baravari miqdorida soliq undirish belgilangan bo'lib, 2008-yildan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i stavkasi 3,5 foiz bo'lgani holda, ularning me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan mol-mulkidan 7 foiz miqdorida soliq undiriladi.

Progressiv soliq stavkasining ikki turi mavjud: oddiy progressiya va murakkab progressiya. Oddiy progressiyada soliqning orttirilgan stavkasi soliqlarga tortiladigan barcha obyektga nisbatan qo'llaniladi, murakkab progressiyada esa soliqlarga tortish obyektini qismlarga bo'linadi, ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqlarga tortiladi, ya'ni orttirilgan stavkalar butun obyektga nisbatan emas, balki bundan oldingi bosqichdan ortgan qismiga nisbatan qo'llaniladi. Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq stavkalari murakkab progressiya hisoblanadi.

Progressiv soliq stavkasining kamchiligi shundaki, bu soliq stavkalari soliq to'lovchilarning daromad olish manfaatdorligini rag'batlantirmaydi, shuning uchun progressiv soliq stavkalarini qo'llaganda muayyan chegaraga qadar soliq stavkasini oshib borishini ta'minlagan holda so'ngra regressiv soliq stavkalarini joriy etish soliq to'lovchilar manfaatlariga mos keladi. Shuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, progressiv soliq stavkalari davlat tomonidan iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solishda alohida ahamiyatga ega.

Soliq stavkalari haqida gapirganda, proporsional soliq stavkasi uchun neytral holat xarakterli bo'lsa, progressiv soliq stavkasi soliqlarning fiskallik xususiyatini xarakterlaydi, ya'ni progressiv soliq stavkalarida budjet manfaati ko'proq yuzaga chiqadi. Shu jihatdan soliqlardan adolatlilik tamoyilining amal qilishini ta'minlash maqsadida regressiv soliq stavkalaridan foydalaniladi.

Regressiv soliq stavkasida soliq to'lovchining soliqqa tortiladigan daromadi, oboroti, mol-mulk qiymati kabi soliq obyektining ortib borishi bilan soliq stavkasining kamayib borishi ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, regressiv soliq stavkasi progressiv soliq stavkasiga nisbatan teskari hodisani ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida regressiv soliq stavkasi, asosan, soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish maqsadida qo'llanilib, bu asosan korxonalarining mahsulot (xizmat, ish)ni chetga eksport qilishini rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan. Jumladan:

Foyda solig'i bo'yicha:

Eksportchi korxonalar uchun realizatsiyaning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqargan tovarlar eksportining erkin konvertatsiyalanadigan valutaga eksport qilish ulushiga bog'liq holda daromadga soliq solishning regressiv shkalasi amal qiladi. Eksport ulushi:

- realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo'lganida belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;
- realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p bo'lganida belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha, ham shu tartib amal qiladi.

Respublikamiz soliq tizimida eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qator imtiyozlarning mavjudligi milliy

tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon yagona soliq stavkalarini joriy etish to'g'risida bahsli munozaralar davom etib kelayapti.

Bu qarashlarni rus olimlari A. Abalkin, P. Bunich va boshqalarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin. Ularning qayd etishlariga ko'ra korxonalar foydasidan olinadigan soliq uchun yagona stavka joriy qilish bozor munosabatlariga o'tayotgan davlatlar uchun maqbul va yagona yo'l ekanligini ta'kidlaydi. Fikrining isboti tariqasida yagona stavkani joriy qilishning to'rt sababini ajratib ko'rsatadi:

1. Xo'jalik mexanizmining yagonaligi.

2. Kapitalni sarflash sohalarining soliq munosabatlariga nisbatan tengligi, bu kapitalni erkin harakat qilishi uchun asos yaratadi.

3. Barcha korxonalarining soliq to'lovchilar sifatida davlat oldida teng huquqliligi.

4. Bozordagi raqobat kurashida sharoitlarning tengligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunga qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Ana shunday fikrlarga ko'ra, barcha korxonalar uchun yagona stavkada foydadan soliq olish maqsadga muvofiq emasdir. Korxonalarining turlicha moliyaviy sharoitda bo'lgan hozirgi davr holatida yagona stavkani qo'llash korxonaning moliyaviy ehtiyojlari bilan davlat manfaatlari yuzasidan keskin qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar soliq tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular amaliyotida soliq stavkalarini tabaqalashtirilgan holda qo'llanilishini guvohi bo'lish mumkin.

Chunki, soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini yuzaga chiqishi, asosan, uch xil ko'rinishda yuzaga chiqadi. Bular soliq imtiyozlarini amalga oshirish (soliq obyektini kamaytirish), soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish hamda soliq stavkalarini tabaqalashtirish hisoblanadi.

Qayd etish joizki, soliq stavkalarini tabaqalashtirish soliq tizimi hamda iqtisodiyotning real sektori uchun ham foydali bo'lsada, ammo bu jarayonda eng asosiy muammo soliq stavkalarini tabaqalashtirish masalasi hisoblanadi.

Agar, soliq stavkalarini tabaqalashtirishda to'g'ri va egri soliqlar holatiga e'tibor beradigan bo'lsa, egri soliqlarga nis-



batan to'g'ri soliqlarda soliq stavkalari ko'proq tabaqalashgan. Buning asosiy sababi, soliqlarning rag'batlantiruvchilik roli, asosan, to'g'ri va egri soliqlar orqali yuzaga chiqishi, shunga asoslangan holda soliq stavkalarini tabaqalashtirishda to'g'ri va egri soliqlar orqali korxonalarini turli xil faoliyat bo'yicha rag'batlantirish hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq xo'jalik yurituvchi subyektlardan, asosan, suv manbalaridan tejabtergab foydalanish hamda davlat budjetini daromad bilan ta'minlash sifatida kiritilgan bo'lib, uni tabaqalashtirishda ikki xil yondashuv amalga oshirilgan, ya'ni suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq stavkalari sohalar va suvlarni paydo bo'lish manbalariga ko'ra tabaqalashtirilgandir.

To'g'ri soliqlar jumlasiga kiruvchi mol-mulk solig'i ham korxonalarining o'z tasarrufidagi va foydalaniladigan mol-mulklarining samarali foydalanishga undash va budjet manfaati nuqtayi nazaridan kiritilgan bo'lib, mol-mulk solig'i bo'yicha soliq, asosan, proporsional holda o'rnatilgan bo'lib, u hozirgi kunda (2008-yilda) 3,5 foizlik stavkada belgilangandir.


Shuningdek, to'g'ri soliqlardan biri hisoblangan yagona soliq to'lovi kichik biznes subyektlari uchun alohida soliq turi bo'lib, u bo'yicha belgilangan soliq stavkalari ham tabaqalashgan. Bunda soliq stavkasining tabaqalashtirish mezonini asosan korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati sohalarini bo'yicha berilgan. Ya'ni, tayyorlov va ta'minot korxonalarini uchun yalpi daromadga nisbatan 33 foiz, sanoat va boshqa sohalar uchun 10 foiz, qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun esa 6 foiz qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida to'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqlar ham amal qilib, ushbu soliq turlari bo'yicha ham tabaqalashtirilgan soliq stavkalari qo'llaniladi (1.3.2-chizma).

Qo'shilgan qiymat solig'i eng asosiy soliq turlaridan biri bo'lib, bu asosan, oborotdan olinadigan va sotuvdan olinadigan soliqlarning o'rniga kiritilgan. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha dastlabki yilda 32 foizli stavka qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda umumiy tartibda 20 foizlik va nollik stavka bo'yicha soliq undirilmoqda.

Egri soliqlarning yana bir turi bo'lgan aksiz solig'i bo'yicha ham tabaqalashtirilgan soliq stavkalari qo'llanilgan

bo‘lib, bu soliq turida soliq stavkalarini tabaqalashtirishda boshqa soliqlardan farqli ravishda soliq stavkalari soliq to‘lovchilarning ishlab chiqarish faoliyati sohalar yoki soliq to‘lovchilarning joylanishiga qarab emas, balki aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ro‘yxati bo‘yicha tabaqalashtirilgan.



*1.3.2-chizma. Soliq stavkalarini belgilash mezonlari.*

Umuman olganda, soliq stavkalarini tabaqalashtirish soliq tizimining eng muhim asosiy muammolaridan biri bo‘lib, o‘ta nozik va katta ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi, chunki unda davlat budjeti va soliq to‘lovchilarning manfaatlari aks etgan hisoblanadi.

### **Soliq imtiyozlari**

Jahon soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri — bu soliq imtiyozlaridir. Har qanday davlat uning xo‘jalik yuritish tizimi qanday bo‘lishdan qat’i nazar davlat budjetini daromadlar bilan ta’minlashda asosiy vositalardan biri — bu soliqlar va soliqsiz to‘lovlardir. Ammo joriy etilgan soliqlar

sof fiskal shaklda o‘rnatilishi mumkin emas. Chunki faqat budjet manfaati nuqtayi nazaridan o‘rnatilgan soliqlarni amal qilishi uzoq vaqtni o‘z ichiga olmaydi. Shuning uchun muayyan darajada soliq imtiyozlaridan foydalanish taqozo etiladi.

Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

— *birinchidan*, soliq imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq to‘lovchi (yuridik va jismoniy shaxs)larning jamiyatda tutgan mavqeyi, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma‘noga ega bo‘lmaydi;

— *ikkinchidan*, davlat iqtisodiyotga ta‘sir etib, uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri — bu jamiyatdagi ba‘zi muhim sohalarini yoki soliq to‘lovchilarning faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya‘ni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bundan ko‘rinadiki, soliq imtiyozlari davlatni o‘z funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

— *uchinchidan*, soliq imtiyozlari qo‘llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya‘ni, bundan soliqlar sifatida budjetga jalb etilishi lozim bo‘lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli budjetga jalb etilmasdan soliq to‘lovchilarning o‘zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to‘lovlarini budjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag‘batlantirishga erishiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq islohotlarini samarali yuritish maqsadida soliqlar vositasida ta‘sir etish, ular bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash, iqtisodiyotning turli sohalarini bir tekis rivojlanishini ta‘minlash bilan bog‘liq tadbirlar amalga oshiriladi. Davlat soliq imtiyozlarini qo‘llash orqali iqtisodiyotning turli sohalariga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni ayrim rentabelli va norentabelli sohalar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash muammosi yuzaga keladi.

Qayd etish joizki, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Soliq imtiyozlarining mohiyatini to'laroq anglab yetish uchun, avvalo, ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.

Q. Yahyoyev fikriga ko'ra «Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir».<sup>1</sup> Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta'kidlashicha soliq imtiyozi degan termin o'rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi.<sup>2</sup> Sh. Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)».<sup>3</sup>

T. Malikovning ta'kidlashicha soliq imtiyozlari deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi.

Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish, soliqqa tortish obyektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko'rinishlaridir (turlaridir). Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta'minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag'batlantirishga qaratilganidir. Individual xarakterga ega bo'lgan imtiyozlarni berish, odatda, taqiqlanadi.<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> *Yahyoyev Q.* Soliq. T.: «Mehnat», 1997-y. 20-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> *Gataulin Sh.* Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996-y. 74-bet.

<sup>4</sup> *Malikov T.* Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: 2000-y. 76-bet.

Soliqlarning va ular bo'yicha beriladigan imtiyozlarning mavjudligi doimo davlat vujudga kelishi bilan bog'lanib kelingan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta'kidlanishicha «Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo'lishidir».<sup>1</sup>

Agar, Temur tuzuklarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq soliq to'lovchilardan soliqlarni aralashli undirish soliq siyosatining diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklarida» keltirilishicha «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki poliz qilsa, yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonunqoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin».<sup>2</sup> Bundan ko'rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog'liq bo'lib, unda soliq imtiyozlari bilan budjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan.

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotida soliq imtiyozlarining tutgan o'rni ingliz iqtisodchisi J. Keyns nazariyasida alohida o'rinni egallaydi. Keynschilar tomonidan soliq tizimi, aniqrog'i soliq imtiyozlari makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta'sir etish va budjetning daromad qismini to'ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin g'arb davlatlarida neoklassik yo'nalish, institutsional — ijtimoiy yo'nalish talablariga mos tarzda soliqqa tortish tizimida imtiyozlar nazariyasiga ancha e'tibor berildi. Mazkur iqtisodiy maktablar nazariy yondashuvlaridagi tub farqlar bo'lishiga qaramay ularning vakillari umumiy tarzda soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni tartibga solish vositasi sifatida qaraganlar. Iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlari rolini ular quyidagicha ifodaladilar edi: agar u yoki bu davlatning iqtisodiyoti ortiqcha ishlab chiqarish bilan xususiyatlanuvchi o'sish davrini o'tayotgan bo'lsa, u holda davlat soliq imtiyozlarini kamay-

---

<sup>1</sup> Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991-y. 98-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

tirish, ya'ni soliqlarni ko'paytirish, soliqqa tortishni kuchaytirish orqali korporatsiyalar bo'sh mablag'larini ko'proq budjetga jalb qilish lozim, deb hisoblaganlar. Agar mamlakat iqtisodiyoti turg'unlik holatini kechirayotgan bo'lsa, iqtisodiyotni jonlantirish uchun qo'shimcha sarmoya jalb qilish lozim. Bunda soliq imtiyozlaridan ham keng foydalanish zarurati tug'iladi, degan xulosaga kelishgan. Bu holatda iqtisodchilar davlatga, soliq miqdorini kamaytirish, soliq imtiyozlarini ko'paytirishni maslahat beradilarki, bu narsa budjetga qo'shimcha mablag'lar va kapital qo'yilmalar uchun mablag'lar tug'ilishiga imkoniyat tug'diradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa dastaklari qatori soliq siyosati talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikka erishish orqali iqtisodiyotda barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan. G'arb iqtisodchilari soliq tizimining ahamiyatini davlat faoliyatini amalga oshirish uchun uni zarur moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash sifatida ifodalanuvchi sof fiskal vazifa bilan cheklab qo'ymaydilar. Ularning soliq imtiyozlari nazariyasida soliqlarni tartibga solish vazifasiga katta e'tibor beradilar. Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy xulq-atvoriga davlat ta'sirini ifodalaydilar. Ammo bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan.

Soliq imtiyozlarini belgilash asosida ishlab chiqarishni rag'batlantirish, chet el investitsiyalari kirib kelishini ta'minlash, ijtimoiy himoyalashni tashkil etish, turli sohalarni rivojlanishiga aktiv ta'sir etish muammosi yotadi. Shu o'rinda soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari xalqaro soliq munosabatlariga mos kelishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning faol ishtirok etishida moslashuvchan bo'lishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo'lib yuzaga chiqadi.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag'batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari rag‘batlantirish va samarali qo‘llanilishiga qarab quyidagi ko‘rinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan korxonalariga imtiyozlar berish;
- soliq to‘lashdan vaqtincha ozod etish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Soliq imtiyozlari vositasida iqtisodiyotni boshqarish, davlatni shunday faoliyati bilan bog‘liqliki, u takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblikni yo‘qotish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, agar soliqlarning ba‘zi tizimi ishlab chiqarishni tartibga solishning davlat strategiyasini aniqlasa, taktikasi soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini soliq subyekti, soliq obyekt, soliqlarni undirish vositalari, muddatlari nuqtayi nazaridan bir necha guruhlarga (turlarga) bo‘lish mumkin.

Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar bo‘yicha guruhlash mumkin. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda. Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash bo‘yicha umumiy o‘xshashliklar mavjudligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ya‘ni, barcha qonun hujjatlarida soliq turlari bo‘yicha imtiyozlar asosan quyidagi shakllarda namoyon bo‘ldi:


- soliqdan batamom ozod etish;
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida belgilangan soliq imtiyozlarini quyidagicha guruhlash mumkin (1.3.3-chizmaga qarang).

1.3.3-chizmadan ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarining eng so‘nggi turi bu soliq solish usulini tanlash huquqidir. Bu imtiyoz faqat Soliq Kodeksiga muvofiq berilgan bo‘lib, avvalgi soliq qonunchiligida bu imtiyoz ko‘zda tutilmagan edi. Bu imtiyoz turining mohiyati, asosan, kichik biznes

subyektlariga soliq solishning u yoki bu turini tanlash huquqi berilganligi bilan ifodalanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida soliq tizimini takomillashtirib borishda, xorijiy mamlakatlarda soliq stavkalarining qo'llanish mexanizmidan foydalanish, soliqlarni to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.




1.3.3-chizma. Soliq imtiyozlarining turlari.



Ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalar, ilmiy tekshiruv va tajriba konstruktorlik ishlarini rag‘batlantirish va tartibga solishda davlat tomonidan soliq imtiyozlaridan keng foydalaniladi. Soliq imtiyozlari rag‘batlantirish va maqsadga muvofiq yo‘llanilishiga qarab quyidagilarga bo‘linadi. Bular ayrim korxonalar va tashkilotlarni butunlay soliq to‘lashdan ozod etish hamda yangi tuzilgan korxonalar uchun soliq to‘lash bo‘yicha imtiyozlar berish. Bu imtiyozlar ishbilarmonlik va tadbirkorlik (agar mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan bo‘lsa) rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi.

Soliq imtiyozlarini qo‘llash mexanizmidagi eng murakkab jarayon bu soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini adolatli tarzda belgilash hisoblanadi. Ammo qayd etish joizki, soliq imtiyozlarini belgilash jahon amaliyotida



*1.3.4-chizma. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari.*

har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va shu jihatdan u turli davlatlarda turlicha bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarini belgilash muayyan mezonlar asosida amalga oshirilgan. Soliq imtiyozlarini soliq to‘lovchilarning ijtimoiy holatiga, respublikada qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, soliq to‘lovchilarning importning o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va mahsulotni eksport qilish darajasiga hamda davlatlar o‘rtasidagi halqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanib belgilangandir. Soliq imtiyozlarining mezonlarini to‘g‘ri, obyektiv aniqlash soliqlarining adolatlilik tamoyilini ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

### **Soliqlarni undirish usullari**

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uchta usuli mavjud:

1. *Kadastrli.*

2. *Daromad manbayidan.*

3. *Daromad egasi daromadni olganidan so‘ng (deklaratsiya bo‘yicha).*

Birinchi usul bevosita real soliqlarni hisoblash uchun foydalaniladigan obyektlar (yer, imoratlar va shu kabilar)ning bahosi va o‘rtacha daromadliligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan kadastr yoki reyestrda foydalanilishini taqozo etadi.

Yer kadastrini tuzishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylashgan joyi, foydalanilishi va boshqa belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o‘rtacha daromadliligi belgilanadi. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliqni to‘lashning kadastrli usulining o‘ziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko‘rsatish kerakki, soliqning to‘lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog‘liq bo‘lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinadigan daromadliligining tashqi belgilari asosida baholanadi. Kadastrli usulda shaharlar va shahar qo‘rg‘onlarida yer solig‘i stavkalarini ishlab chiqishga ular hududini shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo‘yicha kompleks tarzda baholash asos qilib olingan.

Obyektning ana shunday belgilarga asoslanadigan o'rtacha daromadliligi uning haqiqiy daromadliligidan jiddiy farqlanishi mumkin, shuning uchun bunday usul ko'p jihatdan tarixiylik tusiga ega bo'lishi mumkinki, undan soliq tizimi uncha rivojlanmagan holatda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerlarning unumdorligi (boniteti) hisobga olingan holdagi yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida har yili yangidan tasdiqlanadi.

Ikkinchi usulda soliqni soliq subyektiga daromadni to'laydigan yuridik shaxs hisoblaydi va ushlab qoladi. Ishchining ish haqidan, xizmatchining maoshidan daromad solig'i shu tariqa undiriladi. Soliq korxonada xodimning daromadni olguniga qadar ushlab qolinadi, bu soliqni to'lashdan bo'yin tovlashni istisno qiladi, chunki buxgalteriya soliq solinadigan daromadni va soliq summasini aniq hisob-kitob qilib chiqadi. Bunday munosabatlarda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar ko'pincha fiskal agent yoki soliq agenti sifatida qaraladi.

Soliqning daromad manbayida to'lanishi shuni anglatadiki, soliq uni deklaratsiyalar bo'yicha to'lashdagi singari soliq idorasi tomonidan hisoblanib ushlab qolinmaydi, balki uni yuridik va jismoniy shaxs foydasiga to'lovni amalga oshiradigan fiskal agentlar to'lov manbalari (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, boshqa ish beruvchilar)da hisoblaydilar va ushlab qoladilar.

Uchinchi usul soliq to'lovchilarning soliq idoralariga deklaratsiyalarni, ya'ni ularning olgan daromadlari va o'zlariga tegishli bo'lgan soliq imtiyozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishni nazarda tutadi. Soliq idoralari soliq deklaratsiyasi va amaldagi soliqqa tortish stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdorini nazorat qiladilar. Soliq deklaratsiyasi asosida, odatda, tadbirkorlik faoliyatidan, dehqon (fermer) xo'jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar, shuningdek, intellektual faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar (fan, adabiyot, san'at asarlarining mualliflari, kashfiyotlar, ixtirolar mualliflari, sanoat namunalari yaratuvchilari va hokazo) daromadlari soliqqa tortiladi.

## O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Soliq elementlari tarkibiga nimalar kiradi?
2. Soliq obyekti nima?
3. Soliq agenti deganda kimlarni tushunasiz?
4. Soliq stavkalari nima va u qanday turlarga bo'linadi?
5. Proporsional soliq stavkalariga misollar keltiring.
6. Progressiv soliq stavkalariga qaysi soliq turlarini kiritish mumkin?
7. Soliq imtiyozlari qanday turlarga bo'linadi?
8. Soliq imtiyozlari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
9. Soliq undirishning qanday usullari mavjud?
10. Soliqlarni kadastrli undirishning o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?

### 1.4. SOLIQQA TORTISH TAMOYILLARI

Soliqlarning funksiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'p-lab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergan:

1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2. Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqti va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

3. Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

4. Har bir soliq shunday tarzda o'rnatilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat budjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

### **Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyili**

Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyiliga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalaridagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlashi lozim. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni chog'da o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo'llarining holati yaxshi saqlanishini ta'minlash bilan soliq to'lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog'liqni saqlashni ta'minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo'ladi. Shunday qilib, to'langan soliqlarning faqat xizmatlar ko'rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanadi. Umuman olganda, yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'i ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

### **Soliqqa tortishning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili**

Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo'lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdagi iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdan manfaatdorligiga putur yetkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug'iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zaxiralar, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga, ilgari to'plangan mablag'larning yeyilib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo'lgan iste'molning minimal hajmlariga salbiy ta'sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag'batlarning harakat doirasini toraytirib qo'ysa, uchinchidan, jamg'arma miqdorini kamaytirs va mablag'ning to'planish jarayonini sekinlashtirsa ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin.

Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimlarning malaka oshirishga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi.

Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliqlar tortishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste'molga qarab soliqlar tortishni ko'zda tutgan soliq islohoti o'tkazilmoqda. Soliqlar tortishning salbiy ta'sirini silliqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jamg'arish va investitsiyalashga soliqlarning ta'sir etishi borasida ham muayyan natijalarga erishilmoqda.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat budjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

### **Soliqlar tortishning adolatlilik tamoyili**

Soliqlar tortishning adolatlilik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatlilik deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyili bir qancha

asosiy guruhdagi soliqqa tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Vertikal adolat deganda, xo'jalik yuritishning birmuncha og'ir sharoitlarida ishlayotgan subyektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar uchun esa og'irroq shartlarni qo'llash tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo'yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki aksincha, vino-arog va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo'ladi.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin. Agar soliqlarni to'plangan soliqlar hisobidan ro'yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko'radigan shaxslar to'lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, respublika yo'l jamg'armasiga tushadigan mablag'ni davlat katta yo'llarni ta'mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan jamg'armaga ajratmalarni to'lovchilarning o'zlari — avtomobil egalari naf ko'radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo'riqlashdan aniq ravishda kim ko'proq foyda ko'rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog'liqni saqlash dasturlaridan, asosan, ko'p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o'zidan undirishni talab qilish adolatdan bo'lmaydi, albatta.

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo'llaniladi, unga ko'ra to'lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to'lovchining daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, undan shuncha ko'p miqdorda soliq undiriladi. Bu

gapning ma'nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas'uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kam daromadlilarga nisbatan ko'proq to'lashga qodirdirlar. Aslini olganda, o'ziga to'q kishilar ta'lim berish va xizmat ko'rsatish yaxshiroq yo'lga qo'yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to'lov qobiliyati konsepsiyasi AQSH soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur konsepsiyasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha baravar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badavlat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq katta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissani to'laydimi? Afsuski, aniq bir odamning soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar mavjud emas.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravrlashtirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillar qadriyatlarining ijtimoiy tizimida qat'i amal qilmog'i lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, iste'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.



### **Soliqqa tortishning oddiylik va xolislik tamoyili**

Bu tamoyil soliqlar tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek, soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Ba'zi sohalarda paydo bo'ladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyojni qondirishni budjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

### **Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyili**

Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqlar tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Ma'muriy boshqaruvchilik bilan soliqlar tortish tamoyillarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan maqsadga erishish o'rtasida muvozanat saqlanib qolishi nihoyatda muhimdir. Murakkab tuzilgan choralarning samarasi kam bo'ladi,

ularni amalga oshirishdagi muvaffaqiyat ko'pdan ko'p axborot to'plash va undan foydalanishga bog'liq. Soliq xizmati va soliq madaniyatining rivojlanganlik darajasini ham hisobga olish kerak.

**Soliqqa tortishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili**

respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llanish orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

**Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili**

xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat budjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida esa soliqqa tortish tamoyillari o'rniga soliq qonunchiligi prinsiplari berilib, ular quyidagilardan iborat:

— har bir shaxs Kodeksda belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga majburdir (6-modda), ya'ni soliq to'lash qonun bilan majbur qilib qo'yiladi. Aslida majburiylik soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi;

— soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va majburiy to'lovlarni qachon, qan-

Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun

Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos

cha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak (7-modda);

— soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak (8-modda). Huquqiy shaxslarni soliqqa tortish mulkchilik shaklidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat'i-nazar qonun oldida tengdirlar;

— soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir (9-modda);

— soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart (10-modda).

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi prinsiplari ma'lum o'xshashlikka ega bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliqqa tortish tamoyillarini kim ilk bora asoslab bergan?
2. Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyilining mohiyatini ochib bering.
3. Soliqqa tortishning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyilini tushuntiring.
4. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili nima va siz uni qanday tushunasiz?
5. Soliqqa tortishning oddiylik va xolislik tamoyili nima va unga sizning munosabatingiz?
6. Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyilining mohiyati nimada?
7. Soliqqa tortishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili deganda nimani tushunasiz?
8. Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyilini tushuntiring.
9. Soliq kodeksining qaysi moddasida soliqqa tortish tamoyillari keltirilgan?
10. Soliq kodeksida belgilab berilgan soliq tamoyillarining mohiyatini tushuntiring.

### **I bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1.1., 3.4., 3.8., 3.11., 3.12., 3.13., 3.19., 3.35., 3.36., 3.41., 3.42., 3.47., 4.4., 4.34., 4.38., 4.42., 4.43., 6.9.

### 2.1. SOLIQLAR VA SOLIQLARGA TENGLASHTIRILGAN TO‘LOVLARGA UMUMIY TAVSIFNOMA

#### **Umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar**

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi soliqlar tizimi deb tushuniladi. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi hamda ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi moliya yili uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va davlat budjeti prognozi to‘g‘risidagi maxsus qarori asosida belgilangan normativlar bo‘yicha tegishli mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

7) ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:

- yagona ijtimoiy to‘lov.

Bu to‘lov o‘z navbatida quyidagi jamg‘armalarga taqsimlanadi: pensiya jamg‘armasiga, bandlik jamg‘armasiga va kasaba uyushmasi jamg‘armasiga.

- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;

● budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar;

8) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:

● Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

● Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

9) davlat boji;

10) bojxona to'lovlari.

*Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan umumdavlat soliqlari:*

11) yagona soliq to'lovi;

12) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'i belgilangan soliq.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1) mol-mulk solig'i;

2) yer solig'i;

3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

6) yagona yer solig'i (soddalashtirilgan tartibdagi soliq).

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lovchisi bo'lib O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig'i va yer solig'i O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi. Ushbu soliqlar va yig'imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni umumiy, qat’i stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalari soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan budjet bilan hisob-kitoblar hisobi budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobvaraqlarida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar har bir turi bo‘yicha yuritiladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Mahalliy soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lanishining tasdig‘i bo‘lib amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank muassasasi yoki vakolatli organ bergan hujjat hisoblanadi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo‘linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo‘linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o‘zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o‘z budjetiga va uni ta‘minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to‘lovlarga ega bo‘lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog‘liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning budjeti ham,

solliqlari ham salmoqli bo‘lishni talab etadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika budjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Bordi-yu, ajratma yetmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo‘lib, ular budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to‘liq birlashtirib beriladi. Mahalliy hokimiyat organlari, asosan, fuqarolarga yaqin bo‘lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, jumladan, maktab, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ularning budjet xarajatlarining 30—40 foizini qoplaydi, xolos.

Shuning uchun ham mahalliy budjetlar daromadlarini ko‘paytirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning budjetiga tushadi va ulardan boshqa budjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy budjetlarning soliq va boshqa majburiy to‘lovlari kam bo‘lganligidan bu budjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani yechishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar beriladi (masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘idan, aksiz solig‘idan va boshqalar).

### **Soddalashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan yuridik va jismoniy shaxslar**

O‘zbekiston soliq tizimida soddalashtirilgan (ixchamlashtirilgan) soliq tizimiga o‘tgan yuridik va jismoniy shaxslar ham mavjud

bo‘lib, ular quyidagi soliqlarni to‘laydilar:

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi to‘lanishini nazarda tutuvchi soliq solish tizimi qo‘llanilishi mumkin. Aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan, shuningdek, foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik

korxonalar Soliq kodeksida (350-modda) belgilangan tartibda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar to'laganlari taqdirda yagona soliq to'lovi ularga tatbiq etilmaydi. Yagona soliq to'lovi to'lovchilarda import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini va qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash majburiyati ham saqlanib qoladi.

2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bundan mustasno), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, boshqa mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar (mol-mulk solig'i, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im bundan mustasno) o'rniga budjetga 2007-yil 1-yanvarga qadar yalpi daromad solig'i to'lar edilar. 2007-yil 1-yanvardan boshlab esa savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad va mol-mulk soliqlarining o'rniga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqsiz yagona soliq to'lovini to'lash rejimiga o'tkazildi.

3. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari aksiz solig'ini va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilganlik uchun qo'shilgan qiymat solig'ini istisno etganda, amaldagi barcha umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'implar o'rniga o'zi yetishtiradigan qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha yagona yer solig'ini to'laydilar. Yagona yer solig'ini to'lash tartibi va stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha soliq solishning o'zi belgilagan stavkalar bo'yicha soliqning qat'i belgilangan summasini to'lashni nazarda tutuvchi alohida tartibini belgilashi mumkin.

5. Konchilik sanoati tarmoqlarining ayrim korxonalari uchun qo'shimcha foyda solig'i to'lanishini nazarda tutadigan foydaning bir qismiga soliq solishning alohida tartibi joriy etilishi mumkin. Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar, uni to'lash tartibi va soliq stavkalari O'zbekiston



Respublikasi Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

6. Lotereyalar, totalizatorlar va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq o'rniga yalpi tushumdan yagona soliq to'lovini to'laydilar. Yalpi tushumdan yagona soliq to'lovi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliqlar tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Soliqlar qaysi davlat organi tomonidan joriy qilinadi?
3. Umumdavlat soliqlari tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
4. Mahalliy soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
5. Qaysi soliqlar mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlanadi va qanday tartibda?
6. Qaysi mahalliy soliqlar O'zbekiston Respublikasining butun hududida undiriladi?
7. Qaysi mahalliy soliqlar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi?
8. Soddalashtirilgan soliq tizimiga qanday yuridik va jismoniy shaxslar o'tgan?
9. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qachondan boshlab yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanishadi?
10. Budjetdan tashqari jamg'armalarni sanab bering.
11. Yagona ijtimoiy to'lov qaysi jamg'armalar o'rtasida taqsimlanadi?
12. Soliqlarni umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada deb o'ylaysiz?

## **2.2. SOLIQLARNING GURUHLANISHI**

### **Soliqlarning guruhlariga ajratilishi**

O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir necha guruhlariga ajratib o'rganish mumkin.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.

2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji va yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgorigidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i, yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

#### **To'g'ri va egri soliqlarning tarkibi va ularning budjet daromadlaridagi ahamiyati**

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri, soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklatish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan to'lanadigan soliqlar va mol-mulk (resurs) soliqlari kiradi.

To'g'ri soliqlardan to'g'ridan to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi va oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi

solliqlarning stavkalari to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liqdir.

Egri soliqlarni huquqiy to‘lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin soliq og‘irligini haqiqatan ham budjetga to‘lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste‘mol qiluvchilardir, ya‘ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste‘molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo‘shimcha ravishda qo‘yiladi.

Egri soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo‘lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir etmaydi, ya‘ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi ilmiy asoslanmasdan oshirib yuborilsa, bunday holatda korxonalar o‘z tovarlarini sotish qiyinchiligiga duch kelishlari mumkin.

Jahon soliq amaliyotida Davlat budjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri va egri soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan, AQSHda budjet daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlar salmog‘ining 90 foizga yaqin bo‘lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

2.2.1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlarning o‘rni<sup>1</sup>**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						2006-yilda 2002-yilga nisbatan o‘zga- rishi, punktda
		2002	2003	2004	2005	2006	2008 prog.	
1.	Davlat budjeti daromadlari — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
2.	Shu jumladan: to‘g‘ri soliqlar	40,6	37,8	37,7	34,6	35,8	42,4	-4,8

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

Quyidagi 2.2.1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi budjet amaliyotida to‘g‘ri soliqlarning tarkibi va undagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan.

Keltirilgan ma‘lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2002—2006-yillar mobaynida to‘g‘ri soliqlarning mamlakat davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, xalqaro budjet amaliyotida shakllangan tendensiyalar nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, mazkur tendensiyalarga muvofiq, bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘g‘ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i barqaror tarzda saqlab turilishi yoki o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishi lozim. 2008-yilda 2006-yilga nisbatan 6,6 punktga o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi xalqaro budjet amaliyotiga mos kelayotganligidan dalolat beradi.

Egri soliqlar tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona boji, jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun soliqlari kiradi.

2002—2008-yillar mobaynida egri soliqlarning O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan (2.2.2-jadval).

Mazkur tendensiyaning mavjudligi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati nuqtayi nazari-dan ijobiy hisoblanadi. Buning sababi shundaki, qo‘shilgan

2.2.2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning o‘rni<sup>1</sup> (foizda)**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						2006-yilda 2002-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
		2002	2003	2004	2005	2006	2008 prog.	
1.	Davlat budjeti daromadlari — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
2.	Shu jumladan: — egri soliqlar	46,1	45,6	51,9	54,6	57,8	50,2	+4,1

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

qiymat solig'i va aksiz solig'i iqtisodiy konyunkturaning o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo'yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat budjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi barqaror daromad manbalarini budjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog'ini ta'minlashni taqozo qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25—30 foizni tashkil qiladi.<sup>1</sup>

### **Yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'implar**


O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar va yig'implarning hal qiluvchi asosiy qismini yuridik shaxslarning soliqlari va boshqa majburiy to'lovlari tashkil etadi. Yuridik shaxslar quyidagi umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar (2.2.1-chizma).

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmaganlar va chet el mamlakatlari

---

<sup>1</sup> *Пансков В. П., Князев В. Г. Налоги и налогообложения. — М.: МЦФЭР, 2003. — с. 57—59.*




**2.2.1-chizma. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Soliq kodeksi asosida ishlab chiqildi.

fuqarolari kiradi. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to‘lovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga bo‘lingan. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar davlat budjeti daromadlarining 20—25 foizini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning tog‘ridan to‘g‘ri o‘z daromadidan olinadi. Ular to‘laydigan soliqlar va yig‘imlar asosan budjetga naqd pul to‘lash yo‘li bilan o‘tkaziladi (2.2.2-chizma).



2.2.2-chizma. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar.

Jismoniy shaxslar davlat budjetiga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi:

- jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganligi uchun soliq;
- jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda daromadiga o'rnatilgan qat'i stavkadagi soliq;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar.

**Soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari**

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti va soliq haqidagi

qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari orqali tartibga solib turiladi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rin olgan normalari Soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq Kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.

Soliq solish — yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilishi kerak.



O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasining pul birligi — so‘mda hisoblab chiqariladi.

*Amaldagi Soliq kodeksiga ko‘ra soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:*

- Soliq organlaridan soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo‘yicha axborot va maslahatlar olish.

Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlari ro‘yxatdan o‘tgan quyi davlat soliq xizmati organlariga borib, budjet oldidagi o‘z majburiyatlarini xatolarsiz bajarish maqsadida tegishli axborotlarni yoki maslahatlarni bepul olish imkoniyatlariga ega.

- Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda va asoslarda soliq imtiyozlaridan foydalanish.

Soliq to‘lovchilar nafaqat Soliq kodeksida balki, Vazirlar Mahkamasining yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qaror va Farmonlarida ko‘zda tutilgan imtiyozlardan ham foydalanish huquqlariga egadirlar. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabrdagi 390-sonli «Bozorni iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirishni rag‘batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga, asosan, xalq iste‘moli tovarlari ishlab chiqaruvchi mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha korxonalar belgilangan foyda solig‘idan 20 foiz miqdorida imtiyozga egadirlar.

- Budjetga ortiqcha miqdorda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasini qaytarish to‘g‘risida yozma ariza bilan murojaat qilish.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, gohida soliq to‘lovchilarning o‘zlari, gohida esa soliq idoralarining ongli harakatlari tufayli soliqlar va yig‘imlardan ortiqcha to‘lovlarni undirish amalga oshiriladi, ayniqsa, chorak yakuni yoki moliyaviy yil yakunlanayotgan vaqtda ayrim soliq turlaridan prognoz-rejalarni bajarish maqsadida korxonalarining bankdagi hisob raqamlaridan inkassa topshiriqnomasi orqali qonunchilikka zid ravishda majburiy undirish holatlari ko‘p uchrashi mumkin. Budjetga ortiqcha undirilgan soliqlar 30 kun muddat ichida soliq to‘lovchilarga qaytarilishi yoki boshqa soliqlar va yig‘imlardan qarzi mav-

jud bo'lgan holda o'sha qarzni qoplash imkoniyati paydo bo'ladi.

● Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha budjet oldidagi o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma'lumotlar bilan tanishish.

Ushbu bandga muvofiq soliq to'lovchilar quyi soliq idoralariga berilgan soliq turlari bo'yicha belgilangan prognoz-reja va shu kabi xo'jalik va moliyaviy faoliyatlariga tegishli bo'lgan soliqqa tortish masalalari bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatlariga egadirlar.

● Soliq organlari o'tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda soliq organiga o'zining yozma e'tirozlarini o'n kunlik muddat ichida taqdim etish.

Soliq to'lovchilar faoliyati soliq organlari tomonidan tekshirilganda aniqlangan xato va kamchiliklar, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, hisoblangan moliyaviy jarimalar to'g'risida tuzilgan dalolatnoma korxonalar mansabdor shaxslariga (bosh hisobchisiga) tanishtirilishi shart. Tekshirish natijalarini korxonalar rahbariyati nohaq deb hisoblashi hamda e'tiroz bildirishi ham mumkin. Bunday holatda, soliq to'lovchi soliq idorasi rahbariyati nomiga yoxud yuqori soliq idoralariga yozma murojaat qilishlari mumkin. Soliq idoralarida ekspert komissiyasi tuzilgan bo'lib, ushbu komissiya tomonidan soliq to'lovchilarning yozma e'tirozlari bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi va natijasi arizachiga bildiriladi. Bunday holatda tekshirish natijasida soliq to'lovchiga nisbatan qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda moliyaviy jarimalarni budjetga undirish to'xtatilmaydi.

● Soliq organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish.

Soliq organlari o'zlariga berilgan vakolat doiralarida qabul qilgan qarorlari ayrim hollarda soliq to'lovchilarning e'tirozlarini keltirib chiqarishi mumkin yoki ular mansabdor shaxslarning xatti-harakatlarini soliq to'lovchi qonunga zid deb hisoblashlari va ularga barham berish maqsadida yuqori soliq organlari (Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq qo'mitasi)ga yoxud sudga shikoyat bilan da'vo qilishlari mumkin. Bunday holat amaliyotda ba'zida uchraydi.

● Soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to'lovchilar soliq hisob-kitobini quyi soliq idoralariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirgandan so'ng, xato va kamchiliklarni aniqlashsa, uni qayta tuzatib, darhol soliq idoralariga qayta soliq hisob-kitoblarni topshirishlari lozim bo'ladi. Aks holda, qonun oldida javob berishga to'g'ri keladi.

Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadirlar:

● Belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish, pochta manzili o'zgargan taqdirda esa (notijorat tashkilotlar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda ham), bu haqda soliq organlarini o'n kunlik muddat ichida yozma ravishda xabardor etish.

Soliq to'lovchilar amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng, albatta quyi soliq idoralardan ham ro'yxatdan o'tishi va tegishli ravishda soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR)ni olishi shart. STIR Davlat soliq qo'mitasi tomonidan markazlashgan tartibda ro'yxatga olinadi va soliq to'lovchilarga quyi soliq idoralari tomonidan yetkaziladi.

● Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tegishli summasini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash.

Soliq to'lovchilar hisobot davrida hisoblangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida, to'liq miqdorda budjetga to'lab berishlari shart. Aksincha, soliq idoralari tomonidan o'z vaqtida budjetga o'tkazilmagan soliqlar va yig'implar summasiga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,05 foiz miqdorida jarima (penya) hisoblanadi. Hisoblangan penya miqdori korxonaning sof foydasi hisobidan qoplanadi.

● Buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish.

Korxonada o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini yuritishda qonunchilik bilan belgilab berilgan hisob va buxgalteriya hisobi hujjatlarini yuritishga majburdir. Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish tegishli qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi.

● Moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilar har bir soliq turi bo'yicha hisob-kitoblarini belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan soliq idoralariga taqdim etadi. Aks holda, korxonaga va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan moliyaviy va ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi.

● Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilarga Soliq kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida yoki boshqa qonun hujjatlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar ko'zda tutilgan holda, ular imtiyoz olish huquqini tasdiqlovchi tegishli qonun hujjatlarini quyi soliq idoralariga taqdim etishi shart. Imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lgandagina ular imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

● Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish obyektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish.

Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining tekshiruv rejasiga asosan Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyati tekshirilganda korxonalar soliqqa tortish obyekti bilan bog'liq bo'lgan barcha obyektlarini ko'zdan kechirishga va bundan tashqari tekshirishga sharoit yaratib berishlari lozim. Aks holda, soliq idoralarining qonuniy talablari bajarilmagan hisoblanadi va ularga nisbatan qonunchilikda ko'zda tutilgan tegishli jazo choralari qo'llaniladi.

● Soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish.

Soliq idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularning boshqa vakolat doirasidagi qonuniy talablari soliq to'lovchilar tomonidan bajarilishi majburdir.

Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida o'z zimmalariga yuklatilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliqqa tortish obyektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
2. Oborotdan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
3. Daromaddan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
4. Mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?
5. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?
6. To'g'ri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi va u nima uchun to'g'ri soliq deb ataladi?
7. Egri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
8. Egri soliqlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsating.
9. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?
10. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning o'ziga xos xususiyatlari nima?
11. Soliq to'lovchilar qanday huquqlarga ega?
12. Soliq to'lovchilar qanday majburiyatlarga ega?

### **II bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1.2., 1.3., 1.4., 1.13., 1.17., 2.1., 3.2., 3.11., 3.12., 3.15., 3.32., 3.37., 3.42., 3.12., 4.12., 6.10., 6.14.

### III B O B. YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

---

#### 3.1. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

##### **Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991-yilga qadar, asosan, davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajrat-

malar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini budjetga olib ketar edi. Qolgan mablag'lar esa korxonalar tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.

Respublikamiz ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishi tufayli mamlakatimiz xo'jalik turmushida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, korxonalarining imkoniyatini oshishi, bozor infrastrukturasi rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi korxonalarining xo'jalik yuritish samaradorligini ta'minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to'sqinlik qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra faqat davlat korxonalari foydasidan ajratilishi lozim edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish, xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992-yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar «Daromad» solig'ini to'lashga o'tdilar.


O'zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig'ini olishga o'tish pul qadrsizlanishi tufayli ish haqi o'sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo'ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada, mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum hajmi kamaygani holda, ular o'z ishlab chiqarishlari yo'nalishini

o'zgartirishga, foyda olmasalar ham juda katta miqdorda ishchilarga ish haqi to'lashga majbur bo'ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada daromad solig'ini ish haqi fondidan belgilangan stavkada to'lashga majbur edilar.

1995-yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun daromad solig'i va yalpi daromad solig'i tartibi saqlab qolindi (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, kino-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko'ngil ochar o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar).

2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ulushi 2000-yilda 12,8 foizni tashkil etgani holda, 2005-yilda 6,3 foizni,



**3.1.1-diagramma. 2001—2009-yillarda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i.<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2000—2009-yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tayyorlangan.

2009-yilda esa 5,2 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan, ya'ni tahlil etilgan 7 yil davomida bu ko'rsatkich 2,5 barabarga kamaygan. Bu holat yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarini yildan yilga pasayib borayotganligi bilan izohlanadi. Daromadning ko'p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o'rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko'rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

**Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq bazasi**

Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo soliqqa tortishning alohida tartibiga o'tgan korxonalar, jumladan, yagona soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lovchisi hisoblanishmaydi. Ular o'zlari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'i stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqni to'lovchilari hisoblanishmaydi.

Yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim iqtisodiyot tarmoq korxonalari budjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin (misol uchun, energetika, neftgaz-xolding kabi tarmoq korxonalarida).

Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to'lovchilarni rezidentlar va nerezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb, O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining nerezidentlari esa, faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.



Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'lsa, norezidentlar faoliyati respublikada vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari bo'lishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi (qonunchilik bilan taqiqlangan faoliyatdan tashqari);
- o'zining mol-mulkiga ega bo'lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
- identifikatsion raqamga ega bo'lishi.
- mahalliy hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar qayd etilgan shartlarga javob bersagina foyda solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Soliq kodeksining 127-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining foydasi hamda rezident va norezidentlarning chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbayidan soliq solinadigan daromadlar hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza esa jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi (Soliq kodeksining 128-moddasi).

**Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar**

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlari tarkibiga

nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Yuridik shaxslarning **jami daromadlari tarkibiga** quyidagilar kiradi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadlar;

● boshqa daromadlar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan, yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo‘natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo‘natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan haq summasi tushuniladi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo‘yicha, shuningdek, obyektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog‘ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to‘lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko‘rsatilgan) va tasdiqlangan ishlarning (xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati daromadga qo‘shiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizatsiya qilindanda, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul topshirilganda soliq solish maqsadlari uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki tovarlar olingan baho asosida (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi. Jumladan:

● asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;

● mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

● asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

- tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar;

- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.

Bunga da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar hamda sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar kiradi:

- talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;

- jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarining o'rnini qoplash tarzida olingan daromadlar;

- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;

- undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarima va penyalar;

- valuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi ijobiy farq;

- dividendlar va foizlar;

- royalti;

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilar yuridik shaxs daromadi sifatida qaralmaydi:

- ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar;

- sotilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

- budjetdan berilgan subsidiyalar;

- agar mablag'larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

- olingan grantlar;

- sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonini (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;
- investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk;
- va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan daromadlar.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) *mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda;*

**YF=SST-IT**, bu yerda:

YF — yalpi foyda, SST — sotishdan olingan sof tushum, IT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tan narxi;

2) *asosiy faoliyatdan olingan foyda;*

**AFF=YF-DX+BD-BZ**, bu yerda:

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX — davr xarajatlari, BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, BZ — asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3) *umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar);*

**UF=AFF+MD-MX**,

bunda: UF — umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD — moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) *soliq to'languncha olingan foyda;*

**STF=UF+FP-FZ**,

bunda: STF — soliq to'laguncha olingan foyda; FP — favqulodda vaziyatdan olingan foyda; FZ — favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, korxonaga foyda solig'ini va undan keyin obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lagandan so'ng korxonaning o'zida qoladi.

**Jami daromaddan chegirmalar.** Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlar haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegiriladi. Soliq kodeksiga ko'ra (141-modda) xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlarga moddiy xarajatlar, mehnatga haq to'lash xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari hamda Soliq kodeksining 145-moddasida nazarda tutilgan boshqa xarajatlar kiradi.

Soliq solinadigan bazaga kiritiladigan, ya'ni chegirilmaydigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

— moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;

— xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

— xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar bo'yicha belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar;

— nodavlat Pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

— xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

— umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash;

— yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

— soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

— xodimlarga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan oziq-ovqatlar, tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatliklar yoki soliq to'lovchining xodimlari uchun ishlar hamda xizmatlarni bajarish qiymati, ularga bepul beriladigan uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summalari);

— xodimlarga qo'shimcha berilgan ta'tillarga to'langan haq va ular yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha kompensatsiyalar, bundan noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og'ir va noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan qo'shimcha ta'tillar uchun to'langan haq mustasno;

— xodimlarning ovqatlanishi, yo‘l haqi, davolanishi uchun, davolanish va dam olishi uchun yo‘llanmalar, ekskursiyalar va sayohatlar uchun, sport seksiyalari, to‘garaklari, klublaridagi mashg‘ulotlarga, madaniy-tomosha, jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga borishi uchun, obunaga hamda xodimlarning shaxsiy foydalanishi uchun tovarlarga qilingan xarajatlarning o‘rnini qoplash yoki to‘lash va boshqa shunga o‘xshash to‘lovlar;

— pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqalar;

— xodimlarga to‘lanadigan moddiy yordam (xodimning mehnatda jarohatlanishi yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila a‘zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a‘zolariga beriladigan moddiy yordam bundan mustasno);

— ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat layoqatini yo‘qotganlik munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlarisiz haqiqatdagi ish haqiqacha to‘lanadigan to‘lovlar;

— ekologiya, sog‘lomlashtirish hamda boshqa xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, xalq ta‘limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta‘minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga badallar kiritish;

— ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan sog‘liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

— mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo‘jaligiga yordam ko‘rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;

— atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo‘lganligi uchun kompensatsiya to‘lovlari;

— kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to‘lov muddati o‘tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar;

— loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deforma-

tsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga o'rnini qoplash mumkin bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

— bayram sanalari va muhim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish hisoblanadigan bir yo'la mukofotlar;

— sud chiqimlari;

— aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarning o'rnini qoplash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar;

— soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulkinging (aktivlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar. Quyidagi zararlar bundan mustasno:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko'rilgan zararlar;

b) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar;

d) uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar;

— xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagi sanksiyalar;

— davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha boshqaruvchi kompaniyalar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lash, shuningdek, kompaniyalarning boshqa professional boshqaruvchilariga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar.

### **Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar**

Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtis-

Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari har yili Vazirlar Mahkamasining yoki O'zbekiston

sodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 1998-yilda 36-foizni tashkil etgani holda 2001-yilda 26-foizga tushgan. 2002-yilga esa 24 foiz, 2003-yilda 20 foiz, 2004-yilda 18 foiz, 2005-yilda 15 foiz, 2006-yilda 12 foiz va 2007-yilda 10 foiz qilib belgilangan.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida 2009-yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari keltirilgan.

3.1.1-jadval

**Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq  
STAVKALARI<sup>1</sup>**

№	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %da soliq stavkalari
1.	Yuridik shaxslar (2—3-bandlardagidan tashqari)	10
2.	Tijorat banklari	15
3.	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ish, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksport qiluvchi korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 12-oktyabrdagi PF-1871 sonli farmoni bilan tasdiqlangan xomashyo tovarlari ro'yxatidagilar bundan istisno)	
	Sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi
	Sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi
5.	1-bandda ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llab haq to'langan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qarori.



Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini 2006-yildagi 12 foizdan 2007-yilda 10 foizga tushirilishi korxonalar ixtiyorida taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra qo'shimcha 37 mlrd so'mni tejash imkonini beradi va u korxonalarining investitsion faolligini yanada aktivlashtirishga xizmat qiladi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda 10 foiz miqdorida foydaga soliq undiriladi.

Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbayida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

- dividendlar va foizlardan – 10 foiz;
- sug'urta mukofotlari, sug'urtalash va qayta sug'urtalash – 10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiya va transport xizmati (fraxta daromadi) – 6 foiz;
- royalti, ijara daromadlari, xizmat ko'rsatish, shu jumladan, boshqaruv xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar – 20 foiz.

Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlar to'lov manbayida 10 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb, aksiyalardan va boshqa xo'jaliklar subyektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi.

Foizlarga esa depozit qo'yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlardan olgan daromadlar kiradi.

Manbayida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda chegirma olish huquqiga ega bo'ladi.

Soliq kodeksining 158-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, ikkinchi jahon urushi yillaridagi urush va mehnat faxriylari tashkil etgan yuridik

shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi;

2) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

3) jazoni ijro etish muassasalari;

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

*Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:*

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

*Soliq kodeksining 159-moddasiga ko'ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:*

1) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlari, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

3) asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda;

4) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining oʻrnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga.

Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida koʻrsatib oʻtilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan eʼtiboran, texnologik jihozlar boʻyicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan eʼtiboran uch yil ichida amalga oshirildi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan eʼtiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni toʻlash boʻyicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qoʻllanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

5) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari toʻlashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

6) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamgʻarmalarining mulkida boʻlgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamgʻarmalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yoʻnaltiriladigan ajratmalari summasiga.

**Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni budjetga toʻlash muddatlari**

hisobini roʻyxatdan oʻtgan joydagi soliq idoralariga yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari boʻyicha esa, yillik

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foyda soligʻi boʻyicha soliq

moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilib olishi mumkin. Xabarnomada buning sababi hamda hisobotlar, soliq hisobi qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimligi ko'rsatiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) 5 kunlik muddatda bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi 15 kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishi shart.

Foyda solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl (1-ilova) va tartibda taqdim etiladi.

Yuridik shaxslar foyda solig'ini foyda solig'i bo'yicha hisoblarni topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun ichida to'laydilar.

Yilning hisobot choragida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan eng kam ish haqining 200 barobaridan ko'proq miqdorda foyda olgan yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni har oyning 15-kunida yilning choragi bo'yicha foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'laydi.

Yuridik shaxslar avans to'lovlar summasini hisoblab chiqarish uchun yilning joriy choragi birinchi oyining 5-kunigacha soliq ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq organiga yilning tegishli choragida taxmin qilinayotgan foyda hamda belgilangan foyda solig'i stavkasi asosida ma'lumotnoma (2-ilova) taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar belgilangan muddatlargacha budjetga to'lanmasa ularga nisbatan soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan har bir kechiktirilgan kun uchun hisoblangan soliq summasiga nisbatan 0,05 foiz miqdorida penya (moliyaviy jarima) qo'llaniladi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun budjetga to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i summasiga nisbatan

10 foizdan ko‘proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlarni foyda solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya (0,05 foiz) hisoblagan holda qayta hisoblab chiqadi.

Hisobot davrida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olgan foyda 200 karrali minimal ish haqidan kam bo‘lgan korxonalar chorakda bir marta soliq to‘laydilar. Ular avans (joriy) to‘lovlarni to‘lamaydilar. Avvalgi choraklarda to‘lagan soliqlari esa hisobga olib boriladi.

Soliq to‘lovchilar birinchi chorak, yarim yil va yil o‘tishi bilan yil boshidan hisoblangan yakun bilan soliqni haqiqiy olingan foydadan kelib chiqib foydaga soliqni mustaqil o‘z-lari hisoblab chiqadilar. Yil mobaynida to‘lagan soliqlari hisobot yilida hisoblangan soliq summasidan hisobga olinadi.

Haqiqiy olingan foydaga qarab hisoblangan soliq summasi (farqi) budjetga choraklik va yillik moliya hisoboti topshirish mo‘ljallangan kungacha to‘lanadi.

Ortiqcha to‘langan soliq summasi kelgusi to‘lovlarga o‘tkaziladi yoki soliq to‘lovchiga boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzi bo‘lmasa undan yozma ariza olgan kundan boshlab 30 kun ichida korxonaga qaytariladi.

Foydadan soliqni hisoblash va budjetga o‘tkazish javobgarligi foydalaridan soliq to‘lashni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar zimmasiga tushadi.

Dividend va foizlar to‘lovchi yuridik shaxslar quyidagi shaklda (3.1.2-jadval) soliq hisobini topshiradilar va to‘lov

*3.1.2-jadval*

**Dividend va foizlarga soliq hisobi'**  
(2008-yil yanvar oyi uchun, ming so‘m hisobida)

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>To‘lovchi ma‘lumoti bo‘yicha</b>	<b>Soliq inspeksiyasi ma‘lumoti bo‘yicha</b>
Hisoblangan dividendlar va foizlar	2500	2500
Soliq stavkasi	10	10
Budjetga to‘lashi lozim bo‘lgan soliq summasi — jami	250	250

<sup>1</sup> Soliq kodeksiga asosan ishlab chiqildi.

amalga oshirilgan oydan keyingi oyning 5 kuni ichida soliq summasini budjetga o'tkazadi.

Daromadlarni manbayida to'lovchi yuridik shaxslar moliya yili tugashi bilan 30 kun ichida davlat soliq xizmati idoralariga hamda daromad olgan yuridik shaxslarga ularning talablari bo'yicha dalolatnoma topshiradilar. Unda shu shaxslarning ro'yxat raqamlari, nomlari, umumiy olingan daromad va jami to'langan soliq summasi hisobot yili uchun ko'rsatilgan bo'ladi.

### Mavzuga doir masalalar

**1-masala.** Quyidagi ma'lumotlarga asosan foyda solig'ini hisoblang (ma'lumotlar ming so'm hisobida keltirilgan).

1. Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum — 4380.

2. Qo'shilgan qiymat solig'i — 688.

3. Aksiz solig'i — 500.

4. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi — 2695.

5. Sotish xarajatlari — 35.

6. Ma'muriy xarajatlar — 83.

7. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad — 35.

8. Olingan dividendlar — 75.

9. Valuta kursi bo'yicha musbat farq — 29.

10. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar — 15.

11. Favqulodda foyda — 5.

12. Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomning 1-ilova xarajatlari — 312.

13. Soliq imtiyozi — 100.

*Yechilishi:*

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obykti «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq aniqlanib, unga muvofiq soliq obyektini aniqlash quyidagi tartibda olib boriladi.

$$YF = SST - IT = 3192 - 2695 = 497$$

(bu yerda, YF — yalpi foyda; SST — sotishdan olingan sof tushum; IT— sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi).

$AFF = YF - DX + BD - BZ = 497 - 118 + 35 = 414$   
(bu yerda, AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda;  
DX — davr xarajatlari; BD — asosiy faoliyatdan olingan  
boshqa daromadlar; BZ — asosiy faoliyatdan ko‘rilgan  
boshqa zararlar).

$UF = AFF + MD - MX = 414 + 104 - 15 = 503$   
(bu yerda, UF — umumxo‘jalik faoliyatidan olingan  
foyda; MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;  
MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari).

$STF = UF + FF - FZ = 503 + 5 = 508$   
(bu yerda, STF — soliq to‘langungacha olingan foyda;  
FF — favqulodda foyda; FZ — favqulodda zarar).

2. STFga yuqoridagi Nizomning 1-ilova xarajatlari va  
2-ilova xarajatlarining farqi tiklanadi, ya’ni bizning misoli-  
mizda:

$508 + 312 = 820$  ming so‘mni tashkil etadi.

Ushbu summadan aksiyalar va qimmatli qog‘ozlardan  
dividendlar (foizlar) to‘lov manbayida soliqqa tortilganligi  
bois chegiriladi, ya’ni:

$820 - 75 = 745$  ming so‘mni tashkil etadi.

Shundan soliq bo‘yicha imtiyozlar chegiriladi, ya’ni

$745 - 100 = 645$  ming so‘mni tashkil etadi.

3. 2007 yil uchun foyda solig‘i stavkasi 10 foizligini  
hisobga olgan holda soliq summasi:

$D(f)s = 645 \times 10 / 100 = 64,5$  ming so‘mni tashkil  
etadi.

**2-masala.** Ishlab chiqarish korxonasi ikkinchi yil faoli-  
yat yuritmoqda, uning foyda solig‘i to‘lagungacha bo‘lgan  
daromadi (2-son, 170-satr) 350 ming so‘m bo‘lgan.

Hisobot davri uchun qo‘shimcha ravishda quyidagi  
ma’lumotlar mavjud:

— hokimiyatga homiylik yordami ko‘rsatilgan — 18  
ming so‘m;

— qariyalar uyiga yordam ko‘rsatish uchun — 249 ming  
so‘m.

*Hisobot davri uchun korxonaga to‘lashi lozim bo‘lgan daro-  
mad solig‘i necha so‘mga teng? (Soliq stavkasi — 10%.)*

**3-masala.** Qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda soliqlar  
to‘lovchisi hisoblangan ishlab chiqaruvchi korxonaga 2007-yil  
hisobot davri uchun quyidagi ko‘rsatkichlarga ega:

— ichki bozorda mahsulotni sotishdan tushgan tushum — 12800 ming so‘m;

— chet el valutasiga sotilgan mahsulot 14 ming AQSH dollari miqdorida (yuk ortilgan vaqtda 1 AQSH dollari — 1240 so‘m);

— omborxonalarni ijaraga berishdan olingan sof daromad — 2700 ming so‘m;

— uskunalarni o‘z vaqtida olib kelib o‘rnatilmagani uchun sotuvchi korxonadan tushgan jarima va shartnomada ko‘rsatilgan qo‘shimcha to‘lov — 998 ming so‘m;

— yordamchi korxonadan olingan dividendlar (dividenddan undirilgan soliq haqidagi ma‘lumot mavjud) — 1339 ming so‘m;

— «Ishonch» firmasi tomonidan xodimlar bo‘limiga tegishli 1751 ming so‘mlik kompyuter dasturi yaratilgan va tekinga o‘rnatib berilgan.

2006-yilda qonunchilikka asosan chegirmaga olib borilgan 3010 ming so‘mlik sotilgan mahsulotning puli kelib tushgan.

Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi — 11375 ming so‘m, shu jumladan, ishlab chiqarishda ishlatiladigan asosiy vositalarning eskirishi belgilangan me‘yorga nisbatan 2 koeffitsient qo‘llanilgan bo‘lib, 2100 ming so‘mni tashkil etgan.

O‘tgan davr uchun quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan:

— me‘yor chegarasida o‘zining mahsulotini reklama qilish uchun — 125 ming so‘m sarflangan;

— boshqaruvda ishlovchilar uchun ish haqi bo‘yicha xarajat — 4495 ming so‘m;

— xizmat safari xarajatlari, me‘yordagisi — 392 ming so‘m, me‘yordan yuqori — 85 ming so‘m;

— xizmat avtomobili saqlash uchun xarajatlar — 145 ming so‘m;

— uyali telefon — 1200 ming so‘m;

— ishlab chiqarishda qatnashmaydigan asosiy vositalarning eskirishi — 895 ming so‘m;

— hisobot davrida hisobvaraqlar bo‘yicha olingan qo‘shilgan qiymat solig‘i — 925 ming so‘m.

Aniqlang:

1. *Hisobot davrida davlat budjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan foyda solig‘i summasini (Soliq stavkasi 10% — 2007-yil uchun).*



2. Davlat budjetiga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini.

3. Korxonaning moliyaviy natijalari bo'yicha hisobotni tuzing.

4. Hisobot davri uchun foyda solig'ining shaklini to'ldiring.

Masalani yechish davrida mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda boshqa soliqlar va majburiy to'lovlarga ahamiyat bermaslikka ruxsat etiladi.

**4-masala.** *Quyidagi ma'lumotlar asosida foyda solig'ini hisoblang (ming so'm):*

1. Sotishdan olingan sof tushum – 3192, shundan eksport faoliyatidan – 670.

2. Soliq to'langunga qadar olingan foyda – 508.

3. Olingan dividendlar – 75.

4. Soliq bo'yicha imtiyozlar – 100.

*Yechilishi:*

1. Respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslarning erkin almashtiriladigan valutadagi eksportiga imtiyozli stavkalar belgilangan. Demak, imtiyozli stavkalarining qaysi birini qo'llashni aniqlash uchun eksport mahsulotining umumiy sotish hajmidagi salmog'i aniqlanadi, ya'ni:  
 $(670 / 3192) \times 100 = 20,9$ .

Ushbu misolda eksport mahsulotining umumiy sotish hajmidagi salmog'i 20,9 foizni tashkil etadi. Bunday holda belgilangan foyda solig'i stavkasi 30 foizga kamayadi, ya'ni:  
 $12 \times 30 / 100 = 3,6$  ga, demak, korxonada foyda solig'ini 8,4 foizda ( $12 - 3,6$ ) to'laydi.

2.  $508 + 312 - 75 - 100 = 645$  ming so'm.

$645 \times 8,4 / 100 = 54,18$  ming so'm.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Foyda solig'i O'zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lovchilari kimlar?
3. Rezident va norezident kimlar va ular qandan tartibda soliqqa tortiladi?
4. Soliq obyeksi va soliqqa tortish bazasi qanday aniqlanadi?
5. Korxonaning moliyaviy faoliyat natijalari qanday aniqlanadi?
6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
7. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavkalar belgilangan?
8. Qanday yuridik shaxslar foyda solig'idan to'liq ozod etiladi?

9. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?

10. Yuridik shaxslarning qanday xarajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladi?

11. Soliq hisobotlarini topshirish va soliqni to'lash tartibi qanday belgilangan?

12. Yuridik shaxslar qanday tartibda va shaklda taxmin qilinayotgan foydasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar?

## 3.2. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI

### 3.2.1. Yagona soliq to'lovi

**Soliq solishning soddala-  
lashtirilgan tartibini soliq  
amaliyotiga tatbiq  
etilishi, uning iqtisodiy  
mohiyati**

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son «Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gi qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddallashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'i belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralari soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada, korxonalar hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

**Yagona soliq to'lovi,  
uning to'lovchilari va  
to'lovchilar tarkibiga  
kiritish mezonlari**

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida

ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi farmoniga muvofiq 2005-yilning 1-iyuldan boshlab O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes subyektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

U bir xillashtirilgan bo'lib, quyidagi majburiy to'lovlarni to'lash o'rniga joriy qilingan:

- yagona soliq;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- Respublika yo'l jamg'armasi;
- Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek, pensiya, yo'l va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalariga majburiy ajratmalar summalari alohida to'lanmaydi.

Yagona soliq to'lovi *faqat kichik biznes subyektlari — mikrofirmalar va kichik korxonalar*ga tatbiq etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar ro'yxati 2007-yil 1-yanvardan boshlab kengaydi. Jumladan, ular tarkibiga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza — kontoralari va ularning hududiy bazalari bundan mustasno. Ular uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 8-iyundagi «Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza — kontoralarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-374-son qarori bilan nazarda tutilgan soliq solish tartibi saqlab qolinadi); mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga tegishli bo'lgan tayyorlov va ta'minot — sotish tashkilotlari, brokerlik firmalari, komis-

siya shartnomasi (topshirig'i) bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar; soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik shaxslar kiritildi.

2007-yil 1-yanvardan yagona soliq to'lovi to'lovchilari hisoblangan alkogolli mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lash huquqisiz, soliqlar va majburiy to'lovlarni umumbelgilangan tartibda to'lashga o'tkazildi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovi tatbiq etilmaydi. Bundan tashqari, Soliq kodeksining 350-moddasiga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchilarga, qat'i belgilangan soliqni to'lash nazarda tutilgan mikrofirma va kichik korxonalar hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalar ham yagona soliq to'lovi tatbiq etilmaydi.

Soliqlar va majburiy to'lovlarni umumbelgilangan tartibda to'lovchilar hisoblangan xususiy amaliyot bilan shug'ullanadigan notariuslar esa soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqisiz yagona soliq to'lovini to'lashga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagi «1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida»gi PF-3305 sonli farmoniga ko'ra 2004-yilning 1-yanvaridan boshlab kichik biznes subyektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar;
- xodimlarining o'rtacha yillik soni:
  - ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan;
  - xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan;
  - ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;
- quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlari soni:

— yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati 100 kishidan;

— mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan;

— fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan sohalar 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Kichik biznes subyektlariga amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra tatbiq etiladigan soliq imtiyozlari va preferensiyalar faqat yuqoridagi sanab o‘tilgan subyektlarga taalluqli bo‘ladi.

U yoki bu korxonaning yuqorida aytilgan subyektlar toifalarining birortasiga kiritilish mezonini bo‘lib xodimlarning yillik o‘rtacha soni, shu jumladan, unitar (sho‘ba) korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlaydiganlar soni hisoblanadi.

**Soliq obyektini, yalpi tushum tarkibi va soliq bazasi**

Yagona soliq to‘lovi obyekti (soliq solinadigan aylanma) bo‘lib, yalpi tushum hisoblanadi.

Quyidagilar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi:

*1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo‘shilgan qiymat solig‘ini chegirgan holda (qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun) sotilishidan tushgan tushum summasi.*

Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) sotilishidan tushgan tushum deganda quyidagilar tushiniladi:

— qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyihalash-qidiruv va ilmiy-tadqiqot korxonalarini uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasi deganda o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblangan yalpi tushum tushuniladi;

— lizing kompaniyalari uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasi deganda lizing bo‘yicha foizli daromadlar tushuniladi;

— vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi;

— tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun — realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

— lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum.

### *2) asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar.*

Quyidagilar asosiy faoliyatdan boshqa daromadlarga kiritiladi:

a) undirilgan yoki qarzdor e'tirof etgan jarimalar, penyalar hamda xo'jalik shartnomalarining shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari, shuningdek, yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha daromadlar;

b) hisobot yilida aniqlangan, o'tgan yillardagi daromadlari;

d) mikrofirma va kichik korxonalar huzuridagi oshxonalaridan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar singari bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'lanmagan operatsiyalardan boshqa daromadlar;

e) mikrofirma va kichik korxonaning asosiy fondlari va boshqa mol-mulkini sotishdan daromadlar;

f) kreditorlik va debitorlik qarzini qonun bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

g) tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash.

Tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash summasi mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishiga qarab soliq solinadigan yalpi tushumga kiritiladi;

h) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan, tekinga olingan mol-mulk;

i) boshqa operatsion daromadlar.

### *3) moliyaviy faoliyatdan daromadlar.*

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

a) olingan royalti;

b) O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqari-da boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar hamda mikrofirma va kichik korxonaga tegishli bo'lgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

d) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berishdan daromad (marja);

e) chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar;

f) qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va hokazolarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar;

g) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

#### 4) *favqulodda daromadlar.*

Tovarlar (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish) bepul berilganda soliq solish obyektiga ularning qiymati ham kiritiladi, bu qiymat ularni ishlab chiqarishga ketgan amaldagi xarajatlardan, mol-mulk bepul berilganda esa balansda qayd etilgan qoldiq qiymatdan kelib chiqib belgilanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan yalpi tushum hisoblab chiqilayotganda quyidagilar yalpi tushum sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan, aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa

shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) budjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar;

9) aksiyador – yuridik shaxsning o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda qo'shimcha aksiyalarning qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish tariqasida olingan daromadlari;

10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonini (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik va topshiriq shartnomalari yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek, vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud o'zga ishonchli shaxs uchun amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash hisobiga tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno);

12) obyekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tik-



langan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish objekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Soliq kodeksining 356-moddasiga ko'ra soliq solinadigan bazani aniqlash uchun yalpi tushum summasidan quyidagilar chegirib tashlanadi:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbayida umumiy asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatish (hisobdan chiqarish) natijasida olingan boshqa daromadlar.

Chegirmalardan tashqari soliq solinadigan baza quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari uchun:  
— jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

— benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o‘rtasidagi mahalliy budjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan farq summasiga;

2) lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo‘lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga;

5) yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

6) yosh oilalar jumlasidan bo‘lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo‘yicha badallar to‘lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 10 foiziga.

### **Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar**

Yagona soliq to‘lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to‘lovi stavkalari 2009-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagi 3.2.1.1-jadvalda tabaqalashtirilgan.

Bundan tashqari, alohida toifadagi korxonalar jumlasiga kiruvchi lotereyalar o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar soliq solinadigan bazaga nisbatan 33 foiz, xususiy amaliyot bilan shug‘ullandigan notariuslar 50 foiz stavka miqdorida soliqqa tortiladilar.

**Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi  
STAVKALARI<sup>1</sup>**

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkasi yalpi tushumga nisbatan % larda
1	2	3
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini, 2—7-bandlarda ko'rsatib o'tilganlari bundan mustasno	8*
2.	Sanoat ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi korxonalar	7
3.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ish, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	5
4.	Qishloq xo'jaligi korxonalarini asosiy faoliyati bo'yicha, yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblanadigan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno	6
5.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
6.	Tayyorlov va ta'minot-sotish tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek, vositachilik (topshiriq) shartnomalari bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatilgan korxonalar	33**
7.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
8.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining ulushi (ishlar bajarilgan va xizmatlar ko'rsatilgan joydan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valutada quyidagilarni tashkil etadigan korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-sonli farmonida ro'yxati keltirilganlar bundan mustasno):	
	— sotishning umumiy hajmidan 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.



liyat turlari bo'yicha ular alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning mazkur toifasi uchun qonunda nazarda tutilgan soliqlar, yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalari hamda Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashlari shart.

Birinchi chorak, yarim yil va 9 oy yakunlari bo'yicha soliq to'lovchilar ro'yxatdan o'tish joyidagi tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga hisobot choragidan keyingi o'ying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida belgilangan shaklda (3-ilova) yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etadilar.

Mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kirmaydigan korxonalar tomonidan – har oyda hisobot davridan keyingi o'ying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan hisobot choragidan keyingi o'ying 25-kuniga qadar amalga oshiriladi.

**Yagona soliq to'lovi bo'yicha to'lovni kechiktirish tartibi hamda uning ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida» PF-3620-son farmoniga muvofiq yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalariga (bundan keyin korxonalar) yagona soliq to'lovini to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish tartibi belgilangan. To'lashni kechiktirish yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq majburiyatini to'lash muddatini muayyan muddatga ko'chirishni anglatadi.

To'lash muddatini kechiktirish huquqini olish uchun korxonalar, yagona soliq to'lovini to'lashning birinchi muddati boshlanishiga ko'pi bilan 15 kun qolganda, unga to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish to'g'risida tegishli tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga belgilangan shaklda ariza topshiradi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish to'g'risidagi arizani ariza kelib tushgan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida ko'rib chiqadi, so'ngra to'lash muddatini kechiktirish yoki rad

etish to'g'risida qaror chiqarib, korxonaning taqdim etilgan arizasiga qabul qilingan qaror natijasining tegishli belgisini qo'yadi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining rad etish to'g'risidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

- to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish to'g'risidagi ariza belgilangan shaklda taqdim etilmagan bo'lsa;
- to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish to'g'risidagi ariza belgilangan muddatdan keyin topshirilsa;
- korxonaga yagona soliq to'lovining to'lovchisi hisoblanmasa.

Yagona soliq to'lovini to'lash muddatini kechiktirish huquqini boshqa sabablarga ko'ra rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Korxonada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi (haqqoniyligi) uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

To'lash muddatini kechiktirish huquqi korxonaga korxonada davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oyning 1-kunidan boshlab bir yilga beriladi.

Misol uchun, agar korxonada davlat ro'yxatidan 15- yoki 25-yanvarda o'tkazilgan bo'lsa, mazkur korxonaga soliqni to'lash muddatini kechiktirish huquqi joriy yilning 1-yanvaridan keyingi yilning 1-yanvarigacha bo'lgan davrga beriladi.

Korxonaning xohishiga ko'ra soliqni to'lash muddatini kechiktirish huquqi uning yozma arizasiga asosan bir yildan kam bo'lgan muddatga berilishi mumkin. Korxonada to'lash muddatini kechiktirish huquqi berilgan davrda boshqa soliq rejimiga o'tganida, o'tgan paytidan boshlab korxonada to'lash muddatini kechiktirish huquqidan mahrum bo'ladi va unda qonunga muvofiq soliqlar, yig'imga va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyatlar vujudga keladi.

To'lash muddatini kechiktirish yoki muddati kechiktirilgan to'lov summasini so'ndirish huquqi berilgan davrda korxonada tugatilsa, to'lash muddati kechiktirilgan to'lov summasi qonunda nazarda tutilgan tartibda to'lanadi.

To'lash muddatini kechiktirish huquqi berilgan korxonada tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga belgilangan tartibda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kuniga qadar yagona soliq to'lovining hisob-kitobini taqdim etadi. Bunda

korxonaga yagona soliq to'lovi hisob-kitobining o'ngdagi yuqori burchagiga «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-son farmoniga muvofiq to'lash muddati kechiktirilgan» belgisini qo'yadi.

Agar to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish muddati chorak oxiriga qadar tugasa, ushbu davrlar uchun yagona soliq to'lovining summasini aniqlash uchun korxonaga davlat soliq xizmati organlariga yagona soliq to'lovi hisob-kitobining belgilangan shakli bo'yicha yagona soliq to'lovi bo'yicha ma'lumotnoma — hisob-kitobni taqdim etadi.

Misol uchun, agar to'lash muddatini kechiktirish huquqining muddati 1-iyunda tugasa, korxonaga tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga aprel va may oylari uchun yagona soliq to'lovining ma'lumotnoma — hisob-kitobini taqdim etadi, iyun oyi uchun yagona soliq to'lovining hisob-kitobi esa 25 iyulga qadar taqdim etadi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotida tatbiq etishning zarurligi nimada?
2. Soliq amaliyotida ilk bor qachon soddalashtirilgan soliq rejimi joriy qilingan va qaysi me'yoriy hujjat asosida?
3. Kichik biznes subyektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
4. Yagona soliq to'lovi qachon joriy etildi?
5. Yagona soliq bilan yagona soliq to'lovining farqi nimada?
6. Yagona soliq to'lovini to'lovchilari kimlar?
7. Yagona soliq to'loviga soliq stavkalari qaysi mezon asosida belgilanadi?
8. Qanday yuridik shaxslar yagona soliq to'lovidan imtiyozga ega?
9. Yagona soliq to'lovi budjetga qaysi muddatlarda to'lanadi?
10. Yagona soliq to'lovini budjetga kechiktirib to'lash tartibi qanday?
11. Qanday holatlarda yagona soliq to'lovini budjetga kechiktirib to'lashni soliq organlari rad etishi mumkin?

### 3.2.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish

#### **Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovining joriy etilishi**

Ma'lumki, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini 2007-yil 1-yanvarga qadar budjetga to'lab kelgan yalpi daromadidan yalpi daromad solig'i, mol-mulk solig'i, tovarlar aylanmasidan Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlar to'lash o'rniga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjetining parametrlari to'g'risida»gi PQ-532-sonli qaroriga muvofiq 2007-yil 1-yanvardan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashga o'tkazildi.

2006-yil yakuni bo'yicha asosiy (profil) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat) hisoblangan yuridik shaxslar belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovlarini to'lashlari shart qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 28-martda 1668-son bilan ro'yxatga olingan «Yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun soliqqa tortishning quyidagi tartibi belgilangan. Jumladan, Nizomda savdo faoliyati (umumiy ovqatlanish sohasidan faoliyat) hisoblangan yuridik shaxslar uchun 2007-yildan boshlab yagona soliq to'lovini to'lash tartibi belgilangan.

Shu bilan birga savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun:

— bojxona to'lovlari (bojxona bojlari va yig'imlari, aksiz solig'i va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i);

— davlat bojlari;

— ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

— qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im va atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni O'zbekiston



Respublikasi hududiga joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lash tartibi saqlab qolingan.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakuni bo'yicha savdo (umumiy ovqatlanish) korxonasiga mansub bo'lmasa, kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashga o'tishlari shart, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno.

Yagona soliq to'lovi to'lashga o'tish savdo (umumiy ovqatlanish) korxonalari umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashga o'tgan birinchi hisobot choragi uchun foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarni to'lamaydilar.

Ishchilar sonidan qat'i nazar ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar) yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchisini aniqlashda asosiy mezon bo'lib, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan korxonalar faoliyatining kodi hisoblanadi.

Bunda korxonaning ixtisoslashishi XXTUT asosiy kodga to'g'ri kelishi kerak. Agar korxonaning faoliyati XXTUT kodiga to'g'ri kelmasa, o'z faoliyati kodini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistika organlarida qayta ro'yxatdan o'tkazishga va ushbu toifadagi korxonalar (faoliyati turlari) uchun belgilangan tegishli soliqlarni to'lashga majbur.

Yagona soliq to'lovida realizatsiya (tovaroborot) umumiy yillik hajmida tushum ulushi aksariyat qismini tashkil etgan faoliyat turi asosiy (profil) faoliyati turi hisoblanadi.

Agar joriy yil yakuni bo'yicha realizatsiya (tovar aylanma)ning umumiy yillik hajmida tushum ulushi faoliyati turlari bo'yicha bir xil miqdorni tashkil etsa, asosiy (profil) faoliyat turi o'tgan hisobot yil yakuni bo'yicha aniqlanadi.

Savdo (umumiy ovqatlanish) korxonalariga, soliq solish maqsadida, o'tgan hisobot yili yakuni bo'yicha asosiy (profil) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyati) hisoblanadigan yuridik shaxslar kiradi.

Savdo faoliyati deganda qayta sotish maqsadida xarid qilingan tovarlarni sotish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Quyidagilar savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

— o‘zi ishlab chiqargan mahsulot hisoblanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan, ularni mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan firma do‘konlari orqali realizatsiya qilish;

— komissioner (ishonchli vakil) tomonidan komissiya (topshiriq) shartnomalari bo‘yicha tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan, davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

— tayyorlov va ta‘minot-sotish faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni is‘temol qilishni tashkil etish bo‘yicha faoliyat tushuniladi.

Yagona soliq to‘lovini hisoblashda soliq solish obyekti bo‘lib, aksariyat hollarda yalpi tushum hisoblanadi, lekin savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushum bo‘lib tovarlar aylanmasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatdan daromadlari va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi.

Shuningdek, yagona soliq to‘lovi hisob-kitob bazasini aniqlashda tushumdan quyidagilar chegirib tashlanadi:

a) qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini;

b) davlat subsidiyalarini;

d) davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar;

e) to‘lov manbayida ushlab qolinishi lozim bo‘lgan dividendlar va foizlar ko‘rinishidagi daromadlar;

f) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav kapitalini oshirishga yo‘naltirishda aksiyador qo‘shimcha aksiyalarining qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko‘paytirish tarzida olingan daromadlari;

g) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi foyda. Mazkur daromadlar qaysi davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq shu davrdagi soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘tkazishni hisobga olgan holda soliqqa tortiladi;

h) olingan grantlar. Grant deganda – ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadni ko‘zlagan, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun korxonaga davlat (hukumat), shuningdek, nodavlat, xorijiy, xalqaro tashkilotlar va jamg‘armalar tomonidan ko‘rsatiladigan tekin, gumanitar mablag‘li yoki moddiy-texnik yordam tushuniladi. Grant mablag‘lari qat’i ravishda belgilangan maqsadlarga ishlatiladi;

i) ko‘p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo‘lsa;

j) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chegirmalar.

**Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari va soliqni hisoblash muddatlari**

Yagona soliq to‘lovi uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda

1024-sonli qaroriga muvofiq 2009-yildan boshlab savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun ishchilari sonidan qat’i nazar yalpi tushumdan (tovar aylanmasi hajmidan) quyidagi stavkalarda yagona soliq to‘lovi to‘lash joriy qilindi:

– umumiy ovqatlanish korxonalari uchun – 10%;  
shundan: umumta’lim maktablari, maktab-internatlar, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar uchun – 8%.

Savdo korxonalari uchun:

– shaharlarda aholi soni 100 ming va undan ortiq kishi – 4%;

– boshqa aholi punktlarida – 2%;

– olis va tog‘li hududlarda – 1%;

– ulgurji savdo korxonalari (Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralari va ularning hududiy bazalari bundan mustasno. Ular uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 8-iyundagi «Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-374-son qarori bilan nazarda tutilgan soliq solish tartibi saqlab qolinadi) – 5%;

Ulgurji va chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi dorixonalar uchun:

- shaharlarda aholi soni 100 ming va undan ortiq kishi — 3%;
- boshqa aholi punktlarida — 2%;
- olis va tog‘li hududlarda — 1%.

Yuqorida qayd qilingan savdo va umumiy ovqatlanish hamda dorixonalar plastik kartochkalardan foydalangan holda xizmat ko‘rsatsalar yagona soliq to‘lovi bo‘yicha amaldagi stavkadan 10 foiz pasaytirilgan stavka bo‘yicha soliq to‘laydilar (4-ilova).

Agar savdo korxonalari, jumladan, ulgurji va chakana dorixonalar, yagona soliq to‘lovining turli stavkalari o‘rnatilgan aholi punktlarida mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan bir necha savdo shoxobchalariga ega bo‘lsalar, ular har bir savdo shoxobchasi bo‘yicha tovarlar aylanmasini alohida-alohida hisobini yuritishlari va shu aholi punktlari uchun o‘rnatilgan soliq stavkalari bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lashlari shart.

Bunda savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatdan daromadlari va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlari savdo korxonasi davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tgan joy uchun o‘rnatilgan stavkasi bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘laydilar.

Agar savdo korxonalari balansida qayd etilgan asosiy vositalarni ijaraga topshirsalar, ular ijaraga berilgan ushbu aktivlar qiymatidan umumbelgilangan tartibda mol-mulk solig‘ini to‘laydilar hamda ularga mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Savdo korxonalari yagona soliq to‘lovini mustaqil ravishda soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqadilar va budjetga to‘laydilar.

Yagona soliq to‘lovini hisob-kitobi ro‘yxatdan o‘tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot oydan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga belgilangan shaklda (3-ilova) taqdim etiladi.

Yagona soliq to‘lovini to‘lash ortib boruvchi yakun bilan hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. 2007-yil 1-yanvarga qadar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini qanday soliq rejimida ishlagan?
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini yagona soliq to'lovini to'lovchilar tarkibiga o'tishning ahamiyati va zarurligi nimada?
3. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovidan tashqari yana qanday to'lovlar, yig'img'lar saqlab qolingan?
4. Savdo faoliyati deganda nimani tushunasiz?
5. Umumiy ovqatlanish faoliyati deganda nimani tushunasiz?
6. Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortish obyekti qanday aniqlanadi?
7. Yagona soliq to'lovini hisoblashda yalpi tushum tarkibi qanday aniqlanadi?
8. Yalpi tushum tarkibidan nimalar chegiriladi?
9. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 2008-yilda qanday belgilangan?
10. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
11. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lovi qaysi muddatlarda to'lanadi?

### 3.2.3. Yagona yer solig'i

#### **Yagona yer solig'ining joriy etilishi va ahamiyati**

1999-yilda qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi PF-2086-sonli farmoniga muvofiq 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etildi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etilishi, o'z navbatida ularni quyidagi soliqlar va yig'img'larini to'lashdan ozod qildi:

- foyda solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- ekologiya solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yer solig'i;
- yerosti boyluklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

— boshqa mahalliy soliqlar va yigʻimlar.

Yagona yer soligʻi toʻlovchilari hisoblangan qishloq xoʻjalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona toʻlovlari, davlat boji, litsenziya yigʻimlari, budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek, aksizosti mahsulotlarga aksiz soligʻini toʻlashning amaldagi tartibi saqlab qolindi.

Yagona yer soligʻini joriy qilishdan maqsad qishloq xoʻjalik yerlaridan foydalanish samaradoriligini oshirish, qishloq xoʻjalik tovar ishlab chiqaruvchilarini mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, qishloq xoʻjalik korxonalarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va bir xillashtirishdan iboratdir.

Mazkur soliqning amalga kiritilishi qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni tasarrufidagi yerlaridan yanada oqilona foydalanishga daʼvat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qatʻi nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini toʻlash lozim boʻladi.

Qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer soligʻining joriy etilishi soliqqa tortish tizimida uning amal qilishi jarayonini yanada takomillashtirishdan dalolat beradi. Soliqqa tortishning ushbu tizimi xoʻjaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va toʻlash borasidagi ishlarini keskin kamaytirdi. Ilgari qishloq xoʻjalik korxonalari oʻnlab turdagi soliqlar va yigʻimlarni toʻlashardi. Agar ayrim soliq turlarining har oyda va har yilning har choragida toʻlanishini hisobga oladigan boʻlsak, unda ayrim xoʻjaliklar davlat soliq organlariga soliqlar boʻyicha 30 dan ortiq hisob-kitoblarni taqdim etishi, bir yilda ana shuncha toʻlov topshiriqnomalarini toʻldirishi kerak boʻlar edi. Endilikda esa xoʻjaliklar bir yilda bir marta bir turdagi soliq summasini hisoblab chiqishadi.

**Yagona yer soligʻi  
toʻlovchilari, soliq  
obyekti va soliq bazasi**

Qishloq xoʻjaligi tovari ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda qishloq xoʻjaligi yoʻnalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xoʻjaliklari va taʼlim muassasalarining oʻquv-tajriba xoʻjaliklari yagona yer soligʻining toʻlovchilari boʻlib hisoblanishadi.

Soliq kodeksiga koʻra quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar — soliq solish maqsadida qish-

loq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar tarkibiga kiradi:

— yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

— qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

— qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

O'rmon va ovchilik xo'jaliklari hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'ini to'lovchilari hisoblanishmaydi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha mazkur faoliyat turidan yagona yer solig'ini to'laydilar va ular boshqa soliqqa tortish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

Yagona yer solig'ini to'lovchi hisoblangan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona bojlari, davlat bojlari, litsenziya yig'implari, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanadi.

Agar yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo'yicha shu toifadagi to'lovchilar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliqlarni to'lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsa, faoliyatning boshqa turlari bo'yicha (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun belgilangan soliqlar va

yig'implar to'lanadigan savdo va umumiy ovqatlanishdan tashqari) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq to'lov yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yerlar ijaraga (shu jumladan, ichki xo'jalik pudratiga) berilganda ijaraga beruvchida ijaraga berilgan yerlar bo'yicha yagona yer solig'ini to'lash majburiyati saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi maydoni yagona yer solig'i solish obyekti hisoblanadi.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining normativ qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi. Agar normativ qiymat belgilanmagan bo'lsa, unda soliq solinadigan baza bo'lib qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqaruvchilarning soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni hisoblanadi.

Soliq solinadigan qishloq xo'jaligi yer maydonlari, yer uchastkalarining joylashishi, tuproq boniteti va yer mulkining boshqa tavsiflari yer kadastr ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

*Soliq qonunchiligiga ko'ra soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:*

#### **Soliqdan imtiyozlar**

a) qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;

b) ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

d) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suv havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya — sog'lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

e) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar — loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga. Agar loyihada yerlarni o'zlashtirish va meliorativ ishlarni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilmagan yoki yer uchastkasi boshqa muddatlarda topshirilgan bo'lsa, yer uchastkasi uchun soliq meliorativ ishlar va yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari bajarilgan yillar uchun to'lanmaydi, lekin u 5 yildan oshmasligi kerak;



f) ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari band etgan yerlar;

g) yangi tut ko'chatlari ekilgan yerlar, qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda ekilgan tut ko'chatlari ekilgan yilni hisoblaganda uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi, kuzda ekilgan ko'chatlar esa ularni ekishdan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi;

h) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari;

i) yangi barpo etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab ikki yil muddatga;

j) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan boshqa yerlar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga soliqdan imtiyoz belgilanganda ular soliqni ushbu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab to'lashni to'xtatadilar. Soliq imtiyozlari bekor qilingan taqdirda ular yer solig'ini ushbu huquq bekor qilingan oydan keyingisidan boshlab to'lashni boshlaydilar.

### **Soliqni hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi**

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig'i summasini belgilangan shakl bo'yicha soliq solinadigan bazaga qarab yer uchastkalarining normativ qiymati hamda yer uchastkalarining maydonidan (yer uchastkasi joylashgan yer va yer uchastkasining bal bonitetini nazarda tutadigan tuza-tish koeffitsienti e'tiborga olingan holda belgilangan stavkadan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1-mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan taqdirda, yago-

na yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan oydan boshlab to'xtatiladi.

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek, yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari lozim bo'ladi.

Yagona yer solig'ini budjetga to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

— hisobot yilining 1-iyuligacha — yillik soliq summasining 20 foizi;

— hisobot yilining 1-sentabrigacha — yillik soliq summasining 30 foizi;

— hisobot yilining 1-dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari buxgalteriya hisobida yagona yer solig'i bo'yicha budjet bilan hisob-kitobni budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritadilar.

#### **Qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortishda xorijiy davlatlar tajribasi**

Globallashuv sharoitida jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar tarmoqning jadal o'sishi mamlakatda iqtisodiyotning yuksalishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining soliqqa tortish tizimi yanada soddalashtirishga qarab ketmoqda. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliqlar tabaqalashtirilgan bo'lib, o'rnatilgan soliqlar soliq obyektidan yoki daromad olish darajasidan kelib chiqib budjetga to'lanadi. Agrar sektorga ma'lum bir imtiyozlar hamda maxsus soliq rejimi qo'llaniladi va ular albatta ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu xususiyatlarga fasllar almashinuvi, tabiiy ob-havo sharoitlarini misol qilish mumkin. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan soliqlar tarkibiga nazar tashlanganda, ularning turli mamlakatlar miqyosida soliq turlariga qarab soliqlarni tabaqalashganini ko'rish mumkin (3.2.3.1-jadval).

Germaniya, Fransiya, Italiyada qishloq xo'jalik subyektlari hisoblangan fermerlik kooperativlariga korporativ soliqni to'lash bo'yicha imtiyozlar keng tarqalgan. Rivoj-

**Ayrim rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jalik subyektlari  
to‘laydigan asosiy soliq turlari**

Soliq turlari	AQSH	Fransiya	Italiya	Buyuk Britaniya	Germaniya
Daromad solig‘i	+	+	+	+	+
Korporativ soliq	+	+	+	+	+
Mol-mulk solig‘i	–**	+	–	+	–**
Yer solig‘i	+	+	–*	–	+
Mahalliy soliqlar (yer solig‘idan tashqari)	+	+	+	+	+
QQS	–	+	+	+	+
Sotuvga soliq	+	–	–	–	–
Ijtimoiy to‘lovlar	+	+	+	+	+

\* — daromad solig‘iga kiritilgan.

\*\* — yer solig‘iga kiritilgan.

langan davlatlarda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to‘laydigan yer solig‘i boshqa yuridik shaxslarga nisbatan ancha past miqdorda belgilangan.

Gollandiyada bevosita qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnatga qobiliyatli aholining 4 foizigina ishlaydi. Bu davlatning hududi va aholisi O‘zbekiston bilan solishtirganda bir necha barobarga kam. Tabiiy sharoiti esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi uchun anchagina noqulay. Shunga qaramasdan ushbu mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Eksportning yillik hajmi taxminan 35 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

Jahonda samarali faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklari AQSH davlatida mukammal shakllangan deb atash mumkin. Buning asosiy sabablari, fermer xo‘jaliklariga yordam dasturlarini mablag‘ bilan ta‘minlashda federal hukumat yetakchilikni o‘zida saqlab turganligi bilan izohlanadi.

Buyuk Britaniya soliq tizimida fermer xo‘jaliklarini soliqa tortish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mam-

lakatda fermerlar to'laydigan asosiy soliq turi daromad solig'i hisoblanib, u moliya yilida xo'jalikda hosil qilingan daromad yoki foydadan belgilangan shkala bo'yicha undiriladi. Daromad solig'ini undirish maqsadida fermer xo'jaliklariga beshta soliq shkalasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda yer, mol-mulklarni ijaraga berishdan olingan daromadlarga soliq solish, o'rmon xo'jaliklaridan olinadigan foydaga soliq solish, asosiy faoliyatdan tashqari olingan daromad manbalariga soliq solish, ishchi xodimlar va yollanma mehnat qiluvchilarning daromadlariga soliq solish jarayonlari aks ettiriladi. Fermer xo'jaliklari uchun moliya yili 1-apreldan boshlanib keyingi kalendar yilining 31-martida tugaydi. Foyda solig'i moliya yil yakuni bo'yicha hisob-kitob qilinadi va hisoblangan soliq summasining 50 foizini 1-yanvarda va qolgan qismini 1-iyunda budjetga to'lab beradi. Ya'ni bu yerda soliqni budjetga undirishda qishloq xo'jaligining mavsumiyligi hisobga olingan.

### **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala.** Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida joylashgan fermer xo'jaligi 2007-yilda 55,0 ga sug'oriladigan yer maydoniga ega. Shundan 35,0 ga ning bal boniteti 6 kali (51–60 ball), 20,0 ga esa 7 kal (61–70 ball) hisoblanadi.

*Fermer xo'jaligining hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yagona yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlarini aniqlang.*

*Yechilishi:*

1. Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Syayes} = \text{Meu} \times \text{Ssb} \times \text{Kt},$$

bu yerda:

Syayes – yagona yer solig'i summasi, so'mlarda;

Meu – yer uchastkasi maydoni, gektarda;

Ssb – soliqning bazaviy stavkasi, 1 gektar uchun so'mda;

Kt – tuzatish koeffitsienti.

— kali uchun  $\text{Syayes} = 55 \times 1188 \times 6,54 = 427323,6$  so'm;

— 7 kali uchun  $\text{Syayes} = 20 \times 1188 \times 9 = 213840$  so'm.

Jami yagona yer solig'ining summasi  $427323,6 + 213840 = 641163,6$  so'm.

2. Yagona yer solig'i summasi bir yilda ikki marotaba to'lanadi:

● 1-iyulgacha soliq yillik summasining kamida 20 foizi miqdorida, ya'ni:

$$641163,6 \times 20 \% = 128232,7 \text{ so'm.}$$

● 1-sentabrgacha yillik soliq summasining kamida 30% miqdorida, ya'ni:

$$641163,6 \times 30\% = 192349,08$$

● 1-dekabrgacha soliqning qolgan summasi, ya'ni:

$$641163,6 - 128232,7 - 192349,08 = 320581,82 \text{ so'm.}$$

**2-masala.** Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi shirkat xo'jaligining 2007-yildagi yer maydoni quyidagicha:

1. Sug'oriladigan yerlar:

5 kali — (41—50 ball) — 40 ga

7 kali — (61—70 ball) — 80 ga

8 kali — (71—80 ball) — 120 ga

2. Lalmi yerlar — 485 ga.

3. Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar — 125 ga.

Jami: 850 ga.

*Ushbu ma'lumotlarga asosan shirkat xo'jaligi to'lashi lozim bo'lgan yagona yer solig'ini hisoblang.*

**3-masala.** 2007-yilda fermer xo'jaligi foydalanish uchun 100 gektar yer uchastkasi Surxondaryo viloyati, Denov tumanining sug'oriladigan yerlarida joylashgan bo'lib, sifati jihatidan ball-boniteti 61—70 ga to'g'ri keladi.

Soliqning bazaviy stavkasi bir gektar uchun 1476,2 so'm, 61—70 ball-bonitet uchun koeffitsient 9,00 ga teng.

Aniqlang:

*Fermer xo'jalikning faoliyati natijasiga bog'liq bo'lmagan holda fermer xo'jaligi qancha yagona yer solig'i to'lashi lozim?*

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i qachon joriy etilgan. Uning ahamiyati qanday?

2. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig'ini to'lashga o'tishlari bilan ular qanday soliqlar va yig'implarni to'lashdan ozod etildi?

3. Qanday yuridik shaxslar yagona yer solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?

4. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat turi bilan shug'ullanganda ham yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadimi?

5. Yagona yer solig'ining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?

6. Yagona yer solig'ining stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtiriladi?

7. Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga qanday yerlar kiradi?

8. Yagona yer solig'ini to'lashdan kimlar ozod etiladi?

9. Yagona yer solig'ini hisoblash tartibini aniqlang.

10. Soliq bo'yicha hisob-kitoblar qaysi muddatda soliq idoralari riga topshiriladi?

11. Hisoblangan soliq summalari qaysi muddatda budjetga o'tkaziladi?

12. Qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortishda rivojlangan davlatlar tajribasi qanday?

### **3.2.4. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq**

#### **Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi**

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qat'i belgilangan soliq to'lovchilar hisoblanadilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi qat'i belgilangan soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar soliq qonunchiligiga ko'ra ijtimoiy sug'urta badallarini, eksport-import operatsiyalarini bajarganda yagona bojxona to'lovi, savdo qilish huquqi uchun yig'imni, agarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda suv resurslaridan foydalanilsa, unda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni, bozorlarda faoliyatini amalga oshirishda savdo joyi uchun to'lov (patta)ni, davlat bojlarini to'laydilar.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'i belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga (viloyatlardagi shaharlar, tumanlar, shu jumladan, qishloq joylarga) bog'liq ravishda belgilaydi.

Bunda faoliyatning turli xillari uchun tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Res-

publikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tomonidan mahalliy sharoitlar va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda qat'i belgilangan miqdorlarda daromad solig'i stavkalari belgilanishi mumkin.

Qat'i belgilangan soliqning bazaviy stavkalari va yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'i belgilangan soliq summasining hisob-kitobi uchun tuzatuvchi koeffitsientlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Qat'i belgilangan miqdorlardagi daromad solig'ini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar har oyda, mustaqil ravishda faoliyat amalga oshiriladigan oyning 25-kunigacha to'laydilar.

Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat'i belgilangan soliq:

2008-yil yanvari uchun 2008-yilning 25-yanvariga qadar;  
2008-yil fevrali uchun 2008-yilning 25-fevraliga qadar belgilab qo'yilgan.

Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkor tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug'ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha daromad solig'ini belgilangan tartibda, ro'yxatga olish paytida mustaqil to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat'i nazar bir oy uchun to'lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to'liq oy uchun to'lanadi. 2009-yil 1-yanvardan yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkasi 3.2.4.1-jadvalda ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga asosan yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'i belgilangan soliq stavkalari 3.2.4.2-jadvalda ko'rsatilgan.

**Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan  
shug‘ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq  
STAVKALARI<sup>1</sup>**

№	Faoliyat turi	Qat’iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
		Toshkent shahri	viloyatlardagi shaharlar	tumanlar, shu jumladan, qishloq joylari
1	2	3	4	5
1.	Chakana savdo: — oziq-ovqat tovarlari bilan; — dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan*) — nooziq-ovqat tovarlar bilan; — oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg‘un shoxobchalardagi aralash savdo).	9,0 5,0 10,5 10,5	5,5 4,0 7,0 7,0	3,0 2,0 3,5 3,5
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko‘rsatilganlaridan tashqari	5,5	2,0	1,0
3.	Sartaroshlik xizmatlari ko‘rsatish, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o‘xshash xizmatlar	6,5	3,5	2,0
4.	O‘z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o‘tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladi-			

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.



1	2	3	4	5
	gan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	3,5	2,5	1,5
5.	Boshqa faoliyat turlari, mol-mulkni ijaraga berishdan tashqari	4,0	2,5	1,0
6.	Avtomobil transportida yuk tashishga doir xizmatlar:			
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	5,5	4,0	3,0
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	9,0	7,5	6,0
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	13,5	10,0	9,0

\*) Dehqon xo'jaligida parvarishlangan, ham tirik ko'rinishdagi, ham ularni so'yib, xom va qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlar sifatida chorva mollari, quyonlar, nutriyalar, baliq, parrandani, shuningdek, natu- ra va qayta ishlangan ko'rinishda asalarichilik va dehqonchilik (gulchilik- dan tashqari) mahsulotlarini sotish bundan mustasno. Davlat hokimiyati mahalliy organlaridan yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari- dan olingan belgilangan namunadagi ma'lumotnoma fuqaroda dehqon xo'jaligining mavjudligini tasdiqlaydi.

Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan holatda bu hol soliqqa tortish obyektini yashirish sifatida qaraladi.

Tadbirkor o'z faoliyatini muayyan oyga (oylarga) turli sabablar (oilaviy ahvoli, kasallik, vaqtincha boshqa yerga ketish va hokazo) bilan to'xtatgan hollarda, u faoliyatini to'xtatishgacha davlat soliq xizmati organlariga faoliyatni vaqtincha to'xtatishi haqida ariza taqdim etishi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirishi kerak.

Hokimiyatlar tomonidan berilgan yakka tartibdagi tad- birkorning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohno- masi topshirilgandagina faoliyat vaqtincha to'xtatilgan deb hisoblanadi. Bunda tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirgandan keyin qat'iy belgi-

**Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari  
bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq  
STAVKALAR<sup>1</sup>**

№	Faoliyat turi	Soliq to'lovchilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda)		
				Toshkent shahri	Viloyatlardagi shaharlar	Tumanlar, shu jumladan, qishloq joylari
1.	Avtotransportni qisqa muddat saqlash joylari	Yuridik shaxslar	Egallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,09	0,06
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlanagn o'rinlar soni (bir birlikda)	3,0	2,0	1,0
3.	Bilyardxonalar	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinlar, stollar soni (bir birlikda)	14,0	12,0	10,0

langan soliqni o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan oyda to'lashdan ozod etiladi.

Davlat soliq xizmati organlariga kelib tushgan ariza va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnoma majburiy tartibda, kelib tushgan kunida kelgan xat-xabarlar daftarida ro'yxatga olinishi kerak.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va daromadidan qat'iy belgilangan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.

stavkalar bo'yicha soliq to'laydigan jismoniy shaxslarga jami daromadni belgilash va undan tegishli chegirmalar qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uyushmalar, ittifoqlar va shu kabilarga birlashish, ishlarni o'z transportida bajarishga doir fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda ushbu jismoniy shaxslar qat'iy soliqni belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

#### *Jismoniy shaxs:*

— faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, soliqni faoliyatning har bir turi uchun alohida to'laydi;

— tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan, ishonchnoma bo'yicha transportda amalga oshirsa, ijaraga beruvchilar to'g'risida yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga axborot taqdim etishi kerak, unda ijaraga beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, shuningdek, ijara to'lovining summasi va ijara muddati ko'rsatiladi. Mazkur axborot ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan, ishonchnoma bo'yicha transportda faoliyatni amalga oshirishga qadar taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulknI ijaraga berishdan olgan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa tortish tartibi asosida soliqqa tortiladi.

Avtotransport vositalarini shu jumladan, birlashmalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga ijaraga topshiradigan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliqni jismoniy shaxslar uchun yo'lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirishdan kelib chiqib belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari kimlar?
2. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari qanday holatda boshqa to'lovlarni to'lashi mumkin?
3. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi mezon asosida tabaqalashtiriladi?
4. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?

5. Qat'iy belgilangan soliq miqdorini budjetga to'lash davri qanday?

6. Qanday holatda dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qilinganda qat'iy belgilangan soliqni to'lashmaydi?

7. Soliq davrida tadbirkor kasal bo'lganda yoki oilaviy sharoit tufayli ishlamaganda soliqni to'lashi qanday tartibda amalga oshadi?

8. Tadbirkor faoliyatini vaqtincha to'xtatganda qanday tartibda hujjatlarni rasmiylashtiradi?

9. Jismoniy shaxs bir nechta faoliyat turi bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirganda qanday tartibda soliq to'laydi?

10. Tadbirkor ijaraga olingan vositalar bilan faoliyatni amalga oshirganda mol-mulkini ijaraga beruvchilar to'g'risida soliq idoralarga qanday tartibda ma'lumotnoma taqdim etadi?

### 3.3. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

**Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi**

Hozirgi vaqtda O'zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlaridan biri — qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi.

*Qo'shilgan qiymat solig'i* — har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali bilvosita soliqdir. Korxonada kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xomashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

*Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra*, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xomashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919-yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo‘shilgan qiymat solig‘i M.Lorening taklifidan so‘ng o‘tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo‘llanildi. Fransiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i haqiqatda 1968-yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo‘shilgan qiymat solig‘i G‘arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo‘lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a‘zo mamlakatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishni tartibga solishning huquqiy me‘yorlarini umumlashtirish to‘g‘risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977-yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i e‘tirof etildi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘iga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo‘lib, nafaqat ichki bozordagi tovar aylanma, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovar aylanma ham hisoblanadi.

*Iqtisodiy adabiyotlarda, ko‘pchilik hollarda, qo‘shilgan qiymat solig‘ini «Yevropacha» soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablari shundaki, **birinchidan**, qo‘shilgan qiymat solig‘i dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo‘lgan Fransiyada joriy etildi; **ikkinchidan**, 1977-yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘i bir vaqtning o‘zida Yevropaning bir necha davlatlarida joriy etildi; **uchinchidan**, qo‘shilgan qiymat solig‘i G‘arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.*

Hozirgi vaqtda qo‘shilgan qiymat solig‘i Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarning davlat budjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSH, Yaponiya, Kanada va

Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25—30 foizni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovar aylanmasining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg'unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlari-rni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i 1992-yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq aylanmadan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga aksiz solig'i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromad manbasi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapti. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabr-dagi PQ-1024-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra 2009-yilda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i 29,7 foizni, egri soliqlar tarkibida esa 60 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar qo'shilgan qiymat solig'i budjet daromadlarining asosiy manbasi ekanligini bildiradi.

**Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq stavkalari**

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib, amaldagi qonun hujjatlariga asosan ushbu soliqni budjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno) hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishmaydi.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan holda yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Amaldagi Soliq kodeksining 198-moddasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'ining obykti bo'lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi.

*Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda* — yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya'ni yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag'i kelib tushishi davridan qat'i nazar korxonaga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Soliq solinadigan import deganda esa O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

Tovarlar natural haq tarzida berilganda yoki kassa orqali o'z xodimlariga tannarx bahosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlar (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti hisoblanmaydi:

1) soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan xarajatlar bundan mustasno);

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo'linmalar Soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

3) soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

4) garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan, shisha idishni jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

5) yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqib ketganda), shu jumladan, tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkida bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;

6) tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va obyektlarini bepul asosda berish;

7) banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi;



8) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

9) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

10) ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

11) ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

12) obyekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplash.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish oboroti hisoblanmaydi:

- soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan xarajatlar bundan mustasno);

- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

- soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

- garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan, shisha idishni jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontrakt) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

- tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va obyektlarini bepul asosda berish;

- banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi;

- va boshqa qonunchilikda ko'zda tutilgan oborotlar.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992-yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulot-

lari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999 yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanildi. Faqat 3 ta band, ya'ni eksport, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga beriladigan mineral o'g'it va yoqilg'i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar «0» stavkasi bo'yicha soliqlarga tortildi. 15% li qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi esa un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug'doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

2000-yildan hozirgi kungacha soliq Kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va «0» foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda. Umuman olganda «0» stavka deganda korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni «nol»ga teng degani.

Quyidagilarga «0» darajali stavka bo'yicha soliq solinadi:

- tovarlarning, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan ishlarning (ko'rsatiladigan xizmatlarning) erkin konvertatsiya qilinadigan valutadagi eksportiga, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlariga yetkazib berilishiga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

Ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armanistonda, Tojikistonda, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqlarga tortilmaydi, «0» stavka ham qo'llanilmaydi. Qozog'istonda esa MDHdan tashqariga eksport «0» stavkada soliqlarga tortiladi.

Eksport qilingan tovarlarni qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqlarga tortish masalasida O'zbekiston bilan boshqa davlatlar o'rtasida davlatlararo bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan bo'lib, ammo ratifikatsiya qilinmagan (tasdiqlanmagan) holatlarda imtiyozni qo'llashning iloji bo'lmaydi, ya'ni imtiyoz qo'llash uchun qonuniy asos bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda Qirg'iziston, Ozarbayjon, Moldova, Rossiya, Qozog'iston bilan ham bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan. Shartnomada

kelishilgan davlatlar bojxona hududlarida tovarlar (ish va xizmatlar) eksport qilinganda «0» stavkadagi qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash ko'zda tutilgan, shuningdek:

- chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarining rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovar (ish va xizmat)larga.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi:

- suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya va gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlarga;

- xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tiladigan tranzit yuklarini tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga, jumladan, yo'lovchilar, bagajlar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashish.

2006-yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar va yonilg'i-moylash materiallariga «0» stavka bekor qilindi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli «0» stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan hisobga kiritiladi.

Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan «0» stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qoplash (ya'ni qaytarish) tartibi 2003-yil 13-maydagi hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga undiriladigan to'lovlar intizo-

mini mustahkamlash bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan (30-sonli bayonnoma) «Xo'jalik yurituvchi subyektlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yuzaga kelgan manfiy farqni qoplash to'g'risida»gi Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizom Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 6-iyunda 1246-son bilan tasdiqlangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy qoldiqni paydo bo'lishi muammosi, asosan, mahsulotini eksport qiluvchi yirik korxonalarda kuzatiladi. Masalan: Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatining 1 oylik ortiqcha to'lovi 100 mln so'm, Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinatida 200 mln so'm, Kabul Tekstaylz – O'zbek qo'shma korxonasida 30 mln so'm (bu korxonada eksport jami sotilgan tovarlarning 90 foizni tashkil qiladi). Bu muammo «0» stavkada soliqqa tortish natijasida ortilgan mahsulotga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasligini va olingan materiallarga qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinishi oqibatida yuzaga keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining vatani hisoblangan Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha to'rtta stavka amal qiladi, ya'ni standart stavka, qisqartirilgan stavka, oraliq stavka va oshirilgan stavka.

Standart soliq stavkasi 19,6 foiz qilib belgilangan. Bu stavka o'zgacha stavkalar qo'llanilishi ko'zda tutilgan operatsiyalardan tashqari barcha operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Pasaytirilgan stavka (2,2; 5,5%) oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchiligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun, kitoblar va dori-darmonlar uchun amal qiladi. Shunday pasaytirilgan stavka ayrim xizmat turlariga: turizm va mehmonxona xizmatlari, yuk va yo'lovchi tashish, tomosha tadbirlari, korxonalarining xodimlariga beriladigan ovqatlarga tegishlidir. Oraliq stavka gaz, elektr, issiq suv, ko'mir, neft mahsulotlari, spirt, kofe kabi tovarlarni soliqqa tortish uchun qo'llaniladi. Oshirilgan stavka (22,0%) ayrim mahsulot turlariga, jumladan, avtomobillar, kino-foto tovarlar, tamaki mahsulotlari, parfyumeriya, qimmatbaho mo'ynalarga nisbatan qo'llaniladi.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'ining uchta stavkasi amal qiladi: nollik, 8 va 17,5 foiz. Nol darajasidagi soliq stavkasi tovarlarning 17 ta guruhiga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta'minoti va kanalizatsiya, ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan kitoblar va qo'llanmalar,

yoqilg'i va isitish, transport vositalari, xalqaro xizmatlar, kiyim-kechak va poyabzal, xayr-ehsonlarga nisbatan qo'llaniladi. 8 foizli stavka ta'minotning kommunal turlari borasidagi xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. 17,5 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlar)ning barcha boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi.

Ispaniya Qirolligi mamlakatida qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 16 foizni tashkil etadi. Pasaytirilgan stavkalar, ya'ni 0 foizli stavka – eksport bilan bog'liq tovar va xizmatlar uchun; 4 foizli stavka – birinchi navbatdagi zarur tovarlar uchun (non, g'alla, sut, tuxum, mevalar, sabzavotlar, kitoblar, gazetalar, dori-darmonlar, munitsipial uylar, nogironlar uchun mashinalar va h.k.); 7 foizli stavka – oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy qurilishi, transport, turizm uchun, 28 foizli stavka esa zeb-ziynat buyumlari va avtomobillar bo'yicha belgilangan.

Rossiya Federatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'i 20 foiz, 10 foiz va 0 foizli qilib belgilangan. 0 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlarning) ayrim turlariga, 10 foizli stavka – oziq-ovqat va bolalar tovarlariga, 20 foizli stavka esa tovarlar (ish va xizmatlar)ning boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi.<sup>1</sup>

### **Soliq imtiyozlari**

Qo'shilgan qiymat solig'idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular Soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan. Ular:

1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);

2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);

3) soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari (210-modda);

4) soliqdan ozod etiladigan import.

**Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:**

— davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar;

---

<sup>1</sup> *Abdurahmonov O.* Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O'quv qo'llanmasi. — T.: TDIU nashr., 2003.

— maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

— bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

— dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;

— protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek, nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

— davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

— pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

— aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

— budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining budjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

— shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek, temiryo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari;

— oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

— vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirilgan qimmatbaho metallar;

— chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbe-

kiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan, aeronavigatsiya xizmati;

— sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari.

— gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

— geologiya va topografiya ishlari;

— O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

— O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilina-yotgan tovarlarni tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar;

— nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

— O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlarni (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek, grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

— uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar;

— aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash;

— davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;

— o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;

— ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;

— va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oborotlar.

**Moliyaviy xizmatlarning quyidagi turlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan:**

— to‘lovlar, o‘tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to‘lov vositalari bilan bog‘liq operatsiyalar, inkasso bo‘yicha operatsiyalar;

— milliy valuta va chet el valutasini bilan bog‘liq operatsiyalar;

— qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar;

— akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko‘rsatish;

— pul mablag‘larini konvertatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar;

— chet el valutasini bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;

— kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);

— forfeyting va faktoring operatsiyalari;

— lombard operatsiyalari (garovga qo‘yilgan mol-mulka qisqa muddatli kreditlar berish);

— jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining oboroti;

— va boshqa oborotlar.

**Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan sug‘urta xizmatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:**

1) sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

a) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;

b) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantiye-malar;

d) sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

e) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari ulushining qayta sug‘urta talovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovini;

f) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo‘yicha daromadlar;

g) sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyyerlar, assistans xizmatlari va



shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

h) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug'urta qildiruvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan foizlar;

i) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

j) sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan, sug'urta rezervlari va sug'urta fondlari mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni);

b) preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

d) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

e) sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

**Tovarlarni import qilishda quyidagi hollarda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi:**

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma'

muriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) davlatlar, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari hisobidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari, shuningdek, dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari ishlab chiqarish uchun olib kirilayotgan xomashyo;

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xomashyo, materiallar va yarim mahsulot.

**Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartiblarining o‘ziga xos xususiyatlari**

Soliq qonunchiligiga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblanishi soliq to‘lovchilarning olib borayotgan xo‘jalik operatsiyalariga bog‘liq ravishda soliqqa tortiladigan bazani aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

*Tovarlar sotilganda, ish va xizmatlar bajarilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisoblanishi.* Respublikamizda qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgandan buyon soliqni hisoblashning ikki turdagi usuli amal qilgan, ya‘ni ishlab chiqarilgan tovarlarni jo‘natish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha hisobga olish usuli yoki hisobvaraqa-faktura usuli hamda ulgurji va chakana savdo, vositachilik xizmati ko‘rsatish sohalarida hisobdan chiqarish usuli qo‘llanilgan. Bunda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan baza narxlar farqi sifatida, ustama va mukofot haqi summasi sifatida aniqlanib, shu summadan soliq hisoblangan.

1992-yildan 1994-yilga qadar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanar edi. 1994-yildan ular budjetga qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i o‘rniga yalpi daromad solig‘i hamda mol-mulk solig‘ini to‘laydigan bo‘lishdi. Keyingi davrlarda soliq hisoblashning «yalpi foyda» (chegirish) usuli asta-sekin «hisobga olish — hisobvaraqa» usuliga aylanib bordi. Soliq kodeksi kuchga kirgandan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning «yalpi foyda» (chegirish) usuli faqat vositachilik va «O‘zdonmahsulot» DAK tizimi tarkibiga kiradigan, birlamchi ishlovdan keyingi don, qo‘shimcha mahsulot va chiqindilarni sanoatdan donni qayta ishlashga sotishni amalga oshiradigan korxonalar uchun qo‘llaniladi. Boshqa holatlarda «hisobga olish — hisob-faktura» usuli qo‘llaniladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblashning «hisobga olish — hisob-faktura» usulining mohiyati shundaki, korxonada budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq miqdoridan shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xomashyo, materiallar uchun to‘langan soliq miqdorini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Chegirishga hisobot davrida hisob-faktura bilan qabul qilingan xomashyo, materiallar, shu jumladan, import qilingan

tovarlarga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qabul qilinadi.

Quyidagi shartlarni bajargan holda hisobga olish amalga oshiriladi:

- *birinchidan*, bu hisobot davrida tovar va xizmatlar haqiqatda sotib olingan bo'lishi kerak;

- *ikkinchidan*, ular bo'yicha tovar yetkazuvchidan hisob-faktura to'ldirilgan bo'lishi;

- *uchinchidan*, ular soliqqa tortiladigan faoliyatda ishlatilgan bo'lishi kerak.

*Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni sotishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash.* Korxonaning o'z ehtiyoji uchun olingan asosiy vosita va nomoddiy aktivlari korxonaning buxgalteriya balansida mol yetkazib beruvchiga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan birga yozilib, kirim qilinadi. Agar balansdagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar sotilsa, u holda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib, sotish bahosi bilan qoldiq qiymat o'rtasidagi farq hisoblanadi. Bunda, agar korxonada asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qoldiq qiymatida sotsa, u holda soliqqa tortiladigan obyekt bo'lmaydi va budjetga soliq to'lanmaydi. Shuningdek, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqaruvchi va uni oldi-sotdi faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun qo'shilgan qiymat solig'i hisoblashning alohida tartibi mavjud.

*Vositachilik xizmatlari ko'rsatilganda qo'shilgan qiymat solig'ining hisoblanishi.* Vositachilik xizmatlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda «yalpi foyda» (chegirish) usuli qo'llaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, soliq baho farqi, ustama va mukofotlar sifatida olingan daromaddan hisoblanadi. Budjetga soliq to'lashda hisoblangan soliq summasi ushbu daromadni olishga sarflanadigan xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i summasiga kamaytiriladi. Demak, qo'shilgan qiymat solig'i summasini vositachilik korxonalari mukofotlar summasidan hisoblaydilar.

*Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish.* Umumdavlat soliqlarini to'lovchi korxonalarda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning amaldagi mexanizmi soliqni ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lgan yangidan yaratilgan qiy-

matdan to'lanishini ko'zda tutadi. Qo'shilgan qiymat ikki marotaba soliqqa tortilmaydi.

Respublikamizda 1998-yildan Soliq kodeksi joriy etilishi bilan birga hisobvara-q-fakturalar kiritilgan bo'lib, u kirimdagi soliq summasini hisobga olish uchun asosiy hujjat hisoblanadi. Ammo amaliyotda bu tartib o'zining vazifasini to'laqonli bajara olmadi, chunki bu davrda budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi yetkazib beriladigan mahsulotga hisoblangan soliq summasi bilan bevosita ishlab chiqarishga sarflangan material resurslarga hisoblangan soliq summasi o'rtasidagi farqi sifatida aniqlanar edi. Bu tartibdagi hisoblash mexanizmi 1999-yilga qadar amaliyotda qo'llanilib kelindi va uning ayrim kamchiliklari mavjud edi. Jumladan:

- ishlab chiqarishga sarflangan paytda xomashyo va materiallarga hisoblangan soliq summasini budjet bilan hisob-kitobda chegirilishi — korxonalarining oborot mablag'larini cheklanishiga olib keldi;

- qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvara-q faktura asosida hisoblanish mexanizmi ishlamadi, chunki amalda hisobvara-q fakturada ko'rsatilgan soliq summasi budjetga hisobga olib borishda asos bo'lmadi;

- bunday hisoblash tartibi xalqaro soliq amaliyotidagi qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tamoyillariga zid kelardi.

Ushbu holatlar tahlil qilinib, 1999-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmi o'zgartirildi va xalqaro amaliyotga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tamoyillariga moslashtirildi. Quyida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning taqqoslama usuli keltirilgan (3.4.1-jadval).

1999-yildan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning yangi tartibini joriy etilishi uni hisoblashning soddalashtirilgan mexanizmini qo'llanilishiga olib keldi, ya'ni hisobvara-q faktura usulining ishlab ketishini ta'minladi va bunda material resurslarining ishlab chiqarishga sarflanishidan qat'i nazar, hisobot davrida sotib olingan material resurslarga to'langan soliq summasi hisobvara-q faktura asosida budjet bilan hisob-kitobga olib boriladigan bo'ldi.

Bu tartibdagi hisoblash mexanizmi korxonalarining oborot mablag'larini chetlanishini keskin kamaytiradi.

**Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning 1999-yildan joriy etilgan usulining taqqoslama tahlili (raqamlar shartli)**

№	Ko‘rsatkichlar	1999-yilga qadar		1999-yildan keyin	
		oborot	qo‘shilgan qiymat solig‘i	oborot	qo‘shilgan qiymat solig‘i
1.	Hisobot davrida sotib olingan xomashyo, materiallar	100	20	100	20
2.	Ishlab chiqarishga ishlatilgan xomashyo, materiallar	50	10	50	10
3.	Tovarlar (ish va xizmatlar)ni sotish oboroti, ya‘ni soliqqa tortiladigan oborot	200	40	200	40
4.	Budjetga hisoblangan soliq summasi	X	30 (40—100)	X	20 (40—20)

**Qo‘shilgan qiymat solig‘ini budjetga to‘lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari. Hisobvaraq-faktura va uni to‘ldirish tartibi**

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblarni (5-ilova) korxonalar ortib boruvchi yakun bilan ro‘yxatdan o‘tgan joyidagi Davlat soliq idoralariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo‘yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilari hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalar yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda taqdim etadi.

Soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtda hisobot davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha hisobvaraq-fakturalar reyestrini ham taqdim etadilar. Hisobvaraq-fakturalar reyestrining shakli davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Hisobotlarni o‘z vaqtida topshirmaslik korxonalar va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan Davlat soliq ido-

ralari tomonidan moliyaviy va ma'muriy jazo choralarini qo'llanishiga olib keladi.

Korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ini soliq hisobini topshirgan kundan kechiktirmay tegishli davrdagi haqiqiy sotish oborotidan kelib chiqib to'laydi. Agar korxonalar hisoblangan soliq summasini budjetga o'z vaqtida o'tkazib bermasa, bunday holatda Davlat soliq idoralari mas'ul xodimlari tomonidan hisoblangan soliq sumasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun 0,05 foiz miqdorida penya (moliyaviy jazo) qo'llanilishiga olib keladi. Bunda korxonalar rahbariyatiga nisbatan ma'muriy chora qo'llanilmaydi.

1998-yil 1-yanvardan O'zbekistondagi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun, shu jumladan, soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar hamda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan korxonalar ham tovarlarni sotganda, ish va xizmatlar ko'rsatganda hisobvaraqq-fakturani to'ldirishi qonun asosida shart qilib belgilandi.

Hisobvaraqq-faktura mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yuklab jo'natilishi, ish va xizmatlar ko'rsatilishi sanasi (kuni)dan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvaraqq-fakturada — uning tartib raqami va yozilgan sanasi, jo'natiladigan tovarlar bo'yicha shartnomalar raqami va sanasi hamda soliq to'lovchi va xaridorning nomi, manzili, STIRi va shu kabi rekvizitlari ko'rsatiladi.

Jadvalli shaklni to'ldirishda quyidagilarni qayd etish kerak (6-ilova):

- 1-ustunda tovarlar (ish va xizmatlar) nomi;
- 2-ustunda tovarlarning o'lchov birligi (dona, metr, kg, va hokazo);
- 3-ustunda yuklab jo'natiladigan tovarlarning miqdori yoki soni;
- 4-ustunda tovarlarning shartnoma bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'isiz narxi;
- 5-ustunda tovarlarning jami yetkazib berish qiymati (qo'shilgan qiymat solig'isiz);
- 6-ustunda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, agar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lsa chiziqcha tortib qo'yiladi;
- 7-ustunda jo'natilayotgan tovarlar bo'yicha tegishli stavkalariga ko'ra hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

● 8-ustunda jo‘natilayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan hisoblangan summasi.

Soliq kodeksiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan, shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar 6- va 7-ustunga «Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiz» degan shtampini qo‘yishadi, agar shtamp bo‘lmasa qo‘lda yozib qo‘yishadi va 8 ustunni to‘ldirishmaydi.

Agarda korxonaga aksiz osti tovarlar ishlab chiqarsa unda hisobvaraqa-fakturaga qo‘shimcha ustunlar kiritiladi va ushbu ustunlarda aksiz stavkasi va summasi aks ettiriladi (chunki aksiz summasi ham qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladi).

Hisobvaraqa-faktura korxonaga rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolaniadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi.

Hisobvaraqa-faktura yetkazib beruvchi korxonaga tomonidan 2 nusxada to‘ldiriladi, 1-nusxasi xaridorga beriladi va u xaridorga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini belgilangan tartibda hisobga kiritish uchun huquq beradi, 2-nusxasi esa korxonaning o‘zida qoladi.

Ta’kidlash joizki, bevosita aholiga pullik xizmatlar (ishlar)ni ko‘rsatadigan korxonalar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishda kassa cheki yoki xizmatlar ko‘rsatilishi (ishlar bajarilishi)ni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar hisobvaraqa-faktura hisoblanadi. Bunda bu hujjatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i ajralib turishi lozim.

O‘z mahsulotlarini (tovarlarini, ishlarini, xizmatlarini) uzluksiz yetkazib beradigan korxonalar bo‘yicha hisobvaraqa-fakturalar iste’molchilarga hisobvaraqa rasmiylashtirish bilan bir vaqtda, lekin bir oyda bir martadan kam bo‘lmagan tarzda yoziladi. Bunda hisobvaraqa-fakturalarning yozilishi mahsulot sotilgan hisobot davrida amalga oshiriladi.

Banklar uchun, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan operatsiyalar bajarilganda, hisobvaraqa-faktura bo‘lib mijoz shaxsiy hisobvaraqa-faktura ko‘chirma hisoblanadi.

Lizing operatsiyalari bo‘yicha lizing beruvchilar uchun hisobvaraqa-faktura bo‘lib lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi hisoblanadi. Bunda tegishli hujjatlar (lizingning tarkibiy qismi hisoblanadigan lizing to‘lovlari jadvali; hisobvaraqa; lizing to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha lizing



oluvchiga taqdim etiladigan bildiruvnoma va hokazo) bilan rasmiylashtiriladigan har bir lizing to'loviga qo'shimcha hisobvara-q-faktura yozilmaydi.

Agar lizing shartnomasi lizing beruvchiga qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutsa, bunda mazkur xizmatlarga belgilangan tartibda hisobvara-q-faktura yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda, hisobvara-q-faktura o'rniga birlamchi hujjat bo'lib quyidagi hujjatlar:

- sug'urta korxonalari uchun — sug'urta polisi;
- sug'urta agentlari uchun — sug'urta polisi va shartnoma topshirig'i (agentlik bitimi);
- sug'urta brokerlari uchun — sug'urta polisi va shartnoma topshirig'i hisoblanadi.

Ishlar (qurilish, ta'mirlash-qurilish, loyiha-qidiruv, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlar) bajarish yoki xizmatlar (transportga doir, mol-mulkni ijaraga berish, aloqa xizmatlari va boshqalar) ko'rsatish bilan shug'ullanadigan korxonalar ham hisobvara-q-faktura yozishi shart.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temiryo'lda tashishlar, bank operatsiyalari, shuningdek, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar hisobot davrining oxirgi kunida bir marta hisobvara-q-faktura yozadi.

Agar ishlar bajaradigan korxonalarda buyurtmachiga imzo chekish uchun taqdim etiladigan, bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma — hisobvara-q-fakturada yoki hujjatda hisobvara-q-fakturaning belgilangan shaklida aks ettirilgan barcha majburiy rekvizitlar ushbu hujjatda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi ko'rsatilgan yoki qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmaganlar uchun «Qo'shilgan qiymat solig'isiz» yozuvi (shtampi) qo'yilgan holda mavjud bo'lsa, bunda mazkur hujjatlar hisobvara-q-fakturaga tenglashtiriladi va bunday korxonalar qo'shimcha ravishda hisobvara-q-faktura yozmasligi mumkin.

**Import tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibi**

Import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'lib, tovarlarni import qiladigan yuridik shaxs-

lar, shuningdek, boj to'lamasdan o'z ehtiyojlari uchun me'yorida ortiqcha tovarlar olib kiradigan jismoniy shaxslar hisoblanadi (demak, jismoniy shaxslar ham bevosita qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lishi mumkin).

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan obyekt bo'lib, O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston hududiga import qilinadigan tovarlar hisoblanadi.

Tovar deganda iste'molga mo'ljallangan va qiymatga ega bo'lgan barcha narsalar tushuniladi.

Import tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bo'lib, bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig'i summasi (aksiz osti tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{QQS} = \frac{(IQTBQ + BBS + AS) \times QQS_{ST}}{100}$$

Bu yerda:

$S_{QQS}$  – qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

$IQTBQ$  – import qilinadigan tovarlarning bojxona qiymati;

$BBS$  – bojxona boji summasi;

$AS$  – aksiz solig'i;

$QQS_{ST}$  – qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizli stavka bo'yicha to'lanadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

● xorijiy diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

● jismoniy shaxslarning boj to'lamasdan olib kirish me'yorlar doirasida import qilinadigan tovarlar (tovarlarni olib kirish me'yori Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori asosida belgilanadi);

● O'zbekiston Respublikasi hududiga tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar yuz berganda olib kiriladigan tovarlar,

shuningdek, davlatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya maqsadlarida olib kiriladigan tovarlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga investitsiya dasturiga kiritilgan ustuvor obyektlarni jihozlash uchun hamda hukumat kafolati bilan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalanadigan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun olib kiriladigan texnologik uskunalar;

- import bo'yicha olib kelinadigan dori-darmonlar va tibbiy buyumlar;

- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining ustav kapitaliga chet ellik investorlar tomonidan ulush sifatida olib kirilayotgan texnologik jihozlar;

- va boshqa qonunchilikda ko'zda tutilgan import tovarlar.

Tovarlar respublika hududiga import qilinishida qo'shilgan qiymat solig'i bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda to'lanadi. Agar bojxona deklaratsiyasi belgilangan muddatda topshirilmasa qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari bojxona deklaratsiyasi topshirish muddati tugagan kundan boshlab hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslar soliqni naqd pul bilan bojxona organi posti kassasiga belgilangan tartibda to'lashlari mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'langan summalari hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kiritilgan, keyin ular respublika budjeti daromadlariga qayd etiladi. Bojxona organlari 3 kun muddat ichida undirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini respublika budjetiga o'tkazadilar.

**Import qilinadigan ishlar, xizmatlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibi**

g'i to'lovchilar hisoblanadi.

Tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ga muvofiq respublika hududiga import qilinadigan ishlar va xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan obyekt hisoblanadi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i ishlar, xizmatlar bajarilganligi dalilini tasdiqlovchi hujjatlar (dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki

boshqa hujjatlar) asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$C_{qqs} = S \times N/100,$$

bu yerda:

$S_{qqs}$  — qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

$S$  — dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki boshqa hujjatlarga ko'ra tasdiqlanadigan, import qilinadigan ishlar, xizmatlar qiymati;

$N$  — qo'shilgan qiymat solig'ining foizdagi stavkasi.

Realizatsiya qilinadigan joyi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan import qilinadigan ishlar, xizmatlar import qilinadigan ishlar, xizmatlar deb tan olinadi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan shartnomalar (bitimlar) bo'yicha xalqaro va hukumatga qarashli xorijiy moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar bergan qarzlardan va grantlar hisobiga yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan ishlar, xizmatlar;

- budjet tashkilotlari buyurtmalari bo'yicha budjet mablag'lari hisobiga O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan ishlar va xizmatlar.

Soliq kodeksi amalga kiritilguniga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida soliq to'lovchilarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugaguniga qadar saqlanib qoladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 (yigirma) foiz stavka bo'yicha to'lanadi.

Bajarilgan ishlar, xizmatlar dalili tasdiqlangan kundagi Markaziy bank kursi bo'yicha qayta hisoblangan ishlar, xizmatlar qiymatidan kelib chiqqan holda amalda ishlar bajarilganini, xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida import qilinadigan ishlar va xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i milliy valuta (so'm)da hisoblab chiqariladi.

Montaj qilish, ishga tushirish, sozlash, maslahatlar, o'qitish va boshqa ishlar, xizmatlarga doir import qilinadigan ishlar va xizmatlarga, olib kelinadigan uskunalarga doir xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i tuzilgan shartnomalar

(kontraktlar)ga muvofiq belgilangan mazkur ishlar, xizmatlarning qiymati asosida hisoblab chiqariladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovi ana shu ishlar, xizmatlarni import qiluvchi shaxs yozib bergan hamda unda «import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi to'lovi» degan yozuv bitilgan to'lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i amalda ishlar, xizmatlar bajarilgan kundan boshlab 5 kun ichida budjetga to'lanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i faqatgina milliy valuta — so'mda to'lanadi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi ishlar, xizmatlar importi amalga oshirilgan hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan, belgilangan shaklda oylar bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi soliq organiga taqdim etiladi.

### **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala.** Quyidagi ma'lumotlarga asosan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar — 6500.

2. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati — 13200.

*Yechilishi:*

1. Korxonada hisobot davrida jo'natilgan tovarlari bo'yicha imtiyozga ega bo'lmaganligi bois jami realizatsiyadan soliq to'laydi, ya'ni:

$$S_{qqs} = Stob \times SS / 100 = 13200 \times 20 \% = 2640 \text{ ming so'm}$$

(bu yerda,  $S_{qqs}$  — iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;  $Stob$  — soliqqa tortiladigan oborot;  $SS$  — soliq stavkasi).

2. Budjetga o'tkazilishi lozim bulgan soliq summasini aniqlash uchun hisobot davrida qo'shilgan qiymat solig'i bilan xarid qilingan xomashyo va materiallar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini ayirishimiz lozim, ya'ni:

$$T_{qqs} = 6500 \times 20 \% = 1300 \text{ ming so'm.}$$

3. Budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan soliq summasi hisobot davrida jo'natilgan tovarlar bo'yicha hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'idan xarid qilingan xomashyo va

materiallar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining chegirmasiga teng, ya'ni:

$$SBqqs = Sqqs - Tqqs = 2640 - 1300 = 1340 \text{ ming so'm.}$$

**2-masala.** Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan qayta ishlash korxonasi joriy yilda quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

- mahsulotni sotishdan tushgan tushum — 1400 ming so'm;

- bunda qaytarib berilishi lozim bo'lgan idishning narxi — 250 ming so'm;

- tekinga tannarxi bo'yicha 120 ming so'mlik mahsulot berilgan;

- olingan jarima summasi — 25 ming so'm;

- bankdan olingan foizlar — 10 ming so'm;

- 300 ming so'm korxonadan tomonidan nomoddiy aktivlar sotilgan (boshlang'ich narxi — 500 ming so'm, to'plangan amortizatsiya — 320 ming so'm);

- nolikvid xomashyo zaxiralari sotishdan tushgan tushum — 87 ming so'm, ularning tannarxi — 75 ming so'm.

Hisobvaraƒ-fakturada olingan qo'shilgan qiymat solig'i:

- xomashyo uchun — 320 ming so'm;

- ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga berishdan — 150 ming so'm;

- uyali aloqadan — 70 ming so'm.

Aniqlang:

*Joriy davrda davlat budjetiga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i necha so'mga teng?*

**3-masala.** Quyidagi ma'lumotlarga asosan *qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar — 2500.

2. Xarid qilingan asosiy vositalar — 4500.

3. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati — 13000.

4. Asosiy vositalar realizatsiyasi — 900.

5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati — 400.

*Yechilishi:*

1. a)  $Sqqs = Stob \times SS/100 = 13000 \times 20 \% = 2600$  ming so'm;

- b) asosiy vositalar realizatsiyasida qo'shilgan qiymat

solig'i asosiy vositalarning realizatsiyasi va eskirish qiymati o'rtasidagi farqdan hisoblanadi, ya'ni:

$Sqqs = Tq \times SS / (SS+100) = 500 \times 20 / (20+100) = 83.3$  ming so'm.

(Bu yerda.  $Tq$  – qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovar qiymati.)

$Sqqs = 2600 + 83.3 = 2683.3$  ming so'm.

2.  $Tqqs = 2500 \times 20 \% = 500$  ming so'm.

O'z iste'moli uchun xarid qilingan asosiy vositalar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinmaydi, balki asosiy vositaning qiymati sifatida kirim qilinadi, shuning uchun 3500 ming so'mga xarid qilingan asosiy vositalar qiymatidagi qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmaydi.

3.  $Bqqs = Sqqs - Tqqs = 2683.3 - 500 = 2183.3$  ming so'm.

**4-masala.** Quyidagi ma'lumotlarga asosan *qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar – 2220.

2. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati qo'shilgan qiymat solig'i bilan – 4500;  
– shundan, eksport – 2500.

**5-masala.** Quyidagi ma'lumotlarga asosan *qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar – 2500.

2. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati – 3700.  
– shundan erkin almashtiriladigan valutaga eksport – 1800.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Qo'shilgan qiymat qanday tarkib topadi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaysi davlatda, kim tomonidan joriy etilgan?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
4. Qo'shilgan qiymat solig'ini qanday shaxslar to'laydi?
5. Qo'shilgan qiymat solig'i obykti qanday aniqlanadi?
6. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?

7. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari va ularni qo‘llash tartibi qanday?

8. Nollik stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo‘llaniladi?

9. Qanday tovarlar va mahsulotlar (ishlar xizmatlar) qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod bo‘ladi?

10. Nollik stavka bilan imtiyoz o‘rtasida qanday tafovutlar mavjud?

11. Hisobvara-q-fakturalar qanday to‘ldiriladi va unda qo‘shilgan qiymat solig‘i qaysi punktlarda ko‘rsatiladi?

12. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?

13. Import tovarlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i qaysi formula orqali aniqlanadi?

14. Import qilinadigan ish va xizmatlarga qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash formulasini aniqlang.

### 3.4. AKSIZ SOLIG‘I

#### **Aksiz solig‘ining iqtisodiy mohiyati va budjet daromadlarida tutgan o‘rni**

O‘zbekistonda aksiz solig‘i 1992-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikda oborot solig‘i va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga joriy qilingan. Uning qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Aksiz solig‘i individual xarakterga ega bo‘lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Aksiz solig‘i qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo‘natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budjetga undirish shakli hisoblanadi. Aksiz solig‘i Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o‘rin egallaydi, jumladan, davlat budjetining solikli daromadlari tarkibida 2000-yilda 22,8 foizni, 2001-yilda 26,3 foizni, 2002-yilda 28,8 foizni, 2003-yilda 31,1 foizni tashkil etgani holda 2006-yilgi davlat budjeti daromadlarida uning ulushi 19 foizni, 2009-yilda esa 14,4 foizni tashkil etishi prognozlashtirilgan.

Aksiz solig‘ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayish tendensiyasiga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabrdagi 390-son «Bozorni iste’-



mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarini o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan «O'zDEUavto» aksionerlik jamiyatining ishlab chiqarayotgan avtomobillari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aksiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste'mol tovarlarining assortimentini ko'paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarining o'z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo'ldi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtda aksiz solig'ining ulushi davlat budjeti daromadlari tarkibida kam salmoqni egallamoqda. Aksiz solig'i to'liq respublika budjetining daromadlar qis-miga kelib tushadi va uning soliq yuki iste'molchilar zim-masida bo'ladi.

**Aksiz solig'i to'lovchilar.  
Soliq obyekt va bazasi**

Aksiz solig'ini to'lovchilari bo'lib, mulk shaklidan va soliqqa tortishning qanday tartibi o'rnatilganligidan qat'i nazar aksizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi aksiz solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida korxonalar tushuniladi.

Soliq kodeksining 230-moddasiga ko'ra quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan obyekt hisoblanadi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- tovarni sotish (jo'natish);
- garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida

nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;

— aksiz to‘lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni ulush qo‘shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek, ulush qo‘shish asosida xomashyo va materiallarni, shu jumladan, aksiz to‘lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

*Tekinga beriladigan aksizlanadigan mahsulot bo‘yicha quyidagilar soliq solish obyeksi bo‘lib hisoblanadi:*

— aksiz solig‘ining qat‘i stavkalari belgilangan alkogolli mahsulot, tamaki mahsulotlari, o‘simlik (paxta) yog‘i, etil spirti, pivo, vino bo‘yicha — sotilgan mahsulot hajmi natu-  
ra ifodasida;

— boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo‘yicha soliq to‘lovchida tovarni berish paytida shakllangan narxlar darajasidan kelib chiqib hisoblangan, biroq mazkur aksizlanadigan tovarni ishlab chiqarish bo‘yicha haqiqatda shakllangan xarajatlardan past bo‘lmagan qiymat.

*Quyidagi aksizosti tovarlarga aksiz solig'ini solinmaydi:*

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, baxtsiz hodisalar yoki avariylar yuz berganda yordam ko'rsatish uchun, insonparvarlik yordami va beg'araz texnik ko'mak sifatida, shuningdek, xayriya maqsadlari uchun aksiz to'lanadigan tovarlarni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilishga;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'ini solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'ini mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

*Aksizlanadigan tovarlar uchun soliq solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:*

● aksiz solig'ining qat'ini stavkalari belgilangan tamaki mahsulotlari, o'simlik (paxta) yog'ini, etil spirti, pivo, konyak, aroq va boshqa alkogolli aroq mahsulotlari, filtrli va filtrsiz sigaretalar, neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg'isi va aviakerosin) bo'yicha — sotilgan mahsulotning natural ko'rinishidagi hajmi;

● aksiz solig'ini to'lanadigan boshqa mahsulotlar (zargarlik buyumlari, kumushdan qilingan oshxona buyumlari, tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, «O'zDEUavto» aksiyadorlik jamiyati avtomobillari) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini hisobga olmagan holda, shartnomaviy narxlar

bo'yicha yuklab jo'natilgan tovarning qiymatiga foiz hisobida.

*Buyurtmachi tomonidan beriladigan xomashyodan mahsulotga aksiz solig'ini hisoblash chog'ida aksiz solig'i solinadigan mahsulotni sotishga doir aylanma quyidagicha belgilanadi:*

— aksiz solig'ining qat'i stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha tayyor mahsulotning fizik hajmidan kelib chiqib;

— boshqa mahsulotlar bo'yicha tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatidan va buyurtmachi tomonidan beriladigan xomashyo qiymatidan kelib chiqib.

**Aksiz solig'i stavkalari, xorijiy davlatlar tajribasi**

Aksiz solig'i stavkalari va aksiz osti tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi. 2008-yilda aksizosti tovarlarga belgilangan soliq stavkalari quyidagilardan iborat:

3.5.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlarga nisbatan aksiz solig'i STAVKALARI<sup>1</sup>**

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi	
	Aksiz solig'ini hisobga olgan holda sotish narxlarida tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda	Bir o'lchov birligiga so'mlarda
1	2	3
1. Etil spirti (1 dal. uchun)		1410
2. Vino ( 1 l. tayyor mahsulot uchun) <sup>1</sup>		3000
3. Konyak, aroq va boshqa alkogoli mahsulotlar (1 dal. tayyor mahsulot uchun) <sup>1</sup>		11300

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrda PQ-744-sonli qarori.

1	2	3
4. Tarkibida foizlarda hajmiy ulushda etil spirti (alkogol) bor pivo (1 litr tayyor mahsulot uchun): <sup>1</sup>		
— 4,5 gacha (hisobga olinadi)		1000
— 4,5 dan yuqori – 6,0 gacha (hisobga olinadi)		1300
— 6,0 dan yuqori		2200
5. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun): <sup>1</sup>		
— oziq-ovqat yog'i (salomas va «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog'dan tashqari);		495000**
— texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		329000
6. Sigaretalar (1000 dona uchun): <sup>1</sup>		
— filtrli		5206
— filtrsiz, papiroslar		1476
7. Zargarlik buyumlari	25	
8. «O'zDEUavto» AJ ishlab chiqargan avtomobillari <sup>2</sup>	29	
9. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
10. Qimmatbaho metallar <sup>2</sup>		
11. Neft mahsulotlari:		
— benzin A-76, AI-80 (1 tonnasiga)		148000
— benzin AI-91, AI-92, AI-93 (1 tonnasiga)		163000
— benzin AI-95 (1 tonnasiga)		188000
— dizel yoqilg'isi (1 tonnasiga)		130000
— aviakerosin (1 tonnasiga)		18700
12. Tabiiy gaz <sup>2</sup> (aholiga sotiladigan tabiiy gaz hajmi bundan mustasno), eksport bilan birga	25	
13. Ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz («Uztransgaz» AK mintaqalararo unitar korxonalarini tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno) <sup>2</sup> , eksport bilan birga	26	

\*a) Basharti aksiz solig'i prognozlarini bajarilsa hamda unga doir boqimondalar mavjud bo'lmasa, qonun hujjatlariga muvofiq aksiz solig'i summasi quyidagi miqdorlarda «O'zvinosanoat-xolding» xolding kompaniyasini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish fondi hisobraqamiga yo'naltiriladi:

— vinoga (1 dal tayyor mahsulot uchun) belgilangan stavkadan — 410 so'm;

— konyak, aroq va boshqa alkogol mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun) belgilangan stavkadan — 710 so'm.

b) konyak, aroq va boshqa alkogol mahsulotlari hajmiy ulushida etil spirti 40 foizdan yuqori bo'lsa, aksiz solig'i stavkasi (1 dal tayyor mahsulot uchun) 18620 so'm miqdorida belgilanadi.

\*\* Aksiz solig'i Davlat budjetiga 1 tonna uchun 440 550 so'm stavka bo'yicha, qolgan qismi esa Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tasdiqlangan Nizomga muvofiq Yog'-moy oziq-ovqat sanoati uyushmasining maxsus hisobraqamiga o'tkaziladi.

Izohlar:

1. Qat'iy miqdorda belgilangan aksiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilishi hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

2. «O'zDEUavto» AJ avtomobillari, tabiiy va suyultirilgan gazga hamda qimmatbaho metallarga aksiz solig'ini to'lovchilar va uni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Ayrim rivojlangan davlatlarda, masalan, Fransiyada aksizlar tovarlarning natural birligiga nisbatan qat'i stavkalarda belgilab qo'yilgan. Jumladan, 1 litr vino uchun aksiz solig'ining stavkasi 22 santimni, 1 litr shampän vinosi uchun 55 santimni, 1 litr pivo uchun esa 19,5 santimni tashkil qiladi.<sup>1</sup>

AQSHda aksiz soliqlari Federal ahamiyatga ega bo'lgan soliq hisoblanadi. Lekin ularning davlat budjeti daromadlarining hajmidagi salmog'i nisbatan kichik. Aksiz solig'i tamaki va alkogolli mahsulotlarga, transport xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Aksiz solig'ining stavkasi 10 foizni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada aksiz soliqlari egri soliqlarning tarkibida salmog'iga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'idan keyingi o'rinni egallaydi. Aksiz solig'i yoqilg'i, alkogol va tamaki mahsulotlariga, transport vositalari va xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Uning stavkalari 10 foizdan 30 foizgacha oraliqda tebranadi.

<sup>1</sup> Tohir Malikov. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. — T.: 2002. — 15-b.

Germaniyada aksiz solig'i bo'yicha tushumlarning asosiy qismi Federal budjetga o'tkaziladi, faqat pivoga nisbatan joriy qilingan aksiz solig'i bo'yicha tushumlar federal budjetga kelib tushmaydi. Aksiz solig'ining stavkalari tovarlarning noto'g'ri birligiga nisbatan foizlarda va «yevro»da belgilangan. Masalan, sug'urta bitimlari bo'yicha aksiz solig'ining stavkasi sug'urta polisi summasining 12 foiz miqdorida belgilangan. Shampan vinosiga nisbatan belgilangan soliq stavkasi 0,75 litr uchun 2 yevroni tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasida 2001-yilning 1-yanvaridan boshlab, Soliq kodeksining 2-qismini kuchga kiritilishi munosabati bilan aksizlarni qo'llash doirasi sezilarli darajada kengaytirildi, ya'ni an'anaviy aksiz solig'i to'lovchilar qatoriga ulgurji savdo tashkilotlari ham kiritildi.

Rossiya Federatsiyasida aksiz solig'ining davlat budjeti daromadlarining manbayi sifatidagi roli juda muhim bo'lib, u aksiz soliqlari bo'yicha tushum summalarini Federal budjet daromadlari tarkibidagi salmog'ini yuqori ekanligida namoyon bo'ladi. Masalan, 2003-yilda aksiz solig'i bo'yicha tushumlarning Rossiya Federal budjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i 9,6 foizni tashkil qildi.<sup>1</sup>

**Alohida tovarlar bo'yicha budjetga to'lanadigan aksiz soliqini hisoblab chiqishning xususiyatlari**

### *Alkogolli mahsulot bo'yicha.*

Alkogolli mahsulot bo'yicha belgilangan tartibga muvofiq budjetga to'lanadigan aksiz solig'i summasi belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblab yozilgan soliq summasi bilan «O'zvinosanoat-xolding» xolding kompaniyasi (XK) maxsus hisobvarag'iga o'tkaziladigan soliq summasi o'rtasidagi ayirma sifatida belgilanadi.

«O'zvinosanoat-xolding» XKga o'tkaziladigan aksiz solig'ining miqdori, shuningdek, mazkur tartib tatbiq etiladigan alkogolli mahsulotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Alkogolli mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar ularga xizmat ko'rsatadigan bankda «O'zvinosanoat-xolding» XKga o'tkaziladigan, belgilangan stavka bo'yicha hisoblab chiqilgan aksiz solig'ini to'lashga doir maxsus

---

<sup>1</sup> Налоги и налогообложение. Уч. под редакцией проф. М. В. Романовского и проф. О. В. Врублевской. Санкт-Петербург. ПИТЕР, 2003. — с. 190.

hisobvaraq ochadilar, hisoblangan soliq korxonaning ko'rsatilgan hisobvarag'iga har o'n kunda, aksiz solig'ini to'lash muddatlaridan kechiktirmay o'tkaziladi.

«O'zvinosanoat-xolding» XKga tegishli bo'lgan aksiz solig'i summasi, basharti korxonalar alkogolli mahsulotga doir aksiz solig'i bo'yicha to'lovlarning belgilangan prognozlarini bajargan va unda ko'rsatilgan soliq turi bo'yicha boqimandalar mavjud bo'lmasa, kompaniyaning maxsus hisobvarag'iga yo'naltiriladi.

Tuman (shahar) davlat soliq xizmati organlarining rahbarlari korxonalariga birlashtirilgan moliya inspektorlari bilan, ular bo'lmaganida esa tuman (shahar) hokimiyatlari moliya bo'limlarining rahbarlari bilan hamkorlikda hisobot oyining yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 5-kuniga qadar aksiz solig'i bo'yicha to'lovlar prognozlarining bajarilganligi hamda umuman olganda ko'rsatilgan soliq turi bo'yicha budjet oldida boqimandaning bor-yo'qligi to'g'risida dalolatnoma tuzadilar. Dalolatnomalarning ko'chirma nusxalari hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etiladi.

Aksiz solig'i bo'yicha belgilangan to'lovlar prognozlari bajarilgan hamda umuman olganda ko'rsatilgan soliq turi bo'yicha budjet oldida boqimandalar bo'lmagan taqdirda korxonalar hisobvarag'ida to'plangan summa, xizmat ko'rsatadigan bank uchun asos bo'lib hisoblanadigan dalolatnomaga asosan, hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay korxonalar tomonidan «O'zvinosanoat-xolding» XKning quyidagi maxsus hisobvarag'iga o'tkaziladi: 20210000100192291004 STIR 200626156 MFO 00439, Toshkent sh., «Savdogarbank» Amaliyot boshqarmasi (OPERU).

Korxonalar tomonidan aksiz solig'i bo'yicha belgilangan to'lovlar prognozlari bajarilmagan hamda umuman olganda uning ko'rsatilgan soliq turi bo'yicha budjet oldida boqimandalari bo'lgan taqdirda, yetishmayotgan summa dalolatnomaga asosan korxonalar hisobvarag'ida to'plangan summa hisobidan budjetga undiriladi, to'plangan summaning qolgan qismi esa dalolatnomaga, asosan, «O'zvinosanoat-xolding» XKning maxsus hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Aksiz solig'ini o'tkazishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi



moliya vaziri, viloyatlar hokimiyatlari moliya boshqarmalarining boshliqlari, Toshkent shahar hokimiyati moliya Bosh boshqarmasi boshlig'i, davlat soliq xizmati va xizmat ko'rsatadigan banklar hududiy organlarining rahbarlari, shuningdek, «O'zvinosanoat-xolding» XK korxonalariga Moliya vazirligi tomonidan birlashtirilgan moliya inspektorlarining zimmasiga yuklanadi.

**O'simlik (paxta) yog'i bo'yicha.** Belgilangan tartibga muvofiq oziq-ovqatda ishlatiladigan o'simlik (paxta) yog'i bo'yicha, bundan salomas va «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog' mustasno, budjetga to'lanadigan aksiz solig'ining summasi bo'lib umumbelgilangan stavka bo'yicha hisoblab chiqilgan soliq summasi bilan maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladigan soliq summasi o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Bunda aksiz solig'i summasi, korxonalar tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bajarilgan va o'simlik (paxta) yog'i bo'yicha aksiz solig'iga doir boqimandalar mavjud bo'lmagan taqdirda, maxsus hisobvaraqqa yo'naltiriladi.

Maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladigan aksiz solig'ining miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi.

Tozalangan o'simlik (paxta) yog'i ishlab chiqaradigan korxonalar ularga xizmat ko'rsatadigan bankda belgilangan miqdorda hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ini to'lash bo'yicha alohida hisobvaraqqa ochadilar, u korxonaning ko'rsatilgan hisobvarag'iga har o'n kunda, aksiz solig'ini to'lash muddatlaridan kechiktirmay o'tkaziladi.

Davlat soliq xizmati tuman organlarining rahbarlari korxonalariga birlashtirilgan moliya inspektorlari bilan hamkorlikda, ular bo'lmagan taqdirda esa tuman (shahar) hokimiyatlarining moliya bo'limlari rahbarlari bilan hamkorlikda hisobot oyining yakunlari bo'yicha, hisobot oyidan keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay, aksiz solig'i bo'yicha boqimanda yoki ortiqcha to'lov summasini aniq ko'rsatgan holda prognoz ko'rsatkichlarining bajarilganligi to'g'risida dalolatnoma tuzadilar.

Aksiz solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bajarilgan va unga doir boqimanda bo'lmagan taqdirda korxonaning maxsus hisobvarag'ida to'plangan summa dalolatnoma asosida hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladi.

Belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bajarilmagan yoki aksiz solig'i bo'yicha boqimanda bo'lmagan taqdirda yetishmayotgan summa dalolatnoma asosida korxonalar hisobvarag'ida to'plangan summa hisobiga budjetga undiriladi, to'plangan summaning qolgan qismi esa maxsus hisobvaraqa o'tkaziladi.

O'simlik (paxta) yog'i ishlab chiqaruvchi korxonalarining maxsus hisobvaraqlarida to'plangan pul mablag'lari qat'ian maqsadga ko'ra ishlatiladi, ya'ni maxsus hisobvaraqa o'tkaziladi.

Soliq solishdan bo'shatib olingan mablag'lardan maqsadga ko'ra foydalanilmaganda korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 6-kunidan kechiktirmay, maxsus hisobvaraqa to'plangan mablag'lar konvertatsiyaga yo'naltiriladi. Konvertatsiyalangan mablag'lar ikki bank kuni mobaynida hukumat kafolati bilan jalb etilgan kreditlarni so'ndirishga yo'naltirilishi kerak. Soliq solishdan bo'shatib olingan mablag'lardan maqsadga ko'ra foydalanilmaganda korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan miqdorda hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ining kelib tushishi va ko'rsatilgan mablag'larni kreditlarni so'ndirishga yo'naltirish to'g'risida hisobot taqdim etiladi.

Aksiz solig'ini o'tkazishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalarining boshliqlari, Davlat soliq xizmati hududiy organlarining rahbarlari, shuningdek, Moliya vazirligining o'simlik yog'i ishlab chiqaruvchi korxonalariga birlashtirilgan moliya inspektorlari zimmasiga yuklanadi.

#### **Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar**

*Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:*

● aksizlanadigan tovarlarni eksportga yetkazib berish, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim tovarlar ro'yxati mustasno;

● salomas va «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarishda foydalaniladigan paxta yog'ini yetkazib berish.

Aksiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilina-yotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to'la-nadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

Chegirma soliq davrida realizatsiya qilingan aksiz to'la-nadigan tovarlar hajmiga to'g'ri keladigan aksiz to'lanadi-gan tovar (xomashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aksiz solig'ining hisobvara-q-fakturada yoki bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amal-ga oshiriladi.

**Aksiz solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi, muddatlari**

To'lovchilar tomonidan sotish-ning haqiqiy hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

— joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oy-ning birinchi o'n kunligi uchun;

— joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oy-ning ikkinchi o'n kunligi uchun;

— keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Tovarga ilova qilinadigan hujjatlarda ko'rsatilgan mahsulot yuklab jo'natilgan kun sotish kuni bo'lib hisob-lanadi.

O'n kunlik to'lovlar bo'yicha aksiz solig'ining kelib tushgan summasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning shaxsiy hisobvaraqlarida bir vaqtda soliqni «Hisoblab yozish» va «To'lash» ustunlarida aks etti-riladi.

Aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitob ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi:

● korxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik kor-xonalardan tashqari) — hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan har oyda, belgilangan shaklda, unga soliq solinmaydigan aylanmalar summalari rasshif-rovkasi ilova qilingan holda;

● mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — bi-rinchi chorak, yarim yillik va 9 oy yakunlari bo'yicha, o'n kunliklarga taqsimlagan holda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan, yil yakunlari bo'yicha

esa belgilangan shaklda, yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida.

Dam olish (ishlanmaydigan) yoki bayram kuniga to'g'ri keladigan aksiz solig'ini to'lash muddatlari, tegishincha, hisob-kitobni taqdim etish muddatlari ham dam olish yoki bayram kundan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi.

Hisobot davri mobaynida o'n kunlik to'lovlar bilan kiritilgan aksiz solig'i summalari tegishli hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasida hisobga olinishi kerak.

Ortiqcha kiritilgan aksiz solig'i summalari bo'lg'usi to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki uning yozma arizasi olingan kundan boshlab Davlat soliq xizmati organi tomonidan 30 kun ichida to'lovchiga qaytariladi (agar budjetga boshqa soliq turlari bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa).

**Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash tartibi**

O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko'ra ro'yxatlar va stavkalar bo'yicha aksiz solig'i solinadi.

nadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i bojxona xizmatlari tomonidan so'mlarda undiriladi va har 5 kunda respublika budjetiga kiritiladi.

Olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'ining hisobi va uning budjetga kelib tushishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmatining hududiy boshqarmalari amalga oshiradi.

Respublika hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni olib kiruvchi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar, shuningdek, jismoniy shaxslar aksiz solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solish obyekti bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasining 45-ustunida ko'rsatilgan, tovarning bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mlarda qayta hisoblangan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S \times A/100,$$

bu yerda:

**S** — bojxona qiymati;

**A** — aksiz solig'i stavkasi.

Pivo, alkogolli va tamaki mahsulotlariga aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan oborot quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O = S \times 100 / (100-A),$$

bu yerda:

**O** — soliq solinadigan oborot;

**S** — bojxona qiymati;

**A** — aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O \times A/100,$$

bu yerda:

**O** — soliq solinadigan oborot;

**A** — aksiz solig'i stavkasi.

Olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'i summasi tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki bir birlik o'lchovi uchun AQSH dollarlarida belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasi hududiga aksiz solig'i olinmaydigan tovarlarning jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilishi bo'yicha belgilangan normalar»ga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga nisbatan aksiz solig'i tatbiq etilmaydi.

Majburiy ravishda markalanadigan, olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'ini to'lovchilar aksiz markalarini xarid qilish chog'ida kontrakt (bayonot berilgan) qiymatidan hisoblangan aksiz solig'i summasining 100 foizini to'laydilar, bunda aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i summasidan ortiq miqdorda to'lanadi, mablag'lar belgilangan tartibga ko'ra respublika budjetiga kiritiladi.

Markalangan, aksiz to'lanadigan tovarlar olib kirilganda aksiz solig'i summasi bojxona qiymatidan kelib chiqib qayta hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarga aksiz solig‘ining summasi respublika budjetiga 26-bo‘limining 11-paragrafiga kiritiladi.

Davlat bojxona qo‘mitasi hududiy bojxona boshqarmalarining qaroriga ko‘ra to‘lovchiga, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini sanasidan boshlab 2 oydan oshmaydigan muddatga aksiz solig‘ini kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash taqdim etilishi mumkin.

Ortiqcha kelib tushgan aksiz solig‘i summasi o‘ttiz kun ichida qaytarilishi yoki kelgusi to‘lovlar hisobiga kiritilishi kerak.

Ular to‘langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida to‘lovchi ortiqcha to‘langan yoki undirilgan aksiz solig‘i summaları qaytarilishini talab qilib, murojaat etishi mumkin.

Ortiqcha to‘langan aksiz solig‘i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etish bilan amalga oshiriladi:

- to‘lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to‘lash yoki undirish sabablari ko‘rsatiladi, shuningdek, pul mablag‘lari qaytarilishi kerak bo‘lgan to‘lovchining bank rekvizitlari beriladi;

- aksiz solig‘ini hisoblab chiqarish va undirish uchun asos bo‘lgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

- ijrosi to‘g‘risida bank belgisi qo‘yilgan, aksiz solig‘ining tegishli summalarini to‘lashga oid to‘lov hujjati;

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) chegaradan haqiqatda olib o‘tilgani to‘g‘risida chegara bojxonasining belgisi qo‘yilgan (zarur hollarda) tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to‘langan aksiz solig‘i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi.

#### **Aksiz markalari**

Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o‘rnatish, shuningdek, aksiz solig‘i to‘liq undirilishi, ko‘rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi 285-son «O‘zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 1996-yil 1-oktabrdan bosh-

lab O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmasdan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish taqiqlandi.

Aksiz tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar respublika budjetiga nominal qiymati bo'yicha buyurtma berilayotgan aksiz markalari miqdorining butun summasini to'lagach, davlat soliq inspeksiyalariga turlari bo'yicha aksiz markalarining zarur miqdorini xarid qilishga buyurtmanoma topshiradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari soliq inspeksiyalarining aksiz markalariga doir kelib tushgan buyurtmanomalarini hudud bo'yicha umumlashtiradilar va qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etadilar, bunda ishlab chiqaruvchi korxonalar ular buyurtirgan miqdorda aksiz markalarining nominal qiymatini to'plashganini tasdiqlaydilar. Kelayotgan yilga buyurtmanoma umuman yil bo'yicha, choraklarga taqsimlagan holda beriladi.

Aksiz markalarini bosish uchun buyurtmanomani «Davlat belgisi» Davlat ishlab chiqarish birlashmasi (DICHB)ga joylashtirishni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi amalga oshiradi.

Importchilar, shu jumladan, aksiz tovarlarini O'zbekiston Respublikasiga olib keladigan jismoniy shaxslar buyurtmanomani Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy organlariga topshiradilar. Bu organlar taqdim etilgan buyurtmanomalar asosida, yuqorida keltirilgan tartibga o'xshab, aksiz tovarlari uchun aksiz markalariga yig'ma buyurtmanoma tuzadilar va belgilangan tartibda Davlat bojxona qo'mitasiga taqdim etadilar.

Davlat soliq inspeksiyalari va Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy organlari aksiz markalari sotishni belgilangan shaklga binoan ana shu markalarni xarid qilishga doir buyurtmanoma — hisob-kitobga muvofiq «Paxtabank»ning mintaqaviy bo'linmalari orqali amalga oshiradilar.

«Paxtabank»ning mintaqaviy bo‘linmalari aksiz markalarini:

- tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarning mahalliy ishlab chiqaruvchilariga — aksiz markalarining nominal qiymati to‘langanidan keyin;

- tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar importchilariga — nominal qiymati bo‘yicha aksiz markalari to‘liq to‘langanidan va aksiz solig‘i to‘liq hajmda to‘langanidan keyin beradilar.

Ishlab chiqaruvchilar va importchilar nominal qiymati bo‘yicha xarid qiladigan aksiz markalari uchun pul mablag‘lari respublika budjetiga kiritiladi va aksiz solig‘ini to‘lash chog‘ida aksiz markalarining qiymati hisobiga olinmaydi.

Aksiz markalarining nominal qiymatini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Davlat belgisi» DICHB hisob-kitoblari bo‘yicha tasdiqlaydi.

«Davlat belgisi» DICHBning aksiz markalarini ishlab chiqarishga doir xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublika budjeti mablag‘lari hisobiga ularning nominal qiymati doirasida qoplaydi.

Respublikadan tashqariga eksport qilinadigan:

- respublika hududiga bojsiz savdo do‘konlari uchun olib kelinadigan;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ruxsati bo‘lganda ko‘rgazmalar o‘tkazish uchun olib kelinadigan;

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga xalqaro tranzit bo‘yicha olib kelinadigan va olib chiqish uchun mo‘ljallangan;

- jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan aksizsiz olib kelish me‘yorlari doirasida olib kelinadigan (jo‘natiladigan) aksizosti tovarlari majburiy tarzda **markalanmaydi.**

Respublika hududida ishlab chiqariladigan va import qilinadigan pivo O‘zbekiston Respublikasining aksiz markalari bilan markalanmaydi.

Respublikaga ko‘rgazmalar o‘tkazish uchun olib kelingan aksiz tovarlari, ular ko‘rgazmalar yakunlanganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi hududida sotilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi aksiz markalari bilan majburiy



tarzda markalanishi kerak va ular bo'yicha umumiy belgilangan tartibda aksiz solig'i to'lanadi.

Aksiz markalari ishlab chiqariladigan va import qilinadigan aksiz tovarlarining turlariga bog'liq ravishda harfiy va raqamli belgilar bilan markalanadi hamda quyidagi turlarga bo'linadi:

— IM — mahsulot O'zbekiston Respublikasi hududiga import bo'yicha olib kelingan;

— O'Z — mahsulot O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan;

— 98 — dastlabki ikki belgi — aksiz markasi bosib chiqarilgan yil;

— 01 yoki 001 — keyingi ikki yoki uchta belgi — ishlab chiqaruvchi korxonalariga (importchilarga) tegishlicha tamaki mahsuloti yoki alkogolli ichimlik bo'yicha beriladigan kod raqamlari;

— 4 raqam belgisi aksiz markalarida tamaki mahsulotini bildiradi;

— 5 raqam belgisi aksiz markalarida alkogolli mahsulotni bildiradi;

— 98 bilan tugaydigan oxirgi raqamlar O'zbekiston Respublikasi hududiga aksiz tovarlari mayda turkumlar bilan olib kelinganligini anglatadi;

— 99 bilan tugaydigan oxirgi raqamlar musodara qilingan aksiz tovarlarini anglatadi.

## Mavzuga doir masalalar

**1-masala.** Quyidagi ma'lumotlarga asosan *aksiz solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Korxonaning hisobli bahosi — 2200.

2. Mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi — 25%.

*Yechilishi:*

Aksiz solig'i quyidagicha aniqlanadi:

$$As = O \times A / 100 = (2200 \times 25) / 100 = 550 \text{ ming so'm}$$

yoki

$$As = 2750 - 2200 = 550 \text{ ming so'm.}$$

**2-masala.** Quyidagi ma'lumotlarga *asosan aksiz solig'ini va qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materiallar — 3800.

2. Korxonaning hisobli bahosi – 7000.
3. Mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 11%.

**3-masala.** 40 ming butilka (0,5l dan) aroqni sotishda aksiz solig'i summasini hisoblang, agarda aroqdan spirtning hajmi 40% ni tashkil etsa.

*Aksiz solig'i summasini hisoblang?*

**4-masala.** Yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga 1 mln. dona sigaretani import qilmoqda. Mazkur sigaretalardan bojxonada to'lanadigan aksiz solig'ini aniqlang.

Markalanadigan, import qilinadigan tamaki mahsulotlariga aksiz solig'i quyidagicha hisoblanadi:

Tovarning nomlanishi	Mahsulot birligi uchun narxi, AQSH doll.	1 mln. dona uchun bojxona qiymati	Aksiz stavkalari va summasi		
			Soliq solinadigan baza	Stavka	Summa
Filtrli sigaretalar	0,03	30,0 ming AQSH doll.*			
Kurs 1:1300		39000 ming so'm	1 mln. dona	1000 donasiga 10 AQSH dollari	10 ming AQSH dollari

**5-masala.** Alkogolli mahsulot bo'yicha budjetga to'lanadigan aksiz solig'i hisob-kitobiga doir.

№	Ko'rsatkichlar	Konyak	Aroq	Vino
1.	Tayyor mahsulotning fizik hajmi	420	400	450
2.	Aksiz solig'i stavkasi			
a)	(tayyor mahsulotning 1 daliga so'mda)	11300	11300	—
b)	(tayyor mahsulotning 1 daliga so'mda)	—	—	3000
3.	Hisoblab yozilgan aksiz solig'ining summasi			

a)	(1-satr x 2a-satr)	4746000	4520000	
b)	(1s x (2b-satr))	—	—	1350000
4.	«O‘zvinosanoat-xolding» XK maxsus hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan aksiz solig‘ining stavkasi			
a)	(tayyor mahsulotning 1 daliga)	710	710	—
b)	(tayyor mahsulotning 1 daliga)	—	—	410
5.	«O‘zvinosanoat-xolding» XK maxsus hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan aksiz solig‘ining summasi			
a)	(1-satr x 4a-satr / 100) (tayyor mahsulotning 1 daliga so‘mda)	298200	284000	—
b)	(1s x 4b-satr) (tayyor mahsulotning 1 daliga so‘mda)	—	—	184500
6.	Budjetga to‘lanadigan aksiz solig‘ining summasi			
a)	(3a-satr — 5a-satr)	4447800	4236000	—
b)	(3b-satr — 5b-satr)	—	—	1165500

**6-masala.** O‘simlik (paxta) yoki bo‘yicha budjetga to‘lanadigan aksiz solig‘ining hisob-kitobiga doir.

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	
1.	Korxonaning hisob-kitob (ulgurji) narxi (me‘yoriy xarajatlar va foyda me‘yori)	1 tonna uchun so‘mda	182900
2.	Aksiz solig‘i:	1 tonna uchun so‘mda	495000
	a) umumbelgilangan stavkada	1 tonna uchun so‘mda	440550
	b) budjetga to‘lanadigani	1 tonna uchun so‘mda	54450
	d) «Yog‘moytamakisanoat» uyushmasiga o‘tkaziladigani (2a-satr — 2b-satr)	1 tonna uchun so‘mda	54450

### O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Aksiz solig‘i qachon joriy etildi?
2. Aksiz solig‘i to‘lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Aksizosti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig‘i obyekt nimalardan iborat?

5. Aksiz solig'ining bazasi qanday aniqlanadi?
6. Aksiz solig'ini to'lashdan kimlar ozod etilgan?
7. Aksiz solig'i stavkalari va aksiz osti tovarlar ro'yxati kim tomonidan belgilanadi?
8. Aksiz solig'ini hisobga olish tartibi qanday?
9. Alohida tovarlar bo'yicha budjetga to'lanadigan aksiz solig'ini hisoblab chiqishning xususiyatlari nimada?
10. Aksiz solig'i hisobini taqdim etish va soliqni to'lash muddatlari qanday?
11. Aksiz markalari nima va u qachon joriy etilgan?
12. Qanday holatda aksizga tortiladigan tovarlar markalanmaydi?
13. Markalarni xarid qilishga doir buyurtmanoma qaysi bank orqali amalga oshiriladi?

### 3.5. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

**O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati** O'zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo'lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo'ldi. Mol-mulk solig'i dastlab O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarining ishlab chiqarish fondlariga to'lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar summasi to'liq mahalliy budjetlarga tushadi va u budjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad *birinchidan*, korxonalar o'zlarining

xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, *ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarining ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalaridan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

3.6.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ulushi, (foizda)<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2002	2003	2004	2005	2006
Davlat budjeti daromadlarida jami soliqlar tushumi	100	100	100	100	100
Jami Davlat budjeti daromadlarida mol-mulk solig'ining ulushi	2,6	4,4	5,1	4,2	4,5
Shu jumladan, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ulushi	2,3	3,9	4,7	3,9	4,5
Jami mulkiy soliqlar tushumida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ulushi	86,0	90,1	92,6	92,3	92,8
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining mahalliy budjetlar daromadlaridagi ulushi	7,1	7,7	7,9	7,8	7,8

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining solikli daromadlarida 2,3 – 4,5 foiz oralig'ini tashkil etmoqda (3.6.1-jadvalga qarang).

Jadval ma'lumotlariga ko'ra jami mulkiy soliqlar tushumida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ulushi 2006-yilda 2002-yilga nisbatan 6,8 punktga oshganligini ko'rish mumkin. Bu holatni soliqqa tortish tartiblarini yanada takomillashib borayotganligi bilan izohlamoq kerak. Bunga bir xil ahamiyatli va samarasiz bo'lgan imtiyozlarni bekor qilinayotganligini misol keltirish mumkin.

**Mol-mulk solig'i to'lovchilar, soliqqa tortish obyekti bazasi va mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi**

Soliq qonunchiligiga asosan mol-mulk solig'ining to'lovchilari bo'lib, soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob bera oladigan hamda mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tushuniladi.

Soliqqa tortishning alohida rejimi o'rnatilgan ayrim toifadagi korxonalar, jumladan, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, yagona soliq to'lovini to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda notijorat tashkilotlar uchun ularning asosiy faoliyati bo'yicha mol-mulk solig'ini to'lash tatbiq etilmaydi.

Agar soliqqa tortishning alohida rejimi o'rnatilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur bo'ladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining obyekti bo'lib, asosiy vositalar (shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar), nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish obyektlari hamda belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar qiymati hisoblanadi.

*Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortish bazasi bo'lib esa:*

a) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing)shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar);

b) nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;

d) belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining o'rtacha yillik qiymati;

e) me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarining o'rtacha yillik qiymati *hisoblanadi*.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yili barcha oylarining oxirgi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasini 12 ga bo'lish orqali quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati} = \frac{\text{yanvar} + \text{fevral} + \text{mart} + \dots + \text{dekabr}}{12} \quad \begin{matrix} \text{(barcha} \\ \text{oylarning oxirgi} \\ \text{kun holatiga)} \end{matrix}$$

Hisobot yilining I choragi uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{1-chorak uchun soliqni hisoblab chiqarishga mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati} = \frac{\text{yanvar} + \text{fevral} + \text{mart}}{12} \quad \begin{matrix} \text{(barcha oylarning} \\ \text{oxirgi kun holatiga)} \end{matrix}$$

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortiladigan bazasini aniqlash uchun korxonada balans aktivida aks ettiriladigan asosiy vositalarning eskirishini chegirgan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi:

1. Asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari (0100);

2. Uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari (0300);

3. Nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvaraqlari (0400);

4. Tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan obyekt qismida) hisobga olish hisobvaraqlari (0800);

5. O'rnatishga mo'ljallangan uskunani (me'yoriy muddatlarida o'rnatilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisobvaraqlari (0700).

**Mol-mulk solig'i stavkalari, soliqlardan imtiyozlar**

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2008-yil 1-yanvardan yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi 3,5 foiz miqdorida belgilangan.

Amaldagi tartibga ko'ra mol-mulk solig'i stavkasiga o'zgartirish kiritish huquqi faqat Vazirlar Mahkamasiga berilgan.

Eksport mahsulot ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda sotadigan yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalar-

3.6.2-jadval

**Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i STAVKALARI<sup>1</sup>**

T/r	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi
1.	Yuridik shaxslar	3,5
2.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 12-oktabrdagi PF-1871 soni farmoni bilan tasdiqlangan xomashyo tovarlari ro'yxatidagilar bundan istisno):	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

**Izoh:** Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar miqdorda to'lanadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-son qarori.



ning tarkibiy bo‘linmalari hisoblangan korxonalar uchun sotishning umumiy hajmida o‘zi ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmatlar)ning eksportdagi ulushiga bog‘liq holda mol-mulk solig‘ining tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan.

Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalarga berilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalarga, shuningdek, erkin almashtiriladigan valutaga xomashyo tovarlari — paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkasi mol-mulkning qayta baholash natijasidagi qoldiq narxiga qo‘llaniladi. Qayta baholash maqsadida korxonalarining asosiy vositalari deganda quyidagilar tushuniladi:

- o‘zining asosiy vositalari;
- o‘rnatiladigan uskunalar;
- tugallanmagan qurilish obyektlari;
- uzoq muddatga ijaraga olinadigan, shu jumladan, uzoq muddatli lizing bo‘yicha olingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalar qiymati har yili 1-fevralga qadar asosiy vositalarning 1-yanvar holatiga qarab qayta baholanadi. Qayta baholash chog‘ida korxonaga mutaxassis ekspertlarini jalb qiladi.

Yer uchastkalari va tabiatdan foydalanish obyektlarining qiymati qayta baholanmaydi.

*Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra quyidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinmaydi:*

a) notijorat tashkilotlarning mol-mulkiga (tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan mol-mulkdan tashqari).

Soliqqa tortish maqsadida notijorat tashkilotlar deganda quyidagilar tushuniladi:

- faqat davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalanadigan, tasdiqlangan smetalar doirasida xarajatlarni qoplashga budjetdan dotatsiyalar oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

- xayriya birlashmalar, uyushmalar va jamg‘armalar, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

1) ijtimoiy-xayriya yoki boshqa maqsadlar uchun barpo etilgan, tadbirkorlik faoliyati uchun daromad olishni ko‘zlamasligi ta‘sis hujjatlarida qayd etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilotning xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (mehnat uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdirlashlardan tashqari);

b) xalq ta'limi va madaniyat muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkka;

d) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligining mol-mulkiga;

e) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» uyushmasining mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga;

f) yangi tashkil etilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, ro'yxatdan o'tgan paytidan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalar, ularning filiallari va tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalar, shuningdek, korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan, basharti ular ana shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'lsalar, qo'llanilmaydi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan (o'z hududida mol-mulk joylashgan soliq to'lovchilarga nisbatan) yuridik shaxslarga qo'shimcha imtiyozlar berilishi ham mumkin.

*Mol-mulk solig'i hisoblab chiqarilayotganida soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:*

- soliq to'lovchining balansida bo'lgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

- tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadida va yong'inga qarshi xavfsizlik uchun foydalaniladigan obyektlarning;

- mahsulot o'tkazgichlar, aloqa yo'llari (shu jumladan, avtomobil yo'llari), aloqa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek, ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarning.

Mahsulot o'tkazgichlarga quyidagilar kiradi:

- neft, neft mahsulotlari, kondensat quvurlari va quvur transportining boshqa turlari, nasos, kompressor hamda taqsimlash stansiyalari bilan birga;

— uy-joy-kommunal obyektlari bo‘lmagan mintaqaviy gaz, bug‘ quvurlari, issiqlik trassalari, suv quvurlari, kanalizatsiya kollektorlari;

— buxgalteriya hisobotida alohida obyektlar sifatida hisobga olinadigan alohida joylashgan sexlar, konlar va karyerlarning ayrim uchastkalari orasidagi mahsulotlarni harakatlantirish uchun ishlatiladigan yerosti, yerusti va havoda joylashtirilgan har xil ko‘rinishdagi quvurlar va transportyorlar.

Aloqa liniyalariga havo aloqa liniyalari, ularga ilib qo‘yilgan simlar va aloqa kabellari, ustunli radiofikatsiya aloqa liniyalari, ularni belgilaydigan signal va o‘lchov ustunlari (qoziqlari), radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyasi, yerusti va yerostidagi ularga xizmat qilinmaydigan kuchaytirish punktlari, taqsimlovchi shkaflar, qutilar, yerga ulangan sim konturlari va boshqa aloqa inshootlari kiradi.

Energiya uzatish liniyalariga havo va kabelli elektr uzatish liniyalari kiradi.

Soliq solish maqsadida ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarga ustunlar, tabiiy va sun‘iy to‘siqlardan o‘tishlar va boshqa muhofaza inshootlari kiradi:

- aloqa yo‘ldoshlarining;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra to‘xtatib qo‘yilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;
- shahar yo‘lovchilar transportining (taksidan, shu jumladan, yo‘nalishli taksidan tashqari), shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashiydigan umumiy foydalanishdagi avtomobil transportining (taksi, shu jumladan, yo‘nalishli taksidan tashqari);
- yo‘l xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining yo‘llarni ta‘mirlash va saqlash ishlarida band bo‘lgan transport vositalarining;
- soliq to‘lovchining balansida bo‘lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;
- lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasining amal qilish muddatiga;

● xorijiy kredit hisobiga xarid qilingan asbob-uskunalarga, ushbu kreditni soʻndirish muddatiga, lekin u besh yildan ortiq boʻlmasligi kerak.

Mazkur imtiyoz quyidagilarga tatbiq etiladi:

a) soliq toʻlashga doir majburiyatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab ushbu kreditni soʻndirish muddatiga, lekin besh yildan oshirmagan holda, mazkur asbob-uskuna boʻyicha mol-mulkka;

b) buxgalteriya hisobi toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq toʻlovchining balansida qayd etilgan yetkazib berish, montaj qilish va ishga tushirish-sozlash xarajatlarini oʻz ichiga oladigan asbob-uskunalarining butun qiymatiga.

Soliq toʻlovchilarga Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

**Soliq hisobini taqdim etish va hisoblangan soliq summasini budgetga toʻlash muddatlari**

Yuridik shaxslar budgetga joriy toʻlovlar summasini hisobot yili mol-mulkinging oʻrtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib

mustaqil ravishda hisoblaydilar.

Budgetga joriy toʻlovlarni toʻlash har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida toʻlanadi.

Birinchi chorak, yarim yil, 9 oy va yil tugaganda toʻlovchilar mustaqil ravishda mol-mulk soligʻini oʻsib boruvchi yakun bilan, hisobot davrida mol-mulkning oʻrtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib, hisoblab chiqadilar va hisobot davridan keyingi oyning 25-sanasidan, yil yakunlari boʻyicha yillik moliya hisobotlarini taqdim etish muddatidan kechiktirmay obyekt joylashgan joydagi davlat soliq organlariga belgilangan shaklda (7-ilova) taqdim etadilar. Mol-mulk soligʻining hisoblangan summasi hisob-kitobni taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay toʻlanadi. Aks holda har bir kechiktirilgan kun uchun hisoblangan soliq summasiga nisbatan 0,05 foiz miqdorida penya (moliyaviy jarima) qoʻllaniladi.

Mol-mulkning qoldiq qiymati va imtiyoz taqdim etish muddatini koʻrsatgan holda korxonalar mol-mulki oʻrtacha

qoldiq qiymatining hisob-kitobi va soliq undirilmaydigan mol-mulk ro'yxati mol-mulk solig'ining hisob-kitobiga majburiy ilovalar hisoblanadi.

Mahsulot eksportini amalga oshiradigan eksportchi korxonalar mol-mulk solig'i hisob-kitobini taqdim etayotganlarida eksport qilinadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga doir ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Ortiqcha to'langan soliq summalari, agar soliqlar va yig'implar bo'yicha budjetga qarz mavjud bo'lmasa, to'lovchining yozma arizasiga ko'ra bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi yoki 30 kun ichida korxonaga qaytariladi.

Budjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi budjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish hisobvarag'i bo'yicha yuritiladi.

Mol-mulk solig'i hisoblanganda buxgalteriyada davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debitlanadi, budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i kreditlanadi. Soliq budjetga o'tkazilganda budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debitlanadi, pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i kreditlanadi.

**Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari va me'yoriy muddatlarda o'rnatilgan uskuna uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibi**

Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyekti uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib, qurilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, ya'ni buyurtmachilar hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekti bo'lib, belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati, ya'ni buyurtmachi tomonidan F-3 shaklida (bajarilgan ishlar va xarajatlar hajmi to'g'risida ma'lumotnoma) rasmiylashtirilgan statistika hisobiga obyekt bo'yicha kiritilgan va tugallanmagan qurilish hisobvarag'ida hisoblanadigan barcha ishlar va xarajatlar hajmi hisoblanadi.

Qurilishning belgilangan muddati deb qurilishni tashkil qilish loyihasi (QTQL) tarkibida 1.04.03-85-son QMQ «Korxonalar, binolar va inshootlarni qurish muddati me'yorlari»ga muvofiq loyihalash tashkiloti tomonidan aniqlanadigan obyekt qurilishining me'yoriy muddati hisoblanadi.

Loyihalash tashkilotlari loyiha-smeta hujjatlarida tayyorlash muddatlarini ajratgan holda qurilish muddati me'yorini ko'rsatishlari shart. Loyiha-smeta hujjatlarida qurilish muddati me'yorini ko'rsatilmagan taqdirda, buyurtmachi loyihalash tashkilotidan muayyan obyekt bo'yicha qurilish muddatining me'yori to'g'risida xulosa olishga majbur.

Me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalari uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib kapital mablag'lar hisobiga qayta jihozlanadigan obyektlarda montaj qilish talab qilinadigan va o'rnatishga belgilangan texnologik, energetik va ishlab chiqarish uskunalari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalari uchun soliq solish obyekti bo'lib o'rnatishga belgilangan uskunalari qiymati hisoblanadi, ular qatoriga montaj qilishni talab qiladigan, faqat qismlarini yig'ish va poydevorga yoki ustunlarga, polga, qavatlararo to'siqlarga va boshqa bino va inshootlarni ko'tarib turuvchi konstruksiyalarga o'rnatiladigan uskunalari hamda uskunalarini hisobga olish hisobvarag'ida hisoblanadigan shunday uskunalarining ehtiyot qismlari to'plami (me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalari qismida) hisoblanadi. Ushbu uskunalari tarkibiga o'rnatiladigan uskunalari qatorida montaj qilish uchun belgilangan nazorat-o'lchov apparaturasi yoki boshqa asboblari ham kiradi.

Korxonalar, binolar va inshootlar qurilishida tasdiqlangan qurilish muddati va tayyorlab qo'yilgan zaxiralar me'yoriga muvofiq har bir obyekt bo'yicha texnologik yoki boshqa uskunalarini yetkazib berish va montaj qilish jadvali belgilangan bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarini yetkazib berish va montaj qilish jadvalida quyidagi muddatlarda topshirish hisobga olinadi:

- yirik texnologiya va energetika uskunalarini — ularni nomma-nom ro'yxatlari bo'yicha montaj qilish va yetkazib berish jadvalarining rejadagi muddati o'tib ketgandan keyin;

- texnologiya uskunalarini, texnologiya liniyalari, qurilmalar va boshqa umumzavod uskunalarini — uskunalarini montajga topshirishining rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'lmagan muddatda;

- komplekt import uskunalarini — ularni montajga top-

shirishning rejadagi muddati o'tib ketgandan keyin, lekin bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga, agar texnik shart-sharoitlariga ko'ra uskunani qismlar bo'yicha montaj qilish mumkin bo'lmasa, ularni montajga topshirish muddati uskunalar butun komplektining kelib tushishi paytidan hisoblanadi;

● qismlarga ajratilgan import uskunalari, shuningdek, kabel mahsulotlari, simlar va trosalar — ularni montajga topshirishning rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'lmagan muddatda.

Uskunalarni montaj qilish va o'rnatish uchun me'yorlar va jadvallar bo'lmaganida soliq quyidagi muddatlarda to'lanadi:

— ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar bo'yicha mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarning o'rnatilmaganligi uchun — sotib olinganiga bir yillik muddat to'lganidan keyingi oydan boshlab;

— noishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar bo'yicha — sotib olinganiga olti oy tugagandan keyin.

Uskunalarni yetkazib berish va montaj qilishning yuqorida ko'rsatilgan muddatlarini buzganligi uchun korxonalar va tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, mol-mulk solig'ini ikki baravar ko'paytirilgan stavka bo'yicha to'laydilar.

## Mavzuga doir masalalar

**1-masala.** Korxonalar asosiy vositalarining yanvar oyining oxirgi kuni holati bo'yicha qiymati 54200 ming so'mni tashkil etgan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 31-yanvar holatiga 100; 28-fevral holatiga 125; 31-mart holatiga 150 ming so'mni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlarga asosan korxonalar mol-mulk solig'ini hisoblang (1-chorak uchun).

**2-masala.** 1-masala va quyidagi ma'lumotlarga asosan *mol-mulk solig'ini hisoblang.*

1. 1-korxonada mahsulot eksporti — 15% ni;
2. 2-korxonada mahsulot eksporti — 20% ni;
3. 3-korxonada mahsulot eksporti — 35% ni;
4. 4-korxonada mahsulot eksporti — 50% ni tashkil etadi.

**3-masala.** 2008-yil yanvar oyining oxirgi kun holatiga mol-mulk solig'i to'lovchi korxonada asosiy vosita va nomoddiy aktivlari bo'lmagan. 25 fevralda korxonada 670 ming so'mga kompyuter, 25-martda esa 290 ming so'mga printer sotib olgan.

*2008-yil birinchi chorak uchun mol-mulk solig'ini hisoblang?*

**4-masala.** Korxonada mol-mulkinging o'rtacha qoldiq qiymati 9003 ming so'mni tashkil etadi, bundan:

- me'yoriy muddatlarda tugatilmagan qurilishning qiymati – 3500 ming so'm;

- 2275 ming so'mni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan konservatsiya qilingan.

Joriy davr uchun umumiy tushum 30300 ming so'm, bundan 7300 ming so'mligi korxonada o'z mahsulotini erkin valyutaga sotgan.

*Joriy davr uchun mol-mulk solig'ini necha so'mni tashkil etadi?*

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Mol-mulk solig'i qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nima?

2. Mol-mulk solig'ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?

3. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari kimlar?

4. Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat bilan shug'ullanganlarida mol-mulk solig'ini to'lashadimi?

5. Mol-mulk solig'ining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?

6. Korxonada mol-mulkinging o'rtacha yillik qoldiq qiymati qanday tartibda topiladi?

7. Mol-mulk solig'ini stavkalari qanday belgilangan?

8. Mahsulotni eksport qilayotgan korxonalarga mol-mulk solig'ini hisoblanishi qanday tartibda amalga oshiriladi, agarda eksport hajmi mahsulotni sotishda 40 foizni tashkil etgan bo'lsa?

9. Mol-mulk solig'idan kimlar imtiyozga ega?

10. Soliq idoralariga qaysi muddatlarda mol-mulk solig'i bo'yicha hisob-kitob topshiriladi?

11. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyekti uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibi qanday belgilangan?

12. Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibi qanday belgilangan?



### 3.6. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG'I

#### **Yer solig'ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati**

1990-yilda O'zbekistonda «Yer to'g'risida» qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko'ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi hamda yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undiriladigan bo'ldi.


1991-yilda «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida», 1993-yilda «Yer solig'i to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda yer solig'ini undirishda soliqqa tortish obyekti, subyektlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartiblari ko'rsatib berildi. 1997-yilda «Soliq kodeksi»ning qabul qilinishi hamda 1998-yildan uning kuchga kiritilishi bilan yer solig'ining to'laqonli huquqiy asoslari yaratildi.

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbayi hisoblanadi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga hos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad — yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda yerni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida jami yer fondi 2004-yilda 44410,3 ming gektarni tashkil etib, shundan 57,8 foizi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ixtiyoridagi yer maydonlariga to'g'ri kelgan. 2005-yilda esa 57,9 foizi, 2006-yilda 58,2 foizini tashkil qilgan (3.7.1-diagramma).

Yer fondi hajmida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yer maydonlarining o'sishi fermer xo'jaliklari sonining yildan yilga ko'payib borayotganligi va o'rmon



- Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ixtiyoridagi yer maydonlari
- O'rmon xo'jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlari
- Zaxiradagi yerlar
- Boshqa yerlar

**3.7.1-diagramma. O'zbekiston Respublikasi yer fondi va uning foydalanuvchilar o'rtasidagi taqsimoti (ming ga.)**

xo'jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarining bir qismini ular tasarrufiga o'tkazilishi hamda zaxira yerlarning o'zlashtirishi bilan izohlanadi.

**Yer solig'ini to'lovchilar**

Soliq qonunchiligiga ko'ra o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Agarda soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar (mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq ho'jalik korxonalari, tadbirkorlik faoliyatining qat'i soliq to'lanishi belgilangan yuridik shaxslar, audio va video kassetalar, lazer disklerini ishlab chiqish, yozish, ko'paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi

korxonalar) hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, unda ular shu faoliyatda foydalaniladigan yerlari uchun yer solig'ini to'lovchilari hisoblanishadi.

Yer uchastkasidan foydalanganlik uchun soliq solish maqsadlarida mashina-traktor parklari (shu jumladan, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jalik korxonalari hududida barpo etiladigan muqobil mashina-traktor parklari), pilla urug'i tayyorlash, pilla tayyorlash va birlamchi ishlov berish korxonalari qishloq xo'jaligi korxonalariga tenglashtiriladi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilganda ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchisi hisoblanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslar (savdo korxonalari bundan mustasno) yer solig'i o'rniga budjetga ijara haqi to'laydilar. Ijara haqi taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmasligi, yerlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa bir stavkasi miqdorida bo'lishi lozim.

Yer ijarachilarining hisobi, ijaraga olingan yer uchun ijara haqi hisob-kitoblarini taqdim etish, ijara haqini hisoblab chiqarish va to'lash yer solig'i uchun belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

**Yer solig'i obyektini, bazasi va soliq stavkalari**

Soliq kodeksiga ko'ra mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda

bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyektini hisoblanadi. Soliq kodeksining 280-moddasiga ko'ra quyidagilarga soliq solish obyektini sifatida qaralmaydi:

a) aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

b) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek, ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

d) kommunal-maishiy yerlar (qabristonlar, chiqindilarni

zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

e) zaxira yerlar.

Mavjud yer uchastkalaridan qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orqali soliq solinadigan baza aniqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Yer solig'i stavkalari jahon amaliyotida qabul qilinganidek, yer qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o'tkaza olishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo'linadi, ya'ni 1-klass yerlar nol balldan 10 ballgacha, 2-klass yerlar 11 balldan 20 ballgacha, 3-klass yerlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Bunda yerning ball boniteti qancha yuqori bo'lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi.

Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-744-sonli qaroriga asosan quyidagicha guruhlanadi:

1. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari.

2. Lalmi ekinzorlar, boʻz yerlar va koʻp yillik koʻchatlar uchun undiriladigan yer soligʻi stavkalari.

3. Sugʻorilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan yer soligʻi stavkalari.

4. Qishloq xoʻjaligi va oʻrmon xoʻjaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer soligʻi stavkalari.

5. Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer soligʻi stavkalari.

6. Shahar va posyolkalardagi yer uchastkalaridan olinadigan yer soligʻi stavkalari.

7. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari.

8. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer soligʻi stavkalari.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qaroridan kelib chiqib, mahalliy hokimiyat idoralari ham oʻzlarining hududiy territoriyasiga qarab qaror chiqarishadi va unda tegishli koeffitsientlar hisobga olinadi.

Qishloq xoʻjalik yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer soligʻi yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar boʻyicha undiriladi.

Shaharlar va shahar qoʻrgʻonlarining maʼmuriy chegaralarida joylashgan qishloq xoʻjalik ahamiyatiga molik yerlar uchun yer soligʻi qishloq xoʻjalik yerlariga belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida undiriladi.

Yuridik shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer soligʻini toʻlashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer soligʻi yuridik shaxslar uchun 2,0 koeffitsientini qoʻllagan holda toʻlanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida koʻrsatilgan koeffitsientni qoʻllagan holda yer soligʻi toʻlanmagan taqdirda soliq toʻlovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qoʻllanadi.

Maʼmuriy va sanoat markazlariga nisbatan olganda yer uchastkalarining joylashish joyiga bogʻliq holda qishloq joy-

lari uchun belgilangan yer solig'i stavkalariga quyidagi koeffitsientlar qo'llanadi:

- Toshkent shahri atrofida 20 km lik aylanada — 1,30;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik aylanada — 1,20;
- tuman markazlari atrofida 10 km lik aylanada — 1,15;
- boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada — 1,10.

Yer uchastkalarigacha masofa shaharlar va tuman markazlarining ma'muriy chegaralaridan boshlab avtomobil yo'llari bo'ylab belgilanadi. Yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan taqdirda shaharning yuqoriroq funksional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsient qabul qilinadi.

Bir qishloq aholi punkti doirasida yagona stavkalarni belgilash maqsadida soliq to'lovchilarga berilgan yerlar, yerlarning qanday qismi ushbu zonaga kirishiga bog'liq holda, butunlay shahar atrofi zonasiga kiritiladi yoki ushbu zonadan butunlay chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida yer solig'i stavkalariga, yer sifatiga bog'liq holda quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa — 0,75;
- tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa — 1,0;
- tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa — 1,25.

Shahar va qo'rg'onlarning ma'muriy chegaralarida joylashgan kon va karyerlar band etgan yerlar uchun soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun belgilangan stavkalariga 0,1 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi.

O'rmon xo'jaliklarida mollarni o'tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov yerlar uchun yer solig'i boshqa yerlar uchun stavkalar bo'yicha to'lanadi.

#### **Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar**

*Soliq kodeksining 282-moddasiga ko'ra soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:*

a) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligining, jamoa garajlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Ularga borish yo'llari, ariqlar, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar kiradi;

b) tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik yerlar (davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, bo-

tanika bog'lari, zakazniklar, ov qilishga mo'ljallanganlari bundan mustasno, tabiat yodgorliklari), korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda maxsus maqsadlar uchun berilgan, ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

d) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar);

e) suv fondi yerlari (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, dengizlar, muzliklar, botqoqliklar, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek, suv havzalari sohilidagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar);

f) elektr uzatish liniyalari, podstansiyalar, umumdavlat aloqa liniyalari va ularning inshootlari egallagan yerlar.

g) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va ularning inshootlari egallagan yerlar. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibda ularning indeksleri va tartib raqamlarini ko'rsatgan holda tegishli ro'yxatlarga kiritilgan avtomobil yo'llari taalluqlidir.

Avtomobil yo'llarining inshootlariga ko'priklar, yo'l chetidagi ariqlar, yon tomondagi zaxira yerlar, ko'tarma ortidagi ariqlar va ko'tarmalar, tog'dagi suv ajratish kanallari, avtobus bekatlari, tushishlar, traktor yo'llari, piyodalar va velosiped yo'laklari, o'pirilish, sel, ko'chkiga qarshi va avtomobil yo'llari uchun ajratilgan yerlarda joylashtirilgan boshqa himoya inshootlari kiradi;

h) temiryo'llarning umumiy tarmog'i va ularning inshootlari egallagan yerlar.

Sanoat va boshqa korxonalarga o'tkazilgan temiryo'llar egallagan yerlar uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi.

Temiryo'llarning inshootlari tarkibiga zaxiralar, tuproqtepalar, yo'ldagi suv ajratish, mustahkamlash va tutib turish inshootlari, yo'llar bo'ylab qordan himoyalash va qumni mustahkamlash polosalari, tortish podstansiyalari, tunnellar va shu singari sun'iy inshootlar, yo'l qurilmalari kiradi;

i) umumiy foydalanishdagi shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari (shu jumladan, metropoliten bekatlari egallagan yerlar) va ularning inshootlari egal-

lagan yerlar. Mazkur imtiyoz tramvay yo'llari va trolleybus liniyalari, metropoliten liniyalari, tramvay va trolleybus bekatlari, shu jumladan, dispetcherlik punktlari, metropoliten bekatlari va shahar elektr transporti yo'llaridagi boshqa inshootlar egallagan yerlarga tatbiq etiladi. Ma'muriy va boshqa yordamchi binolar, depolar (depo hududida joylashgan elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari egallagan yerlardan tashqari), qurilish va ta'mirlash obyektlari egallagan yerlar uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi;

j) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

k) magistral suv quvurlari, magistral kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, suv olish va tozalash inshootlari, shuningdek, suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa obyektlar egallagan yerlar. Suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa obyektlar tarkibiga aholi punktlarida suv quvuri va kanalizatsiya tarmog'idagi nasos stansiyalari, kuzatish quduqlari va dyukerlar, suv minoralari va shu singari inshootlar kiradi;

l) magistral gaz va neft quvurlari va ularning inshootlari egallagan yerlar;

m) magistral issiqlik trassalari va ularning inshootlari egallagan yerlar. Issiqlik trassalarining inshootlariga nasos stansiyalari, issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlar, issiq suv ta'minotining sirkulyatsiya nasoslari kiradi;

n) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, shu jumladan, ularni yerda boshqarish yo'laklari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari joylashgan yerlar;

o) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar — qurilishning me'yoriy muddati davriga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qurilish ishlari to'xtatib qo'yilgan obyektlar egallagan yerlar. Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishining me'yoriy muddati tugagach, shuningdek, to'xtatib qo'yilgan obyektlarni qurish



davom etilgan yoki ular faoliyat ko'rsata boshlagan hollarda yer solig'i qurilishning me'yoriy muddati tugashidan yoki obyekt qurilishi yoxud undan foydalanish boshlanganidan keyingi oydan boshlab to'ana boshlaydi.

Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishiga ajratilgan yer uchastkalariga soliq solinmaydi. Agar Investitsiya dasturiga ko'ra korxonalar, uning alohida sexlarini ta'mirlash yoki qayta jihozlash nazarda tutilgan bo'lsa, bunday hollarda mazkur imtiyoz qo'llanmaydi;

p) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

q) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlar seleksiyasini amalga oshirish hamda mavzu doirasi tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar va ko'chatlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod etiladi;

r) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar — loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga;

s) rekreatsion ahamiyatga molik yerlar (aholining ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalarga berilgan yerlar: o'rmon bog'lari, bog'lar, xiyobonlar, plyajlar va hokozolar).

Bunda muassasa deganda mulkdor tomonidan boshqarish, ijtimoiy-madaniy yoki notijorat tusidagi boshqa funksiyalarni bajarish uchun tashkil etilgan holda u tomonidan to'liq yoki qisman moliyalanadigan tashkilot tan olinadi;

t) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (kasalliklarning oldini olish va odamlarni davolash ishini tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga ega bo'lgan yerlar);

u) qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jaligi korxonalari hamda tashkilotlarining o'rmonlar va ihotazorlar, ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari, shuningdek, sport inshootlari egallagan yerlari;

v) qishloq xo'jalik korxonalarining yangi o'tqazilgan bog' va uzumzorlari — ular meva qilish davriga kirishigacha, qishloq xo'jalik ekinlari ekish uchun qator oralari-dan foydalanilishidan qat'i nazar.

Yangi tut ko'chatlari o'tqazilgan yer uchastkalari — qator oralaridan qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, 3-yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda o'tqazilgan tut ko'chatlari soliq to'lashdan uch yilga ozod qilinadi, bunga ko'chat o'tqazilgan yil ham kiradi. Kuzda o'tqazilgan ko'chatlar o'tqazilgan yildan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod qilinadi;

x) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar egallagan yerlar. Fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlar egallagan yerlar maydoni haqiqatda egallagan maydondan kelib chiqib qabul qilinadi.

Agar soliq solinmaydigan yer uchastkasi maqsadga ko'ra foydalanilmasa, ushbu maydon uchun yer solig'i belgilangan tartibda to'lanadi. Bunday yer uchastkasidan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarni parvarishlash uchun foydalanilsa, soliq qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun stavkalar bo'yicha to'lanadi.

*Quyidagi yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:*

a) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari, qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, ular zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ajratilgan yer uchastkalari uchun.

Ularga quyidagilar kiradi:

1) madaniyat va san'at muassasalari (kutubxonalar, muzeylar, ko'rgazmalar, klub muassasalari, maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat va istirohat bog'lari, botanika bog'lari va hayvonot bog'lari, televideniye va radioeshittirish tahririyatlari, teatrlar, kinoteatrlar, konsert tashkilotlari va jamoalari, sirkalar, kinostudiyalar va ovoz yozish studiyalari, va boshqalar);

2) maorif muassasalari (oliy va o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlash, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash, o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlash, ishchilar va boshqa xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, umumiy

ta'lim bolalar maktablari, maktabgacha tarbiya, ota-onalar qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalash muassasalari);

3) sog'liqni saqlash muassasalari (kasalxona muassasalari, dispanserlar, ambulatoriya-poliklinika muassasalari, tez va shoshilinch tibbiy yordam hamda qon quyish muassasalari, onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari, sanatoriy-kurort muassasalari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya muassasalari, sanitariya maorifi muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari);

4) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari (vrachlik-mehnat ekspertiza komissiyalari, qariyalar va nogironlar uchun internat uylar).

b) dehqon xo'jaliklari — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;

d) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» uyushmasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslar, savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar bundan mustasno.

Xodimlarning umumiy soniga korxonada bo'lgan, shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha ishlovchilar, shuningdek, korxonada bo'lmagan (pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tUSDagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishlarni bajaradigan) xodimlar kiritiladi.

**Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari**

Yer solig'i yuridik shaxslar tomonidan har yili 1-yanvargacha bo'lgan holatga qarab mustaqil hisoblab chiqariladi va soliq

bo'yicha hisob-kitoblar yer uchastkasi joylashgan hududdagi davlat soliq organiga joriy yilning 15-fevraligacha qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lmagan hamda qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun belgilangan shakllar (8-ilova) bo'yicha taqdim etiladi.

Bo'shatib olinayotgan mablag'lardan muayyan maqsadlar uchun foydalanish sharti bilan imtiyozlar olgan yuridik shaxslar soliq to'lovchilar uchun belgilangan shakl bo'yicha va muddatlarda yer solig'i hisob-kitobini taqdim etadilar.

Yuridik shaxs hisoblangan dehqon xo'jaliklari hisoblab yozilgan yer solig'i umumiy summasining 95% ini budjetga, 5% ini esa Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga to'laydilar. Hisob-kitoblarda

jamg'armaga to'lanadigan summa alohida satrda aks ettiriladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish yer uchastkasi haqiqatda egallagan maydondan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarining umumiy maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar yoki yerlarni inventarizatsiyalash dalolatnomalari bo'yicha qabul qilinadi.

Yil davomida yuridik shaxslarda yer uchastkalariga mulk huquqi, yerga egalik qilish huquqi, yerdan foydalanish huquqi vujudga kelgan (bekor bo'lgan) taqdirda, shuningdek, ular foydalanayotgan yer maydoni kengaygan (kamaygan) yoki yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari to'xtatib qo'yilgan (paydo bo'lgan) hollarda ular yer uchastkasi ajratilgan (olib qo'yilgan) yoki imtiyozlar to'xtatilgan (paydo bo'lgan) kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay davlat soliq organlariga yer solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishlari shart.

Hisobot yili davomida yer mulklari tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar davlat soliq organlariga yer solig'i to'lanadigan hisobot yilining 1-noyabriga qadar yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etadilar.

Agar alohida bino bir necha yuridik shaxsning balansida bo'lsa, yer solig'ini har bir yuridik shaxs alohida, egallagan ishlab chiqarish xonalariga mutanosib ravishda to'laydi.

Ko'p qavatli turar joylarning bir qismini egallagan yuridik shaxslar yer solig'ini turar joy egallagan umumiy maydondan va mazkur yuridik shaxs tomonidan foydalaniладigan ishlab chiqarish xonalarining hissasidan kelib chiqib hisoblab chiqaradilar.

Yuridik shaxslar (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) soliqni har chorakda, chorak ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlar bilan to'laydilar (15-fevral, 15-may, 15-avgust, 15-noyabr).

Agar yuridik shaxs yer uchastkasini hisobot choragi uchun to'lash muddati tugaganidan keyin olgan bo'lsa, ushbu davr uchun soliqni to'lash muddati bo'lib keyingi chorak uchun soliq to'lash muddati hisoblanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ini hisobot yilining 1-iyuliga qadar — yillik soliq summasining 20 foizini, hisobot yilining 1-sentabriga qadar — yillik soliq summasining 30 foizini va

hisobot yilining 1-dekabriga qadar – hisoblangan soliqning qolgan (50 foizi) summasini to‘lashni amalga oshiradi.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lanadi. (Masalan, vakolatli hokimiyat organining 15-avgustdagi qarori bilan korxonaga yer ajratilsa, u yer solig‘ini 1-sentabrdan boshlab to‘laydi).

Yuridik shaxslarga yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz belgilansa, ular ushbu huquq paydo bo‘lgan oydan boshlab soliq to‘lashni to‘xtatadilar. Yer solig‘i bo‘yicha imtiyoz huquqi to‘xtatilgan taqdirda ular yer solig‘ini ushbu huquq to‘xtatilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘laydilar.

Soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha soliq summaları to‘langan taqdirda, agar boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarz mavjud bo‘lmasa, ushbu summalar soliq to‘lovchiga o‘ttiz kun ichida uning yozma arizasi bo‘yicha qaytariladi yoki bo‘lg‘usi to‘lovlar hisobiga qayd etiladi.

Yer solig‘i, soliq to‘lovchining joylashgan yeridan qat‘i nazar, hududida yer uchastkasi joylashgan tuman yoki shaharning mahalliy budjetiga to‘lanadi. Agar yer uchastkasi ham tuman, ham shahar hududida joylashgan bo‘lsa, soliq xuddi shu tartibda to‘lanadi.

Yuridik shaxslarning budjet bilan yer solig‘i bo‘yicha hisob-kitoblari buxgalteriya hisobi budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag‘ida yuritiladi.

## Mavzuga doir masalalar

**1-masala.** «Mingbuloq» hissadorlik jamiyatining yer solig‘i summasi 75 mln so‘mni tashkil etadi. Soliqning yig‘imi darajasi 97%, kelgusi yil indeksatsiyasi 1,5 ni tashkil etadi. Korxonaning 2008-yilda kutilayotgan soliq summasini hisoblang:

*Yechilishi:*

$$75000,0 \times 1,5 \times 97\% = 109125,0$$

**2-masala.** Toshkent shahrining 8-zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo‘yicha ajratilgan yer maydoni 5,5 ga ni tashkil etadi. Korxonaning hisobot yilida to‘lashi lozim bo‘lgan yer solig‘i summasini hisoblang va to‘lash muddatlarini belgilang.

*Yechilishi:*

1. Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalangan-

lik uchun yer solig'ini stavkalari 14 ta zonaga ajratilgan holda belgilangan. Shunga muvofiq 2006-yil 8-zona uchun har bir gektarga 15230403 so'm belgilangan.

2. Yerning maydoni va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib soliq summasini hisoblaymiz:

$$5,5 \times 15230403 = 83767216,5 \text{ so'm.}$$

3. Yer solig'ini budjetga har chorakning ikkinchi oyi 15 kuniga qadar yillik summaning to'rtidan bir qismi miqdorida to'lanadi, ya'ni:

1-chorak uchun — 15-fevralgacha — 23434203 so'm;

2-chorak uchun — 15-maygacha — 25134203 so'm;

3-chorak uchun — 15-avgustgacha — 26134203 so'm;

4-chorak uchun — 15-noyabrgacha — 27134203 so'm.

**3-masala.** Zarafshon shahrining 3 zonasida joylashgan korxonaga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 3,75 ga, haqiqiy foydalanilishdagi yer maydoni esa 4,5 ga ekanligi aniqlandi. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'ini summasini hisoblaymiz.

*Yechilishi:*

1. Shahar joylarda yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'ini stavkalari 4 ta zonaga ajratilgan holda belgilangan. Shunga muvofiq 2006-yil Zarafshon shahrining 3 zonasi uchun har ga uchun 716405 so'm belgilangan.

2. Foydalanishdagi yer maydoni va soliq stavkasidan kelib chiqib soliqni hisoblaymiz:

a) hokim qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni uchun:

$$3,75 \times 716405 = 2686518,75 \text{ so'm;}$$

b) hokim qarori bo'yicha ajratilgan yer maydonidan ortiq foydalanishdagi yer uchun 2 koeffitsientda to'lanishi belgilangan:

$$0,75 \times 716405 \times 2 = 1,074,607 \text{ so'm.}$$

$$\text{Demak, } = 2686518,75 + 1074607 = 3761125,75 \text{ so'm.}$$

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Yer solig'ini yuridik shaxslardan undirishning sababi nimada?
2. Yer solig'ining huquqiy asoslari O'zbekistonda qachon shakllangan?
3. O'zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?
4. Kimlar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi?
5. Alohida soliq rejimiga o'tgan yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadimi?
6. Yer solig'ini undirish obyekti nima?

7. Soliq stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
8. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
9. Qanday yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi?
10. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari qanday belgilangan?

### **3.7. OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH UCHUN SOLIQ**

#### **Soliq to'lovchilar**

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchisi hisoblanadilar.

Soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bo'yicha bu soliqni to'lamaydilar, ular faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ular ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va budjetga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi.

#### **Soliq solish obyekti, bazasi, soliq stavkalari va imtiyozlar**

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda (2-son «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shaklining 240 satri — 250 satri) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog'ida soliq solish obyekti va bazasi hisoblanadi. Budjetga to'lanadigan soliq summasi yuqorida ko'rsatilgan hisobot shaklining 260-satrida aks ettiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar soliq solinadigan bazani foyda solig'i to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va

ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasiga kamaytirilgan summasini qo'shish orqali aniqlaydi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng yuqori stavkasi soliq solish obyektining 8 foizi miqdorida belgilangan.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, ikkinchi jahon urushi yillaridagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi. Ushbu imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarga qo'llanilmaydi.

**Soliqni hisoblash, hisobotlarni taqdim etish va budjetga to'lash tartiblari**

Soliq kodeksining 300-moddasiga ko'ra balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar budjetga to'lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi:

— agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lanmaydi;

— agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo'lsa, budjetga to'lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.



Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil chora-gidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oy-ning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Quyidagilar joriy to'lovlarni to'lamaydi:

— hisobot davrida coliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar;

— ilgari hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma obyekt-larini saqlash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ortiq bo'lgan soliq to'lovchilar;

— yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofir-malar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlan-tirish solig'ining hisob-kitobi (9-ilova) soliq bo'yicha hisob-ga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kuni-dan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliya-viy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlan-tirish solig'ini to'lash soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## Mavzuga doir masalalar

**1-masala.** Hisobot davrida bolalar bog'chasini tutib tu-rish xarajatlari 300 ming so'mni tashkil etadi. 170-satr bo'yicha soliq solinadigan daromad 700 ming so'mdan ibo-rat. Foyda solig'i summasi: 180-satr 250 ming so'm. Foyda solig'i stavkasi 10%. *Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil-mani rivojlantirish solig'ini hisoblang.*

*Yechilishi:*

1. Soliq solinadigan daromaddan foyda solig'i summasi-ni ayiramiz:

$$700 - 250 = 450 \text{ ming so'm.}$$

2. Bolalar bog'chasini tutib turish xarajatlari summasini foyda solig'i stavkasiga ko'paytiramiz.

$$300 \times 10\% = 30 \text{ ming so'm.}$$

Ya'ni, biz daromad solig'i summasining bolalar bog'chasini tutib turish hisobiga qanday summaga kamay-ganligini bilamiz.

1. Teskari hisob-kitobni amalga oshiramiz.

$300$  (1-band saldosi) +  $100$  (bolalar bog'chasini tutib turish xarajatlari) +  $10$  (ana shu xarajatlarga to'g'ri keladigan soliq summasi) =  $410$  ming so'm.

2. So'ngra biz  $415$  ni obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasiga ko'paytiramiz:  
 $410 \times 8\% = 32,8$  ming so'm.

Ya'ni, korxonada  $33,2$  ming so'm obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashi kerak edi. Lekin u amalda  $100$  ming so'm infratuzilmani tutib turish uchun sarflagan edi. Shuning uchun korxonada obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchi hisoblanmaydi.

**2-masala.** Hisobot davrida sog'liqni saqlash muassasasini tutib turish xarajatlari  $250$  ming so'mni tashkil etadi.  $170$ -satr bo'yicha soliq solinadigan daromad  $5500$  ming so'mdan iborat. Daromad solig'i summasi  $180$  satr —  $2300$  ming so'm. *Daromad solig'i stavkasi — 35 foiz. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblaymiz.*

*Yechilishi:*

1.  $5500 - 2300 = 2200$  ming so'm.

2.  $250 \times 35\% = 87,5$  ming so'm.

3.  $2200 + 250 + 87,5 = 2537,5$  ming so'm.

4.  $2537,5 \times 8\% = 203$  ming so'm.

Demak, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i  $203$  ming so'mni tashkil etadi, lekin korxonada amalda ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish uchun  $150$  ming so'm xarajat qilgan edi.

Mazkur korxonada budjetga  $203 - 150 = 53$  ming so'm farqni to'lashi lozim.

**3-masala.** Korxonaning hisobot davridagi soliq solinadigan daromadi:  $170$ -satr —  $0$  ga teng. Foyda solig'i summasi  $180$  satr —  $75$  ming so'm. *Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblang.*

**4-masala.** Hisobot davrida korxonalarining umumiy ta'lim maktabini tutib turish xarajatlari  $100$  ming so'mni tashkil etadi. Soliq solinadigan foyda  $800$  ming so'mdan iborat. Foyda solig'i summasi  $50$  ming so'm. Korxonada

eksportga tovar realizatsiya qilganligi uchun imtiyozli, ya'ni 10,5% da foyda solig'i hisoblagan. *Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblang.*

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Qanday yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining to'lovchilari hisoblanishadi?
2. Korxonalar bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa ushbu soliqning to'lovchisi bo'la oladimi?
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi necha foizni tashkil etadi?
5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasini qanday holatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi?
6. Vazirlar Mahkamasining 453-son qaroriga ko'ra obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i qanday tartibda to'lanadi?
7. Qanday holatda korxonalar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini budjetga to'lamaydi?
8. Tabaqalashtirilgan stavkalarni belgilash uchun nimalarni oldindan belgilab olish lozim?
9. Soliq hisobotlari qachon soliq organlariga topshiriladi?
10. Soliqni budjetga to'lash muddatlari qachon amalga oshiriladi?

### **3.9. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ**

#### **Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishi**

O'zbekiston sharoitida suv qadri hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerlardan iborat.

Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

1982-yildan 1998-yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar «suv uchun to'lov» to'lashar edi. Iste'molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuniga ko'ra 1998-yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika budjetining

asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. 2008-yilda Davlat budjetiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumi 34920 mln. so‘m tushishi prognozlashtirilgan bo‘lib, bu budjet daromadlarining 0,5 foizini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda 1024-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy budjetlarning Davlat budjetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida to‘liq miqdorda mahalliy budjetlar daromadiga o‘tkazildi.

### **Soliq to‘lovchilar tarkibi**

O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo‘jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilardir. O‘zbekistonda asosiy, davlat budjeti daromadlarini ushbu manba bo‘yicha ob-havo qiladigan, ya‘ni ta‘minlab beradigan soliq to‘lovchilar bo‘lib Shirin GRESi, Taxiyyatosh GRESi, Toshkent GRESi va boshqa shu kabi GRESlar hisoblanishadi.

Soliqqa tortishning alohida tartibi o‘rnatilgan to‘lovchilar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lashlari kerak.

Yuridik shaxslar suvdan foydalanish joyida davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinish joyidan qat‘i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘laydilar.

Aholi punktlarining suv ta‘minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o‘z faoliyatida ishlatiladigan suv uchungina soliq to‘lovchilar hisoblanadi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni «Suvoqava» tizimi korxonalari yoki suv xo‘jaligi organlari yoxud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma tuzgan ijaraga beruvchilar to‘laydilar.

Bino (xona)ni ijaraga olgan va o‘zlari suv yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv

resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar.

Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlar bajariladigan korxonalar va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasida qurilish ishlarini bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi.

Mulkchilik va bo'ysunish shaklidan qat'i nazar issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va yerosti manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

**Soliq solish obyekti, bazasi va soliq stavkalari**

Yerusti va yerosti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yerusti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar kiradi.

Yerosti manbalariga artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog'i kiradi.

Foydalanilgan suv resurslarining hajmi soliq solish bazasi hisoblanadi.

Suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan olingan suv hajmi suv o'lchagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yerusti va yerosti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-

qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

2009-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

3.9.1-jadval

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	1 kub. metr uchun stavka (so'm)	
	Yerusti suv resurslari manbalari	Yerosti suv resurslari manbalari
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2—4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari)	21,6	27,5
2. Elektrostansiyalar	6,3	9,3
3. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	11,9	15,4
4. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	1,1	1,3

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalanadigan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.

xo'jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

### **Soliq bo'yicha imtiyozlar**

Soliq kodeksiga ko'ra suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagi yuridik

shaxslar ozod etiladi. Jumladan, nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, ikkinchi jahon urushi yillaridagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar. Ushbu imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi; suv uchun budjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar; birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari; ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar — tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi. Jumladan, sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yerosti mineral suvlari hajmiga; dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga; atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yerosti suvlari hajmiga; shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yerosti suvlari hajmiga; gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga; qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

### **Soliqni hisoblab chiqarish tartibi va to'lash muddatlari**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va tashqari, tasdiqlangan stavkalar

tashkil etmaydigan)dan

bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo'jalik bo'yicha o'tgan yilda 1 gektar sug'oriladigan yerga sarflangan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi (10-ilova) suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha;

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

3) yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan — yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrigacha;

4) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

*Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:*

— suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar tomonidan — hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi;



— yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchilar joriy yilning 15-yanvariga qadar suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliqni belgilangan limitdan kelib chiqib yoki suv yetkazib berish shartnomasiga ko‘ra har oyda yoki har chorakda to‘lashlari to‘g‘risida bildiruvnoma yuboradilar.

### **Soliqni hisobga olish tartibi**

Yuridik shaxslarning budget bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi budgetga to‘lovlar bo‘yicha (turlar bo‘yicha) qarzlarni hisobga olish hisobvarag‘ida yuritiladi.

*Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi:*

- davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag‘i debeti;
- budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag‘i krediti.

*Budgetga o‘tkazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi:*

- budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag‘i debeti;
- pul mablag‘larini hisobga olish hisobvarag‘i krediti.

## **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala.** Sanoat korxonasi hisobot davrida jami 60000 kub. metr suv resurslaridan foydalangan bo‘lib, shundan 35 foizi yerosti manbalaridan, qolgan qismi esa yerusti manbalaridan olingan. Korxonaga to‘lashi lozim bo‘lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

*Yechilishi:*

Sanoat korxonalari uchun ushbu soliq stavkalari yerusti manbalaridan olingan suv uchun bir kub metrga 640.0 tiyin, yerosti manbalaridan foydalanilgan suv uchun bir kub metrga 820.0 tiyin belgilangan.

Korxonaga 15000 kub metr ( $60000 \times 35\%$ ) yerosti suvlaridan; 21000 kub metr ( $60000 - 15000$ ) yerosti suvlaridan foydalangan.

Soliq summasi:

$$21000 \times 640 (6,4 \text{ so'm}) = 134400 \text{ so'm.}$$

$$15000 \times 820 (8,2 \text{ so'm}) = 123000 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

**2-masala.** Elektrostansiya hisobot davrida 450000 kb.metr yerusti suv resurslaridan, 50000 kub.metr yerosti suv resurslaridan foydalangan. Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq summasini hisoblang.

*Yechilishi:*

1. Elektrostansiyalar uchun ushbu soliq stavkalari yerusti manbalaridagi suv resurslaridan foydalanlik uchun 1 kub.metrga 183.0 tiyin, yerosti manbalaridan foydalanilgan suv uchun 1 kub metrga 273.0 tiyin belgilangan.

2. Foydalanilgan suv hajmidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib soliq summasini hisoblaymiz:

$$450000 \times 183,0 (1,83 \text{ so'm}) = 823500 \text{ so'm.}$$

$$50\ 000 \times 273,0 (2,73 \text{ so'm}) = 136500 \text{ so'm.}$$

$$\text{Jami: } 823500 + 136500 = 960000 \text{ so'm.}$$

**3-masala.** Kommunal xo'jaligi hisobot davrida 170 000 metr kub hajmida aholi punktlarini suv bilan ta'minlangan. Shuningdek, o'z iste'moli uchun 27000 metr kub yerusti suv resurslaridan foydalangan. Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq summasini hisoblang.

**4-masala.** Sanoat korxonasi Mirzo Ulug'bek tumani DSIga ro'yxatga olingan. Korxonaga hisobot davrida Qibray tumani hududidagi suv resurslaridan (yerusti manbalaridan) 35000 metr kub, o'zi joylashgan tuman yerosti suv manbalaridan 16000 metr kub foydalangan. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq summasini aniqlang va korxonaga soliq hisob-kitobini qaysi tuman DSIga taqdim etadi va soliqni to'laydi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliqni joriy etishdan ko'zda tutilgan maqsad nima?

2. Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar?

3. Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliqni davlat budjetiga ta'minlab beradigan asosiy soliq to'lovchilarni bilasizmi?

4. Jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari bo'la olishadimi?
5. Soliqqa tortish obyekti qanday tartibda aniqlanadi?
6. Soliq stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
7. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida o'rnatilgan?
8. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqdan ozod etiladi?
9. Dehqon xo'jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni budjetga to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
10. Soliq qaysi muddatda davlat budjetiga o'tkaziladi?

### 3.10. YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

#### **Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish zarurligi**

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita — bu davlat tomonidan tabiiy

resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir.

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, rentals, royalti va soliqlar tashkil etadi. Bonuslar — bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat budjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar — bu bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.<sup>1</sup>

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonus.

Rentals tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida»gi Qonuni, 20-modda.

vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi.

Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'i ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti – bu mineral xomashyoni qazib olish hajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xomashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.<sup>1</sup>

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish, odatda, foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yerosti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xomashyo resurslari to'plangan.

O'zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog'i 95 turdagi mineral xomashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xomashyo salohiyoti 3,3 trillion AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSH dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yerosti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi «Yerosti boyliklari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq 1995-yildan boshlab yerosti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq joriy etildi va yerosti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

---


<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida»gi Qonuni, 20-modda.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yerosti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O'zbekistonda 2002-yil 13-dekabrda «Yerosti boyliklari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi bo'lib, yerosti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yerosti boyliklarining 53 turiga nisbatan belgilangan bo'lsada, budjetga soliq tushumi faqatgina 4—5 turdagi yerosti boyliklariga mutlaq ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda.




**3.10.1-diagramma. Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq summasini asosiy yerosti boyliklari bo'yicha shakllanishi (foizda).<sup>1</sup>**

3.10.1-diagramma ma'lumotlaridan ma'lumki, 2007-yilda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tushumlari tarkibida oltin 42,4 foizni, tozalangan mis 39,5 foizni, neft

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot materiallari asosida tayyorlangan.

4,2 foizni, tabiiy gaz va gaz kondensati 10,1 foizni kumush 1,9 foizni tashkil etadi.

Agarda hududlar bo'yicha tahlil qilinganda jami yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 39,9 foizi Toshkent viloyatiga, 45,2 foizi Navoiy viloyatiga, 13,0 foizi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelgani holda qolgan 1,9 foizi respublikamizning boshqa hududlari zimmlariga to'g'ri keladi (3.10.2-diagramma).



3.10.2-diagramma. Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq summasini hududlar bo'yicha taqsimoti.<sup>1</sup>

### **Soliq to'lovchilar, soliqqa tortish obyekti va bazasi**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari bo'lib O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanishadi.

Soliqqa tortish maqsadida yerosti boyliklari deganda yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo'lgan makon, foydali qazilmalar deganda iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalar qaraladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot materiallari asosida tayyorlangan.

Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xomashyo bo'lgan rudalarni bir korxonaga qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalariga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxonaga soliq to'lovchi hisoblanadi. Masalan, Olmaliq mis qazib olish korxonasi tarkibida mis bo'lgan, qazib olingan rudani boyitish fabrikasiga beradi, fabrika boyitilgan rudani Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatining mis eritish zavodiga topshiradi. Kombinat tayyor mahsulot — tozalangan mis chiqaradi, soliq stavkasi ham unga belgilangan. Mazkur holatda rudani qazib oluvchi korxonaga emas, balki tozalangan misni olganlik uchun kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi.

Respublikamizda ushbu soliqni davlat budjetiga ta'minlab beruvchi (ob-havo qiluvchi) eng yirik soliq to'lovchilar bo'lib, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari, Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlaydigan zavodlari, Navoiy oltinni qayta ishlaydigan korxonaga shuningdek, Angren ko'mir qazib oluvchi korxonaga va boshqa shu kabi yerosti boyliklarini qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar hisoblanadi.

Ruda qayta ishlash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo'natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxonaga soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Quyidagilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish obyektlari hisoblanadi:

A. Foydali qazilmalarni qazib olish hajmi (shu jumladan, yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda.

Qazib olingan ruda tarkibidan, asosiy foydali qazilmadan tashqari, unga doir stavkalar belgilangan boshqa xomashyo ajratib olingan taqdirda yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar soliqqa tortish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Qazib olingan foydali qazilma yoki uning bir qismi korxonaga tomonidan boshqa materiallarni ishlab chiqarish yoki tayyorlash uchun xomashyo hisoblangan taqdirda soliq

ushbu xomashyoni qazib olishning ishlab chiqarish tan-narxidan kelib chiqib, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Hisobot oyida qazib olingan, lekin to'laligicha yoki qis-man sotilmagan foydali qazilmalar hajmi uchun soliq sotil-gan mahsulotning hisobot oyi yoki sotish amalga oshirilgan bundan oldingi oy uchun o'rtacha hisoblangan qiymatidan kelib chiqib to'lanadi.

Gaz qazib chiqaruvchi korxonalar uchun soliqqa tortish obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan sotish bahosi bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirilgan holda, birlamchi tayyorgarlikdan o'tgan qatlamdan qazib olingan tabiiy (tozalanmagan) gaz hajmi hisoblanadi.

B. Texnogen hosilalar hajmi (mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari) ajratib olingan asosiy foydali qazilmaning qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy sotilish qiymati bo'yicha, bunda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegiriladi.

Texnogen hosilalarga, shu jumladan, texnologik yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha ishlatilmayotgan mine-ral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari kiradi.

D. To'plangan chaqnoq tosh xomashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya mate-riallarining hisob qiymati.

Yig'ish deganda chaqnoq tosh xomashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya mate-riallarini tabiiy ochiq joylar, tabiiy yerosti bo'shliqlari (g'orlar), ishlatib bo'lingan karyerlar, kon qazish sanoati buyumlari, daryo qa'rida konchilik va boshqa maxsus ish turlarini bajarmasdan, yerostining bir butunligini buzmas-dan olib to'plash tushuniladi.

#### **Soliq stavkalari va soliqlardan imtiyozlar**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekis-ton Respublikasi Prezidenti qa-rori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda qazib olinadigan xom-ashyo turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun



solliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Foydali qazilmalarni qazib olishning tabiiy noqulay sharoitda ishlaydigan konlar davlat tomonidan qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalarni joriy etish orqali bunday korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qo‘shimcha mablag‘lar yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hozirgi vaqtda jami 53 turdagi foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o‘rnatilgan.

2009-yil 1-yanvardan boshlab yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagicha belgilangan.

3.10.1-jadval

**Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI<sup>1</sup>**

<b>Soliqqa tortish obyektining nomi</b>	<b>Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda</b>
1. Asosiy va qo‘shimcha foydali qazilmalar olinishiga nisbatan soliq stavkalari	
<i>Energiya tashuvchilar:</i>	
Tabiiy gaz	30,0
Yerostidan qazib olingan gaz	2,6
Nobarqaror gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko‘mir	3,8
<i>Rangli va noyob metallar:</i>	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	1,3
Konsentrlangan qo‘rg‘oshin	1,3
Metal rux	1,3
Volfram konsentri	10,4
<i>Asl metallar:</i>	
Oltin	5,0

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.

Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24,0
<i>Qora metallar:</i>	
Temir	3,9
<i>Kon-kimyo xomashyosi:</i>	
Tosh (ovqatga ishlatiladigan) tuz	1,7
Kaliy tuzi	0,4
Natrit sulfat	0,4
Fosforitlar (grafitlarda)	4,8
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,3
Glaukonit	3,3
Mineral pigmentlar	4,8
<i>Kon-ruda xomashyosi:</i>	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	7,8
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9
Kvars – dala shtapli xomashyosi	6,5
Shisha xomashyosi	1,8
Betonitli loy	4,8
Talk va talk toshi	3,9
Talkomagnizit	3,9
Mineral bo‘yoqlar	5,7
Vollostanit	3,9
Asbest	3,9
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	2,3
Bariy konsentrati	2,0
<i>Metallurgiya uchun noruda xomashyosi:</i>	
O‘tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliblash gilmoyasi	3,3
Ohaktoshlar, dolomitlar	3,9
Kvars va kvarsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	1,8

<i>Noruda qurilish materiallari:</i>	
Sement xomashyosi	2,0
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,8
Marmar ushog'i	3,8
Gips toshi, ganch	5,3
Keramzit xomashyosi	3,0
Fisht – cherepitsa (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	3,1
Gips va angidrit	3,8
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	3,8
Qurilish qumlari	3,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	3,8
Qumtoshlar	1,6
Chig'anoq	3,8
Slanetslar	3,8
Agloporit	2,5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (margellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	1,6
2. Foydali qazilmalarni qazib olish va mineral xomashyoni qayta ishlash jarayonida olingan texnogen hosilalardan foydalanganlik huquqi uchun	asosiy foydali qazilma boyligini qazib olganlik stavkasidan 30%

**Soliqni hisoblab  
chiqarish va budjetga  
to'lash tartibi**

Yuridik va jismoniy shaxslar yer osti boylıklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarni soliq organlariga yil boshidan o'sib boruvchi yakun bo'yicha belgilangan shaklda (11-ilova) soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda taqdim etadilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxslar quyidagi tartibda to'laydilar:

a) mikrofirma va kichik korxonalar – yilning har cho-ragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechik-tirmay;

b) mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan boshqa soliq to'lovchi yuridik shaxslar — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay.

Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organlarining xabarnomasi bo'yicha hisob-kitobni ularga taqdim etadilar va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar.

### **Soliqni buxgalteriyada hisobga olish tartibi**

Yuridik shaxslarning yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblari buxgalteriya hisobi budjetga to'lovlar (turlari) bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

*Hisoblab yozilgan soliq summasi buxgalteriyada quyidagicha aks ettiriladi:*

— davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'ining debeti;

— budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

*Budjetga o'tkazilgan soliq summolari quyidagicha aks ettiriladi:*

— budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining debeti;

— pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summolari to'langan holda, boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz bo'lmagan taqdirda, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

## **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala.** Neft qazib oluvchi korxonada hisobot davrida 1600 tonna neft qazib olgan. Korxonada qayta ishlash uchun 1600 ming so'mga (QQS va aksiz solig'isiz) realizatsiya qilgan. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang.

*Yechilishi:*

1. Neft mahsulotlarini qayta ishlashdan olingan haqiqatda sotilish qiymatidan 20,0% da to'lanishi belgilangan;

2. Neft mahsulotlarining qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblaymiz:

$$1600 \times 20\% = 320,0 \text{ ming so'm.}$$

**2-masala.** Ko'mir qazib oluvchi korxonada hisobot davrida 1900 tonna ko'mir qazib olgan va uning 45 foizini 8400 ming so'mga realizatsiya qilgan. Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

**3-masala.** Korxonada hisobot davrida 2500 tonna temir rudasini qazib olib, uning bir qismini 1300 ming so'mga QQS bilan realizatsiya qilgan. Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?
2. Bonuslar nima?
3. Rentals nima?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yerosti qazilma boyliklari hissasiga to'g'ri keladi?
5. Respublikamizda eng yirik soliq to'lovchilar jumlasiga qaysi korxonalar kiradi?
6. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining asosiy qismi respublikamizning qaysi hududlari hissasiga to'g'ri keladi?
7. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
8. Qaysi mezonlar asosida soliq stavkalari tabaqalashtiriladi?
9. Hozirgi vaqtda yer osti qazilma boyliklarining nechta turiga nisbatan soliq stavkalari belgilangan?
10. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilganmi?
11. Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qanday tartibda soliq majburiyatlarini amalga oshiradilar?

### **III bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.1., 1.2., 1.7., 1.10., 1.11., 1.12., 1.13., 1.14., 1.15., 1.17., 1.18., 1.19., 1.20., 1.21., 1.22., 1.24., 2.1, 2.2., 2.8., 3.1., 3.3., 3.4., 3.12., 3.14., 3.16., 3.18., 3.24., 3.26., 3.41., 4.15., 4.21., 5.5., 5.6., 6.3., 6.13., 6.15.

## IV B O B. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

---

### 4.1. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

#### **Soliq to'lovchilar, soliq obyekti va bazasi**

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari,

shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini inventarizatsiya qilish qiymati soliq solish bazasi bo'lib hisoblanadi. Agar jismoniy shaxslarning mol-mulkini bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati belgilanadi hamda o'rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi.

#### **Soliq stavkalari va soliq imtiyozlari**

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

bilan belgilanadi, ularni soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda bildiriladi. Soliq stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidaga qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

2009-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining stavkalari 4.1.1-jadvalda belgilangan.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha tegishli organlar tomonidan belgilangan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahri va

**Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i  
STAVKALARI<sup>1</sup>**

<b>Soliqqa tortish obyekti</b>	<b>Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi</b>
Turar joylar, kvartiralar, dala hovli va bog‘ uychalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar ularning qiymatidan kelib chiqib	0,5

viloyat markazlarida – 2100,0 ming so‘m, boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 920,0 ming so‘m miqdoridagi mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulklari texnik inventarizatsiyalash byurosi (TIB) xodimlari tomonidan baholanadi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo‘yicha pensionerlar uchun mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonining 60 kv. metri hajmi-da belgilanadi.

Soliq qonunchiligiga ko‘ra quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:

a) O‘zbekiston Qahramoni, Sobiq Ittifoq Qahramoni, Mehnat qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning;

b) ikkinchi jahon urushi yillaridagi urush qatnashchilari va partizanlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar, Leningrad shahri qamalida bo‘lganlarning va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatni Afg‘oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo‘lgan qo‘shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o‘tagan harbiy xizmatchilar hamda o‘quv va sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning;

d) o‘n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;

e) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.

ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan, u yerga vaqtincha yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolarning);

f) soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning, shuningdek, I va II guruh nogironlarining;

g) muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarining — xizmatni o'tash davrida;

h) harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo'lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining);

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasi-ning tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar soliq organlariga taqdim etilganda, mol-mulkning faqat bir obyektiga taalluqli bo'ladi. Bunda mol-mulk imtiyoz oluvchining mulki bo'lgan hollardagina taqdim etiladi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

#### **Soliqni hisoblab chiqarish va budgetga to'lash tartibi**

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1-yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar,



binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e‘tiboran to‘lanadi.

Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulkdan soliq merosxo‘rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo‘q qilingan, butunlay vayron bo‘lgan hollarda mol-mulk solig‘i undirish ular yo‘q qilingan yoki butunlay vayron bo‘lgan oydan e‘tiboran to‘xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi taqvimiy yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o‘tganda soliqni birinchi mulkdor o‘sha yilning 1-yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo‘qotgan oyning boshigacha to‘laydi, yangi mulkdor esa mulk huquqini qo‘lga kiritgan oydan e‘tiboran to‘laydi.

Taqvimiy yil davomida imtiyozga ega bo‘lish huquqi paydo bo‘lgan taqdirda mol-mulk solig‘i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e‘tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig‘ini to‘lash haqidagi to‘lov xabarnomalari to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi. Hisoblangan yillik soliq miqdori teng ulushlarda ikki muddatda — 15-iyun va 15-dekabrda kechiktirmay mahalliy budjetga to‘lanadi.

Agar soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha summalar to‘langan bo‘lsa, soliq va yig‘imlar bo‘yicha qarzlarni mavjud bo‘lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko‘ra o‘ttiz kun ichida soliq to‘lovchiga qaytariladi yoki bo‘lg‘usi to‘lovlarni hisobiga qayd etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1-yanvaridagi holat bo‘yicha shahar va tumanlar bo‘yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud bo‘lgan imoratlar egalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga binoan o‘tkaziladi.

## **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala.** Fuqaro Safarov Sherzod Toshkent shahar Yunusobod tumani S-2, 24-uydan xarid qilgan 4 xonali kvartirasining texnik inventarizatsiyalash byurosi tomonidan narxlangan bahosi 1850 ming so‘mni tashkil etadi.

*Mol-mulk solig‘i summasini hisoblang?*

**2-masala.** Fuqaro Safarov Shohruh 2008-yil sentabr oyida Toshkent shahar, Chilonzor tumanidan 4,0 sotix maydonga ega bo'lgan turar joy sotib oldi. Sotib olingan turar joyning texnik inventarizatsiyalash byurosi xodimlari tomonidan narxlangan qiymati 2450 ming so'mni tashkil etadi.

*Mol-mulk solig'i summasini hisoblang va fuqaro Safarov Shoxrux 2008-yil uchun qancha miqdorda soliq to'lashi lozim bo'ladi?*

**3-masala.** Fuqaro Safarov Sanjar 2008-yilda o'z shaxsiy avtomashinasi uchun garaj sotib oldi. Garajning narxlangan qiymati 1480 ming so'mni tashkil etdi.

*Fuqaro Safarov Sanjar qancha miqdorda mol-mulk solig'ini to'lashi lozim?*

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining to'lovchilari kimlar?

2. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulkleri soliq solish obyekti va bazasi hisoblanadi?

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi?

4. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasi 2008-yilda necha foiz qilib belgilangan?

5. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish qanday tartibda amalga oshiriladi?

6. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i summasi qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?

7. To'lov xabarnomasi qaysi muddatgacha uchastka soliq inspektorlari tomonidan soliq to'lovchilarga yetkaziladi?

8. Mol-mulk solig'idan kimlar ozod etiladi?

9. Pensionerlarning necha kvadrat metr mol-mulki qiymati soliqqa tortilmaydi?

10. Yillik hisoblangan mol-mulk solig'i qaysi muddatda budjetga to'lanadi?

## 4.2. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

### **Yer solig'ini to'lovchilar, soliq obyekt va bazasi**

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;
- meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Soliq kodeksiga ko'ra ko'chmas mulkka ega bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotnomalari soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

### **Yer solig'i stavkalari va soliqdan imtiyozlar**

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari O'zbe-

kiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda xabar qilinadi.

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar uchun 1,5 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda yer solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan yer uchastkalari maydoni yer berish to'g'risida davlat hokimiyati organlarining qarori, yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi uchun davlat dalolatnomasi, yerni ijara-ga olish shartnomasi, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan boshqa hujjat-larga ko'ra belgilanadi.

Yer uchastkasiga nisbatan mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lmasa, soliq butun maydon uchun yuqorida ko'rsatilgan oshirish koeffitsientlarini qo'llagan holda to'lanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tash-kilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini hisoblab chiqarish do'konlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyati-da foydalaniladigan boshqa obyektlar uchun foydalaniladi-gan yer uchastkalari uchun amalga oshiriladi.

*Soliq kodeksiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:*

- yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinar vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;

● O‘zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar, ikkinchi jahon urushi yillaridagi urush nogironlari va qatnashchilari;

● xizmatni Afg‘oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo‘lgan qo‘shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o‘tagan harbiy xizmatchilar hamda o‘quv va sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

● haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning oilalari — xizmat muddatiga;

● I va II guruh nogironlari;

● yolg‘iz pensionerlar. Soliq solish maqsadlari uchun yolg‘iz pensionerlar deganda bir o‘zlari yoki voyaga yetmagan bolalari yoki nogiron bolasi bilan birgalikda alohida uyda, kvartira yoki yotoqxonada yashaydigan pensionerlar tushuniladi;

● boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar. Soliq solish maqsadlarida boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar deganda ota-onadan biri yoki ikkalasi vafot etgan hamda oilada 16 yoshga yetmagan 5 va undan ortiq bola bo‘lgan oilalar tushuniladi;

● Chernobil AESdagi falokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar;

● ko‘chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo‘yicha — yer uchastkalari berilgan vaqtdan e‘tiboran besh yilga;

● shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

Yuqorida ko‘rsatilgan imtiyozlar yer uchastkalari yakka tartibda uy-joy qurilishi va shaxsiy yordamchi xo‘jalik (dehqon xo‘jaligi) yuritish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me‘yorlar doirasida taqdim etilgan jismoniy shaxslariga tatbiq etiladi.

Yer solig‘i to‘lanmaydigan yer uchastkalarining maydonlari yer uchastkasiga huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarga binoan qabul qilinadi.

Imtiyoz huquqi yer solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda xo‘jalik yuritadigan butun oilaga tatbiq etiladi.

**Yer solig'ini hisoblab  
chiqarish tartibi**

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini davlat soliq organlarining xodimlari hisoblab chiqaradi. Davlat soliq xizmati organlari yer uchastkalari mulkdorlari, yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar yoki ijarachilar bo'lgan jismoniy shaxslarning muntazam hisobini yuritadilar.

Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxsni tashkil etmaganlari) hisoblab yozilgan yer solig'i umumiy summasining 95 foizini budjetga va 5 foizini Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga to'laydilar. Shu munosabat bilan davlat soliq organlari dehqon xo'jaliklariga yoziladigan to'lov xabarnomalarida budjetga to'lanadigan yer solig'i summasi va Jamg'armaga to'lanadigan yer solig'i summasini alohida ko'rsatadilar.

Soliq to'lanishi to'g'risidagi to'lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga davlat soliq organlari tomonidan har yili, joriy yilning 1-mayidan kechiktirmay topshiriladi.

Yer uchastkalarining maydoni o'zgartirishda va yil davomida imtiyoz huquqi paydo bo'lganda yoki bekor qilinganda davlat soliq organlari bir oy davomida soliqni qayta hisob-kitob qilishlari va soliq to'lovchiga to'lash muddatlari o'zgartirishini hisobga olgan holda yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari shart.

Jismoniy shaxslarga shahar va qo'rg'onlarda yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yer uchastkalarining maydonlari yakka tartibdagi uy-joylarni hisobga olish va nazorat qilish shahar yoki tuman boshqarmasi yoxud ishlab chiqarish uy-joy inspeksiyasining mavjud materiallari bo'yicha hisobga olinib, har yili naturada aniqlashtiriladi.

Jismoniy shaxslarga qishloq joylarda shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan yer uchastkalari tomorqa yerlardan va jamoat yerlarida qo'shimcha ajratilgan yer uchastkalaridan iborat bo'lishi mumkin. Bunday holda tomorqa yerlar maydoni yer kadastro ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinib, yuz bergan o'zgarishlar har yili naturada aniqlashtiriladi. Jamoat yerlarida qo'shimcha ajratilgan yer uchastkalari maydoni xo'jaliklarning ma'lumotlari bo'yicha hisobga olinib, har yili aniqlashtiriladi.

Agar jismoniy shaxs yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan yer uchastkasida tadbirkorlik faoliyati bilan

shugʻullansa yoki yerdan maqsadli foydalanishni oʻzgartir-  
masdan oʻz uyini ofis sifatida rasmiylashtirsa, bunda undan  
yer soligʻi yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki dehqon  
xoʻjaligini yuritish uchun berilgan yerlar uchun belgilangan  
stavkalar boʻyicha undiriladi.

Koʻp xonadonli turar joylarda yashaydigan jismoniy  
shaxslardan yer soligʻi undirilmaydi. Xonadondan yoki koʻp  
xonadonli turar joylarning bir qismidan odamlarning yasha-  
shi bilan bogʻliq boʻlmagan maqsadlarda foydalanilganda,  
belgilangan tartibda xonadonning umumiy maydonidan  
kelib chiqib, yer soligʻining tegishli hissasi undiriladi.

Egalik qilish huquqi meros boʻyicha turar joy, noturar  
imorat va inshootlar, bogʻ uychasi oʻtishi bilan birga oʻtgan  
yer uchastkalari uchun yer soligʻi merosxoʻrlardan, meros  
qoldiruvchining soliq majburiyatlarini hisobga olgan holda  
undiriladi.

#### **Yer soligʻini budjetga toʻlash muddatlari**

Jismoniy shaxslar hisoblangan  
yillik yer soligʻini teng ulushlar-  
da yiliga ikki muddatda — 15-  
iyundan va 15-dekabrda kechiktirmay toʻlaydilar. Toʻlan-  
gan soliq summasi belgilangan tartibda mahalliy budjetga  
tushadi.

Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer  
uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab toʻlana-  
di. Masalan, vakolatli hokimiyat organining 15-sentabrdagi  
qarori bilan korxonaga yer ajratilsa, u yer soligʻini 1-oktabr-  
dan boshlab toʻlaydi.

Yer soligʻi toʻlovchi jismoniy shaxslar davlat soliq xiz-  
mati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslari-  
ning harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori  
organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egadirlar.  
Davlat soliq xizmati organlari soliqning toʻgʻri hisoblab  
chiqarilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi ustidan belgilangan  
qonun hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshiradilar.

### **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala.** Fuqaro Safarova Shahzoda 2008-yil 10-yan-  
varda Toshkent viloyati, Qibray tumanidan 6 sotix yer  
uchastkasini uy-joy qurish uchun sotib oldi.

Fuqaro Safarova Shahzoda sotib olgan yer uchastkasi  
uchun qancha miqdorda yer soligʻini toʻlashi lozim. *Yer  
soligʻi summasini hisoblang.*

**2-masala.** Fuqaro Ramozonov Akbar Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashaydi. Uning yer uchastkasi 15 sotixni tashkil etadi.

Fuqaro Ramozonov Akbar yer uchastkasi uchun qancha miqdorda yer solig'ini to'lashi lozim. *Yer solig'i summasini hisoblang.*

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari soliq solish obyekti bo'la oladi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari qanday belgilanadi?
4. Jismoniy shaxslar berilgan yerlardan foydalanmagan holatda qanday tartibda ulardan soliq undiriladi?
5. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan qanday tartibda soliq undiriladi?
6. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig'idan ozod etiladi?
7. Jismoniy shaxslarning yer solig'i qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?
8. Dehqon xo'jaliklari yer solig'ini budjetga to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?
9. Yer solig'i bo'yicha to'lov xabarnomalari soliq to'lovchilarga qaysi muddatgacha yetkaziladi?
10. Yer solig'i qaysi muddatda mahalliy budjetga to'lanadi?

### **4.3. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I**

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyati, soliq to'lovchilar, soliq obyekti va bazasi**

Ma'lumki, soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga.

Jismoniy shaxslarga – yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida budjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir.


Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – davlat budjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umum-



davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Bugungi kunda jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar va yig‘imlar budjet daromadlarining qariyb 15–20 foizini tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 1991-yilda budjet tushumlarining 6,7 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda 13,1 foizni tashkil etgan. 2006-yilgi davlat budjeti parametrlari bo‘yicha ushbu soliq davlat budjeti daromadlarining 15 foizini, to‘g‘ri soliqlar ichida esa 57,7 foizini tashkil etishi prognozlashtirilgan.



**4.3.1-diagramma. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni<sup>1</sup>.**

Bu ko‘rsatkichlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini budjet daromadlari tarkibida ahamiyatli ekanligidan darak beradi.

Soliq kodeksiga ko‘ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to‘lovchilar hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o‘n ikki oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko‘proq muddatda O‘zbekistonda turgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

<sup>1</sup> Moliya Vazirligi yillik hisobot materiallari asosida tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi soliq solish obyekti hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan baza bo'lib, jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning daromad solig'i summalari O'zbekiston Respublikasida soliqni to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summalarning miqdori jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan oshmasligi lozim.

**Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi**

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa

mablag'lar kiradi. Jumladan:

- 1) mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar;
- 2) jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari;
- 3) jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari;
- 4) boshqa daromadlar.

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo'yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar (yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot, bir yo'la beriladigan mukofotlar, maoshlarga ustamalar, ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar, ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va boshqalar), kompensatsiya to'lovlari (tabiiy iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylarda-

gi ishlar bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlar, og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, dam olish kunlarida va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va boshqalar) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash (xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to‘lash, mehnatga layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash, yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqti uchun haq to‘lash, oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta‘til vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar va boshqa shu kabilar) tarzidagi daromadlar ham kiradi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar, royalti va shu kabi qonunchilikda ko‘zda tutilgan daromadlar kiradi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar jumlasiga yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to‘lash, shu jumladan: jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta‘lim muassasalarida o‘qitish, tarbiyalash; kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash; oziq-ovqat, oylik yo‘l chiptalari yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash kabilar kiradi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga esa davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar; stipendiyalar; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grantlar; jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo‘yicha olingan foizlar va boshqa daromadlar kiradi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ko‘pgina mamlakatlardagi singari O‘zbekistonda ham progressiv soliq hisobla-

nadi. Ushbu soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o‘rnatilgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. Har yili belgilangan stavkalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko‘rib chiqilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqalashgan progressiv soliq stavkalari;

- jismoniy shaxslarning dividend va foiz tariqasida olingan daromadiga soliq stavkasi;

- norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to‘lov manbayida solinadigan soliq stavkalari;

- imtiyozli soliq stavkalari.

Soliq qonunchiligiga binoan 1998-yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya’ni 5 pog‘onali qilib belgilangan edi. 2000-yildan boshlab 4 pog‘onali, ya’ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001-yildan esa 3 pog‘analiga o‘tib, uning stavkasi 12, 25, 30 foizni, 2002-yildan 13, 23, 33 foiz qilib belgilangan edi.

4.3.1-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i  
STAVKALARI<sup>1</sup>**

<b>Jami daromad miqdori</b>	<b>Soliq summasi</b>
eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha	daromad summasining 12 foizi
eng kam ish haqining olti baravari miqdoridan (+1 so‘m) o‘n baravari miqdorigacha	eng kam ish haqining olti baravari miqdoridan olinadigan soliq + olti baravardan oshadigan summaning 17 foizi
eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan (+1 so‘m) va undan yuqori summadan	eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o‘n baravardan oshadigan summaning 22 foizi

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qarori.

2009-yildan jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida hisoblanadi (4.3.1-jadval).

Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib (o'sib) boruvchi yakun tarzida hisoblanadi.

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to'lash manbayida chegirmalarsiz, quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

- dividend va foizlar — 10 foiz;
- xatarni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga to'langan sug'urta mukofotlari — 10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtasida harakat qatnovida xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar) — 6 foiz;

- royalti, ijaradan kelgan daromadlar, xizmatlar ko'rsatishdan kelgan daromadlar, shu jumladan, boshqaruv bo'yicha xizmatlar, maslahatlarga oid va boshqa daromadlar — 20 foiz;

To'lov manbayida soliq solish, to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki undan tashqarida amalga oshirilganidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga 10 foizlik stavka bo'yicha to'lov manbayida soliq solinadi.

Bunda soliq solish maqsadida dividendlarga aksiyalar bo'yicha hamda qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar kiradi. Foizlarga qarz majburiyatlari va xo'jalik yurituvchi subyektning ustav sarmoyasida ulushbay ishtirokidan keladigan daromadlar va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-son qarori bilan tasdiqlangan (12-ilovali) ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1, 2 va 3-son ro'yxatlariga kiritilgan o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarida band bo'lgan xodimlarning daromadlariga belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi. Bunda yuqorida aytib o'tilgan fuqarolar toifalaridan daromad solig'i olish darajasi 20 foizdan oshmasligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ko'rsatib o'tilgan qarori bilan tasdiqlangan

1-son ro'yxatning 3-qismi hamda 2-son ro'yxatning 1-qismida qayd etilgan ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadidan soliq olish darajasi ham 20 foizdan oshmasligi lozim.

O'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi (18-ilova).

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlarga (ish stajiga ustamalar, baland tog'lik, dasht va suvsiz tumanlardagi ishlar uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlarga) eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi. Bundan tashqari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga ham eng kam stavka miqdorida soliq solinadi.

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarishda dividendlar va foizlar bo'yicha daromadlar, qo'shimcha to'lovlar jami daromad tarkibidan hisobdan chiqariladi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar**

*Soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadiga quyidagilar kiritilmaydi:*

- mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan, eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasidagi ishdan bo'shatish nafaqasi, davlat ijtimoiy sug'urtasi va davlat ijtimoiy ta'minoti bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, shu jumladan, oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqalari bundan mustasno), shuningdek, xayriya va ekologiya jamg'armalari mablag'laridan fuqarolarga pul va natura shaklida beriladigan nafaqalar va boshqa yordam turlari.

Bunda eng kam ish haqi hisobi uchun mehnat shartnomasi to'xtatilgan kunda amal qilgan (oxirgi ishlagan kundagi) oylik eng kam ish haqining miqdori qabul qilinadi;

- olinadigan alimentlar;
- oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus hamda hunar-texnika o'quv yurtlari hamda ular bazasida tashkil etilgan biznes maktablari, shu jumladan, oliy va o'rta diniy o'quv

yurtlari tomonidan o'z talabalariga va o'quvchilariga tayinlanadigan stipendiyalar, shuningdek, xayriya va ekologiya jamg'armalari mablag'laridan ta'sis etiladigan stipendiyalar;

- davlat pensiyalari, shuningdek, ularga ustamalar (ustamalarning qonun hujjatlarida chegaralangan miqdorigacha);

- shaxslar qon topshirganlik uchun, donorlikning boshqa turlari uchun, ona suti topshirganlik uchun oladigan summalar, shuningdek, tibbiyot muassasalarining xodimlari qon yig'ib topshirganliklari uchun oladigan summalar;

- fuqarolarning xorijda ishlashga yuborilishi munosabati bilan davlat budjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlardan chet el valutasida oladigan ish haqi summalari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

- jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqi asosida o'zlariga qarashli bo'lgan mol-mulkni sotish natijasida oladigan summalari, tadbirkorlik faoliyati doirasida amalga oshiriladigan mol-mulkni sotish natijasida oladigan daromadlardan tashqari;

- jismoniy shaxslarning uy xo'jaligida yoki dehqon xo'jaligida yetishtirgan qoramol, quyon, nutriya, baliq, parandalarni ham tirik holatda, ham ularni so'yib mahsulotlarini xom va qayta ishlangan holda, shuningdek, asalarichilik mahsulotlarini va bunday xo'jalikda yetishtirilgan tabiiy yoki qayta ishlangan dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olgan daromadlari summasi. Fuqaroda shaxsiy yordamchi xo'jalik mavjudligi mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlanadi;

- bir yil mobaynida yuridik shaxslardan olingan eng kam ish haqi miqdorining olti baravarigacha bo'lgan summadagi qimmatli sovg'alar qiymati, shuningdek, xalqaro hamda respublika tanlov va musobaqalarida olingan sovrin buyumlar qiymatining summasi;

- meros qilib qoldirish va hadya qilish natijasida olingan summalar va mol-mulk qiymati, fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflarining merosxo'rlari (huquqiy vorislari) oladigan mualliflik haqi summalari bundan mustasno;

- davlat zayomlarining obligatsiyalari va lotereyalar bo'yicha yutuqlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar;

- fuqarolarning sug'urta bo'yicha oladigan summalari;

● bir yil mobaynida berilgan moddiy yordam summolari:  
— tabiiy ofatlar, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari — to‘laligi-cha;

— vafot etgan xodimning oila a‘zolariga yoki oila a‘zolari vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari — eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;

— boshqa hollarda — eng kam ish haqining o‘n ikki baravarigacha miqdorda;

● depozit sertifikatlar bo‘yicha daromadlar, banklardagi omonatlar va davlat xazina majburiyatlari bo‘yicha foizlar va yutuqlar;

● patent egasi bo‘lgan jismoniy shaxsning (litsenziarining) sanoat mulki obyektlaridan o‘z ishlab chiqarishida foydalanishdan yoki foydalanish boshlangan sanadan e‘tiboran amal qilish muddati doirasida ularga litsenziyalar sotishdan, shuningdek, litsenziat sanoat mulki obyektlaridan foydalana boshlagan sanadan e‘tiboran ushbu foydalanishdan olgan daromadi summasi:

— ixtirolar va seleksiya yutug‘idan — besh yil davomida;

— sanoat namunasidan — uch yil davomida;

— foydali modeldan — ikki yil davomida;

● bolalar lagerlari va boshqa sog‘lomlashtirish lagerlariga, ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo‘ljallangan sanatoriy-kurort muassasalariga borish uchun bolalar va o‘smirlarga beriladigan yo‘llanmalar qiymatini, shuningdek, o‘z xodimlarining ambulatoriya yoki statsionar tibbiy xizmatdan foydalanish qiymatini to‘liq yoki qisman kompensatsiyalash tartibida korxonalar, muassasalar va tashkilotlar o‘z xodimlariga yoki ular uchun to‘lagan summalar. Ko‘rsatib o‘tilgan to‘lovlar jumlasiga nogironlarning sog‘lomlashtirish va sanatoriy-kurort muassasalariga berilgan yo‘llanmalari qiymatini, davolanish va tibbiy xizmatdan foydalanish, nogironlikning oldini olish maqsadida texnika vositalari sotib olish uchun hamda nogironlarning salomatligini tiklash uchun qilingan xarajatlarni to‘liq yoki qisman to‘lash tartibida korxonalar, muassasalar va tashkilotlar to‘lagan summalar ham kiradi;

● fuqarolarning ish haqi va soliq solinadigan boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib



olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yoʻnaltiriladigan summalari;

- vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, basharti bunday ishlar vaqtinchalik bir martalik ish bilan taʼminlash markazlari koʻmagida amalga oshirilayotgan boʻlsa;

- xususiy korxonalar va fermer xoʻjaligi tomonidan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar toʻlanganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori va fermer xoʻjaligining boshligʻi ixtiyoriga kelib tushadigan foyda summasi;

- Oʻzbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor boʻlgan jismoniy shaxslar olgan bir yoʻla beriladigan pul mukofotlari yoki shunga teng bahodagi esdalik sovgʻalarining qiymati;

- olimpiya oʻyinlarida va boshqa xalqaro sport musobaqalarida sovrinli oʻrinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yoʻla beriladigan pul mukofotlari;

- jamgʻarib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular boʻyicha foizli daromadlar, shuningdek, jamgʻarib boriladigan pensiya toʻlovlari;

- jismoniy shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ularga hisoblangan foizlarni qoplash uchun yoʻnaltiriladigan ish haqining va soliq solinadigan boshqa daromadlarining summalari.

*Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni toʻlashdan quyidagilar toʻlaligicha ozod qilinadilar:*

- xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va aʼzolari hamda konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning oʻzlari bilan birga yashaydigan oila aʼzolari, agar ular Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boʻlmasa, Oʻzbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bogʻliq boʻlmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari boʻyicha;

- xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalarining maʼmuriy-texnik xodimlari va ularning oʻzlari bilan birga yashaydigan oila aʼzolari, agar ular Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi boʻlmasa yoki Oʻzbekiston Respublikasida doimiy yashamasa Oʻzbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bogʻliq boʻlmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari boʻyicha;

● xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

● xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

● hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslari — agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

● Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, shuningdek, o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o'tash (xizmat vazifasini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lov summalari bo'yicha;

● gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar gastrol-konsert faoliyatidan olingan daromadlari bo'yicha;

● mansab darajalari bor prokuratura organlari xodimlari.

*Quyidagi soliq to'lovchilarning daromadlari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida to'lashdan ozod etiladi:*

a) O'zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud ikkinchi jahon urushi yillaridagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoki shikastlanish oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek, pensiya

ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar;

b) xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, fuqarolar urushi va ikkinchi jahon urushi, sobiq Ittifoqni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, ikkinchi jahon urushi yillaridagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari;

d) Leningrad qamali paytida 1941-yil 8-sentabrdan 1944-yil 27-yanvargacha bo'lgan davrda shu yerda ishlagan fuqarolar;

e) ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish va shikastlanish oqibatida nogiron bo'lib qolganlar;

f) bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari;

g) o'n va undan ortiq bolasi bo'lgan ayollar;

h) sobiq Ittifoqni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoxud shikastlanish oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining ota-onalari va rafiqalari.

«Halok bo'lgan jangchining bevasi (onasi, otasi)» shtampi bosilgan yoki pensiya guvohnomasini bergan muassasa muhri va rahbarining imzosi bilan tasdiqlangan tegishli yozuv qayd etilgan pensiya guvohnomasi asosida imtiyoz taqdim etiladi.

Sobiq Ittifoqni himoya qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning rafiqalariga faqat ular ikkinchi marta turmush qurmagan taqdirda, imtiyoz taqdim etiladi;

i) xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

j) Chernobil AESdagi falokat oqibatida jabr ko'rgan shaxslar.

Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek, imtiyoz taqdim etilishida asos hisoblanadigan boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan hujjatlar asosida imtiyoz beriladi;

k) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar.

Mehnat va ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan beriladigan «yolg'iz onaning shaxsiy daftarchasi» asosida imtiyoz beriladi;

l) ikki va undan ortiq bolasi bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar.

Turmush o'rtog'i (ayoli) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma va bolalarining mavjudligini hamda qayta nikohdan o'tmaganligini tasdiqlovchi pasport, boquvchisini yo'qotganligi tufayli pensiyasining tayinlanmaganligi to'g'risida mehnat va ijtimoiy ta'minot organlarining ma'lumotnomasi imtiyoz berilishida asos hisoblanadi;

m) bolaligidan nogiron bo'lgan va doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onasidan biri.

Pensiya guvohnomasi yoki doimiy parvarish talab etilishini tasdiqlovchi sog'liqni saqlash muassasasining tibbiy ma'lumotnomasi, birga yashashligi haqida — fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida imtiyoz taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning imtiyozlarga bo'lgan huquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni taqdim etganida vujudga keladi.

Hisobot yili uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi imtiyoz imtiyozlarga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oy boshidan taqdim etiladi.

Eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi imtiyoz jismoniy shaxslarning asosiy ish joyida, agar asosiy ish joyi mavjud bo'lmasa, unda yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq hisoblab chiqarishda qo'llaniladi.

Fuqaro imtiyozlarga bo'lgan huquqni yo'qotganligini 15 kundan kechiktirmay, undan soliq ushlab qoladigan

korxonada, muassasa, tashkilot, shuningdek, jismoniy shaxslarni yoxud soliq organini (agar mazkur organ hisob-kitobni amalga oshirsa) ma'lum qilishi lozim.

**Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadiga soliq solishning xususiyatlari**

Chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida bel-

gilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq solinadi.

Rezident — chet ellik jismoniy shaxsdan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi singari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Norezident — chet ellik jismoniy shaxslardan to'langan joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Soliq solish maqsadida norezident jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident sifatida yoki doimiy muassasa bilan bog'liqlikda bo'lmagan norezident shaxs sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident jismoniy shaxs doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromatlari bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va yig'implarni undirish tegishli chet davlatda O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida, bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

**Soliqni hisoblab chiqarish tartibi**

Asosiy ish joyidan olinadigan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslar-

ning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan ularni hisoblab

yo'zishning borishiga qarab soliq solinadigan jami daromad summasidan amalga oshiriladi.

Fuqaro bir yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olguniga qadar belgilangan shakl bo'yicha joriy yilda to'langan daromadlar hamda ushlab qolingani soliq summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart.

Yangi ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshidan ilgari va yangi ish (xizmat, o'qish) joyida olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Avvalgi ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan hollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnoma keyinroq taqdim etilsa, u holda undirilgan umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

Avvalgi asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarining xodim tomonidan bajarilishi bilan bog'liq mukofot va boshqa to'lovlar unga ishdan bo'shatilganidan so'ng to'langan bo'lsa, mazkur mukofot va to'lovlar umumbelgilangan tartibda ularni to'lash chog'ida jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqqa tortiladi. Bu fuqarolarga to'langan daromadning hamda ushlab qolingani soliqning umumiy summasi haqida korxonada, muassasada, tashkilot bir oy muddatda istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan jami daromad summasidan ularni hisoblab yo'zishning borishiga qarab (agar bunday daromadlar to'langan bo'lsa), belgilangan stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirsa, daromadlarni to'lovchi yuridik shaxslar soliq to'lovchining arizasiga ko'ra soliqni ushlab qoladilar.

Asosiy bo‘lmagan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar daromadidan olingan daromadlar, qilingan xarajatlardan va ushlangan soliq summasi to‘g‘risidagi taqdim etilgan deklaratsiya ma’lumotlari bo‘yicha soliq xizmati organi tomonidan daromad solig‘i yakuniy summasi hisoblab chiqariladi. Rezident jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida (shu jumladan, asosiy ish joyidan) olgan daromadlaridan daromad solig‘i yakuniy summasini hisoblab chiqarish ham xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va budjetga o‘tkazish uchun yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog‘liq jarima va penyalarni budjetga to‘lashi shart.

**Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi**

Yuridik shaxslar quyidagilarni bajarishi shart hisoblanadi:

1) soliq davri tugaganidan so‘ng o‘ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida (asosiy ish joyi bo‘yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslardan tashqari) belgilangan shaklda ma’lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

— soliq to‘lovchining – jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

— soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;

— o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingani umumiy summasi;

— soliq agentining identifikatsiya raqami;

— soliq agentining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oying 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summaları hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingani summaları to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq to‘lov manbayida ushlab qolinganda soliq jamg‘arib bori-

ladigan tizimda qatnashuvchi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga belgilangan tartibda hisoblab yozilgan badallar chegirilgan holda quyidagi muddatlarda to'lanadi:

a) daromad to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingani soliq summasi shu maqsadlarda pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlar taqdim etish bilan bir vaqtda budjetga o'tkaziladi;

b) to'lovni natura holda yoki mahsulotni realizatsiya qilishdan, ishlar bajarish yoxud xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumdan to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingani soliq summasi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida budjetga o'tkaziladi.

Bankda hisobraqamiga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash sanasi soliq to'lovchi hisobraqamidan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun, boshqalar, shu jumladan, jismoniy shaxslar uchun esa mablag'lar kredit muassasasining kassasiga o'tkazilgan kun hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning hisob-kitob varag'idan soliq summasi jismoniy shaxs tomonidan to'langanda, to'lov sanasi jismoniy shaxs hisobraqamidagi mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqning yil mobaynida to'lab borilgan summalari tegishli hisobot yili uchun soliq to'lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o'tkaziladi.

**Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tartibi**

Deklaratsiya — soliq idoralariga soliq to'lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o'z ichiga olingan daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog'liq xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to'lovchining hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtda davlat budjetiga to'lashga majbur etadigan hujjat hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi haqidagi deklaratsiya quyidagi hollarda soliq organlariga topshiriladi:



a) mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqqi tariqasida olingan daromad (agar bunday daromadlarga to'lov manbayida soliq solinmagan bo'lsa);

b) asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan jismoniy shaxslar tomonidan (Asosiy bo'lmagan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirganlar bundan mustasno);

d) rezident — chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan;

Jismoniy shaxslar doimiy istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organlariga jami yillik daromadlari haqida deklaratsiyani quyidagi muddatlarda taqdim etishlari kerak:

- asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan rezident — jismoniy shaxslar hisobot yilidan keyingi yilning 1-aprelidan kechiktirmay;

- rezident — chet ellik jismoniy shaxslar nazarda tutilayotgan daromadlar haqida — O'zbekiston Respublikasiga kelgan kundan boshlab bir oy mobaynida belgilangan shaklda.

Chet ellik jismoniy shaxsning faoliyati taqvimiy yil mobaynida to'xtagan va u O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketadigan bo'lsa, amalda olingan daromadlar haqida jo'nab ketishdan kamida bir oy oldin deklaratsiya taqdim etilishi kerak. Yakuniy deklaratsiya belgilangan shaklda hisobot yilidan keyingi yilning 1-aprelidan kechiktirmay taqdim etilishi kerak. Agar chet ellik jismoniy shaxs — O'zbekiston Respublikasi rezidenti joriy yilning 1-fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lash chog'ida deklaratsiya topshirish orqali soliqlar quyidagi muddatlarda to'lanadi:

a) asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan rezident — jismoniy shaxslar — jami yillik daromad haqidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 1-iyunidan kechikmay, yil mobaynida qayta hisoblanganda esa, deklaratsiya davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan kundan e'tiboran bir oy ichida;

b) jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valutasida to‘lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘langan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha chet el valutasida qayta hisoblab chiqiladi.

### Mavzuga doir masalalar

**1-masala.** Jismoniy shaxsga 2007-yilning may va iyun oylarida 270000 so‘m (135000+135000) ish haqi hisoblangan. May oyi uchun 29400 so‘m soliq ushlangan. Jismoniy shaxsdan iyun oyida ushlanishi lozim bo‘lgan daromad solig‘i summasini aniqlang.

*Yechilishi:*

1. STD= 270000 so‘m.

2. May va iyun oylari uchun eng kam ish haqi 24800 so‘m (12400 + 12400) ni tashkil etadi.

$24800 \times 5$  (karra) = 124000.

$24800 \times 10$  (karra) = 248000.

$124000 \times 13\%$  = 16120 so‘m.

$16120 + ((248000 - 124000) \times 18\%) = 16120 + 22320 = 38440.$

$38440 + ((270000 - 24800) \times 25\%) = 38440 + 5500 = 43940.$

3. Iyun oyi uchun ushlanishi lozim bo‘lgan soliq summasi  $43940 - 29400 = 14540$  so‘mni tashkil etadi.

**2-masala.** O‘zR Soliq kodeksi bo‘yicha har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo‘lgan jismoniy shaxsga 2007-yil may oyida 135000 so‘m ish haqi hisoblangan. Jismoniy shaxsdan ushlanishi lozim bo‘lgan daromad solig‘ini aniqlang.

*Yechilishi:*

1. 2007-yil may oyi uchun eng kam ish haqi 12400 so‘m.

Jismoniy shaxsning soliqqa tortilmaydigan daromadini aniqlaymiz, ya‘ni  $49600$  so‘m ( $12400 \times 4$ );

$STD = 135000 - 49600 = 85400$  so‘m;

2.  $12400 \times 5$  (karra) = 62000 so‘m.

$12400 \times 10$  (karra) = 124000.

$62000 \times 13\%$  = 8060 so‘m.

$$8060 + ((85400 - 62000) \times 18 \%) = 8060 + 4212 = 12272.$$

Demak, imtiyozga ega bo'lgan ushbu jismoniy shaxs 135000 so'm ish haqidagi 12272 so'm daromad solig'ini budjetga to'lashi lozim.

**3-masala.** Jismoniy shaxsga 2007-yil iyul va avgust oylarida 274000 so'm (137000+137000) ish haqi hisoblangan. Shuningdek, iyul oyida 70000 so'm mukofot berilgan. Jismoniy shaxsdan iyul va avgust oylarida ushlanishi lozim bo'lgan soliq summasini hisoblang?

**4-masala.** 2-guruh nogironiga 2007-yil avgust va sentabr oylarida 360000 so'm (180000+180000) ish haqi hisoblangan. Avgust oyida 40448 so'm soliq ushlangan. Sentabr oyida ushlanishi lozim bo'lgan soliq summasini hisoblang?

**5-masala.** Korxonaga hisobchisi U.Badalovga 2008-yil yanvar oyida 285000 so'm ish haqi hisoblangan. Undan qancha miqdorda daromad solig'ini undirish lozimligini aniqlang?

*Yechilishi:*

1. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni aniqlash uchun birinchi navbatda jismoniy shaxsning ushbu oy uchun soliqqa tortiladigan daromad (STD)i aniqlanishi lozim, ya'ni ushbu misolda soliqqa tortiladigan daromad 285000 so'mni tashkil etadi.

$$STD = 285000 \text{ so'm.}$$

2. STD dan O'zR. Soliq Kodeksida belgilangan (jismoniy shaxsning ish haqi, mukofot pullar va boshqa daromadlaridan) stavkalar bo'yicha *daromad solig'i undiriladi.*

Yanvar oyi uchun eng kam ish haqi miqdori 20400 so'mni tashkil etadi.

$$20400 \times 6 \text{ (karra)} = 122400.$$

$$20400 \times 10 \text{ (karra)} = 204000.$$

$$122400 \times 13 \% = 15912.$$

$$15912 + ((204000 - 122400) \times 18\%) = 15912 + 14688 = 30600.$$

$$30600 + ((285000 - 204000) \times 25\%) = 30600 + 20250 = 50850.$$

$$50850 - 2040 \text{ (jamg'arib boriladigan pensiya jamg'arimasiga to'lov)} = 48810.$$

Demak, korxonada hisobchisi U.Badalov yanvar oyi ish haqidan budjetga 48810 so‘m daromad solig‘i to‘lashi lozim.

### **O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Qanday shaxslarni jismoniy shaxslar deb atashadi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i budjet daromadlari tarkibida qanday ahamiyatga ega?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
6. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
7. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
8. Mehnatga haq to‘lash shaklida olinadigan daromadlar tarkibiga qanday daromadlar kiradi?
9. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga soliq stavkalari qanday belgilanadi?
10. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to‘lov manbayida qanday tartibda soliq stavkalari qo‘llaniladi?
11. Qaysi jismoniy shaxslarning daromadlari har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida soliqdan ozod etiladi?
12. O‘ta zararli, o‘ta og‘ir, zararli va og‘ir sharoitli ishlarda band bo‘lgan xodimlarning daromadlariga qanday stavkada soliq belgilanadi?
13. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tartibini tushuntirib bering.

#### **4.4. JISMONIY SHAXSLARDAN TRANSPORT VOSITALARI UCHUN BENZIN, DIZEL YONILG‘ISI VA GAZ ISTE‘MOLIGA SOLIQ**

##### **Soliq to‘lovchilar, soliq obyekti va bazasi**

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga olinadigan soliq to‘lovchilari bo‘lib jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gazni chakana sotadigan, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Bunda ularning joylashgan joyidan qat‘i nazar avtomobilga yonilg‘i quyish shoxob-

chalariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana sotish soliq solish obyekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga sotilgan o'zi ishlab chiqargan hamda chetdan xarid qilingan benzin, dizel yonilg'isi va gazning natural hajmi soliq solish bazasi hisoblanadi.

Benzin, dizel yonilg'isi va gazni sotish deganda ularni jismoniy shaxslarga amalda berish tushuniladi.

### **Soliq stavkasi va hisoblash tartibi**

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. 2008-yilda 1 litr benzin va dizel yonilg'isi uchun 100 so'm, 1 kg gaz uchun ham 100 so'm miqdorida soliq stavkasi belgilangan.

Soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs — xaridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi.

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N = V \times St,$$

bu yerda:

**N** — hisoblab yozilgan soliq

**V** — jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

**St** — soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish obyekti yoki bazasi bo'lmaydi.

### **Soliq hisobini yuritish va uni budjetga to'lash muddatlari**

Soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel yonilg'isi, gaz hisobi hamda hisoblangan soliq summalari hisobini alohida yuritadilar.

Budjet bilan hisob-kitoblar hisobi «Budjet bilan hisob-kitoblar» hisobvarag‘i bo‘yicha — «Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq» ilova hisobvarag‘ida yuritiladi, soliqni o‘tkazish «Hisob-kitob varag‘i» hisobvarag‘i bo‘yicha aks ettiriladi.

Undirilgan soliq mahalliy budjetga O‘zbekiston Respublikasi budjetlari daromad va xarajatlarining tegishli tasnifiga ko‘ra bo‘lim va paragrafga to‘lanadi.

Joriy o‘n kunlik to‘lovlar hisobga olingan soliq bo‘yicha hisob-kitob (13-ilova) avtomobilga yonilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga:

— korxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi;

— mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida, belgilangan shaklda taqdim etiladi.

Soliq bank muassasalari orqali har o‘n kunda, benzin, dizel yonilg‘isi va gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oy o‘n kunligi tugaganidan so‘ng uchinchi kundan kechiktirmay to‘lanadi.

Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning haqqoniyligiga javobgarlik soliq to‘lovchining zimmasiga yuklanadi.

## **O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliqni budjetga bevosita to‘lovchilar kimlar?

2. Soliq solish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?

3. Benzin, dizel yonilg‘isi va gazni sotish deganda nima tushuniladi?

4. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste‘moliga soliq stavkalari qaysi davlat organlari tomonidan belgilanadi?

5. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel

yonilg'isi va gaz iste'moliga soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?

6. Soliq summasi qaysi formula yordamida topiladi?

7. Soliq summasi jismoniy shaxslardan qaysi vaqtlarda undiriladi?

8. Soliq to'lovchilar soliq idoralariga jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga solig'i bo'yicha qaysi muddatda hisobot topshiradi?

9. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga soliq tushumi qaysi budjetga tushadi?

10. Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlaridagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga kim javobgar hisoblanadi?

#### **4.4.1. Mahalliy yig'im**

##### **(Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im)**

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy budjet daromadlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imning to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu tovarlar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda chakana savdoni amalga oshiradigan va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ushbu yig'im ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi yuridik shaxs yoki yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga o'z arizalarida ko'rsatilgan muddatlarga, lekin ushbu muddat

qonunchilikda nazarda tutilgan muddatdan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Jumladan, yuridik shaxslarga ko'pi bilan — 3 yil, jismoniy shaxslarga — 2 yil.

Yig'imlar o'rnatilgan minimal ish haqi miqdoriga nisbatan belgilanadi. 2009-yil 1-yanvardan boshlab ayrim tovar turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im alkogolli mahsulotlar uchun — 1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravari miqdorida, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar uchun — 1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqi miqdorining 3,5 baravari miqdorida belgilangan. Avtotransport vositalarini parkovka qilish (saqlash) bo'yicha pullik xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'im har oyda 8 minimal ish haqi miqdorida undiriladi. Ushbu yig'imlar har oyda hisobot oyining 25-kuniga qadar budjetga to'lanadi.

Mahalliy yig'imning o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolat doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarning budjet oldidagi majburiyatlarini bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Mahalliy yig'im deganda nimani tushunasiz?
2. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im Soliq kodeksining qaysi moddasiga tegishli?
3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im to'lovchilari kimlar?
4. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
5. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi qancha muddatga beriladi?
6. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im qancha miqdorda undiriladi?
7. Mahalliy yig'imning o'z vaqtida to'lanishi ustidan javobgarlik kimlarning zimmasiga yuklangan?

### **IV bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.1., 1.2., 1.3., 1.4., 1.13., 1.16., 1.21., 1.23., 1.25., 2.8., 3.1., 3.7., 3.12., 3.25., 3.40., 3.41., 4.3, 4.10., 5.5., 6.11., 6.14.



## V B O B. DAVLAT BUDJETINING SOLIQSIZ DAROMADLARI

---

### 5.1. DAVLAT BUDJETI SOLIQSIZ DAROMADLARINING ZARURLIGI, MOHIYATI VA TURKUMLANISHI

#### **Davlat budjeti soliqsiz daromadlarining zarurligi va mohiyati**

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli mulklarni sotishdan va xususiylashtirishdan kelgan daromadlar,

tashqi iqtisodiy faoliyatdan kelgan daromadlar, xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlar va davlatning maxsus maqsadli budjet jamg'armalari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq davlat budjetining soliqsiz daromadlariga yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident — yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar va davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar kiritilgan.<sup>1</sup> Ushbu qonunda soliqsiz daromadlarning yoki soliقدan tashqari to'lovlarning uch asosiy turi e'tirof etilgan.

Rossiya Federatsiyasida yuqorida qayd etilgan uchta asosiy daromad turidan tashqari, Federal yo'l jamg'armasining mablag'lari, markazlashgan ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari ham budjetning soliqsiz daromadlari tarkibiga kiritilgan.

Davlatning maxsus maqsadli jamg'armalari pul mablag'larini soliqsiz daromadlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, mazkur jamg'armalarga qilingan ajratmalar soliq xarakteriga ega bo'lib, bunda soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida tovar-pul munosabatlari mavjud emas; *ikkinchidan*, maqsadli jamg'armalarga qilingan ajratmalar soliqlarga xos

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari. — T.: Adolat, 2001. — 8-b.

bo'lgan muhim xususiyatga, ya'ni to'lovni amalga oshirishda subyektlar mulk shaklining o'zgarishi xususiyatiga ega-dir.

Soliqqa kirmaydigan, ya'ni soliqsiz daromadlarning ko'pchiligi doimiy, qat'i belgilangan stavkada undiriladigan xazina (budjet) daromadlari ko'rinishiga ega bo'lmaydi. Budjetning soliqsiz daromadlari qat'iy rejalashtirilmasligi kerak, lekin amaliyotda ko'p hollarda ular, odatda, ilgari yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Soliqsiz daromadlar soliq daromadlari kabi O'zbekiston Respublikasi-ning vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi. Soliqsiz daromadlar ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda bo'lishi mumkin.

### **Davlat budjeti soliqsiz daromadlarining turkumlanishi**

Soliqsiz daromadlar ro'yxati hamma darajadagi budjetlar uchun yagona bo'lib, budjet tasnifi bilan belgilanadi va o'z ichi-

ga quyidagilarni oladi:

1. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkni foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

- davlatga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar;

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni ijaraga berishdan, shu jumladan, qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ijara to'lovidan olingan daromadlar;

- vaqtinchalik bo'sh turgan budjet mablag'larini bank va kredit tashkilotlarida joylashtirishdan olingan daromadlar;

- xizmat ko'rsatish va davlat xarajatlarini qoplashdan olingan daromadlar;

- davlat va mahalliy tashkilotlardan to'lovlar;

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olinadigan boshqa tushumlar.

2. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat mulki bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan tushumlar;

- kvartiralarini sotishdan tushumlar;
- davlatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarini, transport vositalari va boshqa uskuna-jihozlarni sotishdan olingan daromadlar;

- musodara qilinib, davlat va mahalliy hokimiyat egali-giga o'tgan egasiz mol-mulkni sotishdan olingan daromad-lar.

3. Davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar.

4. Yer va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daro-madlar.

5. Davlatga qarashli bo'lmagan manbalardan kapital transfertlar tizimlari.

6. Jarima-jazolarni qo'llash, yetkazilgan zararni qop-lash, shu jumladan:

- standartlar va texnik shartlardan chetlashgan holda tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun tushumlar summasi;

- narxlarni qo'llash tartibini buzganlik uchun jazolar;

- jinoyatlar qilish va moddiy boyliklar kamomadida aybdor bo'lgan shaxslardan undiriladigan summalar.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat kreditlari bo'yicha foizlar;

- davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar;

- markazlashtirilgan eksportdan tushumlar summasi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar.

8. Boshqa turli soliqsiz tushumlar.

Budjetning soliqsiz daromadlari hududiy belgiga ko'ra (muayyan darajadagi budjetga kiritish), jalb qilish va shakllantirish usuliga ko'ra (majburiy yoki ixtiyoriy) va soliqsiz tushumlarini shakllantiradigan to'lovlarni undirishning konkret asoslariga ko'ra (davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar) tasniflanadi.

Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning ko'pgina o'xshash to-monlari bilan birga qator farqli tomonlari ham mavjud.

Pul mablag'larining muayyan qismi davlat xazinasiga soliqsiz to'lovlar tarzida kelib tushadi. Ular soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar singari davlatning qonun chi-qaruvchi idorasi tomonidan belgilanadi.

Shu bilan birga soliqlar va soliqsiz to'lovlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jumladan, bu farqlarni quyidagi-lardan iborat deb belgilash mumkin:

- soliqsiz to'lovlar soliqlardan farq qilib, ikki tomonlama huquq va burchlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziyalarni olish maqsadida belgilangan to'lovlarning amalga oshirilishi boshqa shartlar bajarilgani taqdirda vakolatli ruxsatnomani berishi lozim bo'ladi;

- soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar ko'pchilik hollarda majburiy ravishda to'lanmaydi. Soliq esa uni to'lash obyekti mavjud bo'lganida to'lanadi;

- soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar muayyan maqsadga mo'ljallanadi hamda ana shu maqsadga undan foydalanish lozim.

Soliqsiz to'lovlar respublika budjeti va mahalliy budjetlar daromadlarida jamlanadi. Ushbu mahalliy soliq va yig'implarning to'lovchilar doirasi, soliq solish obyektlari, soliq va yig'implar yuzasidan yengillik va imtiyozlar, soliq va yig'imni hisoblab chiqish va to'lash tartiblari mahalliy hokimiyat idoralarining bevosita o'zlari tomonidan belgilanadi.

Soliqsiz to'lovlar hududiy belgisiga ko'ra: umumdavlat miqyosidagi va mahalliy to'lovlarga; shakllanish usuliga ko'ra: majburiy va ixtiyoriy; jamlanish usuliga ko'ra: davlat budjetida yoki budjetdan tashqari jamlanadigan turlarga bo'linadi.

Soliqsiz to'lovlar undirish asoslariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar.

Bu to'lovlarning tabiiy resurslardan tejab-tergab, samarali foydalanishda ahamiyati kattadir;

- davlat idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan turli xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan to'lovlar. Ular jumlasiga:

- tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat tufayli bojxona idoralariga to'lanadigan to'lovlar;

- sud va boshqa huquq-tartibot idoralariga murojaat qilinganda to'lanadigan davlat boji;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya (ruxsatnoma) olish va tovarlar uchun sertifikatlar olishdagi to'lovlar;

- bozorlar, yarmarkalar va boshqa savdo shoxobchalaridan olinadigan bir martalik patta to'lovlari;

- qimmatli qog‘ozlar chiqarish va joylashtirish, lotereya o‘yinlarini o‘tkazish uchun to‘lovlar;

- davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan daromadlar;

- jarima tarzidagi to‘lovlar (jarimalar, penyalalar va boshqalar).

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli bo‘lgan mulklarni sotish va xususiylashtirish natijasida olingan daromadlarni, davlatning tashqi-iqtisodiy faoliyatidan olingan daromadlarni va xorijiy davlatlardan qaytarib bermaslik sharti bilan olinadigan pul mablag‘larini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, soliqsiz daromadlarning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Davlatga tegishli mulklardan foydalanish samaradorligining pasayishi natijasida davlat sektoriga tegishli korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida ularni xususiylashtirishning zarurligi.

Davlat sektoriga mansub bo‘lgan korxonalarining faoliyati ko‘pchilik hollarda xususiy sektor korxonalariga nisbatan samarasiz bo‘ladi. Shvetsiya, Fransiya va Buyuk Britaniya davlatlarining amaliyotida bunday holatlar bir necha marotaba kuzatilgan. Masalan, XX asrning 90-yillari oxirida Buyuk Britaniyada davlat sektoriga mansub bo‘lgan korxonalarining sezilarli qismi moliyaviy yilni zarar bilan yakunladi. 1998-yilda eng yirik davlat korxonalaridan biri «British telekom» xususiylashtirildi. Uning aksiyalarining bozor bahosi 6,9 mlrd. funt sterlingni tashkil etar edi.

XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmida Fransiyada davlat mulkini xususiylashtirish natijasida 7,0 mln. kishi aksiyadorlarga aylandi. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda davlat sektorining defitsiti 1999-yilda yalpi milliy mahsulotning 4,5 foizini tashkil qildi.<sup>1</sup>

Davlat korxonalarini xususiylashtirish ular faoliyatining moliyaviy barqarorligini oshishiga, iste‘mol bozorini tovarlar bilan to‘ldirilishini ta‘minlashga, ishsizlik muammosini hal qilishga hamda o‘rta va uzoq muddatli davriy oraliqlar-

---

<sup>1</sup> *Mariette D. Bercy report azero sur le dossier du Gredit Donciur. // Tribune. — P., 1998. — Sept., p. 9.*

da soliq tushumlarini ko'paytirishga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

2. Davlat budjeti daromadlarining miqdorini oshirish zaruriyatining yuzaga kelishi.

Davlat budjeti xarajatlarini sezilarli darajada o'sishi, davlatning iqtisodiy xarajatlarini oshirish zaruriyatini paydo bo'lishi hukumatga soliqsiz daromadlarni oshirish tadbirlarini ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ana shu maqsadda davlatga tegishli mulklarni sotish, davlatga tegishli xorijiy valutaralar va nodir metallarni xorijiy moliya bozorlarida joylashtirish yo'li bilan daromadlar olish va xorijiy tashkilotlarning moliyaviy yordamlarini jalb qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Masalan: O'zbekiston Respublikasida hukumatga tegishli oltin-valuta zaxiralarining ma'lum qismi xalqaro moliya bozorlarida muddatli depozit shaklida joylashtiriladi va undan foiz ko'rinishda daromad olinadi. Bundan tashqari, soliqsiz daromadlardan davlat budjeti defitsitini kamaytirish maqsadida ham faol tarzda foydalanish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabridagi 567-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2004-yilgi davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2004-yilda davlat budjeti defitsitini faqat qadrsizlanmaydigan (noinflyatsion) manbalar, shu jumladan, davlat mulkini xususlashtirishdan olinadigan tushumlar hisobidan moliyalashtirishni ta'minlash ko'zda tutilgan edi.<sup>1</sup>

Rivojlangan xorijiy davlatlar ichida Yaponiya soliqsiz daromadlarning davlat budjeti daromadlarining hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Bu ko'rsatkich Yaponiyada 15 foizni tashkil etadi. Yaponiya mahalliy budjetlari daromadlarining 25 foizgacha bo'lgan qismi soliqsiz daromadlardan tashkil topadi. Yaponiya budjet qonunchiligiga muvofiq soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

- ijara to'lovlari;
- davlatga tegishli yer maydonlari va boshqa qo'zg'almas mulklarni sotishdan olingan daromadlar;
- jarimalar;
- obligatsiyalarni sotishdan olingan tushumlar;

---

<sup>1</sup> Soliqlar va bojxona xabarlari. № 4 (496), 2004-y, 23-yanvar.

- yutuqli lotereyalarni sotishdan olingan tushumlar;
- o'tgan yillarda ishlatilmay qolgan budjet mablag'lari.<sup>1</sup>

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari daromad manbalari sifatida nobarqaror va doimiy xususiyatga ega bo'lgan daromadlar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni mohiyatiga ko'ra nobarqaror jarayon bo'lib, xususiylashtirishdan olinadigan daromadlarni nobarqaror bo'lishiga olib keladi; ikkinchidan, davlatga tegishli oltin-valuta zaxiralarini bozor stavkalarida joylashtirish natijasida olinadigan daromadlar joylashtiriladigan moliyaviy aktivlarning miqdoriga va bozor stavkalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lganligi sababli ulardan olinadigan daromadlarning summasi doimiy ravishda tebranib turadi; uchinchidan, xorijiy tashkilotlardan va davlatlardan olinadigan moliyaviy yordamlarning miqdori ularni beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu esa ularning miqdorini oldindan belgilash imkonini bermaydi.

5.1.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining tarkibida soliqsiz daromadlarning ulushi<sup>2</sup> (foizda)**

Ko'rsatkichlar	Yillar						2008-yilda 2002-yilga nisbatan o'zgarishi, punktda
	2002	2003	2004	2005	2006	2008 prog.	
Davlat budjeti daromadlari – jami shu jumladan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X
— soliqsiz daromadlarning jami budjet daromadlari hajmidagi salmog'i	12,6	17,0	8,8	8,6	4,6	4,5	-8,1

<sup>1</sup> Налоговые системы зарубежных стран. Уч. под редакцией В. Г. Князева, проф. Д. Б. Черника. — М.: «Закон и право», 1997. — С. 97.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari fiskallik va iqtisodiy funksiyalarni bajaradi. Ular daromad manbayi sifatida nobarqaror bo'lib, davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida nisbatan kichik salmoqni egallaydi (5.1.1-jadvalga qarang).

Jadval ma'lumotlarida soliqsiz daromadlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'ining tahlil qilingan davr mobaynida nobarqarorligi kuzatilgan. Bu esa, soliqsiz daromadlarning mohiyatiga ko'ra nobarqaror daromad manbayi ekanligi bilan izohlanadi.

2002—2008-yillar mobaynida mazkur ko'rsatkichning nobarqarorligi kuzatilgan holda uning 2002-yilga nisbatan 8,1 punktga pasayishi yuz bergan. Bu esa, soliqsiz daromadlarning solikli daromadlarga nisbatan davlat budjeti daromadlarining tarkibidagi o'rni va ahamiyatining pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar budjet amaliyotida ham soliqsiz daromadlarning ahamiyati juda past. Masalan, AQSHda soliqsiz daromadlarning Federal budjet daromadlari hajmidagi salmog'i 4 foizdan oshmaydi.<sup>1</sup>

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliqsiz daromadlarning zarurligi nimada?
2. Soliqsiz daromadlarga qanday daromadlar kiradi?
3. Budjetning soliqsiz daromadlari oldindan rejalashtiriladimi?
4. Soliqsiz daromadlar qanday tartibda turkumlanadi?
5. Mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlarga nimalar kiradi?
6. Mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni sotishdan olingan daromadlarga nimalar kiradi?
7. Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning o'xshash va farqli tomonlari qanday?
8. Soliqsiz to'lovlar qaysi budjetga tushadi?
9. Soliqsiz to'lovlar undirish asoslariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
10. Soliqsiz daromadlarning zarurligi qaysi omillar bilan belgilanadi?

---

<sup>1</sup> Финансы. Уч. под. редакцией Л. А. Дробозиной. — М., ЮНИТИ, 2003. — С. 125.



## 5.2. SOLIQSIZ DAROMADLARNING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINING HAJMIDAGI O‘RNI VA DINAMIKASI

### **Xorijiy mamlakatlardan olingan moliyaviy yordamlar**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat budjetining soliqsiz daromadlarini sezilarli qismi xorijiy

mamlakatlardan olingan moliyaviy yordamlardan iborat ekanligi ushbu mamlakatlarda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda sezilarli muammolarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Xorijiy moliyaviy yordamlarning aksariyat qismi xalqaro moliya-kredit tashkilotlari tomonidan beriladi. Bunda asosiy o‘rinlarni xalqaro valuta fondi (XVF) va Jahon tiklanish va taraqqiyot banki (JTTB) egallaydi. XVF rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berishda asosiy e‘tiborini mamlakatning to‘lov balansining holatiga qaratadi. XVF tomonidan ajratiladigan moliyaviy yordamlar to‘lov balansi doimiy ravishda defitsitga ega bo‘lgan mamlakatlarga birinchi navbatda beriladi.

JTTB rivojlanayotgan davlatlarga moliyaviy yordam berishda asosiy e‘tiborini mamlakat aholisining qashshoqlik darajasiga qaratadi. Hozirgi kunda Afrikaning Saxara davlatidan janubdagi mamlakatlar sayyoramizning eng qashshoq mamlakatlari hisoblanadi. Bu yerda mehnatga yaroqli aholining bir kunlik ish haqi 1 AQSH dollaridan pastdir. Shu sababli mazkur mamlakatlar bankning moliyaviy yordamlarini birinchi navbatda oladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki paytlardan boshlab, xorijdan mablag‘lar jalb qilish masalasiga alohida e‘tibor berdi.

2006-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra xorijiy mamlakatlardan va xalqaro moliya-kredit tashkilotlardan jalb qilingan mablag‘larning umumiy summasi 1980,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Shuning 93,6 foizi kredit majburiyatlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. Jalb qilingan mablag‘larning qolgan qismi turli shakllarda olingan moliyaviy yordamlar hissasiga to‘g‘ri keladi.<sup>1</sup>

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, moliyaviy yordamlarning miqdori nisbatan kichik bo‘lib, ular

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma‘lumotlari. 2006.

davlat budjeti daromadlari nuqtayi nazaridan sezilarli darajadagi amaliy ahamiyatga ega emas.

### **Davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan daromadlar**

Budjetning soliqsiz daromadlari tarkibidagi asosiy daromad turlaridan biri — davlatga tegishli boʻlgan mulklarni xususiylashtirishdan keladigan daromadlar hisoblanadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan, MDHga aʼzo mamlakatlarda davlat mulkini xususiylashtirishdan va sotishdan olingan daromad soliqsiz daromadlar tarkibida sezilarli salmoqni egallaydi. Mazkur mamlakatlarda koʻp ukladli iqtisodiyotni shakllantirish zaruriyati davlat mulkini xususiylashtirishni dolzarb masalasiga aylantirdi. Xususan, Rossiya Federatsiyasida 2006-yilda davlat mulkini xususiylashtirish va sotishdan olingan budjet daromadlarining umumiy summasi 25061,2 mln. rublni tashkil qildi. Bu summaga munitsipial mulkchilik tasarrufida boʻlgan davlat mulkini sotish summasini qoʻshsak, u holda davlat mulkidan olgan budjet daromadlarining umumiy summasi 52057,3 mln. rublni tashkil qiladi. Bu summani budjet daromadlari nuqtayi nazaridan baholash uchun uning soliqsiz daromadlarining umumiy hajmidagi salmogʻini oʻrganish kifoya qiladi. Agar 2000-yilda davlat mulkini sotish va xususiylashtirishdan olingan budjet daromadlari soliqsiz daromadlarning umumiy hajmidagi salmogʻi 14,0 foizni tashkil qilgan boʻlsa, 2005-yilda bu koʻrsatkich 50,5 foizni tashkil qildi. 2006-yilga kelib esa mazkur koʻrsatkich 45,2 foizni tashkil qildi.<sup>1</sup>

Keltirilgan maʼlumotlarning tahlilidan koʻrinadiki, birinchidan, davlat mulkini sotish va xususiylashtirishdan olingan daromadlar Rossiya Federatsiyasi davlat budjetining soliqsiz daromadlari tarkibida asosiy oʻrinni egallaydi; ikkinchidan, soliqsiz daromadlarga xos boʻlgan no-barqarorlik ushbu daromad turiga ham xos ekanligi yaqqol kuzatiladi.

Davlatga tegishli mulklarni sotishda va davlat korxonalarini xususiylashtirishda ushbu korxonalarining davlatga tegishli boʻlgan oddiy aksiyalarini sotish muhim oʻrin egallaydi. Aksiyalarni sotishda ularning bozor bahosi katta aha-

---

<sup>1</sup> Бурков С. Неналоговые доходы от госсобственности и бюджетный потенциал страны. // Российский экономический журнал. № 9, 2006. — С. 25.

miyatga ega. Agar oddiy aksiyalarning bozor bahosi yuqori bo'lsa, u holda aksiyalarni sotishdan olingan budjet daromadlarining miqdori nisbatan katta bo'ladi. O'z navbatida, oddiy aksiyalarning bozor bahosi emitent sof foydasining miqdoriga bog'liq: sof foydaning miqdori qanchalik katta bo'lsa, ularga to'lanadigan dividendning miqdori ham shunchalik yuqori bo'ladi.

2003—2004-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish dasturiga muvofiq, mazkur davr mobaynida respublikamizda ustav kapitalida davlatning ulushi 25 foizdan 51 foizgacha bo'lgan 673 ta korxonadagi davlatning ulushi birja va birjadan tashqari bozorlarda sotilishi mo'ljallangan. Bu korxonalarining ichida iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan bir qator yirik korxonalar — «Agama» sanoat korxonasi, «Jizzaxplastmass» HJ, «Elektrokimyozavodi» HJ, «O'zbekselmash» HJ, «Toshqishloqmash» HJ kabi korxonalar mavjud. Ularning ustav kapitalidagi davlatga tegishli aksiyalarning sotilishi davlat budjetining soliqsiz daromadlari hajmining oshishiga olib keladi.

2003—2004-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish dasturiga muvofiq, ustav kapitalida davlatning ulushi 51 foiz va undan yuqori bo'lgan 644 ta korxonaning ustav kapitalida davlatning ulushini qisqartirish ko'zda tutilgan. Shunisi xarakterliki, ko'pchilik korxonalarining ustav kapitalidagi davlatning ulushini 40 foizdan ortiq qismini sotish ko'zda tutilgan. Masalan, «Navoimontajavtomatika» DAKning ustav kapitalidagi davlat ulushining 49,0 foizini, «Andijon bioxim zavodi» HJning ustav kapitalidagi davlat ulushining 45,0 foizini, «O'zkimyosanoat» DAKning ustav kapitalidagi davlat ulushining 49,0 foizini, «Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati» HJning ustav kapitalidagi davlat ulushining 46,5 foizini sotish mo'ljallangan. Mazkur korxonalarining ustav kapitalidagi davlat ulushining muvaffaqiyatli tarzda sotilishi O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining soliqsiz daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishiga olib keladi.

Davlat mulki bilan bog'liq daromadlarning ikkinchi turi davlatga tegishli bo'lgan mulklarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar hisoblanadi. Ijara to'lovlari shaklidagi mazkur daromadning miqdori ijaraga beriladigan mulklarining umumiy maydoniga va ijara stavkalariga bog'liqdir. Rossiya Federatsiyasida 2001-yilning 1-iyun holatiga,

Federal budgetga hisoblangan ijara to'lovlarining atigi 318,0 ming rubli Federal budgetga kelib tushdi. Holbuki, mazkur daromad turi bo'yicha Federal budgetga kamida 5300 mln. rubl kelib tushishi lozim edi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, birinchidan, juda katta umumiy maydonga ega bo'lgan davlat mulklari bo'yicha (82,7 kv. metr) yangi ijara shartnomalari tuzilmagan; ikkinchidan, to'lov intizomining yaxshi emasligi sababli 794,9 mln. rubl miqdoridagi ijara to'lovlari bo'yicha muddati o'tgan qarz-dorlik mavjud; uchinchidan, ijara stavkalari va umuman ijara to'lovlari bo'yicha asossiz imtiyozlar mavjud.

Davlat mulki bilan bog'liq budget daromadlarining uchinchi turi davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar hisoblanadi. Davlat mulkini sotishda kompaniyaning kapitalizatsiya darajasi muhim o'rin tutadi. Kapitalizatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar miqdori shunchalik katta bo'ladi. Masalan, bir qator Rossiya Federatsiyasining davlat korxonalarida 2002—2007-yillarda kapitalizatsiya darajasining keskin pasayishi kuzatilgan. Xususan, «Slavneft» korxonasida 2006-yilda kapitalizatsiya darajasi mavjud 1070,2 mln. AQSH dollaridan 752,2 mln. AQSH dollariga tushib qolgan. Ya'ni, korxonaning kapitalizatsiya darajasi 318,0 mln. AQSH dollariga pasaygan. Bu esa, korxonaning bozor bahosini 2006-yilda 25 foizga pasayishiga olib keldi. Rossiya Federatsiyasi hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, «Slavneft» shuba korxonalarining aktivlarini boshqa kompaniyalarga o'tkazib yuborilganligi natijasida korxonaning kapitalizatsiya darajasi keskin pasayib ketgan. «Slavneft» korxonasining boshqa kompaniyalarning balansiga o'tkazib yuborilgan sof aktivlarining miqdori 9213,0 mln. rublni tashkil qildi.

Davlat mulki bilan bog'liq daromadlarning to'rtinchi turi davlatning davlat korxonalarining ustav kapitaliga qo'ygan investitsiyalaridan oladigan daromadlari hisoblanadi. Davlat korxonalarining moliyaviy holati qanchalik barqaror bo'lsa, ular tomonidan oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividendlarning darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Rossiya hukumatiga yirik miqdorda dividendlar to'lovchi korxonalar bo'lib RAO «Gazprom», NKA «LUKoyl», NKA «Rostneft», NKA «Slavneft», AKA «Transneft», AKA «Transnefteprodukt», RAO «YEES Rossii», OAO «Texsna-

beksport», AK «Alrosa» va OAO «TVEL» kompaniyalari hisoblanadi. Ular 2002-yilda davlat tomonidan olingan jami dividendlarning 68,0 foizini to‘lagan bo‘lsa, 2007-yilga kelib bu ko‘rsatkich 88,0 foizni tashkil qildi.

Mazkur kompaniyalar moliyaviy holatining barqarorligi ularning sof foydasi miqdorini katta bo‘lishiga olib keldi. Natijada, davlatga tegishli bo‘lgan aksiyalarga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdorining minimal summasi 98712,0 mln. rublni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi budget amaliyotida davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog‘liq daromadlarning amaldagi holatini tahlili (5.2.1-jadval) 2003-yilni hisobga olmaganda, tahlil qilingan davr mobaynida 2004-yildan boshlab davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan daromadlarning miqdori o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Bu esa, davlat mulkini xususiylashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

5.2.1-jadval

**Davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan daromadlarning  
O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetining soliqsiz  
daromadlari tarkibidagi salmog‘ining o‘zgarishi<sup>1</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2006-yilda 2002-yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
	2002	2003	2004	2005	2006	
1. Davlat budjetining soliqsiz daromadlari — jami (mlrd. so‘m).	78,4	155,1	110,8	160,2	108,4	+30,0
2. Xususiylashtirishdan olingan daromadlar (mlrd. so‘m).	7,2	—	5,9	8,6	12,0	+5,2
3. Xususiylashtirishdan olingan budget daromadlarining soliqsiz daromadlarining umumiy hajmidagi salmog‘i (%).	9,2	X	5,3	5,3	11,1	+1,9

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma’lumotlari. 2006.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ulardagi ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish va bir vaqtning o'zida soliqsiz daromadlar hajmini oshirish borasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida boy tajriba to'plangan. XX asrning 90-yillari boshlariga kelib, xususiylashtirish Fransiya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Gollandiya, Ispaniya, Shvetsiya va Avstriyada hukumat iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi. Buning asosiy sababi bo'lib, mana shu davrda davlat korxonalarining moliyaviy holatini keskin yomonlashgani kuzatilgan edi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlar deganda nimani tushunasiz?
2. Xorijdan olingan moliyaviy yordamlar qaysi xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi?
3. Xorijdan olingan moliyaviy yordamlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
4. Davlatga tegishli bo'lgan mulklarni xususiylashtirishdan keladigan daromadlar deganda nimani tushunasiz?
5. Davlatga tegishli bo'lgan mulklarni xususiylashtirishdan keladigan daromadlarning nobarqarorlik xususiyati nimada?
6. Davlatga tegishli bo'lgan mulklarni xususiylashtirishdan keladigan daromadlarning soliqsiz daromadlar tarkibidagi ahamiyati qanday?
7. Davlatga tegishli bo'lgan mulklarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar deganda nimani tushunasiz?
8. Davlat mulkini sotishdan olingan daromadlarning soliqsiz daromadlar tarkibidagi ahamiyati qanday?
9. Kompaniyaning kapitalizatsiya darajasi deganda nimani tushunasiz?
10. Xorijiy davlatlarda kapitalizatsiya darajasi qanday ahvolda?

### **V bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.4., 1.13., 2.1, 2.4., 3.2., 3.4., 3.7., 3.21., 4.6., 4.7., 4.19., 5.4., 5.5., 6.11., 6.13., 6.15., 6.16.

**6.1. YAGONA IJTIMOIIY TO'LOV VA PENSIYA  
JAMG'ARMASIGA SUG'URTA BADALLARI**

**Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari, to'lov obyekti, bazasi hamda to'lovdan chegirmalar**

Yagona ijtimoiy to'lov O'zbekistonda 2004-yildan amal qilib ke-  
linmoqda. Soliq kodeksining  
305-moddasiga binoan yagona

ijtimoiy to'lovni to'lovchilari bo'lib, yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (bundan keyin matnda sug'urta badallari deb yuritiladi) to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek, ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarini hisoblash uchun obyekt bo'lib, ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun baza imtiyoz sifatida belgilangan to'lovlar chegirib tashlangan ish haqi tarzida to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bazasi hisoblanayotganda quyidagi to'lovlar chegirib tashlanadi:

- 1) amaldagi Soliq kodeksining 174-moddasi 5, 8, 9, 11 va 12-bandlarida ko'rsatilgan kompensatsiya to'lovlari;
- 2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli budjet yoki xayriya jamg'armalarga (shanbaliklar,

yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;

3) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar;

4) xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar;

5) yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

**Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi**

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qaroriga asosan 24 foiz miqdorida belgilangan.

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov davlat maqsadli jamg'armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o'rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga — 23,6%;
- davlat bandlikka ko'maklashish fondiga — 0,2%;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga — 0,2%.

Sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqiga nisbatan 2,5% miqdorida belgilangan.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan jamg'armaga o'tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to'lovning hisob-kitobi (14-ilova) soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

— mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

— mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda hisobot



davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Sug'urta badallarining hisob-kitobi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari yuridik shaxslar tomonidan quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

— yagona ijtimoiy to'lov — har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

— sug'urta badallari — ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish vaqtida.

**Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari**

Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallari miqdorini oyiga eng kam ish haqi-

dan kam bo'lmagan miqdorda, qoramollarni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaliklarining a'zolari esa oyiga eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda belgilaydilar. Dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriy ravishda amalga oshiradilar.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek, I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori eng kam ish haqining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug'urta badallarini to'lash har oyda keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. To'lov topshiriqnomasida soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi kerak. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy uchun to'langan deb hisoblanadi.

## **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala:** 2008-yil yanvar oyi uchun ishchi va xizmatchilarning mehnatga haq to'lash fondidan pensiya jam-

g'armasiga ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lov summasini aniqlang:

- ish haqi hisoblangan — 11600 ming so'm;
  - ishchi va xizmatchilarning yo'l pattalariga ajratilgan xarajatlar — 600 ming so'm;
  - ishchilarga moddiy yordam ajratilgan — 10600 ming so'm;
  - ishchilarning tushlik ovqatlariga — 930 ming so'm;
  - kunlik xarajatlar berilgan:  
me'yor chegarasida — 8950 ming so'm;
  - me'yordan yuqori — 7500 ming so'm;
  - yarim yil yakuniga asosan mukofot puli hisoblangan — 250 ming so'm.
- Eng kam minimal ish haqi miqdori — 12420 so'm.

**2-masala:** Fuqaro O'. Rasulovga ish joyidan uning yubileyi munosabati bilan mukofot puli berildi. Bunday mukofot puliga sug'urta ajratmalari to'lanadimi?

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Yagona ijtimoiy to'lov to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanishadi?
2. Fuqarolarning ish haqidan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallarining to'lovchilari kimlar?
3. Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining sug'urta badallari to'lovchilari bo'la oladimi?
4. Yagona ijtimoiy to'lov mablag'lari qanday tartibda jamg'armalarga taqsimlanadi?
5. Yagona ijtimoiy to'lov va pensiya jamg'armasiga sug'urta badalining obyeksi va bazasi qanday aniqlanadi?
6. Yagona ijtimoiy to'lovdan qanday chegirmalar nazarda tutilgan?
7. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari qanday tartibda hisoblab chiqariladi?
8. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini to'lash tartibini tushuntiring.
9. Mikrofirma va kichik korxonalar yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini qaysi muddatda to'lashadi?
10. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

## 6.2. BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASIGA MAJBURIY AJRATMA

### **Majburiy ajratma to'lovchilari, obyekti, bazasi va stavkalari**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari pensiya yoshiga yetganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy yordam olish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqqa egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilgan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunida ham belgilab berilgan.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritiladigan bo'ldi hamda pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash tartibi buzilganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llanilishi, shu jumladan, to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yildi.

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga mablag'lar to'plash tartib-qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23 dekabrdagi «Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 498-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 2004-yilgacha amalga oshirilib keldi.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda 567-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni hisoblash va to'lash tartiblarini sod-

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy  
ajratmaga tortish obyektlari**

<b>№</b>	<b>To'lovchilar</b>	<b>Ajratmaga tortish obyekti</b>
1.	Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3.	Ulgurji savdo korxonalarini uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari	yalpi daromad
4.	«O'zdonmahsulot» AK korxonalarini (g'alla qabul qilish korxonalarini va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalarini)	QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi
5.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad
6.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad
7.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalarini	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalarini uchun — issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalarini uchun — suv, gaz ta'minoti korxonalarini uchun — tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda
8.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
9.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalarini	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda

dalashtirish maqsadida, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamg'armasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiy to'lov nomi bilan yuritiladigan bo'ldi.

Soliq kodeksining 312-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmani to'lovchilari hisoblanadi.

Quyidagilar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaning to'lovchilari bo'lmaydi:

— notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

— yagona soliq to'lovchini to'lovchi yuridik shaxslar.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaning obyekt va bazasi quyidagicha belgilangan.

Yuridik shaxslar bir necha xil obyektlarga ega bo'lgan hollarda, ular obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrda PQ-744-sonli qaroriga asosan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma 2008-yil 1-yanvardan 1,0% miqdorida belgilandi.

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi**

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi (15-ilova) soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

— mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

— mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil

yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### **Mavzuga doir masalalar**

**1-masala:** Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralariga qarashli tumanlararo baza 2008-yil birinchi chorakda 52,5 mln so'm yalpi daromadga ega bo'ldi. Baza qancha miqdorda Pensiya jamg'armasiga ajratma to'lashi lozimligini aniqlang.

**2-masala:** Alskom sug'urta kompaniyasi 2008-yil 1-chorakda sug'urta xizmatlaridan 32 mln. so'm miqdorida daromadga ega bo'ldi. Ushbu daromaddan kompaniya qancha miqdorda jamg'armaga ajratmaga to'lashi lozim?

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?
2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarning to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
3. Notijorat tashkilotlar qanday holatda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining to'lovchilari bo'lishadi?
4. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratma to'lashadimi?
5. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarning obyekt va bazasi qanday topiladi?
6. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar qanday manbalardan tashkil topadi?
7. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
8. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari necha foizni tashkil etadi?
9. Jamg'armaga to'lovlarni hisoblash tartibi qanday amalga oshiriladi?
10. Jamg'armaga to'lovlarni to'lash muddati qachon?

### 6.3. RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASI

#### **Majburiy ajratmalar to‘lovchilari, obykti va stavkalari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 19-avgustdagi PF-3292-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgust-

dagi 361-sonli «O‘zavtoyoyol davlat aksiyadorlik kompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi faoliyatni tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan 2003-yil 1-oktabridan boshlab yo‘l xo‘jaligini boshqarish tuzilmasidagi respublika, viloyat va mahalliy yo‘l jamg‘armalari tugatildi va ularning o‘rnida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo‘l jamg‘armasi tuzildi. Ushbu jamg‘armaga mablag‘larni yig‘ish va uni nazorat qilish vazifasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi zimmalariga yuklatildi.

Soliq kodeksining 316-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari bo‘lib quyidagi yuridik shaxslar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;
- yagona soliq to‘lovi to‘lovchi yuridik shaxslar;
- ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo‘yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlari bo‘yicha.

Sof tushum yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obykti va soliq solinadigan bazasi qilib belgilangan.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obykti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

- 1) kommunal xo‘jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta‘minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i va tegishincha

issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan, tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun – tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun – Soliq kodeksining 148- va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromadlari;

6) asosiy faoliyati mol-mulknini lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Yuridik shaxslar turli xil obyektlarga ega bo'lgan hollarda, ular obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi lozim.

**Majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi**

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda

har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi (16-ilova) soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

— mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-



**Majburiy ajratmalar stavkalari 2008-yilda  
quyidagicha belgilangan**

№	To'lovchilar	To'lash obyekti	To'lash obyekti- ga nisbatan stavkalar %larda
1	2	3	4
1.	Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar va tashkilotlar	QQSni chegirgan holda vositachilik haqi summasi	1,0
2.	Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari	QQSni chegirgan holda tovar aylanmasi hajmi	1,0
3.	Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza — kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari	Yalpi daromad	1,0
4.	«O'zdonmahsulot» AK korxonalarini (g'alla qabul qilish va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalarini)	QQSni chegirgan holda ta'minot-sotish us-tamasi va chegirmasi	1,0
5.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad	1,5
6.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad	1,5
7.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalarini	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalarini uchun — issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalarini uchun — suv, gaz ta'minoti korxonalarini uchun — tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda	1,5

8.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi	1,5
9.	Avtotransport korxonalari	QQSni chegirgan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hajmi	2,5
10.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda	1,5
11.	«O'zavtoyol» DAK korxonasi va tashkilotlari	Mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag'larning budjetga tushishi lozim bo'lgan umumiy summasidan ajratmalar	50,0

kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

— mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 54-bobiga asosan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalardan tashqari yig'imlar ham to'lanadi.

**Yo'l jamg'armasiga yig'imlarni to'lovchilar, obyekt va bazasi**

Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

— chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

Amaldagi Soliq kodeksining 321-moddasiga binoan avtotransport vositalarini oluvchi yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshi-

ruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi. Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘imi to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Yig‘imlar uchun obyekt quyidagilardir:

— avtotransport vositalarini olish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

— chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tish.

Yig‘imlar undiriladigan baza sifatida quyidagilar belgilangan:

— olingan yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalarining qiymati;

— O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

**Yig‘imlar stavkasi,  
imtiyozlar va yig‘imlarni  
to‘lash tartibi**

Avtotransport vositalarini olish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘imni to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni yoki motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog‘idan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek, yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar — mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo‘yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo‘lovchilar tashish bo‘lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo‘lgan avtotransport korxonalari — yo‘lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo‘yicha (yengil avtomobillar va yo‘nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar — qirq tonnadan ortiq yuk ko‘taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo‘yicha;

6) homiylik (beg‘araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek, budjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar — avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o‘tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini 3–5-bandlarida ko‘rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

**Respublika yo‘l jamg‘armasiga undiriladigan  
yig‘imlarning 2008-yildagi stavkalari**

<b>№</b>	<b>Yig‘imlar turlari</b>	<b>foizlarda</b>
1.	Sotib olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari qiymatidan ushbu vositalarni sotib olganlar (foydalanuvchilar) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi IIV organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida to‘lanadigan yig‘imlar:	
1.1	— sotib olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari (shu jumladan, maxsus avtomobillar) narxidan. Bundan 1.2— bandeda ko‘rsatilganlari mustasno;	6,0
1.2	— sotib olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari narxidan: qirqtogacha o‘tirish joylari bo‘lgan avtobuslar; 10 tonnagacha yuk ko‘taradigan yuk avtotransport vositalari.	20,0

Avtotransport vositalarini olganlik yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

**O‘zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy va chegaradosh davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirish, olib chiqish va tranzit qilishdan yig‘imlar stavkalari**

№	Yig‘imlar turlari	Yig‘imlar stavkalari (AQSH dollarida)
1.	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chet el davlatlaridan avtotransport vositalarini olib kirganlik uchun to‘lov, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2—5-bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2.	O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig‘im:	
	— bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan	130
	— yuk avtotransport vositasi va avtobus O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan 8 sutkadan oshgan har bir kun uchun	50
	— yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali uchinchi mamlakatlarga (MDH mamlakatlaridan tashqari) tranzit olib o‘tganlik uchun	90
3.	Qozog‘iston Respublikasining yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik yoki olib chiqib ketganlik uchun yig‘im, O‘zbekiston Respublikasi hududiga tranzit qilish bundan mustasno, bitta yuk avtotransport vositasini olib kirganlik va olib chiqib ketganlik uchun yig‘im	300
4.	O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg‘iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig‘im	300
5.	O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab avtotransport vositalari turlari bo‘yicha Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig‘im:	
	— quyidagi hajmdagi yuklarni ko‘taradigan yuk avtotransport vositalari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan ko‘p	150
	o‘rindiqlar soni quyidagicha bo‘lgan avtobuslar:	
	12 o‘rindiqqacha	25

13 o'rindiqdan 30 o'rindiqqacha	50
30 o'rindiqdan ko'p	100
tranzit yo'nalishli yengil avtotransport vositalari	30
tranzit yo'nalishli mototsikllar	15

organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

### **Mavzuga oid masala**

**Masala:** Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari ishlab chiqarish faoliyati bilan

ham shug'ullanadi. 2008-yil 1-chorak uchun tovarlarni sotishdan tushgan tushum — 12000 ming so'm, korxonada o'zi ishlab chiqargan mahsulotini sotish natijasida tushgan tushumi — 6600 ming so'm. Yuk avtomobili sotib olingan — 11000 ming so'm.

**Respublika yo'l jamg'armasiga to'lanishi lozim bo'lgan summani aniqlang.**

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Respublika yo'l jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?
2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari kimlar?
3. Xo'jalik yurituvchi subyekt bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, jamg'armaga ajratma qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Ajratma yuridik shaxslarning qaysi daromadlaridan olinadi?
5. Xorijiy davlatlarning avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganda undiriladigan to'lov qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Stavkalar qanday tartibda va qaysi mezonlarga asosan belgilanadi?
7. Tijorat banklari daromadlaridan jamg'armaga necha foiz to'lovlarni amalga oshiradi?
8. Respublika yo'l jamg'armasiga tushumlarni tushushini nazorat qilish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
9. Majburiy ajratmalarni to'lovchilar hisob-kitoblarni qaysi tashkilotga taqdim etadilar?
10. Majburiy ajratmalarni to'lashdan kimlar ozod etiladi?

## **6.4. MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI**

### **Majburiy ajratmani to'lovchilar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi Farmoniga muvofiq maktab ta'limini 2004—2009-yillar davomida rivojlantirish maqsadida budjetdan tashqari Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

Maktab ta'limini rivojlantirish majburiy to'lovi maktab ta'limini rivojlantirish 2004—2009-yillar Davlat umummilliy dasturiga kiritildi va ular davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilgan.

Qonunchilikka asosan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Soliq solishning alohida tartibiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ko'rsatilgan ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxslar deb o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob raqamiga ega bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning barcha turlari hisoblanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirish uchun kelib tushadigan mablag'lar budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'ar-masining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahri Bosh boshqarmasining hisob-kitob kassa markazida ochiladigan maxsus hisob raqamida jamlanadi.

**Majburiy ajratmalarga  
tortish obyekti**

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarga tortish obyekti bo'lib quyidagilar hisob-

lanadi:

a) yalpi daromad — ulgurji va chakana savdo qiluvchi korxonalar muassasalari uchun;

b) komission taqdirlash summasi — vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi dilerlar va dallollik korxonalar uchun;

d) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda, o'z kuchlari bilan amalga oshirgan ishlar hajmi — qurilish, qurilish-montaj, qurilish-ta'mirlash, loyiha qilish, izlanish va ilmiy-tekshirish tashkilotlari uchun;

e) daromad — tijorat banklari, kredit uyushmalari, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar (videoko'rsatuv shoxobchalari), kim oshdi savdolari, kazinolar, nusxa olish hisobiga daromad oladigan korxonalar, video- va audio manbalarni ijaraga beruvchilardan, pullik yutuqlar o'tkazadigan o'yin avtomatlarini ekspluatatsiya qiluvchilar, lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni hamda ommaviy konsert-tomosha tadbirlarini o'tkazuvchi tashkilotlar uchun;

f) lizingga beruvchining daromadi (marja) — lizing kompaniyalari uchun;



g) tovar aylanmasi hajmi – savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, tayyorlov, ta'minlov-savdo tashkilotlari uchun;

h) mahsulotning (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hajmidan, bunda issiqlik ta'minlovchi korxonalari – issiqlik energiyasi, suv, gaz bilan ta'minlovchi tabiiy gazlarning sotib olish narxi chegirib tashlanganda – kommunal xo'jaligining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun;

i) qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirib tashlanganda, realizatsiya qilingan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmi – iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar uchun.

**Majburiy ajratma stavkasi va imtiyozlar, uni hisoblash hamda to'lash tartibi**

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar to'lashdan notijorat tashkilotlar ozod etiladi, ularning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadi va tushumlari bundan mustasno.

Jamg'armaga to'lanishi lozim bo'lgan maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar summasi belgilangan majburiy ajratmalarga tortish obyekti va stavkasidan kelib chiqqan holda to'lovchilar tomonidan aniqlanadi.

Majburiy ajratmalarning hisob-kitoblari (17-ilova) to'lovchilar tomonidan davlat soliq xizmatining organlariga belgilangan tartibda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, o'sib boruvchi yakun bilan har oyda taqdim etiladi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar har oyda hisob-kitoblar taqdim qilish muddatidan kechiktirmay to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasiga hisobot oyidan keyingi oyning 1-kunidagi holat bo'yicha hisoblangan va tushgan majburiy ajratmalar summalari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha mazkur ajratmalar bo'yicha qarzdorlik to'g'risidagi tezkor hisobotni taqdim etadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi majburiy ajratmalar to'lovlaridan tushgan mablag'larga tegishli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasidan so'rash huquqiga ega.

Maktab ta'limiga majburiy ajratmalar to'lovchilari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur to'lovning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun javob beradilar.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi majburiy ajratmalarining kelib tushgan summalarning maqsadli ishlatilishi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Majburiy ajratmalarining to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmatining organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, davlat soliq xizmatining organlari qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy sanksiyalar qo'llash huquqiga ega.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?
2. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarining to'lovchilari kimlar?
3. Korxonalar bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, u holda jamg'armaga ajratma qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Ajratma korxonalarining qaysi daromadlari hisobiga shakllanadi?
5. Majburiy ajratmalar stavkalari qanday tartibda va qaysi mezonlar asosida o'rnatiladi?
6. Lizing xizmati ko'rsatadigan korxonalar uchun jamg'armaga to'lovlarni amalga oshirish obyekti bo'lib nima hisoblanadi?
7. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga tushumlarni tushushini nazorat qilish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
8. Majburiy ajratmalarni to'lovchilar hisob-kitoblarni qaysi tashkilotga taqdim etadilar?
9. Majburiy ajratmalarni to'lashdan kimlar ozod etiladi?
10. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi qanday huquqlarga ega?

### **VI bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.4., 1.12., 1.13., 2.2., 2.8., 3.5., 3.27, 3.37., 4.12., 6.9., 6.10., 6.14., 6.15.

# **VII B O B. SOLIQQA OID QONUNBUZILISHLARGA BARHAM BERISH VA ULARNING OLDINI OLISH DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI KO'PAYTIRISH OMILI**

---

## **7.1. SOLIQQA OID QONUNBUZILISHLARGA SOLIQ TIZIMI ORQALI TA'SIR ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida har bir fuqaroning qonun tomondan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash majburiyati ko'rsatilgan<sup>1</sup>.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik, soliq bazasini yashirish, hisobga olinmagan operatsiyalarni amalga oshirish va soxta bitimlar tuzish yo'li bilan soliq to'lashdan bo'yin tovlash soliqqa oid qonunbuzilishlarning asosiy shakllari hisoblanadi.

Soliqqa oid qonunbuzilishlar davlat budjetining daromadlari hajmiga bevosita ta'sir qiladi, chunki davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliq tushumlaridan iboratdir. Bundan tashqari, soliqqa oid qonunbuzilishlar iqtisodiy taraqqiyotga ham kuchli tarzda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir davlat tomonidan soliq stavkalarining oshirishida, yangi soliq turlarining joriy etilishida va budjet xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlariga bank tizimining kreditlarini keng ko'lamda jalb qilinishi orqali inflyatsiyaning va budjet xarajatlarining oshishida namoyon bo'ladi.

Soliq ilmining taniqli namoyandalari G. Stayn, M. Bernst, A. Lafferlar soliqlar soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyatiga jiddiy zarar yetkazmasliklari, ularning ishlab chiqarishdan manfaatdorliklarini pasaytirmasliklari lozim, degan xulosaga kelishgan. Ularning fikriga ko'ra, yuqori soliqlar ishlab chiqaruvchilar va ishchilarning soliq to'lashdan keyin qoladigan mablag'lar hisobidan oladigan ijtimoiy to'lovlar summasini sezilarli darajada qisqarishiga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: XIX chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. — T.: O'zbekiston, 1998. — 18-b.

olib keladi. A. Laffer va ularning tarafdorlari chegaraviy (mukammal) soliq stavkalarining muhimligini e'tirof etganlar, chunki bu stavkalar qo'shimcha jamg'arma va investitsiyalash xususida qarorlar qabul qilishga bevosita ta'sir ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Soliqqa tortishning progressiv stavkalari va davlat budjeti daromadlarining miqdori o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni tahlil qilar ekan A.Laffer, soliqlarning kamayishi tadbirkorlarning investitsion faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga keldi.

A.Lafferning fikriga ko'ra, agar muvaffaqiyatli ishlayotgan bozor yuqori va progressiv soliqlar shaklidagi tobora kuchayib borayotgan diskriminatsiyaga duch kelsa, u holda xo'jalik subyektlarining iqtisodiy faolligi pasayadi. Soliq stavkalarining o'sishi o'zlarining ma'lum darajasigacha soliq tushumlarining o'sishini rag'batlantiradi, keyin esa bu o'sish sekinlashadi va pirovard natijada, davlat budjeti daromadlarini keskin tarzda kamayishi yuz beradi.

Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan soliq tizimlarini shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin:

- 1) amerikacha soliq tizimi;
- 2) shvedcha soliq tizimi.

Soliq tizimining Amerika modeli tadbirkorlarga soliq tazyiqining minimal darajasiga asoslanadi. Ammo bunda tadbirkorlarning ixtiyorida ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun zarur bo'lgan sezilarli darajadagi mablag'lar qoladi. Shvetsiyada soliqlar darajasi Yevropadagi boshqa davlatlardagi soliqlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori, ammo Shvetsiyada aholini ijtimoiy himoyalash tizimining dunyodagi eng barqaror turi mavjuddir. Ayni vaqtda, shuni e'tirof etish lozimki, Shvetsiyada keyingi vaqtlarda soliq yukining og'irligi tufayli salbiy iqtisodiy holatlarning yuzaga kelayotganligi bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda<sup>2</sup>. Shvetsiyada ishlab chiqaruvchilar soliq yukining og'irligi hisobidan ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash masalasi muvaffaqiyatli tarzda hal etilmoqda, ammo ishlab chiqaruvchilarning mehnatdan

---

<sup>1</sup> Макконелл К. Р., Бю С. Л. Экономика: принципы, проблемы и политика. В 2 Т. Пер. с англ. II-го изд. Т 1. — М.: Республика, 1993. — С. 356.

<sup>2</sup> Нечаев А. Налоговая система подталкивает бизнес к уходу в теневой сектор // Финансовые известия. — 1995. — № 56. — С. 4.

manfaatdorligining pasayayotganligi, kapitalning mamlakatdan chiqib ketish jarayonlari kuchayayotganligi sezilmoqda.

Hozirgi vaqtda xo'jalik subyektlarining iqtisodiy faoliyati ko'proq baynalminal xarakterga ega bo'lib, bu holat tovarlar, mehnat resurslarini, moliyaviy va real investitsiyalarni doimiy ravishda bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tishini ta'minlamoqda. Bu tendensiyani kelgusida yanada kuchaytirishni tasdiqlovchi zaruriy dalillar mavjud. Iqtisodiy faoliyatning baynalmilallashuvi turli soliq tizimlariga ega bo'lgan mamlakatlar o'rtasida amalga oshmoqda. Shunga muvofiq, bu mamlakatlar amalga oshirayotgan soliq siyosatining xususiyatlaridan kelib chiqqan soliq yukining darajasi bo'yicha ham bir-biridan keskin farq qiladi. Soliqqa tortishning past darajasiga ega bo'lgan har qanday davlat investitsiyalarni joylashtirish uchun nisbatan jozibador hisoblanadi. Shu munosabat bilan ayrim xorijlik iqtisodchi olimlar kapitallarni jahon miqyosida samarasiz taqsimlash tendensiyasining kuchayayotganligidan tashvishga tushmoqdalar. Ularning fikriga ko'ra, kapitallarni jahon miqyosida taqsimlashning asosiy mezonini bo'lib, investitsiyalarning soliqqa tortishgacha bo'lgan daromadlilik miqdori emas, balki u yoki bu mamlakatda soliq yukining darajasi hisoblanmoqda<sup>1</sup>.

Shunday qilib, soliq stavkasining ma'lum darajaga yetishi ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'batni so'ndiradi, soliqqa tortish bazasiga kiruvchi daromadlarning ma'lum qismini xufyona iqtisodiyotga o'tib ketishiga sabab bo'ladi.

A.Laffer nazariyasini tanqidiy jihatdan o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, unda soliq standartining qabul qilinishi bilan uni amalga oshirish o'rasidagi farq hisobga olinmagan.

A.Laffer nazariyasining ikkinchi kamchiligi shundan iboratki, soliqlarning kamayishi taklifga qaraganda talabga ko'p ta'sir ko'rsatadi, bu esa dastlab yirik budjet defitsitini yuzaga keltiradi, keyin esa inflyatsiyaning kuchayishiga olib keladi.

---

<sup>1</sup> *Tanzi V. Taxation in an Integrations World.* — Washington.: The Brookings Institut, 1995. — c 134: G'armer P., Lya R. *EC Tax Law.* — Oxford.: Clarendon Press, 1994. — C. 297.

A.Laffer nazariyasining uchinchi kamchiligi shundan iboratki, egri chiziqning aynan qaysi nuqtasida soliqlarni kamaytirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan paytda iqtisodiyot normal holatga tushishini bilib bo'lmaydi.

Umuman olganda soliqqa oid qonunbuzilishlar va soliq tizimi o'rtasida ikkiyoqlama aloqadorlik mavjuddir. Bir tomondan soliq yukining og'ir ekanligi, soliqqa oid qonunbuzilishlarning kuchayishi uchun zamin yaratsa, ikkinchi tomondan, soliq to'lovchilarning nohalol, nopok ekanligi hamda ularda moddiy boylikka ruju qo'yish kayfiyatining kuchayishi soliqqa oid qonunbuzilishlarni yuzaga keltirish orqali soliq tizimi holatining yomonlashuviga olib keladi.

Xufiyona iqtisodiyot va soliqqa oid qonunbuzilishlarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, soliqqa oid qonunbuzilishlar xufiyona iqtisodiyotning yadrosini, ya'ni o'zagini tashkil qiladi. Qonunda ko'zda tutilgan soliq majburiyatlarini bajarishdan ongli ravishda bo'yin tovlash soliq qonunbuzilishlarining mohiyatini tashkil qiladi<sup>1</sup>.

M.P.Gurovning fikriga ko'ra, soliqqa oid jinoyatlar iqtisodiy jinoyatchilikning tarkibiy qismi hisoblanadi va xufiyona iqtisodiyotning yanada rivojlanishi uchun moddiy zamin yaratadi<sup>2</sup>.

Soliq qonunchiligini buzish hollarining ko'payishi nafaqat soliq yuki darajasining oshishiga, balki soliq yukining soliq to'lovchilar o'rtasida noteng taqsimlanishiga ham bog'liqdir.

Klassik iqtisodchi olimlardan biri, soliqqa tortish nazariyasining asoschisi A. Smit 1776-yilda o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqotlar» nomli kitobida soliqqa tortishning quyidagi tamoyilini shakllantirdi: aniqlik, qulaylik, tejamkorlik, adolat tamoyillari. Soliqqa tortishning adolat tamoyiliga muvofiq, davlatning har bir fuqarosi davlat xarajatlarini moliyalashda o'zining daromadlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qatnashishi shart. Iqtisodiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, adolat tamoyili davlatning soliqlari va xarajatlari

---

<sup>1</sup> Макаров Д. Г. Уголовный кодекс в борьбе с теневой экономикой. Проблемы и перспективы. // Налоговый вестник. — 2000. № 1. — С. 120.

<sup>2</sup> Гуров М. П. Теневая экономика: сущность, структура и особенности проявления в условиях перехода к рыночной экономике в России: Автореферат канд. экон. наук. — СПб., 1998. — С 14.

soliq yukini ba'zi odamlar zimmasiga yuklash va undan boshqa odamlarning foydalanishini ta'minlash yo'li bilan daromadlarni taqsimlashga ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda mazkur tamoyillarning ikki jihati mavjud: gorizontal va vertikal. Gorizontal adolatlilik tamoyiliga ko'ra soliq to'lovchilar teng mavqega egadirlar va shu sababli bir xil miqdorda soliq to'lashlari kerak. Ushbu tamoyil asosida «undiriladigan soliqlar summasi to'lovchilarning daromadlari miqdoriga to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilganligi haqida»gi g'oya yotadi. Vertikal adolatlilik tamoyiliga ko'ra esa, soliq to'lovchilar o'zaro noteng mavqega egadirlar, shuning uchun ular bir xilda soliq to'lamasliklari lozim. Boshqacha qilib aytganda, ushbu tamoyilga ko'ra, «davlatdan kim ko'p mablag' yoki ne'matlar olayotgan bo'lsa, o'sha ko'proq soliq to'lashi kerak».

V.Petti o'zining «Soliqlar va yig'imlar to'g'risida traktat» nomli asarida ta'kidlaydiki, «aholining soliqlarni to'lashni xohlamasligi soliqlarning noteng undirilishi va taqsimlanishidadir».

Taniqli rus iqtisodchi-olimlaridan bir A.I.Turgenev soliqqa tortishning asosiy qoidalaridan biri sifatida soliqlarni teng taqsimlashni taklif qiladi. Uning fikriga ko'ra, soliq to'lovchilar o'rtasida soliqlarni teng taqsimlash soliq to'lovchilarning daromadlariga mos kelishi kerak. Butun boshli «xalq sinflarini» soliq to'lashdan ozod etish mumkin emas.

Shuni ta'kidlash joizki, respublika miqyosida va mahalliy miqyosda qo'llaniladigan ko'plab soliq imtiyozlari soliq yukini murakkablashtiradi. Bunday imtiyozlardan jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lum toifalari foydalanadilar. Natijada, undirilmagan soliq summalari soliq imtiyozlaridan foydalanmaydigan yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Buning psixologik jihati shundaki, korxonalarining rahbarlari nima uchun boshqalar to'lamaydigan soliqni biz to'lashimiz kerak, degan xulosaga keladilar. Bu xulosa amaliyotda soliq to'lovchilar tomonidan qonunchilikni buzgan holda soliq to'lovlarini minimallashtirishga urinishni yuzaga keltiradi.

Rivojlanayotgan davlatlarning soliq tizimiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, ularda xo'jalik subyektlarining soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlari davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish muammosini yuzaga

keltiruvchi omil darajasiga ko'tarilgan. Masalan, rossiyalik iqtisodchi V.Zyabrikovning fikriga ko'ra, «Rossiya Federatsiyasida soliqlar bo'yicha undirilmagan summa taxminan soliq to'lovlari miqdoriga to'g'ri keladi, bu esa Rossiya soliq tizimini boshqarib bo'lmaydigan holatga yaqinlashtiradi»<sup>1</sup>. Boshqa iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, daromadlarni yashirish va soliqqa tortishning boshqa obyektlarini noto'g'ri ko'rsatish natijasida mamlakat yig'ma budjetiga har yillik soliq tushumlarining 30 foizdan 50 foizgacha bo'lgan qismi tushmayapti<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasida vaqtida undirilmagan soliq tushumlarining davlat budjetining jami daromadlariga nisbatan salmog'i o'rtacha 24,0 foizni tashkil qiladi<sup>3</sup>.

Soliqqa oid qonunbuzilishlarning tipik ko'rinishlaridan biri — xo'jalik subyektlari tomonidan tegishli ruxsatnomaga ega bo'lmasdan, soliq inspeksiyalariga soliq hisobini, balans hisobotlarini topshirmasdan moliya-xo'jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi. Ayrim hollarda soliq organlariga subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mavjud emasligidan guvohlik beruvchi tegishli soliq hisobi, balanslar topshiriladi. Ammo ko'pincha, soliq organi xodimlari tomonidan joyiga borib hujjatli tekshirish o'tkazilganda subyektlar tomonidan mavjud faoliyatning haqiqatda bo'lganligi aniqlanmoqda.

Soliqqa oid qonunbuzilishlarning keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, noqonuniy xarakterdagi operatsiyani korxonaning buxgalteriya hujjatlarida aks ettirilmashligi hisoblanadi. Bundan ko'zlangan maqsad amalga oshirilgan hisob-kitoblarni imkoniyat qadar ishonchli tarzda yashirish hisoblanadi. Bunda hisobga olinmagan naqd pul mablag'lari vositasida hisoblashish keng tarqalgan. Ko'pchilik hollarda naqd pullar ulgurji va chakana savdo o'rtasidagi munosabatlarda hisobdan chiqib qoladi. Chunki, bu yerda soxta hujjatlarning asosiy qismi yuzaga keladi.

Ulgurji-chakana tijorat strukturalari o'rnatilgan kassa limitidan ortiqcha xarajat qilishga, O'zbekiston Respub-

---

<sup>1</sup> *Зябриков В. В.* Налоговое планирование как способ согласования интересов фирмы и государства: Автореферат дис. кан. экон. наук. — СПб, 1997. — С. 7.

<sup>2</sup> *Пансков В. Г.* Налоговое бремя в российской налоговой системе // *Финансы*. — 1998. № 11. — С 20.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yillik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan.



likasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi pul-kredit komissiyasi tomonidan naqd pulda to'lovlarni amalga oshirish ruxsat etilmagan operatsiyalarni bajarishga yo'l qo'yadilar, ular ko'pchilik hollarda olingan naqd pullarni kassaga kiritmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining nazorat-kassa mashinalarini chakana savdo tizimida qo'llash va kassa intizomiga rioya etish xususidagi bir qator qarorlari va ko'rsatmalari mavjud bo'lishiga qaramasdan, chakana savdo shoxobchalarida nazorat-kassa mashinalarini to'liq joriy etish imkoni bo'lmayapti. Ayniqsa, tovarni bevosita omborxonadan oladigan chakana savdo korxonalari bo'yicha bu jarayonni nazorat qilish samarasiz hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda amaliyotda yirik sanoat korxonalari tomonidan pul mablag'larini shuba korxonalari orqali noqonuniy tarzda o'zlashtirish hollari uchramoqda. Bunda korxonalar o'ziga tegishli pul mablag'larining ma'lum qismini shuba korxonasining hisob-raqamiga o'tkazadi. O'z navbatida, mazkur shuba korxonasi pul mablag'larini soxta shartnomalar orqali xorijiy davlatlarga o'tkazib beradi yoki soxta kirim-chiqim hujjatlari orqali naqd pulga aylantiriladi va o'zlashtiriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida hozirga qadar barter bitimlarining hisob-kitoblar hajmidagi salmog'i yuqoridir. Bu holat soliqni to'lamaslik uchun muhim zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasida korxonalar va tashkilotlar o'rtasida barter asosida hisoblashish amaliyotiga chek qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida veksellar muomalasi vaqtinchalik to'xtatilgan, lekin Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Ukraina davlatlarida veksellar muomalasi mavjud bo'lib, u soliq to'lovlariga salbiy ta'sir qilmoqda. Buning boisi shundaki, veksel yuridik shaxslar o'rtasida hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida o'zaro hisoblashish shakli bo'lib, ko'pchilik hollarda soliqqa tortish bazasining kamayishiga, soliqqa oid qonunbuzilishlarning ko'payishiga olib keladi.

Soliqqa oid qonunbuzilishlarning kuchayishi va budjet daromadlarining miqdori o'rtasidagi ikkiyoqlama xarakterga ega bo'lgan bog'liqlik soliqlardan ongli ravishda bo'yin tovlash holatlariga ilmiy asosda baho berish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

## 7.2. SOLIQ TO‘LASHDAN BO‘YIN TOVLASHNING ASOSIY USULLARI

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda soliq majburiyatlaridan soliq to‘lovchilarning bo‘yin tovlashi masalasi dolzarb hisoblanadi. Xorijiy davlatlarning iqtisodiy adabiyotlarida soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash usullarini turkumlash masalalariga katta e‘tibor berilib kelinadi. Masalan, K.A.Pershalava mazkur usullarni xo‘jalik operatsiyalarining turlariga bog‘liq ravishda turkumlashni tavsiya qiladi<sup>1</sup>. Lekin mazkur yondoshuv bir qator kamchiliklarga ham ega. Jumladan, muallif soliqdan bo‘yin tovlashning ishlab chiqarish xarajatlarini o‘zgartirish usulini va xodimlar sonini rasman oshirish usulini alohida guruhlarga ajratadi. Holbuki, xodimlar sonining rasman oshirilishi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxining oshishiga olib keladi. Chunki, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar ishlab chiqarish korxonalarida xomashyo va materiallardan keyingi o‘rinda turuvchi xarajatlar hisoblanadi. Demak, mehnat haqi xarajatlarining o‘sishi ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishi sifatida baholanishi mumkin.

Rus olimi I.Kucherov tomonidan taklif qilingan turkumlash mezonini ko‘proq real amaliyotga mos keladi. I.Kucherov soliqdan bo‘yin tovlash usullarini turkumlashda soliq mexanizmining elementlarini va ularning qay usulda ta‘sir qilishini hisobga olishni taklif qiladi<sup>2</sup>. Ammo shuni e‘tirof etish lozimki, birinchidan, soliqqa tortish obyektini noto‘g‘ri ko‘rsatish va soliqqa tortish bazasini kamaytirish imkonini beruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni soxtalashtirish usullarini alohida-alohida guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq emas, chunki soliqqa tortish obyektlari xususida noto‘g‘ri ma‘lumotlar berish bevosita iqtisodiy ko‘rsatkichlarni soxtalashtirish orqali amalga oshiriladi; ikkinchidan, soliq to‘lovchilarning birlamchi buxgalteriya hujjatlarida soxta ma‘lumotlarning mavjudligi natijasida soliqqa tortish bazasining qisqarishi usuli I.Kucherov tomonidan taklif qilingan turkumlashda o‘z aksini topmagan.

---

<sup>1</sup> *Першалова К. А.* Выявление и первоначальный этап расследования уклонений от уплаты налогов или страховых взносов в государственные внебюджетные фонды. Дис. на соис. уч. степени к.э.н. — М., 1999. — С. 86.

<sup>2</sup> *Ковалевская Д. Е.* Налоговые преступления в уголовном праве Российской Федерации. // *Налоговый Вестник.* — 2000. № 11. — С. 101.

Soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlash usullarini quyidagi guruhlarga ajratgan holda turkumlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

*1. Soliq to'lovchilarning soliq organlariga soliq hisob-kitobi va buxgalteriya hisobotlarini topshirmasliklari.*

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar qonunda ko'rsatilgan muddatda soliq organlariga har bir soliq turi bo'yicha soliq hisob-kitobini, shuningdek, buxgalteriya hisoboti va balanslarini taqdim etishlari shart. Ammo ushbu usulni qo'llashda moliya-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun soliq organlariga hujjatlarni taqdim etish talab etilmaydi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq organlariga «nollik» balanslarni, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirilmaganligi to'g'risidagi soxta ma'lumotlarning berilishi ham mazkur usulga kiradi. Respublikamizda hozirgi vaqtda soliq to'lashdan bo'yin tovlashning birinchi usulini fuqarolarga nisbatan qo'llashning huquqiy asoslari mavjud emas.

*2. Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq nazoratidan chetda qolishi.*

Soliq nazoratini amalga oshirish maqsadida har bir soliq to'lovchi korxonaning joylashgan o'rniga ko'ra, fuqarolarni esa yashash joylariga ko'ra soliq organlarida hisobda turishlari shart.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishni soliq organlaridan yashirish soliq to'lashdan bo'yin tovlashning juda keng tarqalgan usullaridan biriga aylangan. Ayrim hollarda korxonalar tomonidan umuman, joriy davrda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritilmaslik to'g'risida soxta ma'lumotlar beriladi. Shuning uchun hisobga qo'yish to'g'risidagi ariza qabul qilinayotganda amaldagi qonunchilikka ko'ra xususiy tadbirkor o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. Hisobga olish masalasida tashkilot tomonidan ariza berilganda tegishli tartibda tasdiqlangan quyidagi hujjatlarning bir nusxasi taqdim etiladi. Ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma, ta'sis hujjatlari va davlat ro'yxatidan o'tish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar mazkur usulni amalga oshirishda tadbirkorni ro'yxatdan o'tkazishda soxta yoki o'g'irlangan hujjatlar shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar sifatida hisobga qo'yiladi. Shunday qilib, soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati boshqa shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur usulni qo‘llash, ko‘pchilik hollarda, «bir kunlik firma»larning yuzaga kelishiga olib keladi. Ularni soliq organlarida hisobga qo‘yish bir yoki bir necha moliyaviy-xo‘jalik operatsiyasini bajarish maqsadida amalga oshiriladi. Ko‘zda tutilgan operatsiyalar amalga oshirilgandan so‘ng, mazkur firma tugatiladi. Mana shunday firmalarning yuzaga kelishi va faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qiluvchi manzilli qonuniy me‘yorlarning mavjud emasligi davlat budjetiga jiddiy zarar yetkazadi.

*3. Soliq to‘lovchining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatlari natijalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirilmasligi.*

Mazkur usuldan foydalanish, asosan, korxonalarining buxgalteriya hisobida ayrim bitimlarni aks ettirilmasligida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning barcha operatsiyalari birlamchi buxgalteriya hujjatlarida o‘z aksini topishi shart. Ana shu birlamchi buxgalteriya hujjatlariga asosan buxgalteriya hisobi yuritilishi lozim. Shuning uchun ham ayrim operatsiyalarni yashirish maqsadida soliq to‘lovchilar birlamchi buxgalteriya hujjatlarini yo‘q qiladilar yoki ularni rasmiylashtirmaydilar. O‘zbekiston Respublikasi sharoitida, tovarlarni sotish natijasida olingan naqd pullarni kassaga kirim qilmaslik holatlari mazkur usul namoyon bo‘lishining asosiy shakli hisoblanadi. Mazkur usulni amalga oshirish aholi bilan hisob-kitoblarni nazorat-kassa mashinalarisiz va xaridorlarga chek berish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin.

*4. Soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish imkonini beruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni noqonuniy o‘zgartirish yo‘li bilan soliqqa tortish obyekti xususidagi ma‘lumotlarni soxtalashtirish.*

Amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortish obyektlari sifatida mulk, foyda, daromad, sotilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning qiymati maydonga chiqadi.

Soliqqa tortish obyekti soliqqa tortishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi va u soliq yukini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Soliq to‘lovchining jismoniy yoki yuridik shaxs ekanligi, uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishga xos bo‘lgan xususiyatlar soliqqa tortish obyektining miqdoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa soliq to‘lovchiga noqonuniy asosda soliq yukini kamaytirish imkonini beradi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq har bir soliq turi bo'yicha alohida soliq stavkalari belgilangan. Bularning ustiga soliq imtiyozlari ham soliq to'lovchilarning har bir toifasi uchun alohida qilib belgilangan.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning mazkur usulidan foydalanish o'ziga xos tarzda amalga oshiriladiki, buning natijasida soliqqa tortish obyektining haqiqiy miqdori uning e'lon qilingan miqdoridan sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

5. *«Soxta eksport» operatsiyalarini amalga oshirish yo'li bilan qo'shilgan qiymat solig'ini noqonuniy qoplash.*

Ma'lumki, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotish bo'yicha oborotlar hisoblanadi. Davlat budjetiga to'lanadigan soliq summasi sotilgan mahsulotlar (xizmatlar, ishlar) uchun xaridorlardan olingan soliq summasi bilan mol yetkazib beruvchilarga to'langan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston soliq qonunchiligiga ko'ra eksport qilina-yotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilingan. Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning mazkur usulidan foydalanish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- eksport qilina-yotgan tovar haqiqatda mamlakat chegarasidan chiqmaydi, eksportchi korxonada budjetdan qo'shilgan qiymat solig'ini undirish uchun bojxona organlarining soxta muhridan foydalanadi;

- olib chiqib ketilayotgan tovarlar atayin yuqori baholarda aks ettiriladi;

- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha budjetdan qoplash summasini undirish uchun amalda bitta eksport bitimi bo'yicha bir necha soliq to'lovchilar murojaat qilishadi.

Soliqdan bo'yin tovlash mazkur usulining namoyon bo'lish shakllaridan biri qo'shma faoliyat xususidagi shart-nomani rasmiylashtirish yo'li bilan bitimni yashirish hisoblanadi.

Ayrim shaxslar ikki yoki undan ortiq kishidan iborat yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan uyushmalar tashkil etadilar. Bundan maqsad noqonuniy asosda foyda olish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar

to'g'risida»gi qonuniga muvofiq uyushgan korxonalarining ixtiyorida soliq to'lagandan keyin qoladigan mablag'lar foyda solig'iga qayta tortilmaydi. Ushbu usul hamkorlik asosida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda pul mablag'lari va boshqa mulklarni soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida qaytarib olmaslik sharti bilan berishda va soliqqa tortishning imtiyozli rejimidan noqonuniy ravishda foydalanishda ishlatiladi.

*6. Notijorat tashkilotlari tomonidan foyda solig'iga tortilmaydigan asosiy faoliyat turi bahonasida tijorat faoliyatini yuritish.*

Mazkur usulning mavjudligi, faoliyati foyda olishni ko'zlamaydigan tashkilotlarning mavjudligi bilan izohlanaadi. Bu tashkilotlarning asosiy faoliyat turi bo'yicha pul mablag'lari soliqqa tortilmaydi, ammo ularning tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlari foyda solig'iga tortiladi. Ular notijorat faoliyat shaklida tijorat faoliyatini amalga oshiradilar. Bu usul notijorat tashkilotlari tomonidan ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda, asosiy vositalarni ijaraga berishda ko'p qo'llaniladi. Ular, odatda, ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan olingan pul mablag'larini a'zolik badallari sifatida rasmiylashtiradilar, ijaraga berilgan asosiy vositalardan kelgan tushumlarni esa xayr-ehson badallari sifatida rasmiylashtiradilar.

*7. Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni aksiz solig'iga tortilmaydigan tovarlar sifatida ishlab chiqarish va sotish.*

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Faqat paxta tolasi, zargarlik buyumiga aksiz solig'i stavkalari hamda aksiz solig'ini to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. «Uzdeuavto» AJ avtomobillariga aksiz solig'ini Moliya vazirligi Davlat soliq qo'mitasi bilan birga belgilaydi.

Aksiz solig'i to'laydigan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan barcha xo'jalik operatsiyalari birlamchi buxgalteriya hujjatlarida aks etgan bo'lishi kerak. Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning mazkur usulida soliq to'lovchilar birlamchi buxgalteriya hujjatlaridagi ma'lumotlarni soxtalashtiradilar.

Mazkur usulni qo'llashda soliq to'lovchilar eksport operatsiyalari haqiqatda amalga oshirilmagan sharoitda aksiz

solig'i bo'yicha berilgan yengilliklardan noqonuniy tarzda foydalanadilar.

Shunisi xarakterliki, nafaqat aksiz solig'i, balki boshqa soliq turlari bo'yicha ham soliq to'lashdan bo'yin tovlash usullarining o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Jumladan, korxonalarining foydasidan olinadigan soliqni to'lashdan bo'yin tovlash usullariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

— ishlab chiqarish jarayonini texnik jihatdan qayta qurollantirish, rekonstruksiya qilish, uy-joy qurilishi kabi foyda hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlar yuzasidan beriladigan soliq imtiyozlari summasini oshirib ko'rsatish;

— korxonaning balansida turgan ijtimoiy-madaniy muassasalarni saqlash yuzasidan beriladigan soliq imtiyozlari summasini oshirish;

— ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, ikkinchi jahon urushi va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalariga foyda solig'idan berilgan imtiyoz summasidan noqonuniy tarzda foydalanish;

— boshqa shu kabi xususiyatlar.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan bo'yin tovlash usullaridan foydalanishga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

— o'zaro hisoblashishlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblamaslik;

— soliq deklaratsiyalarida qo'shilgan qiymat solig'i summalarini asossiz ravishda oshirib ko'rsatish;

— budjetdan qoplanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini noqonuniy tarzda oshirib ko'rsatish;

— qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha pul omonatlari, joriy hisobvaraqlar, to'lovlar, o'tkazmalar, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha berilgan soliq imtiyozlaridan noqonuniy tarzda foydalanish;

— o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarining sotish hajmini asossiz ravishda oshirib ko'rsatish;

— boshqa xususiyatlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan bo'yin tovlash usullaridan foydalanishga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar naqd pulda olingan daromadlar bo'yicha quyidagilardan iborat:

— yirik miqdorda moddiy yordamlar olish faktini yashirish;

— qaytarib bermaslik sharti bilan olingan ssudalar summasini ko'rsatmaslik;

— jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada daromadlarni to'liq ko'rsatmaslik;

— o'z vaqtida deklaratsiyani soliq organlariga taqdim etmaslik;

— boshqa xususiyatlar.

Yuqorida qayd etilgan usullardan sezilarli darajada farq qiluvchi usullar guruhi ham mavjud bo'lib, bu guruhdagi usullar mijozning pul mablag'lari xususidagi ma'lumotlarni soxtalashtirishi natijasida paydo bo'ladi. Mazkur guruhga mansub bo'lgan usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) hisob-kitoblarning ma'lum qismini naqd pullarda amalga oshirish va naqd pulda olingan tushumlarni aylanma kassaga kirim qilmaslik.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunining 7-moddasi 3-bandiga muvofiq, soliq to'lovchilar tomonidan qonunchilikda belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlar soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining hisob-raqamidagi pul mablag'lari hisobidan inkassa topshiriqnomasi qo'yish yo'li bilan undirib olinadi.

Ayrim korxonalar olayotgan tushumlarini soliq organlarining inkassa topshiriqnomalari asosida to'lanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida naqd pulda olingan tushumlarni aylanma kassaga kirim qiladilar, lekin hisob-raqamiga kirim qilmaydilar, kassaga kirim qilingan naqd pullar hisobdor shaxslarga berish, mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashish kabi maqsadlarga xarajat qilinadi;

b) budjetdan qarzдорlik (boqimanda) mavjud bo'lgan sharoitda hisob-kitoblarni uchinchi shaxs orqali amalga oshirish.

Mazkur usuldan foydalanishdan ko'zlangan maqsad soliq to'lovchining joriy hisob-raqamidagi pul mablag'lari hisobidan majburiy tartibda undirilishi lozim bo'lgan soliq to'lovlaridan bo'yin tovlash hisoblanadi. Bunday sharoitda tovarlarni sotish natijasida olinadigan tushum summasini soliq organining inkassa topshiriqnomasiga asosan olib



qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida mol yetkazib beruvchi xaridordan to'lov summasini uchinchi shaxsning joriy hisob-raqamiga o'tkazishni talab qiladi.

Mazkur usuldan foydalanish ko'lamini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri — boqimandalar summasi mutlaq miqdorining tahlil qilingan davr mobaynida sezilarli ravishda o'sishi hisoblanadi.

Umuman olganda soliq majburiyatlaridan bo'yin tovlash usullari umumiy belgilariga ko'ra aniq guruhlarga bo'linadi. Bundan tashqari, har bir soliq turi bo'yicha ushbu usullardan foydalanishga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud bo'lib, ular, pirovard natijada soliq to'lashdan bo'yin tovlash usullari mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

### **7.3. SOLIQA OID QONUNBUZILISHNING OLDINI OLISH TADBIRLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash jarayonlarining amaldagi holatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikamizda bu boradagi qonunbuzarliklar, asosan, qo'shilgan qiymat solig'i, korxonalarining foydasidan olinadigan soliq va aksiz solig'ini to'lash jarayonida uchramoqda. 2007-yilning 1-yanvar holatiga, davlat budjetiga o'z vaqtida undirilmagan soliqlarning 38,7 foizi qo'shilgan qiymat solig'ining hissasiga, 16,0 foizi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hissasiga, 12,1 foizi esa aksiz solig'ining hissasiga to'g'ri keldi<sup>1</sup>. Agarda Rossiya Federatsiyasida o'z vaqtida undirilmagan soliq to'lovlarining tarkibiga nazar solsak: korxonalar foydasidan olingan soliq — 43,0%, qo'shilgan qiymat solig'i — 28,4%, yo'l fondiga ajratmalar — 6,7%, fuqarolardan olingan daromad solig'i — 3,7%, aksizlar — 1,2 foizni tashkil etgan<sup>2</sup>.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, davlatga soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash natijasida yetkazilgan zararlarining asosiy qismi qo'shilgan qiymat solig'i va yuridik shaxslarning foy-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining joriy va yillik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan.

<sup>2</sup> *Кучеров И. И.* Налоговые преступления. — М.: Юринфор, 1997. — С. 40.

dasidan olinadigan soliqlarning hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa, davlat budjeti daromadlarining shakllanish jarayoniga bevosita va kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi, chunki mazkur soliq turlari bo'yicha tushumlar summasi davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida sezilarli salmoqni egallaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha zararlar summasining katta ekanligi soliq nazoratini yetarli darajada takomillashmaganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, soliq to'lashdan bo'yin tovlashning quyidagi 2 usuli juda keng tarqalgan:

a) tovar tannarxini asossiz ravishda oshirib ko'rsatish;

b) sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlardan olingan tushum summalarini yashirish.

Mazkur usullardan birinchi navbatda korxonalar foydasidan olingan soliq va qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashda keng foydalanilmoqda. Bu esa, davlat budjetiga jiddiy zarar yetkazadi. Chunki qo'shilgan qiymat solig'i va korxonalar foydasidan olingan soliq davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasida Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning barqarorlik xususiyatiga ega bo'lgan asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarning soliq amaliyotidagi holatlar shuni tasdiqlaydiki, masalan, Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan bo'yin tovlash holatlari juda keng tarqalgan bo'lib, bu pirovard natijada soliq to'lashdan bo'yin tovlash miqyosini yalpi milliy mahsulotning 2 foizini tashkil etadigan darajada kengayishiga olib keldi<sup>1</sup>.

Shvetsiyada soliq to'lashdan bo'yin tovlashning darajasi yalpi milliy mahsulotning 5 foizini tashkil etadi. Bunda soliq yukini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy soliqlar bo'lib qo'shilgan qiymat solig'i va korxonalar foydasidan olinadigan soliq hisoblanadi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> *Sauvageot G.* *Precis de fiscalite.* — Nathan, 1990. — C. 109.

<sup>2</sup> *Am P.* *La fiscalite en G'race.* — Hachette, 1998, — C. 186.

Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlashning keng tarqalgan usullariga quyidagilar kiradi:

1) Sotilgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni schyot-faktura bilan rasmiylashtirmaslik.

Mazkur usuldan foydalanish soliq to'lovchilarga tovarlarni sotish bilan bog'liq xarajatlarni korxonaning buxgalteriya hisobida aks ettirmaslik va buning natijasida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaslik imkonini beradi. Agar sotilgan tovarlar schyot-fakturadan foydalanish yo'li bilan rasmiylashtirilganida edi, unda qo'shilgan qiymat solig'i summasini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirmaslik mumkin bo'lmay qolar edi.

2) Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha belgilangan soliq imtiyozlaridan noqonuniy tarzda foydalanish hollari ko'plab uchraydi.

Soliq yukini kamaytirish, yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, davlat budjetining daromad qismiga kelib tushadigan soliq tushumlarini o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin soliq to'lashdan bo'yin tovlash hollariga butunlay barham berish imkonini bermaydi. Bunga yorqin misol qilib, Shvetsariya soliq amaliyotini olish mumkin. Shvetsariyada qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalardan olinadigan daromadlar nisbatan belgilangan soliq stavkalarini 35 foizgacha kamaytirilishi ushbu daromadlarni soliq deklaratsiyalarida to'g'ri ko'rsatilishiga olib kelmadi<sup>1</sup>.

Demak, qator rivojlangan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash soliqqa oid qonunbuzilishlarning asosiy shakli hisoblanadi. Shu sababli, ularning qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan bo'yin tovlash usullaridan foydalanish tajribasini o'rganish amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha sotilgan mahsulotning tannarxini atayin oshirib ko'rsatish, mahsulotlarning bir qismini naqd pulga sotish va tushumni kassaga kirim qilmaslik ushbu soliq turi bo'yicha soliq to'lashdan bo'yin tovlashning keng tarqalgan usullaridan hisoblanadi.


---

<sup>1</sup> Hofer A. La franchise en Suisse — Editions Grounauer. Geneve, 1978. — C. 141.

Shunisi xarakterliki, 2004—2006-yillar mobaynida QQS, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i, aksiz solig‘i bo‘yicha soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash usullarining sonini kamayish tendensiyasi yuzaga keldi. Bu esa ijobiy holat hisoblanadi.

7.3.1-diagramma

**Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning turli usullari orqali davlatga yetkazilgan zararlar summasining salmog‘i, foizda**



Keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakatimizning soliq amaliyotida tushumni kamaytirib ko'rsatish, mahsulot tannarxini asossiz ravishda oshirib ko'rsatish va naqd pullardagi tushumni kassaga kirim qilmaslik usullari soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning asosiy usullari hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, mahsulotlarning sezilarli qismi naqd pullarga sotiladi, naqd pullar soliقدan qochishning qulay vositasi

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikaci Moliya vazirligining yillik hisobot ma'lumotlari asosida hisoblangan.

hisoblanadi; ikkinchidan, mahsulotlarning tannarxini asossiz ravishda oshirib ko'rsatish yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bazasini qisqarishiga olib keladi; uchinchidan, tushumni kamaytirish egri va to'g'ri soliqlar summasining kamayishiga olib keladi.

Soliq qonunchiligini buzish holatlarini iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha statistik holati shuni ko'rsatadiki, savdo sohasida, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmog'ida qonunbuzarliklarning soni yuqori salmoqni egallaydi. Ayniqsa, savdoda bu ko'rsatkich juda yuqoridir. Bu holat, avvalo, savdo operatsiyalari ko'lamining kengligi va xilma-xilligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, soliq to'lovlaridan qochish maqsadida tashkil etiladigan «bir kunlik firma»lar aynan savdo sohasida ko'plab uchraydi.

Soliqqa oid qonunbuzilishlarning miqyosini aniqlash uchun ularning yalpi ichki mahsulot (YIM)dagi salmog'ini o'rganish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki soliqqa oid qonunbuzilishlarning asosiy qismi soliqqa tortiladigan obyekt summasini kamaytirib ko'rsatish va sotish hajmining ma'lum qismini birlamchi buxgalteriya hujjatlarida aks ettirmaslik yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa soliq to'lovlari bilan YIMning o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Soliqqa oid qonunbuzilishlarning oldini olish va ularga barham berish amaldagi tadbirlarni va usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Soliqqa oid jinoyatlarning o'sishi davlatning moliyaviy resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buning oqibatida davlat soliqsiz tushumlarni qidirishga majbur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatning ichki va tashqi qarzlarning o'sishiga olib keladi.

Soliqqa oid qonunbuzilishlarni aniqlash, ogohlantirish va ularga barham berish maqsadida amalga oshiriladigan soliq nazoratining uzluksizlik tamoyilini qo'llashni kuchaytirish lozim. Mazkur tamoyil soliq qonunchiligini bajarishga oid ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bilan bog'liq salbiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini prognozlash hamda soliq to'lashdan bo'yin tovlash usullaridan foydalanish zaruratini yuzaga keltiruvchi holatlarni aniqlashga nisbatan qo'llanilishi kerak.

Xalqaro amaliyotda soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlashda 2 xil uslubiyotdan keng foydalaniladi:

1) Ma'lumotlar bazasini bir-biri bilan taqqoslash uslubiyoti.

2) Statistik uslubiyot.

Mazkur uslubiyotlardan foydalanish soliq to'lashdan bo'yin tovlashning turli usullaridan foydalanish hollarini aniqlash imkonini beradi. Lekin ular soliq qonunchiligini buzgan soliq to'lovchilar tomonidan jinoyat holati sodir etilgandan keyin yuzaga kelgan holatnigina aniqlash imkonini beradi. Bu esa soliq tekshiruvi natijasida mazkur holat aniqlangunga qadar qonunbuzarlikni sodir etishga yo'l qo'ygan shaxslar qonunbuzarliklarini to'g'rilab qo'yishlariga imkon berishi mumkin. Buning natijasida mazkur noqonuniy harakatlar natijasida davlatga yetkazilgan zararning real miqdorini aniqlash imkoniyati bo'lmay qoladi.

Soliqlar to'lashdan bo'yin tovlash usullarining xilma-xilligi va ularning yangi shakllarining yuzaga kelayotganligi soliqqa oid qonunbuzilishlarni tahlil qilish tizimini kuchaytirishni taqozo qiladi. Tahlil tizimini kuchaytirish soliq to'lovchilarning faoliyatida va xatti-harakatlarida yuzaga kelayotgan tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, soliq qonunchiligini kelgusida tuzishga yo'l qo'yuvchi soliq to'lovchilarni oldindan aniqlash imkoniyatini beradi.

Ma'lumki har qanday tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilgan. Shu sababli soliq yuki oshirilganda, bitim hajmini baho hisobidan elastikligini ta'minlay olmaydigan soliq to'lovchilar, soliq to'lashdan bo'yin tovlashga harakat qiladilar, chunki ular qo'shimcha xarajatlarni qoplash imkoniyatiga ega emas.

Ta'kidlash lozimki, monopol korxonalar tovarlar bahosini oshirish yo'li bilan bitimlar hajmining elastikligini oshirish imkoniyatiga ega, lekin ular ham soliq yuki oshganda uni kamaytirishning noqonuniy yo'llaridan foydalanishga harakat qiladi, ammo monopol korxonalar boshqa soliq to'lovchilardan farqli o'laroq, davlat organlari tomonidan soliq nazoratiga ko'proq tortiladilar. Shuning uchun monopol korxonalar tovarlari bahosini oshirish yo'li bilan soliq yukini xaridorga yuklatish uchun sezilarli imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ular noqonuniy yo'llar bilan soliq to'lashdan bo'yin tovlashdan manfaatdor emaslar.

## KURS ISHI MAVZULARI

1. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq-larning tutgan oʻrni va ahamiyati.
2. Oʻzbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning oʻziga xos xususiyatlari.
3. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda soliqlarning oʻz vaqtida tushib turishini taʼminlash masalalari.
4. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq yuki va uni optimallashtirish.
5. Toʻgʻri soliqlarning budjet daromadlarida tutgan oʻrni va ahamiyati.
6. Egri soliqlarning budjet daromadlarini shakllan-tirishdagi ahamiyati.
7. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda va mol-mulk soliqlarini undirishni takomillashtirish masalalari.
8. Qoʻshilgan qiymat soligʻini budjetga undirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yoʻllari.
9. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻini hisob-lash va budjetga toʻlash tartibi.
10. Oʻzbekiston Respublikasi soliq tizimining rivojlan-gan mamlakatlar soliq tizimlari bilan oʻxshash xususiyatlari.
11. Soliqlarning davlat moliyaviy resurslarini shakllan-tirishdagi ahamiyati.
12. Kichik biznes subyektlarini ragʻbatlantirishda soliq-larning roli.
13. Fermer xoʻjaliklarini soliqqa tortishning oʻziga xos jihatlari.
14. Yer qaʻridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibi.
15. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni un-dirish tartibi.
16. Oʻzbekiston Respublikasi soliq tizimi va uni tako-millashtirish.
17. Oʻzbekiston Respublikasi davlat moliya tizimida soliqlarning tutgan oʻrni.
18. Oʻzbekiston soliq qonunchiligida xalqaro shartno-malarning ahamiyati.
19. Oʻzbekistonda jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va ularni undirish mexanizmi.
20. Soliqlarni undirish usullarini takomillashtirish masa-lalari.

21. Budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalarni undirishda soliq idoralarining vazifalari.
22. Soliq stavkalarini tabaqalashtirish mezonlari va ulardan foydalanish tartibi.
23. Davlat budjetining solikli daromadlari.
24. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va budjetga undirish tartibi.
25. Aksiz solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
26. Soliqqa tortishning deklaratsiyalash usuli va uni takomillashtirish.
27. Yuridik shaxslarning mol-mulkidan soliq undirish tartibi.
28. Soliq mexanizmi va uni takomillashtirish yo'llari.
29. Yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tartibi.
30. Umumdavlat soliqlarini mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlash zarurligi.
31. O'zbekistonda xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
32. To'g'ri soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmi.
33. Jismoniy shaxslar mol-mulklarini soliqqa tortish tartibi.
34. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tartibi.
35. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i va uni takomillashtirish.
36. Jismoniy shaxslarni daromadiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
37. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirishda soliq idoralarining nazorati.
38. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamentining soliqqa oid qonunbuzarliklarini bartaraf etishdagi roli.
39. Yagona yer solig'ini to'lovchilari, stavkalari, hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
40. Noqishloq xo'jalik yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalarini takomillashtirish masalalari.
41. Tijorat banklarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.



42. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi.
43. Agrar sektordagi islohotlarni amalga oshirishda soliq siyosatining ahamiyati.
44. Aksiz solig‘ini undirish sabablari va uni soliqlar tizimida tutgan o‘rni.
45. Soliq stavkalari va uni tabaqalashtirish masalalari.
46. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.
47. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘iga tortiladigan bazani aniqlash usullari, soliqni hisoblash va to‘lash tartiblari.
48. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni budjetga undirish tartibi.
49. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa tortishda soliq idoralarining nazorati.
50. Qishloq xo‘jalik korxonalarini soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirish.
51. Soliq yuki va uni optimallashtirish masalalari.
52. Iqtisodiyotni erkinlashtirishda soliqlarning ahamiyatini oshirish zarurligi.
53. Budjet daromadlari tarkibida bevosita va bilvosita soliqlarni optimallashtirish masalalari.
54. Soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha budjet oldidagi qarzlarni bartaraf etish chora-tadbirlari.
55. Qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishini soliqlar orqali rag‘batlantirish.
56. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari.
57. Tabiiy resurslardan samarali foydalanishda soliqlarning ta’sirchanligini oshirish masalalari.
58. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblash hamda uni to‘lash tartibi.
59. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.
60. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi.
61. Sug‘urta bozorining rivojlanishini soliqlar orqali rag‘batlantirish.
62. Xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish tartiblari.

63. Yuridik shaxslar moliya-xo'jalik faoliyatiga egri soliqlar ta'sirining tahlili.
64. I.A. Karimov asarlarida soliqlar va soliqqa tortish masalalari.
65. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga soliq siyosatining ta'siri.
66. Hududlar moliyaviy resurslarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'ri.
67. Yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar ustidan soliq nazoratini o'rnatish.
68. Soliq hisobi va uni takomillashtirish.
69. Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi va mudatlarini takomillashtirish.
70. O'zbekistonda yagona yer solig'ini undirishning o'ziga xos xususiyatlari.
71. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini budjetga undirish tartibi.
72. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tizimining tahlili va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.
73. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari va ulardan foydalanishning tahlili.
74. O'zbekiston Respublikasida soliqlarni undirish usullari va ulardan foydalanishning tahlili.
75. Soliq imtiyozlari va budjet daromadlari o'rtasidagi uzviylikni takomillashtirish.
76. Kichik biznesni rivojlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyati.
77. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i va uni to'lash tartibi.
78. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni soliqqa tortishni isloh qilish yo'nalishlari.
79. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning tahlili.
80. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va hisoblash usullari.
81. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmini takomillashtirish.
82. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda tabaqalashgan soliq stavkalarini qo'llash yo'llari.
83. Sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirish.

84. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi va uni takomillashtirish.

85. O'zbekiston Respublikasida undiriladigan bojxona to'lovlari va ularni takomillashtirish masalalari.

86. Iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.

87. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda deklaratsiyalash tizimini joriy etish zarurligi va ahamiyati.

88. Fermer va dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan soliqlar va ularni takomillashtirish masalalari.

89. Budjetlararo munosabatlarning tartibga solishda soliqlarning tutgan o'rni.

90. Soliqlarning o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash masalalari.

91. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy qilishning iqtisodiy sabablari.

92. O'zbekiston Respublikasida egri soliqlarni undirish amaliyoti va uni takomillashtirish masalalari.

93. Soliq organlarining iqtisodiy nochor korxonalarni tugatish jarayonidagi ishtiroki.

94. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning budjet oldidagi qarzdorligini kamaytirishda soliq organlarining roli.

95. Soliqlarning mohiyati bo'yicha tavsiflanishining nazariy tushunchasi.

96. Jismoniy shaxslarga beriladigan soliq imtiyozlarini takomillashtirish.

97. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyozlar tizimini takomillashtirish.

98. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni soliqqa tortishni isloh qilish yo'nalishlari.

99. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning tahlili.

100. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmini takomillashtirish.

101. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartiblash mexanizmi va unda soliq imtiyozlarining ahamiyati.

102. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va budjetga to'lash tartibi.

103. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning o'rni va ahamiyati.

104. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash shaklida olgan daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish.
105. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati va uni takomillashtirish.
106. Soliq stavkalari turlari va ularning qo‘llanilishini takomillashtirish.
107. To‘g‘ri soliqlar va ularning iqtisodiyotda tutgan o‘rni.
108. Bevosita va bilvosita soliqlar o‘rtasidagi nisbat munosabatlarini takomillashtirish.
109. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va yig‘imlarning ahamiyatini oshirish masalalari.
110. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartiblari va ularni takomillashtirish.
111. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xususiyatlari va ularni takomillashtirish.
112. Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga to‘lash tartibini takomillashtirish.
113. Eksport-import operatsiyalarini soliqqa tortishni takomillashtirish.
114. O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash tartibi va uni takomillashtirish.
115. O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilindigan tovarlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va budjetga to‘lash tartibini takomillashtirish.
116. Bojxona yig‘imlari va ularni undirish mexanizmini takomillashtirish.
117. Yagona bojxona to‘lovini hisoblash va to‘lash tartibini takomillashtirish.
118. Mamlakat eksport faoliyatini rivojlantirishda soliq-larning rag‘batlantiruvchi ahamiyatini oshirish masalalari.
119. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini hisoblash va budjetga to‘lash tartibini takomillashtirish.
120. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarni hisoblash hamda budjetga to‘lash tartibi.
121. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga to‘lash tartibi.

122. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.

123. Resurs soliqlari va ularni takomillashtirish masalalari.

124. Muddatida to'lanmagan soliqlar va budjetga majburiy to'lovlarni undirish mexanizmini takomillashtirish.

125. Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish.

126. Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish.

127. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibini takomillashtirish.

128. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash tartibi va uni takomillashtirish.

129. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar va ularni takomillashtirish.

130. Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo'llash tizimi, uni takomillashtirish.

131. Soliq nazorati va uni takomillashtirish.

132. Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hududiy komissiyalarning vazifalari va majburiyatlari.

133. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlarni hisoblash va undirish tartibi.

134. To'g'ri soliqlar va ularni ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri.

135. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning konseptual asoslari.

136. Yuridik shaxslarning solikli to'lovlari tizimini maqbullashtirish asoslari.

137. Aksiz solig'i hisobi va uni takomillashtirish.

138. Aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash muddatlarini maqbullashtirish.

139. Korxonalarda solikli to'lovlar hisobini yuritish tartibini maqbullashtirish.

140. O'zbekistonda amalda bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmidagi mavjud muammolar tahlili.

141. Yuridik shaxslarning suv resurslaridan foydalanishida to'lanadigan to'lovlarni hisoblash mexanizmi.

142. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar va ularning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga ta'siri samaradorligini oshirish.

143. O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish amaliyoti-da mahalliy soliqlar va yig'implarning o'ziga xosligi.
144. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish uslubiyatidagi mavjud muammolar.
145. Umumdavlat soliqlarning mohiyati va ularni budjetlar o'rtasida taqsimlash mexanizmi.
146. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida soliq tizimidagi mavjud muammolar.
147. Budjet daromadlari shakllanishida to'g'ri soliqlardan foydalanish jarayoni.
148. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.
149. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni soliqlar vositasida tartiblash.
150. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishdagi muammolar.
151. Soliq tizimini takomillashtirishda soliq nazariyalarining o'ri.
152. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartiblash yo'llari.
153. Yer solig'ini undirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.
154. Aksiz solig'ining amal qilishida aksiz markalarini qo'llashning ahamiyati.
155. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini soliqqa tortish masalalari.
156. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda umumdavlat soliqlarining ahamiyati.
157. Davlat budjeti daromadlari qismini shakllantirishda soliq to'lovlari va bojxona bojlarini muvofiqlashtirishning ahamiyati.
158. Yuridik shaxslardan yer solig'ini undirishdagi muammolar.
159. Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish muddatlarini maqbullashtirish.
160. Mol-mulk solig'ini budjetga undirishdagi muammolar.
161. Pensiya jamg'armasi mablag'larini undirishda soliq organlarining nazorati.
162. Mahalliy soliqlar va yig'implarni joriy etish sabablari.
163. Dehqon xo'jaliklarini soliqqa tortishning xususiyatlari.

164. Jismoniy shaxslardan mahalliy soliqlarni undirishdagi mavjud muammolar.
165. Soliq siyosatining agrar sohani rivojlantirishdagi ahamiyati.
166. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini soliqlar orqali rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari.
167. Yagona yer solig'i va uning amal qilish xususiyatlari.
168. Yerlarning me'yoriy qiymatidan undiriladigan yagona yer solig'i.
169. Yagona yer solig'ini hisoblash tartibi.
170. Yagona yer solig'ini to'lash muddatlari.
171. To'g'ri soliqlar bo'yicha imtiyozlardan samarali foydalanish yo'llari.
172. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo'llaniladigan moliyaviy va ma'muriy javobgarlik choralari hamda ularning ta'sirini oshirish.
173. Fermer xo'jaliklarini soliqqa tortishda yagona yer solig'ining ahamiyati.
174. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalarining tabaqalanish asoslari.
175. Tijorat banklaridan olinadigan daromad (foyda) solig'ining o'ziga xosligi.
176. Import tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashdagi muammolar.
177. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun taqdim etilgan soliq uslubiyatlari.
178. Aksizosti tovarlarini belgilash va ulardan soliq undirish jarayoni.
179. Soliq stavkalarini tabaqalashtirishning ilmiy asoslari.
180. Umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishdagi muammolar.
181. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarining o'rni.
182. Yangi tahrirdagi soliq kodeksining qabul qilinishi va uning soliq qonunchiligidagi ahamiyati.
183. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni undirishdagi muammolar.
184. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartiblashning asosiy yo'nalishlari.

185. Budjet loyihasini ishlab chiqishda soliqlarni prognoz qilishning ahamiyati.
186. Yuridik shaxslarning egri soliqlar bo'yicha boqimandalarini undirish masalalari.
187. Budjetning solikli daromadlari va ularni undirishdagi muammolar.
188. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va ularni takomillashtirish yo'llari.
189. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
190. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i va uni to'lash tartibi.
191. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani hisoblash uslubiyati.
192. Jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan olinadigan soliqni budjetga undirish mexanizmi.
193. Jismoniy shaxslarning transport vositalardan benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatilganlik uchun soliqni hisoblash tartibi.
194. Savdo qilish huquqi uchun yig'im, shuningdek, ayrim turdagi tovarlarni sotish uchun litsenziya yig'imlarini undirish tartibi.
195. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish yig'imi va uni hisoblash jarayoni.
196. Hududlarning rivojlanishida soliqlarning ahamiyati.
197. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini undirish tartibi.
198. Mahalliy budjetlarni shakllantirishda boshqariladigan daromadlarni takomillashtirish yo'llari.
199. Mol-mulk solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibini takomillashtirish yo'nalishlari.
200. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibi.
201. Soliq nazorati tashkil qilish va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
202. Soliq sohasidagi muddatni belgilash va uning amaliyotda qo'llanilishi.
203. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga o'tkazishni tartibga solish masalalari.



204. Aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish jarayoni.

205. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarni takomillashtirish yo'nalishlari.

206. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash uslubiyatini takomillashtirish yo'nalishlari.

207. Soliqlarni budjetlar o'rtasida taqsimlash mexanizmi.

208. Soliq tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

209. Korxonalar foydasini soliqqa tortishdagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalari.

210. Yuridik shaxslardan olinadigan resurs soliqlari va ularning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri.

211. Mahalliy hokimiyatlarning soliq-budjet huquqlarini oshirish masalalari.

212. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlarni kichik biznesni rag'batlantirishdagi rolini oshirish masalalari.

213. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ishlab chiqaruvchilar faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solish va himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

214. Respublika va mahalliy budjetlarning o'zaro munosabatlari.

215. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlarini takomillashtirish masalalari.

216 O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliqqa tortiladigan bazani aniqlash usullari.

217. Umumdavlat soliqlarini mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlash mezonlari va takomillashtirish masalalari.

218. Egri soliqlar bo'yicha soliq boqimandaligini kamaytirish usullari va vositalari.

219. Soliq xizmati organlarining boshqa moliya-kredit muassasalari bilan iqtisodiy-huquqiy munosabatlarini tartibga solish masalalari.

220. To'g'ri soliqlar bo'yicha soliq boqimandaligini kamaytirish masalalari.

221. Davlat moliya resurslarini shakllantirishda budjet-soliq siyosati samaradorligini oshirish yo'llari.

222. Soliq mexanizmi va uni takomillashtirish yo'llari.

223. Investitsiyalarni rag'batlantirishda soliqlardan foydalanishning ahamiyatini oshirish yo'llari.

224. Soliq qonunchiligi buzilganda qo‘llaniladigan moliyaviy va ma‘muriy javobgarlik turlari.
225. Davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarini shakllantirish tartibini takomillashtirish.
226. Yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va to‘lash tartibi.
227. Ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag‘batlantirishda to‘g‘ri soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari.
228. O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlarga qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lash tartiblari.
229. O‘zbekistonga import qilinayotgan mahsulotlardan aksiz solig‘ini budjetga undirish tartiblari.
230. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozli stavkalar va ularni qo‘llanilishi.
231. Soliq yuki va uning xorijiy davlatlar bo‘yicha taqqoslama tahlili.
232. Resurs soliqlarini korxonalar moliya-xo‘jalik faoliyatiga ta‘sirining tahlili.
233. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.
234. Soliqlarni tasniflanishi va ularga doir turli qarashlar.
235. Soliq imtiyozlarining samarasini oshirish yo‘llari.
236. Soliq imtiyozlarining iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi roli.
237. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovini hisoblash va budjetga o‘tkazish tartibi.
238. O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.
239. O‘zbekiston Respublikasida soliq yuki va uni optimallashtirish masalalari.
240. O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlanishini soliqlar orqali rag‘batlantirish.
241. Budjetlararo munosabatlarni tartibga solishda soliqlarning tutgan o‘rni.
242. Soliq imtiyozlari va budjet daromadlari o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash mexanizmi.
243. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash tartibini takomillashtirish.

244. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarning xususiyatlari.
245. Qat'iy belgilangan soliq va uni takomillashtirish.
246. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibini takomillashtirish.
247. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlarni takomillashtirish.
248. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlarni takomillashtirish.
249. To'g'ri soliqlarning soliq tizimidagi ahamiyati va ularni takomillashtirish.
250. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari.
251. Mahalliy soliqlar va yig'imlarni takomillashtirish.
252. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari va ularni takomillashtirish.

## TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

1. To‘lovlar
2. Soliqlar
3. Soliqqa tortish
4. Davlat budjeti
5. Soliq to‘lovchilar
6. Soliq xizmati
7. Soliqlar va soliqqa tortish.
8. Soliq tizimi
9. Solikli va soliqsiz to‘lovlar
10. Budget daromadlari
11. Yuridik shaxs
12. Jismoniy shaxs
13. To‘g‘ri soliqlar
14. Egri soliqlar
15. Inflyatsiya
16. Soliq tamoyillari
17. Soliq tizimi
18. Jarima va penyalar
19. Dalolatnomalar
20. Eksport-import
21. Xabarnoma
22. Foyda solig‘i
23. Soliq stavkasi
24. Soliq obykti
25. Soliq subyekti
26. Rezident
27. Soliq imtiyozlari
28. Soliqni to‘lash muddatlari
29. Yagona soliq
30. Soliq stavkasi
31. Yalpi daromad va yalpi tushum
32. Mikrofirma va kichik korxonalar
33. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar
34. Plastik kartochka
35. Yalpi daromad
36. Tovar aylanmasi
37. Qo‘shilgan qiymat
38. Nolli stavka
39. Import mahsulotlari
40. Bojxona yuk deklaratsiyasi

41. Schyot-faktura
42. Aksiz solig'i
43. Aksiz osti tovarlar
44. Shartnomaviy narx
45. Korxonalar mol-mulki
46. Mol-mulk solig'i
47. Mol-mulklar qiymati
48. O'rtacha qoldiq qiymat
49. Muddatida o'rnatilmagan uskunalar
50. Yer maydonlari
51. Sug'oriladigan yerlar
52. Sug'orilmaydigan yerlar
53. Norezident
54. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i
55. Deklaratsiya
56. Infratuzilma obyektlar
57. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i
58. Suv resurslari
59. Yerosti suvlari
60. Yerusti suvlari
61. Yerosti qazilma boyliklari
62. Texnologiya hosilalar
63. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq
64. Mahalliy soliqlar va yig'imlar
65. Ro'yxatga olish yig'imlari

## **SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH KURSI BO‘YICHA TEST SAVOLLARI VARIANTLARI**

1. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlariga qanday daromad turlari kiradi?
  - A. Mol-mulknii ijaraga berishdan keladigan daromad.
  - B. Dividend bo‘yicha olinadigan daromad.
  - C. Natura shaklida olingan ish haqi to‘lovlari.
  - D. Tovarlar realizatsiyasidan keladigan barcha tushumlar ushbu daromadni topish bilan bog‘liq xarajatlar, majburiy to‘lovlar, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlangan holda kiradi.
  
2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qisqa muddatli tekshirishga ruxsat beruvchi vakolatli organi ko‘rsating.
  - A. Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish hududiy Kengashi.
  - B. O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi.
  - C. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
  - D. O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik sudi.
  
3. Yuridik manzilgohi o‘zgarganda korxonaga necha kun ichida soliq idoralarini xabardor qilishi kerak?
  - A. 3 kun ichida.
  - B. 1 oy ichida.
  - C. 10 kun ichida.
  - D. O‘sha kuni.
  
4. Yuridik shaxslarning foyda solig‘i solish obyektini aniqlashda jami daromaddan moliyaviy jarima va penya summaları chegirib tashlanadimi?
  - A. Chegirib tashlanadi.
  - B. Chegirib tashlanmaydi.
  - C. Faqat moliyaviy jarima summasi chegirib tashlandi.
  - D. Faqat penya summasi chegirib tashlanadi.
  
5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning alohida tartibi qaysi davlat idorasi tomonidan belgilanishi mumkin?
  - A. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.
  - B. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

- C. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- D. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

6. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish obyektini ko‘rsating.

- A. Foyda.
- B. Daromad.
- C. Yalpi tushum (tovar aylanma).
- D. Yalpi daromad.

7. O‘zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to‘lov qachon joriy qilingan?

- A. 1998-yil 1-yanvar.
- B. 1995-yil 1-yanvar.
- C. 1992-yil 1-yanvar.
- D. 2004-yil 1-yanvar.

8. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri mahalliy soliq hisoblanadi?

- A. Aksiz solig‘i.
- B. Yer solig‘i.
- C. Suv resurslaridan foydalanganlik solig‘i.
- D. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soliq.

9. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to‘laydilar?

- A. O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.
- B. O‘zbekiston Respublikasida olgan manbalaridan.
- C. O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.
- D. Soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra to‘lanadi.

10. Xayriya maqsadlariga o‘tkazilgan mablag‘lar soliqqa tortiladimi?

- A. Tortilmaydi.
- B. Foyda solig‘i bazasining 2% miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.
- C. Foyda solig‘i bazasining 1% miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.
- D. Foyda solig‘i bazasining 5% miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.

11. Qaysi javobda korxonaning maqsadli jamg'armalari o'tkazadigan to'lovlari berilgan?

- A. Qo'shilgan qiymat solig'i.
- B. Yagona ijtimoiy to'lov.
- C. Davlat bojlari.
- D. Yer solig'i.

12. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysi biri yer solig'idan ozod etilmagan?

- A. Uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar
- B. I va II guruh nogironlari.
- C. Yaylov chorvachiligining cho'ponlari.
- D. Yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar.

13. 1—2-guruh nogironlari uchun daromad solig'i bo'yicha qanday imtiyoz ko'zda tutilgan?

A. Soliqqa tortiladigan daromad 30 foizga kamaytiriladi.

B. Soliqqa tortiladigan daromad 50 foizga kamaytiriladi.

C. Soliqqa tortiladigan daromad 30 foiz, agar 16 yoshgacha ikkita bolasi bor bo'lsa kamaytiriladi.

D. Har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida kamaytiriladi.

14. O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning dividend va foizli daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?

- A. 12%.
- B. 3%.
- C. 15%.
- D. 10%.

15. Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- A. 1991-yil 1-yanvardan.
- B. 1992-yil 1-yanvardan.
- S. 1995-yil 1-yanvardan.
- D. 1999-yil 1-martdan.

16. Yer solig'i stavkalari 2008-yil uchun necha martaga indeksatsiya qilindi?

- A. 1,3.



- B. 1,5.
- C. 2.
- D. 1,2.

17. Jismoniy shaxslar soliqlarni qanday shaklda to'laydilar?

- A. Naqd pul shaklida.
- B. Naqd pulsiz shaklida.
- C. Natura shaklida.
- D. Naqd pul va naqd pulsiz shaklda.

18. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nima?

- A. Davlat budjetini moliyaviy resurs bilan ta'minlash.
- B. Davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.
- C. Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.
- D. Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy resurs bilan ta'minlash.

19. Soliq stavkalarini qaysi vakolatli davlat organi belgilaydi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.
- C. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi.

20. Quyidagilarning qaysi biri soliq obykti bo'la oladi?

- A. Korxonalar va tashkilotlarning smeta rejasi.
- B. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijasi.
- C. Kreditorlik qarzlari.
- D. Budjet subsidiyalari.

21. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga qanday daromadlar kiradi?

- A. Foiz, dividend, mol-mulknini ijaraga berishdan kelgan daromadlar.
- B. Mehnatga haq to'lash shaklida olingan daromad.
- S. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.
- D. Omonatdan olingan foizlar.

22. Agar amalga oshirilgan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa:

- A. U faqat bir marta daromaddan chegiriladi.
- B. Har bir toifasi bo'yicha alohida chegiriladi.
- C. Chegirma qilinmaydi.
- D. Xarajatlar belgilangan me'yor darajasida chegiriladi.

23. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish obyektini nima?

- A. Tovar (ish, xizmatlar) sotilishiga doir oborotlar hamda tovar (ish, xizmatlar) importi.
- B. Muomala xarajatlari.
- C. Ishlab chiqarish tannarxi.
- D. Soliq to'langunga qadar moliyaviy natija.

24. Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalan-ganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi soliq organiga to'laydi?

- A. Ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga.
- B. Davlat soliq qo'mitasiga.
- C. Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'i nazar suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga.
- D. Ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishu-viga muvofiq.

25. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi O'zbekistonda qa-chon qabul qilindi?

- A. 1996-yil 1-mart.
- B. 1997-yil 24-aprel.
- S. 2008-yil 1-yanvar.
- D. 1999-yil 1-yanvar.

26. Pochta markalari, markali otkritkalar va konvertlar sotish qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladimi?

- A. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.
- B. 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- C. Nollik stavka bo'yicha tortiladi.
- D. Kamaytirilgan stavkalar qo'llaniladi.

27. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2008-yil uchun necha martaga indeksatsiya qilindi?

- A. 1,5 martaga.
- B. 1,3 martaga.
- C. 1,2 martaga.
- D. 2 martaga.

28. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushum (tovaroborotdan) belgilangan stavkasining yuqori chegarasini ko'rsating.

- A. 10%.
- B. 8%.
- C. 5%.
- D. 3%.

29. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarni aniqlang.

- A. Yuridik shaxslar.
- B. Jismoniy shaxslar.
- C. Yuridik va jismoniy shaxslar.
- D. Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

30. Yagona soliq to'lovini to'lovchilarini aniqlang.

- A. Yuridik shaxslar.
- B. Jismoniy shaxslar.
- C. Banklar va sug'urta kompaniyalari.
- D. Mikrofirma va kichik korxonalar (shu jumladan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari).

31. Qaysi javobda mol-mulk solig'ining soliqqa tortish obyekti berilgan?

- A. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar.
- B. Nomoddiy aktivlar.
- C. Kapital qo'yilmalar.
- D. Pul mablag'lari.

32. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga.

- A. Kiritiladi.

- B. Faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi.
- C. Kiritilmaydi.
- D. Faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi.

33. Aksiz markalarining joriy etilish yilini ko'rsating.

- A. 1992-yil 1-yanvar.
- B. 1993-yil 6-may.
- C. 1995-yil 1-yanvar.
- D. 1996-yil 1-oktabr.

34. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadimi?

- A. Mol-mulk solig'ini belgilangan tartibda to'laydilar.
- B. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanishmaydi.
- C. Ijaraga berilgan mol-mulklari qiymatidan soliq to'laydilar.
- D. Faqat asosiy vositalari bo'yicha to'laydilar.

35. Quyidagi yuridik shaxslardan qaysi biri obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'laydi?

- A. Savdo korxonalar.
- B. Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi korxonalar.
- C. Ixchamlashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar.
- D. Ixchamlashtirilgan soliq tizimiga o'tmagan kichik korxonalar.

36. Agar infratuzilma obyektlarini saqlash xarajatlari summasi obodonlashtirish ishlari va infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasidan oshib ketsa, korxonalar:

- A. Soliqni to'laydi.
- B. Soliqni to'lamaydi.
- C. Past stavkalarda to'laydi.
- D. Xarajatlarning oshgan summasiga kamaytirgan holda to'laydi.

37. O'zbekiston rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya bo'yicha hisoblangan daromad solig'ini qaysi sanagacha to'lashlari lozim?

- A. 1-aprel.

- B. 1-may.
- C. 1-iyun.
- D. 1-sentabr.

38. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri umum-davlat solig'i hisoblanadi?

- A. Yer solig'i.
- B. Qo'shilgan qiymat solig'i.
- C. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.
- D. Mol-mulk solig'i.

39. Obodonlashtirish ishlari va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining stavkasini aniqlang.

- A. 8%.
- B. 10%.
- S. 16%.
- D. 12%.

40. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibini buzish ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning qaysi moddasida ko'zda tutilgan?

- A. 176/1.
- B. 175.
- C. 168.
- D. 174.

41. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining asosiy stavkasi 2008-yil 1-yanvardan qancha qilib belgilangan?

- A. 18.
- B. 12.
- C. 7.
- D. 10.

42. 2008-yilda jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq stavkalari necha foiz qilib belgilangan?

- A. 13, 23, 33.
- B. 13, 20, 29.
- C. 13, 18, 25.
- D. 13, 21, 33.

43. Da'vo qilishning umumiy muddati qancha?  
A. 1 yil.  
B. 2 yil.  
C. 3 yil.  
D. 4 yil.
44. Yo'1 fondiga qilinadigan ajratmalar qachondan boshlab soliq xizmati idoralari nazoratiga berilgan?  
A. 2003-yil 1-oktabrdan.  
B. 2002-yildan 1-iyuldan.  
C. 2004-yil 1-yanvar.  
D. 2001-yil 1-yanvar.
45. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarini kim belgilaydi?  
A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.  
B. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.  
C. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.  
D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.
46. Yer solig'ini joriy etishdan maqsad nima?  
A. Davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash.  
B. Davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.  
C. Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.  
D. Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy mablag'-lar bilan ta'minlash.
47. Qaysi toifadagi fuqarolar jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya topshiradi?  
A. Hamma toifadagi fuqarolar.  
B. Ikki va undan ortiq daromad manbayiga ega bo'lgan hamma toifadagi fuqarolar.  
C. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.  
D. Faqat o'rindoshlik bo'yicha ishlovchilar.
48. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning dividend va foiz ko'rinishidagi oladigan daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?

- A. 12%.
- B. 13%.
- C. 14%.
- D. 10%.

49. Yuridik shaxslarning mahsulot (ish, xizmat)larni eksporti hajmi umumiy ishlab chiqarish hajmida 30% va undan yuqorini tashkil etsa mol-mulk solig'ini qanday stavkada to'laydilar?

- A. Belgilangan stavkadan 20% ga kamaytiriladi.
- B. Belgilangan stavkadan 25% ga kamaytiriladi.
- C. Belgilangan stavkadan 35% ga kamaytiriladi.
- D. Belgilangan stavka 2 baravarga kamaytiriladi.

50. Berilgan yer uchastkalaridan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslarga qanday chora belgilangan?

- A. Yer solig'i uch baravar miqdorida to'lanadi.
- B. Yer solig'i ikki baravar miqdorida to'lanadi.
- C. Moliyaviy jazo choralari qo'llaniladi.
- D. Ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi.

51. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'laydi?

A. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

B. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar.

C. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

D. Barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

52. Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- A. 1991-yil 15-fevraldan.
- B. 1992-yil 1-yanvardan.
- C. 1993-yil 6-maydan.
- D. 1997-yil 24-apreldan.

53. Soliq kodeksi dastlab O'zbekistonda qachon qabul qilingan va joriy etilgan?

- A. 1996-yil 15-fevral — 1996-yil 1-mart.
- B. 1997-yil 24-aprel — 1998-yil 1-yanvar.

- C. 1997-yil 15-dekabr – 1998-yil 1-yanvar.
- D. 1998-yil 24-aprel – 1999-yil 1-yanvar.

54. Yer solig‘i jismoniy shaxslar tomonidan qachon to‘lanadi?

- A. Joriy yilning 1-noyabriga qadar.
- B. Soliq teng ulushlarda joriy yilning 15-iyuni va 15-dekabriga qadar.
- C. Joriy yilning 15-dekabriga qadar.
- D. Joriy yilning 1-mayiga qadar.

55. Yuridik shaxslar soliqlarni qanday shaklda to‘laydilar?

- A. Naqd pul shaklida.
- B. Naqd pulsiz shaklida.
- C. Ayrim hollarda har ikkalasidan ham foydalanish mumkin.
- D. Ham natura ham naqd pul shaklda.

56. Jazoni ijro etuvchi muassasalar foyda solig‘iga tortiladimi?

- A. 18 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- B. Foyda solig‘idan ozod etiladi.
- C. 35 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- D. 3 yil muddatda soliqdan ozod etiladi.

57. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda nollik stavka qachon qo‘llaniladi?

- A. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportiga.
- B. Stenografiya xizmatlariga.
- C. Geologiya va topografiya ishlariga.
- D. Ma‘lumotlarni ishlash va axborot ta‘limotiga doir xizmatlariga.

58. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang?

- A. Yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi.
- B. Yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi.
- C. Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi.



D. Chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi.

59. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining qanday stavkalari qo‘llaniladi?

- A. 20 va 10.
- B. 20 va 15.
- C. 20 va nollik.
- D. 10 va nollik.

60. Jismoniy shaxslarning mol-mulklari qanday stavkada soliqqa tortiladi?

- A. 10 va 5.
- B. 3,5 va 7.
- C. 0,5 va 7.
- D. 0,5.

61. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi?

- A. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan.
- B. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.
- C. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan.
- D. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

62. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari to‘laydigan soliqlarni ko‘rsating.

- A. Qo‘shilgan qiymat solig‘i.
- B. Yalpi daromadidan soliq va mol-mulk solig‘i.
- C. Yalpi tushum (tovaroborot)dan yagona soliq to‘lovi.
- D. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.

63. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi?

- A. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
- B. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan.
- C. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.

D. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan.

64. Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari qo‘shilgan qiymat solig‘ini...

- A. Ixtiyoriy ravishda to‘laydilar.
- B. Umum belgilangan tartibda to‘lashga majbur.
- C. Nollik stavkada to‘laydilar.
- D. Pasaytirilgan stavkada to‘laydilar.

65. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga qo‘llaniladigan soliq stavkalarini tabaqalanishining asosiy mezonini ko‘rsating.

- A. Joylashgan joyiga qarab.
- B. Ishchilar soniga qarab.
- C. Daromadlik darajasiga qarab.
- D. Aholining soniga qarab.

66. Aksiz solig‘ini to‘lash muddatlarini ko‘rsating.

- A. Har chorakda.
- B. Har 15 kunlikda.
- C. Har 10 kunlikda.
- D. 1 yilda 1 marta.

67. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini budjetga to‘lash muddatlarini aniqlang.

A. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar.

B. Har chorakda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan.

C. Yillik hisobotlarni topshirish muddatiga qadar.

D. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-sanasiga qadar.

68. Korxonaga soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o‘tishi haqidagi qarori yoki dalillangan rad javobi davlat soliq xizmati organi tomonidan necha kun davomida chiqariladi?

- A. Ariza bergan kundan boshlab 5 kun mobaynida.
- B. Ariza bergan kundan boshlab 10 kun mobaynida.
- C. Ariza bergan kundan boshlab 1 oy mobaynida.
- D. Ariza bergan kundan boshlab 3 kun mobaynida.

69. Yagona soliq to'lovining obykti nima?  
A. Korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda.  
B. Sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq.  
C. Davr xarajatlari.  
D. Yalpi tushum.
70. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish obykti nima?  
A. Mahsulot sotishdan tushgan tushum.  
B. Foyda solig'i to'langandan keyin qolgan sof foyda.  
C. Muomala xarajatlari.  
D. Asosiy faoliyatning foydasi.
71. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi nimadan iborat?  
A. Mehnat haqi, mulkiy daromadlar.  
B. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mehnat haqi.  
C. Mehnat haqi, boshqa daromadlar.  
D. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar, boshqa daromadlar.
72. Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari soliq to'lovchilarga qaysi muddatdan kechiktirilmay topshirilishi shart?  
A. Joriy yilning 5-yanvarigacha.  
B. Joriy yilning 25-apreligacha.  
C. Joriy yilning 15-iyunigacha.  
D. Joriy yilning 1-mayigacha.
73. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilari kimlar?  
A. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari.  
B. Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar.  
C. Norezident jismoniy shaxslar.  
D. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari.
74. Soliq solinadigan obyektlarni hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini buzish m'uriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning qaysi moddasida nazarda tutilgan?

- A. 175-modda.
- B. 176-modda.
- C. 164-modda.
- D. 168-modda.

75. Jismoniy shaxsning quyida keltirilgan qaysi daromadlari daromad solig'idan ozod qilingan?

- A. Olingan alimentlar.
- B. Ish haqi to'lovlari.
- C. Ijara to'lovlari.
- D. Tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan daromad.

76. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri egri soliqlar guruhiga kiradi?

- A. Qo'shilgan qiymat solig'i.
- B. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq.
- C. Yer solig'i.
- D. Mol-mulk solig'i.

77. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqning obyektini aniqlashda chegirilishi lozim bo'lgan xarajatlarni aniqlash tartibi qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- C. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq inspeksiyalari.
- D. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

78. Yer solig'i stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan.
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
- C. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.
- D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan.

79. Yuridik shaxslar uchun foyda solig'i qachon joriy etilgan?

- A. 1991-yil 1-yanvardan.
- B. 1992-yil 14-yanvardan.

- C. 1993-yil 6-maydan.
- D. 1995-yil 1-yanvardan.

80. Aksiz solig'i stavkalari va aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati qaysi vakolatli organ tomonidan belgilanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- B. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- C. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.

81. O'zbekiston Respublikasining «Davlat Soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 1996-yilning 1-yanvarida.
- B. 1997-yilning 10-sentabrida.
- C. 1998-yilning 15-mayida.
- D. 1997-yilning 29-avgustida.

82. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to'laydilar?

A. O'zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.

B. O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan.

C. O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan.

D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan muvofiqlashtiriladi.

83. Yer solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?

A. Egaligida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

B. Foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

C. O'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

D. O'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

84. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini qaysi muddatlarda to'laydilar?

A. 15-yanvar va 15-iyulga qadar.

B. 1-iyun va 1-noyabrga qadar.

C. 1-dekabrga qadar.

D. 15-iyun va 15-dekabrga qadar.

85. Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar soliqqa tortiladimi?

- A. Soliqqa tortiladi.
- B. Ozod etiladi.
- C. Qisman soliqqa tortiladi.
- D. Imtiyozli stavkalarda tortiladi.

86. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy hokimiyat organlari qaroriga asosan yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslar yer solig'ini to'laydirlarmi?

- A. Yer solig'i o'rniga ijara haqi to'laydi.
- B. Yer solig'ini belgilangan tartibda to'laydi.
- C. Yer solig'i bonitet darajasiga qarab to'lanadi.
- D. Ijara haqi to'lanishi bilan birgalikda belgilangan tartibda yer solig'i ham to'laydi.

87. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar quyidagi qaysi soliqlarni to'laydilar?

- A. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i.
- B. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
- C. Yer solig'i.
- D. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

88. Soliq obyektiga deganda:

- A. Soliq undiruvchilar tushuniladi.
- B. Soliq to'lovchilar tushuniladi.
- C. Foyda, mol-mulk qiymati, yer maydoni.
- D. Soliq bazasiga nisbatan belgilangan me'yor.

89. Soliqlarni joriy qilish qaysi davlat organi vakolatiga kiradi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
- C. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- D. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi kelishgan holda.

90. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida soliq tizimiga tegishli moddalarni ko'rsating.

- A. 10, 51.
- B. 51, 123.
- C. 14, 111, 4.
- D. 98, 76.

91. Soliqlar va yig'implarni to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun penyalar miqdorini ko'rsating.

- A. 10%.
- B. 100%.
- C. 0,05%.
- D. 0,07%.

92. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

A. Rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

- B. Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari.
- C. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar.
- D. Foiz va dividend ko'rinishida olingan daromadlar.

93. Muddati o'tgan kreditor va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar soliqqa tortiladimi?

- A. Soliqqa tortilmaydi.
- B. 1 yildan so'ng soliqqa tortiladi.
- C. Soliqqa tortiladi.
- D. Faqat kreditor qarzdorlik soliqqa tortiladi.

94. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini qaysi davlat organi belgilaydi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
- C. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi.
- D. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.

95. Aksiz solig'ining to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

A. Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar.

B. Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar.

C. Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

D. Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar.

96. Qanday jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etilgan?

- A. I va II guruh nogironlari.
- B. Madaniyat va xalq ta'limi xodimlari.
- C. Tibbiyot xodimlari.
- D. Og'ir mehnat sharoitida ishlovchilar.

97. Shahar yo'lovchi transporti xizmatlari (taksi va yo'nalishli taksidan tashqari) qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladimi?

- A. Nollik stavkada soliqqa tortiladi.
- B. 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi.
- C. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.
- D. 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi.

98. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'laydi?

A. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

B. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar.

C. O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

D. Barcha yuridik va jismoniy shaxslar.

99. Aksiz solig'i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

- A. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga.
- B. Aksiz to'lanadigan tovarlarning importiga.
- C. Berilgan xom-ashyodan tayyorlangan mahsulotga.
- D. Vino va vinomateriallariga.

100. Tijorat banklari, kredit uyushmalari, sug'urta tashkilotlari budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarga tortish obyektini ko'rsating?

- A. Foyda.
- B. Daromad.
- C. Yalpi tushum (tovar aylanma).
- D. Marja.



## ATAMALAR SHARHI

**Aksioner** — aksionerlik jamiyatining aksiyalariga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Aksiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

**Aksiya** — aksionerlik jamiyatining kapitaliga hissa qo‘shilganligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi qimmatbaho qog‘oz. Aksiya o‘zining egasiga dividend shaklida foydani bir qismini olish (o‘zlashtirish) huquqini beradi.

**Amortizatsiya** — kelgusida asosiy fondlarni to‘liq qayta tiklash uchun pul mablag‘larini jamg‘arish va ularning qiymatini tiklash maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatga asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatini ularning eskirishiga qarab uzluksiz o‘tkazish jarayoni. Ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhitning ta’siri natijasida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskiradi, ularning moddiy va ma’naviy eskirishi sodir bo‘ladi. Bunda mehnat vositalarining qiymati uzluksiz qismlarga bo‘linib, amortizatsiya hisoblash yo‘li bilan normativ xizmat qilish muddati davomida tayyor mahsulotga o‘tkaziladi.

**Advalor soliq** — tovar qiymatiga nisbatan qat’i foiz stavkasida o‘rnatilgan to‘lov. Inflyatsiya sharoitida o‘zining funksiyalarini avtomatik ravishda saqlab qoladi. Bu soliqning tarkibiga savdo soliqlari, imoratga nisbatan ko‘pgina poshlinalar va boshqalar kiritilishi mumkin. Tovarlarni (import tovarlarni ham) jismoniy va yuridik shaxslarning mulklarini soliqqa tortishda qo‘llaniladi.

**Balans qiymati** — buxgalteriya balansida asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning pulda ifodalangan bahosi.

**Balans foyda** — mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha xarajatlar va chiqimlar hamda majburiy to‘lovlar chegirilganidan so‘nggi korxonaga yalpi daromadining qismi. Balans foyda soliqqa tortulguncha qadar bo‘lgan yalpi foydadir.

**Budjetdan tashqari fondlar** — a) ijtimoiy: ijtimoiy sug‘urta fondi; pensiya fondi; bandlik fondi; majburiy tibbiyot sug‘urtasi fondi; b) noijtimoiy: yo‘l fondi; ekologiya

va boshqa fondlardan iborat bo'lib, ularning barchasi budjet tizimida konsolidatsiyalanadi.

**Budjet dotatsiyasi** — o'z daromadlari va budjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag'lar yetishmagan holda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.

**Budjet profitsiti** — muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

**Budjet ssudasi** — yuqori budjetdan quyi budjetga yoki respublika budjetidan rezident — yuridik shaxsga yoki xorij davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

**Budjet tizimi** — turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, ularni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, shuningdek budjet jarayonida paydo bo'ladigan ular o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

**Budjet subvensiyasi** — qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ma'lum maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.

**Budjet tashkilotlari** — Davlat budjetida unga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbayi bo'lgan budjetdan mablag' ajratish nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

**Budjet taqchilligi (defitsiti, kamomadi)** — muayyan davrda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

**Budjet transferti** — budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoki vakolatli organ orqali haq olmay (tekinga) ajratiladigan pul mablag'lari.

**Boqimanda** — belgilangan muddatda o'tkazilmagan va so'zsiz undirilishi lozim bo'lgan soliq yoki boshqa majburiy to'lovning summasi.

**Boj poshlinalari** – iste'mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo'lmagan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo'jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan tovarlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash tovarlarning bahosini tenglashtirish lozim.

**Boj poshlinalarining stavkalari** – hukumat tomonidan o'rnatilib, yagona hisoblanadi va chegaradan tovarlarni olib o'tuvchi shaxslarga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarib qolmaydi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni operativ ravishda tartibga solishning instrumenti bo'lib xizmat qiladi. Ularning quyidagi turlari bo'lishi mumkin:

a) advalor stavkalar (boj undiriladigan tovarning boj qiymatiga nisbatan foizda o'rnatiladi);

b) maxsus stavkalar (boj undiriladigan tovarning birligiga nisbatan aniqlanadi);

d) kombinatsiyalashtirilgan stavkalar (boj undirishning dastlabki ikki varianti qo'llaniladi).

**Boj deklaratsiyasi** — milliy qonunchilikning talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan, o'ziga chegaradan o'tayotgan yuklar (eksport yoki import qilinayotgan tovarlar, passajir yuki, uning qo'lidagi yuki, boyliklar va valutalar) to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan hujjat. Bu hujjat yukni davlat chegarasi orqali o'tkazib yurishda asos bo'lib hisoblanadi.

**Davlat budjeti daromadlari** – o'z tarkibiga quyidagilarni oladi: 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imga, bojlar, shuningdek, majburiy to'lovlar hamda soliq bo'lmagan boshqa tushumlar; 2) davlatning moliyaviy aktivlari va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotishga berilishidan olingan daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, xorijiy davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident — yuridik shaxslarga va xorijiy davlatlarga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

**Davlat budjeti** — davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag‘larining) markazlashtirilgan fondi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Davlat ichki qarzlari** — davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida paydo bo‘lgan hukumat majburiyatlarining yig‘indisi.

**Davlat soliq inspeksiyalarining vazifalari va funksiyalari** — 1) soliq to‘lovchilarning (xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ham qo‘shib hisoblanganda) to‘liq hisobga olinishini ta‘minlash; 2) soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisoboti va balanslarini, soliq hisob-kitoblarini, hisobotlarni, deklaratsiyalar va to‘lovlarni hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish, shuningdek, foyda, daromad, soliqqa tortishning boshqa obyektlarini to‘g‘ri aniqlanganligi va hisoblanganligi bo‘yicha bu hujjatlarning to‘g‘riligini tekshirish; 3) budjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmaganlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar (jazolar) qo‘llanilishining to‘g‘riligini ta‘minlash; 4) korxonalar, tashkilot va muassasalardan foyda (daromad)ning yoki soliqqa tortishning boshqa obyektlari pasaytirilganligidan (kamaytirilganligini) dalolat beruvchi hujjatlarni ko‘rish, ularning mazmunini qayd etish va olib qo‘yishni amalga oshirish (tegishli hujjatlarni olib qo‘yish uchun asos bo‘lib soliq inspeksiyasi mansabdor shaxsining asoslangan qarori xizmat qiladi); 5) musodara qilingan va egasiz mulklarni, shuningdek, meros qilish huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tkazilgan mulklarni hamda topilmalarni hisobga olish, baholash va realizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish; 6) budjetga tushishi lozim bo‘lgan va haqiqatda tushgan soliqlar va boshqa to‘lovlarning operativ — buxgalteriya hisobi yurgiziladigan hujjatlarni banklar, moliya organlari, korxonalar, tashkilot va muassasalardan olish; 7) davlat soliq inspeksiyalariga va ularning mansabdor shaxslariga buxgalteriya hisobotlari, balanslar, hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va budjetga soliqlar hamda majburiy to‘lovlarni hisoblash, shuningdek, to‘lash bilan bog‘liq

boʻlgan boshqa hujjatlar taqdim etilmaganda yoki ularni taqdim etishdan boʻyin tovlangan hollarda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarning bank hamda boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisob-kitob va boshqa schyotlari boʻyicha operatsiyalarni toʻxtatib qoʻyish; 8) ortiqcha toʻlangan yoki undirilgan soliq va yigʻimlarni qaytarishni amalga oshirish; 9) yuqori soliq organlariga budjetga haqiqatda kelib tushgan soliq va boshqa toʻlovlarning summasi haqidagi maʼlumotni tuzish, tahlil qilish va taqdim etish; 10) xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan naqd pul muomalasi va nazorat-kassa mashinalarining qoʻllanilishiga nisbatan qonunchilik talablarining bajarilishini nazorat qilishdan iborat.

**Davlatning tashqi qarzi** — davlat tomonidan xorijdan mablagʻ jalb qilish natijasida paydo boʻlgan hukumat majburiyatlarining yigʻindisi.

**Davlat qarzi** — davlat tomonidan ichki mablagʻni va xorijdan mablagʻ jalb qilish natijasida paydo boʻlgan hukumat majburiyatlarining yigʻindisi.

**Daromadlar toʻgʻrisida deklaratsiya** — Dividendlar — taqsimlashga moʻljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxonalar sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga maʼlum davrdan soʻng (har yili, ayrim hollarda — har chorakda) toʻlanadigan daromad.

**Dotatsiya** — davlat budjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablagʻlari, zarar (ziyon)larni qoplash uchun korxonalar va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonalar bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.

**Daromad soligʻi boʻyicha jarimalar** — ushbu soliq toʻlanmaganda, notoʻliq toʻlanganda yoki toʻlash tartibi buzilganda (rioya qilinmaganda), pulni undirish, moddiy taʼsir koʻrsatishdan iborat. Oʻz vaqtida ushlab qolinmagan, notoʻliq ushlangan yoki tegishli budjetga oʻtkazilmagan soliq summalari jismoniy shaxslarga daromad toʻlaydigan

korxonalar, tashkilot va muassasalardan undirishga mo'ljallangan summaning 10% hajmidagi jarimani birgalikda qo'shib, soliq organlari tomonidan so'zsiz undirib olinadi. Korxonalar, tashkilot, muassasalar va tadbirkor sifatida qayddan o'tgan jismoniy shaxslardan soliq o'z vaqtida tegishli budjetga o'tkazilmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov muddatidan keyingi kundan boshlab to'langan kungacha (bu kun ham qo'shiladi) 0,5% miqdorida penya undiriladi. Penyaning undirilishi ularni javobgarlikning boshqa turlaridan ozod etmaydi.

**Daromaddan olinadigan soliq** — foyda solig'idan tashqari aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha (davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlardan tashqari) olingan dividendlar va foizlardan, kazinolar, videosalonlarning daromadlaridan, o'yin avtomatlarining daromadlaridan, ommaviy konsert-tomosha tadbirlarini o'tkazishdan olingan daromadlardan korxonalar va tashkilotlar tomonidan to'lanadi.

**Ikkiyoqlama soliqqa tortish** — 1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbayidan olinishi; 2. Qo'shma korxonalar xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o'tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydani xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to'lanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to'langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbayini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo'li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin. 1979-yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konvensiya ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolandi. Ular tomonidan o'rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko'ra qo'shma korxonalar xorijiy ishtirokchisi o'z foydasini xorijga o'tkazayotgan paytda qo'shimcha soliqdan ozod qilinadi.

**Investitsion soliq krediti** – soliq to‘lovchi tomonidan ma‘lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan yengillik, imtiyoz (soliq to‘lovini kechiktirilish). Bu kredit soliq to‘lovi va mahalliy ma‘muriyat o‘rtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtiriladi. Investitsion soliq kreditini taqdim etish (berish), rasmiylashtirish va qaytarish tartibi «Investitsion soliq kredit to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi.

**Imtiyoz** — ma‘lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to‘liq) ozod etish, ma‘lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo‘lish, masalan, soliq imtiyoziga.

**Eksport-import solig‘i** — soliqqa tortishning ko‘rinishlaridan biri; tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi (chorasi). Soliqqa tortish obyekti bo‘lib belgilangan kurs bo‘yicha milliy valutada hisoblangan tovarlarning boj qiymati yoki og‘irlik va miqdor birliklarida ifodalangan tovarlarning soni hisoblanadi.

**Import solig‘i** — bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste‘mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy budjetlarga borib tushadi.

**Yig‘imlar** — qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budjetlarga yoki budjetdan tashqari fondlarga o‘tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar kiradi.

**Kvotativ soliqlar** — daromad yoki mulk qiymatining puldagi ifodasiga nisbatan stavkasi foizlarda oʻrnatiladigan soliqlar.

**Moddiy xarajatlar** — xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yoqilgʻi, energiya va boshqa xarajatlardan iborat. Moddiy resurslarning qiymati ularni sotib olish bahosi (qoʻshilgan qiymat soligʻisiz), taʼminot va tashqi iqtisodiy tashkilotlarga toʻlanadigan ustamalar, komission mukofotlar, boj toʻlovlari, tovarlar birjasining xizmat qiymatlari, tashish, saqlash va yetkazib berish haqlarining yigʻindisidan tashkil topadi.

**Muomala xarajatlari** — tovarlar muomalasi jarayoniga xizmat qiluvchi xarajatlardan iborat. Bu xarajatlar ikki koʻrinishda boʻlishi mumkin; 1) oldi-sotdi jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlar (sof muomala xarajatlari); 2) ishlab chiqarish jarayonining muomala sohasida ham davom etishi bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlar (tovarlarni saqlash, ortib joʻnatish, qadoqlash va boshqalar). Muomala xarajatlari absolyut summalarda va tovar-oborotga nisbatan foizda ijtimoiy zaruriy xarajatlar chegarasida (doirasida) rejalashtiriladi.

**Mahalliy soliqlar va yigʻimlar** — mahalliy budjetga olinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy toʻlovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk soligʻi, yer soligʻi, reklama soligʻi, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yigʻim, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yigʻimlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslarni roʻyxatga olganlik uchun yigʻim, avtotransport toʻxtash joyidan foydalanganlik uchun yigʻim, obodonchilik ishlari uchun yigʻim va boshqalar.

**Mahalliy budjet** — Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablagʻlari fondini tashkil etuvchi bir qismi boʻlib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablagʻlar sarfi yoʻnalishlari va miqdori nazarda tutiladi.



**Ma'muriy javobgarlik** — ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.

**Ortiqcha to'lovlar** — to'lovning budjetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda, soliq to'lovchining boshqa to'lovlar bo'yicha mavjud bo'lgan boqimandalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to'g'rida unga ma'lum qilindi yoki moliya organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko'chirmasi asosida soliq to'lovchiga qaytariladi.

**Progressiv soliq** — soliqqa tortish bazasining oshishi bilan soliq stavkasining ko'tarilishi xarakterlidir. Progressiv soliqlarning orasida eng ko'p uchraydigani jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqdir.

**Proporsional soliq** — soliq shaklida olinishi mumkin bo'lgan summa soliqqa tortish bazasining o'lchamiga (miqdoriga, hajmiga) proporsionaldir. Bu soliq yagona stavkali soliqlar jumlasiga kiradi.

**Proporsional soliqqa tortish** — soliqning stavkasi soliq to'lovchi daromadining hajmiga bog'liq bo'lmagan holda uning daromadiga nisbatan foizda o'rnatiladi (QQS).

**Progressiv soliqqa tortish** — soliqqa tortiladigan summaning o'sishiga mos ravishda soliq stavkasi ham ortadigan soliqqa tortish tizimi. Ular quyidagi shakllarda mavjud bo'ladi: 1) oddiy progressiya — daromadning barcha summasi uchun soliqning stavkasi daromadning o'sishiga muvofiq o'sadi (ortadi); 2) murakkab progressiya — daromad qismlarga bo'linadi va ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi. Daromadning har bir keyingi qismi uchun soliqning stavkasi oldingisiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

**Penya** — fuqarolik huquqida jazo choralarining (jari-malarning) ko'rinishlaridan biri, qonun yoki shartnomaga muvofiq to'lovlar muddatini buzganlik uchun undiriladigan moliyaviy jazoning shakli. Uning miqdori qonunga ko'ra to'lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun to'lanishi lozim bo'lgan summaga nisbatan foizda belgilanadi. Kor-

xona tomonidan to'langan penya summasi noishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

**Poshlina** — qonun aktlarida belgilangan tartibda va shartlarda to'lovchi tomonidan tegishli darajadagi budjetga yoki budjetdan tashqaridagi fondga o'tkaziladigan majburiy badal.

**Preferensiya** — investitsion va innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozi ko'rinishida belgilangan (o'rnatilgan) imtiyoz, afzallik.

**Regressiv soliq** — soliqqa tortiladigan daromadning oshishi bilan soliq stavkasining pasayishi xarakterlidir. Bunday soliqlar toifasiga, xususan, egri (bilvosita) soliqlarni kiritish mumkin. Regressiv soliqlarning yuki (og'irligi) boylarga nisbatan kambag'al qatlamlar uchun og'irroq deb sanaladi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash uchun kambag'allar boylarga nisbatan o'z daromadlarining ko'proq qismini (hissasini) sarflaydilar. Proporsional soliq ham regressiv bo'lishi mumkin.

**Regressiv soliqqa tortish** — soliq asosi (bazasi)ning o'sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og'irligi daromadga teskari proporsionaldir: daromad qancha kam bo'lsa, soliq to'lovchi uchun soliqning og'irligi shuncha og'irdir. Hozirgi paytda qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.

**Real soliq** — soliq to'lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortadigan to'g'ri soliqlardan iboratdir.

**Rezidentlar** — kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo'lmagan muddatda yashagan, O'zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va bo'lmagan soliq to'lovchilar (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.

**Respublika budjeti** — davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan

qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Soliqlar** — qonunda belgilangan tartibda stavka bo‘yicha xo‘jalik bitiruvchi subyektlardan va fuqarolar (yuridik va jisoiy shaxslar)dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy budjetga olinadigan majburiy to‘lovlar. Soliq, yig‘im, poshina va boshqa to‘lovlar deyilganda qonuniy aktlar asosida belgilangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budjetlarga yoki budjetdan tashqaridagi fondlarga majburiy badallarning to‘lanishi tushuniladi. Belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig‘imlar, poshinalar va boshqa to‘lovlarning yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi.

**Soliq organlari** — soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o‘rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida budjetga o‘tkazilishi ustidan nazoratni ta‘minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvining markaziy organi (Davlat soliq qo‘mitasi), viloyat, tuman va shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir. Soliq organlari yuridik shaxs hisoblanib, o‘z nomiga, o‘zlarining mustaqil xarajatlar smetasiga, banklardagi joriy schyotiga va o‘z muhriga egadir.

**Soliq inspeksiyalari** — davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimi tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzilishi funksional belgiga ko‘ra aniqlanadi. Buning asosi sifatida turli belgilar: mulkchilik shakli, xo‘jalik faoliyatining turi, to‘lovlar hajmi, soliqlarning turlari va h.k.lar olinishi mumkin. Fuqarolarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiyasi nazorati ostida bo‘lgan hudud uchastkalariga bo‘linadi.

**Soliq stavkasi** — soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat‘iy soliq stavkalari

daromadlarga bog'liq bo'lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarida o'rnatiladi.

**Soliq tizimi** — mamlakat doirasida (hududida) to'lovlardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig'indisi.

**Soliq qonunchiligi** — davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o'zgarishi va to'xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me'yorlar yig'indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.

**Soliq badallari (to'lovlari)** — soliq qonunchiligi bo'yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan, hisoblangan yoki qat'ilashtirilgan summalaridir. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo'yicha qonunga binoan aniqlanadi.

**Soliq tushumlari** — Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budget daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi har bir soliq va boshqa majburiy to'lovlarga mo'ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolatli banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to'lovlari) va moliyaviy sanksiyalar.

**Soliq hisob-kitoblari** — yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko'zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq organlariga taqdim etilib, o'zida ma'lum hisobot davri mobaynida to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan to'lovlar summasini aks ettiradi. Soliq summalarini hisoblash tartibi soliq qonunchiligiga ko'ra har bir soliq turi bo'yicha alohida-alohida belgilangan.

**Soliq nazorati** — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash ustidan nazorat.

**Soliq to'lovchilar** – qonun hujjatlariga ko'ra soliq to'lash majburiyati yuklangan jismoniy va yuridik shaxslar hamda to'lovchilarning boshqa toifalari.

**Soliqqa tortish obyektlari** – qonunga muvofiq foyda (daromad), ma'lum bir tovarlar qiymati, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, mol-mulkni berish, (meros, taqdim etish), qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, faoliyatning ayrim turlari va boshqalardan iborat. Soliqqa tortishning bir obyekti bir turdagi soliq bilan belgilangan muddatda (oy, chorak, yarim yil, yil) bir marta soliqqa tortilishi mumkin.

### **1. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me‘yoriy hujjatlar.**

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2005-y.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. — T.: «Adolat», 2008-y.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni. //«Xalq so‘zi», 29-avgust 1997-y.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonuni, 2000-yil 14-dekabr. //«Soliqlar va bojxona xabarlari». 2001-y. № 2.

1.5. O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida»gi Qonuni, 20-modda.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Budjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 1996-yil 9-avgust. //«Xalq so‘zi» gazetasi.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-3620-sonli Farmoni (2005-yil 20-iyun).

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3619-sonli Farmoni (2005-yil 14-iyun).

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi PQ-100-sonli Qarori (2005-yil 15-iyun).

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasining 2004-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 567-sonli Qarori, 2003-yil 30-dekabr.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasining 2005-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 610-sonli Qarori (2004-yil 28-dekabr).

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2006-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-244-sonli Qarori (2005-yil 27-dekabr).

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1024-sonli Qarori (2008-yil 29-dekabr).

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-744-sonli Qarori (2007-yil 12-dekabr).

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabrdagi 390-sonli «Bozorni iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirishni rag‘batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori //«Toshkent oqshomi». — 2002-y. 15-noyabr.

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.**

2.1. *Karimov I.A.* O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: «O‘zbekiston», 1997. — 325-b.

2.2. *Karimov I.A.* O‘zbekiston buyuk kelajak sari. — Toshkent: «O‘zbekiston», 1998. — 682-b.

2.3. *Karimov I.A.* O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. — Toshkent: «O‘zbekiston». — 2000. — 352-b.

2.4. *Karimov I.A.* Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz //«Xalq so‘zi». — 2001. 17-fevral.

2.5. *Karimov I.A.* Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish — taraqqiyot garovi //«Xalq so‘zi». — 2001-y. 18-iyul.

2.6. *Karimov I.A.* Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. — T.: «O‘zbekiston», 2005-y.

2.7. «Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi //«Xalq so‘zi». — 2005. — 29-yanvar. № 20 (3565).

2.8. «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush

sharoiti yaratish — asosiy vazifamizdir». O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006-yilda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi». 2007-yil fevral.

2.9. «Inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash — barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir». O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi». 2008-yil 9-fevral.

### **3. Kitob va turkum nashrlar.**

3.1. *Abdurahmonov O.* Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O‘quv qo‘llanmasi. — T.: TDIU nashr., 2003.

3.2. *Абдуллаев Ё.А., Сирожиддинова З.Х., Усбаев Н.И.* Государственные финансы Республики Узбекистан. — Ташкент: «Меҳнат» — 2001. — 85 с.

3.3. *Абдуллаев Ж.Х., Комилов М.М.* Налог на добавочную стоимость: сборник нормативных документов. — Т.: 2000.

3.4. *Abdug‘affor Jo‘rayev.* Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Monografiya.— Toshkent: «Fan», 2004. — 243-b.

3.5. Бюджетный федерализм: проблемы, теория, опыт. — Москва: Консорциум по вопросам прикладных экономических исследований. 2001. — 403 с.

3.6. *Вахабов А., Джамалов Х.* Согласование межбюджетных отношений.— Ташкент: Молия. 2002.— 239 с.

3.7. *Vahobov A., Sirojiddinova Z.* O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti. — Toshkent: Moliya, 2001. — 174-b.

3.8. *Gataulin Sh.* Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996. 18-bet.

3.9. *Дмитриева Н.Г., Дмитриев Д.Б.* Налоги и налогообложение. / Феникс, 2004 г.

3.10. *Естигнеев Е.Н.* Налоги и налогообложение. / СПб.: ПИТЕР, 2004 г.

3.11. *Jo‘rayev A., Meyliyev O., Safarov F.* Soliq nazariyasi — T.: TMI, 2004. — 210 b.



- 3.12. *Zavalishina I.A.* Soliqlar: nazariya va amaliyot. / «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2005. — 544-b.
- 3.13. *Zaynalov J.R.* Soliqlar va soliqqa tortish. — S.: Samarqand kooperativ instituti, 2002. — 366-b.
- 3.14. *Князев В.Г., Черник Д.Г.* Налоговые системы зарубежных стран. — М.: «ЮНИТИ», 2003.
- 3.15. *Коваль Л.С.* Налоги и налогообложение. — М.: Финансы и статистика, 2001. — 254 с.
- 3.16. *Латипов А.* «Yerdan foydalanish va soliqqa tortish». / «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2005.
- 3.17. *Malikov T.* Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. — T.: 2000. — 76 b.
- 3.18. *Malikov T.S.* Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. — T.: «Akademiya», 2002. — 204-b.
- 3.19. *Малмигин И.* Налоги как элементы финансов. М.: Перевод с англ. 1997. — 69 с.
- 3.20. *Мельник Д.* Налоговый менеджмент. — М.: Финансы и статистика, 2002.
- 3.21. *Миляков Н.* Налоги и налогообложение: Практикум. — М.: Финансы и статистика, 2001. — 208 с.
- 3.22. Налоговые системы зарубежных стран. Уч. под редакцией В.Г. Князева, проф. Д.Б. Черника. — М.: «Закон и право», 1997. — 97 с.
- 3.23. Налоги и налогообложение. Уч. под редакцией проф. М.В. Романовского и проф. О.В. Врублевской. Санкт-Петербург: ПИТЕР, 2003. — 190 с.
- 3.24. Налоги в условиях экономической интеграции. / В.С. Бард и др. под ред. проф. В.С. Барда и Л.П. Павловой. — М.: КНОРУС, 2004. — 288 с.
- 3.25. Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г. Черника. М.: Юнита-Дана, 2004.— 345 с.
- 3.26. Налоги и налогообложение. /Тарасова В.Ф. и др. — М.: Финансы и статистика, 2005.
- 3.27. *Пансков В.Г., Князев В.Г.* Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. — М.: МСФЕР, 2003.— 336 с.
- 3.28. *Пепеляев С.Г.* Основы налогового права. М.: 1995, — 24 с.
- 3.29. *Рихсиева Х., Мухтаров М., Шмол З.* Налоги. — Т.: 2000. — 241 с.

- 3.30. *Toshmurodov T.* Soliqlar. /Izohli lug‘at. – T.: «Mehnat», 2003. – 184-b.
- 3.31. *Toshmurodova B.* Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. /Monografiya. – T.: «Yangi asr avlodi», 2002. – 127-b.
- 3.32. «Soliqlar va soliqqa tortish» ma’ruza matnlari to‘plami. /*A. Jo‘rayev va boshq.* – T.: «Iqtisod-Moliya», 2005. – 241-b.
- 3.33. Soliqlar va bojxona xabarlar. № 4 (496), 2004-y. 23-yanvar.
- 3.34. *Суламова С.Н.* Финансовые вложения в ценные бумаги. Бухгалтерский учет и налогообложение. – М.: 2000.
- 3.35. Temur tuzuklari. – T.: «Cho‘lpon», 1991. – 98-b.
- 3.36. *Толкушин А.В.* Налоги и налогообложение: Энциклопедический словарь. – М.: 2000.
- 3.37. Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной. – М.: ЮНИТИ, 2003. – 350 с.
- 3.38. *Xvan L.B.* Soliq huquqi. – T.: Konsauditinform, 2001. 432-b.
- 3.39. *Черник Д.Г.* Налоги в рыночной экономике. «Финансы», 1992, № 3, с. 19.
- 3.40. *Юткина Т.Ф.* Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2002. – 576 с.
- 3.41. *Yahyoeyev Q.A.* Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. – 247-b.
- 3.42. *Yahyoeyev Q.* Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: «G‘afur G‘ulom» 2000-y. 10-b.
- 3.43. *Yahyoeyev Q.* Soliq. T.: «Mehnat», 1997-y. – 20-b.
- 3.44. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlariga soliq solish va ularning buxgalteriya hisobi. / «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2003.
- 3.45. *O‘razov K.B.* Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. / «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2003.
- 3.46. *O‘razov K.B.* Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish. /«Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004.
- 3.47. *O‘lmasov A., Sharifxo‘jayev M.* Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Mehnat», 1995-y. – 377-b.
- 3.48. *Haydarov N.* Moliya. T.: Akademiya, 2001. 72-b.

3.49. Социально-экономические показатели Республики Узбекистан за 2003. — Т.: 2004 г. 190 с.

#### **4. Journallardagi maqolalarga va konferensiya ishlariga havolalar.**

4.1. *Abdusalilov M.* Soliq — muomala layoqati //«Soliq to'lovchining jurnali». — 2000. — № 12. — В. 25–27.

4.2. *Abdullayev R.* Soliq — mendan, yordam — davlatdan. //«Soliq to'lovchining jurnali». — 2000. — В. 3.

4.3. *Abdurahmonov O.* Jismoniy shaxslar mulkini soliqqa tortishni takomillashtirish //«Bozor, pul va kredit». — 2002. — № 7.

4.4. *Abdurahmonov O.* Soliq siyosati: Dunyo tajribasi va O'zbekiston istiqboli //Bozor, pul va kredit. — 2002. — №5.

4.5. *Ahmadjonov M.* Soliq madaniyatini oshiraylik //«Soliq to'lovchining jurnali». — 2001. — № 2.

4.6. *Бурков С.* Неналоговые доходы от госсобственности и бюджетный потенциал страны //Российский экономический журнал. — 2002. — № 9. — С. 27–28.

4.7. *Бутанов Д.Д.* Реформирование бюджетных систем: опыт восточной Европы // «Финансы». — 2000.— № 9.— С. 55.

4.8. *Вахабов А., Джураев А.* Актуальные проблемы повышения эффективности взаимоотношений Республики Узбекистан с международными финансовыми институтами. //Актуальные проблемы современной науки. — Москва, 2004. — № 2 (17). — С. 106–108.

4.9. *Гасанлы М.Х.* Налоги как источник экономической динамики общественных систем: Макаров Д.Г. Уголовный кодекс в борьбе с теневой экономикой. Проблемы и перспективы //«Налоговый вестник». — 2000. — № 1. — С. 120–121.

4.10. *Джураев А.* Актуальные вопросы налогообложения доходов физических лиц //«Актуальные проблемы современной науки». — Москва, 2004. — № 2 (17). — С. 109–111.

4.11. *Jo'rayev A., Amonov A.* Qishloq xo'jaligini soliqqa tortishda xorijiy davlatlar tajribasi //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqqa tortish va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 11–12 fevral, 2004-y. — Toshkent, 2004. 44–46-b.

- 4.12. *Jo'rayev A.* Davlat budjeti daromadlarini tasniflash mezonlari //Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya: 25-may 2004. — Toshkent, 2004. 246—247-b.
- 4.13. *Jo'rayev A.* Davlat budjetining soliqsiz daromadlari //«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi». — 2004. — № 5—6. — 61-b.
- 4.14. *Jo'rayev A.* Davlat budjeti taqchilligini qoplash va uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati //«Bozor, pul va kredit». — 2004. — № 4(83). — 28—29-b.
- 4.15. *Jo'rayev A.* Daromad, budjet va soliqlar //«Soliq to'lovchining jurnali». — 2004. — № 4 — 21—23-b.
- 4.16. *Jo'rayev A.* Kichik va o'rta biznes korxonalarida investitsiya jarayoni //«Bozor, pul va kredit». — 2002. — №6. — 49—50-b.
- 4.17. *Jo'rayev A.* Korxonalar investitsion faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish //«Jamiyat va boshqaruv». — 2004. — № 4. — 31—33-b.
- 4.18. *Jo'rayev A.* Soliq-budjet siyosati yaxlitligi va uning davlat budjeti daromadlari ijrosidagi ahamiyati //«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi». — 2005. — №1—2. — 34—35-b.
- 4.19. *Jo'rayev A.* Soliqqa oid jinoyatlarga soliq tizimi orqali ta'sir etish //«Jamiyat va boshqaruv». — 2004. — №3. — 28—29-b.
- 4.20. *Jo'rayev A.* Soliqqa oid qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish //«Bozor, pul va kredit». — 2004. — № 9(88). — 45—48-b.
- 4.21. *Jo'rayev A.* To'g'ri (bevosita) soliqlar: ularni davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni //«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi». — 2004. — № 9—10. — 58—59-b.
- 4.22. *Jo'rayev A., Mamatov B.* Iqtisodiy samaradorlik omillari //«O'zbekiston qishloq xo'jaligi». — 2003. — №7. — 6-b.
- 4.23. *Jo'rayev A., Mamatov B.* Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda bozor infratuzilmasi //«Bozor, pul va kredit». — 2003. — № 2. — 43—47-b.
- 4.24. *Jo'rayev A.* Soliqlarning budjet tizimi bo'g'inlararo taqsimlanishi //«Bozor, pul va kredit». — 2004. — № 11. — 18—21-b.
- 4.25. *Jo'rayev A.* Umumiylik va o'ziga xoslik //«Soliq to'lovchining jurnali». — 2004. — № 9. — 26—28-b.

4.26. *Jo'rayev A., Qo'ziyeva N.* O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirishda imtiyozlarning tutgan o'rni //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqqa tortish va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 11–12-fevral 2004. – Toshkent, 2004. 39–41-b.

4.27. *Джураев А.С.* Актуальные вопросы налогообложения валютных операций коммерческих банков //«Актуальные проблемы современной науки». – Москва, 2003. – № 4 (13). – С. 67–68.

4.28. *Jo'rayev A.S.* Bank kreditlari: Davlat budjeti daromadlari manbai sifatida //O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 30-aprel, 2004. – Toshkent, 2004. 73-b.

4.29. *Джураев А.С., Бобокулов Т.И.* Проблемы повышения эффективности монитарной политики Центрального банка Узбекистана // «Современные аспекты экономики». – Санкт-Петербург, 2003. – № 8 (36). – С. 70–73.

4.30. *Джураев А.С.* Внутренний налоговый контроль хозяйственных субъектов //Семнадцатые международные Плехановские чтения: Тез. докл. – Москва, 2004. С. 315 –316.

4.31. *Джураев А.С.* Воздействие налоговой системы на развитие теневой экономики //«Современные аспекты экономики». – Санкт-Петербург, 2004. – № 1 (52). – С. 186–189.

4.32. *Juraev Abdugaffor S., Jumaev Nodir H.* The basic aspects of development of currency operations of commercial banks of the republic of Uzbekistan //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqqa tortish va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 11–12 fevral 2004.– Toshkent, 2004. 386–389-b.

4.33. *Джураев А.С.* Налоговый контроль: вопросы теории. //«Вопросы гуманитарных наук». – Москва. – 2004. – № 1(10). – С. 120–121.

4.34. *Джураев А.С.* Перспективы совершенствования методологических основ налоговой политики в Республике Узбекистан //«Вопросы экономических наук». – Москва, 2004. – № 1(5). – С. 180–181.

4.35. *Джурраев А.С.* Роль правительственных ценных бумаг в финансировании расходов государственного бюджета Узбекистана //«Актуальные проблемы современной науки». — Москва, 2003. — № 4(13). — С. 69—70.

4.36. *Jo'rayev A.S.* Soliqlar bo'yicha to'lovsizlik muammosi va uni hal qilish yo'llari //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqqa tortish va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 11—12-fevral 2004. — Toshkent, 2004. 33—34-b.

4.37. *Джурраев А.С., Хужамкулов Д.Ю.* Иностранные инвестиции и развитие экономики Республики Узбекистан //Шестнадцатые Международные Плехановские чтения: Тез. докл. — Москва, 2003. С. 107.

4.38. *Malikov T.S.* Mustaqillik yillarida soliq siyosati //«Jamiyat va boshqaruv». — 2001. — №2. — 21—24-b.

4.39. *Malikov T.S., Haydarov N.H.* «Yetti o'lchab...». //«Bozor, pul va kredit». — 2001. — № 3—4 — 74—75-b.

4.40. *Malikov T.S.* Soliq va imtiyozlar dialektikasi. (1-maqola) //«Iqtisod va hisobot». — 1997.

4.41. *Malikov T.S.* Soliq va imtiyozlar dialektikasi. (2-maqola) //«Iqtisod va hisobot». — 1997. — № 12.

4.42. *Olimjonov. O.* Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. «Hayot va iqtisod», 1992.

4.43. *Пансков В.Г.* Организационные вопросы налоговой реформы. //«Финансы». — 2000. — № 1. — С. 33.

## **5. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati.**

5.1. *Олимжонов О.О.* Развитие финансов агропромышленного комплекса в современных условиях: Дисс. ... д-ра. экон. наук. — СПб. 1992. — 52 с.

5.2. *Пансков В.Г.* Налоговое бремя в Российской налоговой системе: Дисс. ... канд. экон. наук. — Москва, 1999. — 157 с.

5.3. *Синельников-Мурылев С.Г.* Налоговые проблемы в переходной экономике (опыт сравнительно-теоретического анализа): Автореф. дисс. ... канд. экон. наук. — Москва, 1996. — 47 с.

5.4. *Haydarov N.H.* Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari (xorijiy investitsiyali korxonalar misolida): Iqtisod fanlari doktori diss. — Toshkent, — 2003. — 268-b.

5.5. *Jo'rayev A.S.* Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. Iqtisod fanlari doktori diss. — Toshkent, — 2005. — 320-b.

5.6. *To'rayev Sh.Sh.* Xo'jalik subyektlarining soliq yukini optimallashtirish masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi diss. avtoreferati. — Toshkent, — 2007. — 24-b.

## **6. Xorijiy tilda yozilgan adabiyotlar va internet saytlari.**

6.1. Asion. Development Bank. Monila, 2004. — 214 p.

6.2. Government G'incial Statistics. IMF, 2001. Washington D.C.

6.3. *Namozov O.* Influence of Money Supply on the Innflation Process in Uzbekistan //Econometric Anlysis Uzbek Economic Trends Jural, Jan—March 2000, — r. 38—47.

6.4. *Mariette D.* Bercy report a zero sur le dossier du Gredit Jonciur. //Tribune. — P., 1998. — Sept., p. 9.

6.5. *Szepo G.* G'incial regulation and multitier G'incial intermediation system in Eastern Europe. Introduction journal of Banking and finance, 2000. — 410 r.

6.6. *Steinbery A.* An innovatori package for financial sector reforms // Jural of Banking and finance. 2001.

6.7. *Tanzi V.* Taxation in an Integrations World. — Washington.: The Brooklngs Institut, 1995. — S. 134; G'armer P., Lyal R. EC Tax Law. — Oxford.: Clarendon Press, 1994. — r. 297.

6.8. Tax Policy. Handbook, Edited by Parhasarathi Shome, IMG', 1995. Washington D.C.

6.9. <http://www.cer.uz>.

6.10. <http://www.review.uz>.

6.11. <http://www.federalreserve.gov>.

6.12. <http://www.imf.org>.

6.13. <http://www.nalog.uz>.

6.14. <http://www.mf.uz>.

6.15. <http://www.tfi.uz>.

6.16. <http://www.gov.uz>.

6.17. <http://www.expert.ru>.

# I L O V A L A R

*1-ilova*

## Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ı hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ı to'langunga qadar foyda (zarar) («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»— 2-sonli shaklning 240-satri)	010	
Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekin-ga olingan mol-mulk(*)	020	
Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar) (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ı hisob-kitobiga 1-son ilovasining 010-satri)	030	
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq kelgusi hisobot (soliq) davrlarning soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ı hisob-kitobiga 2-son ilovasining 010-satri)	040	
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ı hisob-kitobiga 3-son ilovasining 010-satri)	050	
Hisobot (soliq) davrining soliq solinadigan bazasiga kiritiladigan xarajatlar (030-satr + 040-satr - 050-satr)	060	
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar	070	
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) foizlar	080	
Soliq solinadigan foyda (010-satr + 020-satr + 060-satr - 070-satr - 080-satr)	090	
Imtiyozlar — jami (1001-satr + 1002-satr)	100	
shu jumladan:		
soliq solishdan ozod qilinadigan foyda (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ı hisob-kitobiga 4-son ilova 060-satrining 3-ustuni)	1001	
soliq solinadigan foydani kamaytirish (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ı hisob-kitobiga 5-son ilovasining 010-satri)	1002	
Soliq solinadigan baza — jami (090-satr - 100-satr)	110	



Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
shu jumladan hisoblangan:		
plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 9-son ilovasining 030-satri x 110-satr)	1101	
1101-satrda keltirilgan summa chegirilgan holda foydadan (110-satr – 1101-satr)	1102	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi	120	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining tuzatilgan stavkasi	130	
eksport qiluvchi korxonalar uchun, eksport ulushiga qarab, % da (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 10-son ilovasining 060-satri)	1301	
xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan, % da [1301-satr – (1301-satr x 10%)]	1302	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi – jami (150-satr + 160-satr)	140	
shu jumladan hisoblangan		
1101 satrda ko'rsatilgan foydadan (1101-satr x 1302-satr)	150	
1102 satrda ko'rsatilgan foydadan (1102-satr x 1301-satr)	160	
Nogironlar mehnatidan foydalanayotgan korxonalar uchun foyda solig'ining tuzatish kiritilgan summasi (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 11-son ilovasining 070-satri)	170	
Budjetga to'lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (140-satr – 170-satr)	180	
Oldingi hisobot davri uchun hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi	190	

Izoh: Kredit tashkilotlari 010-satrni foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotga muvofiq aniqlaydilar.

(\*) Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekinga olgan pul mablag'lari «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» — 2-sonli shaklning 240-satrida hisobga olinadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda  
solig'i hisob-kitobiga 1-son ilova

**Chegirilmaydigan xarajatlar**  
**(soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar)**

<b>Xarajatlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
Chegirilmaydigan xarajatlar – jami (020–280-satrlar yig'indisi)	010	
shu jumladan:		
moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayish normala- ridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar	020	
xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umu- miy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar)	030	
xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar bo'yicha belgilangan nor- malardan ortiqcha xarajatlar	040	
nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar	050	
xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun aj- ratmalar	060	
umumiy ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmat- lar ko'rsatish qiymatini to'lash	070	
yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari	080	
soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari	090	
xodimlarga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmat- lar, beriladigan oziq-ovqatlar, tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatliklar yoki soliq to'lovchining xodimlari uchun ishlar hamda xizmatlarni bajarish qiymati, ularga bepul beriladigan uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summalari)	100	
xodimlarga qo'shimcha berilgan ta'tillarga to'langan haq va ular yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalardan ortiqcha kompensatsiyalar, bundan noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og'ir va noqulay tabiiy iqlim sharoitlari- da ishlaganlik uchun ayrim tarmoqlarning xodimla-	110	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda  
solig'i hisob-kitobiga 1-son ilova

Xarajatlar ro'yxati	Satr kodi	Summa
riga qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan qo'shimcha ta'tillar uchun to'langan haq mustasno		
xodimlarning ovqatlanishi, yo'l haqi, davolanishi uchun, davolanish va dam olishi uchun yo'llanmalar, ekskursiyalar va sayohatlar uchun, sport seksiyalari, to'garaklari, klublaridagi mashg'ulotlarga, madaniy-tomosha, jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga boriishi uchun, obunaga hamda xodimlarning shaxsiy foydalanishi uchun tovarlarga qilingan xarajatlarning o'rnini qoplash yoki to'lash va boshqa shunga o'xshash to'lovlar	120	
pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryola to'lanadigan nafaqalar	130	
xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam (xodimning mehnatda jarohatlanishi yoki uning sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila a'zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga beriladigan moddiy yordam bundan mustasno)	140	
ishlab chiqarishda shikastlanganlik tufayli mehnat layoqatini yo'qotganlik munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlarisiz haqiqatdagi ish haqiqacha to'lanadigan to'lovlar	150	
ekologiya, sog'lomlashtirish hamda boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar kiritish	160	
ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar	170	
mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar	180	
atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlari	190	

## Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 1-son ilova

Xarajatlar ro'yxati	Satr kodi	Summa
kredit shartnomasida muddatli qarzlarni uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar	200	
loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarini qismlarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga o'rnini qoplash mumkin bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar	210	
bayram sanalari va muhim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish hisoblanadigan bir yo'la mukofotlar	220	
sud chiqimlari	230	
aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarning o'rnini qoplash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar	240	
solig to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulking (aktivlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar, quyidagi zararlar bundan mustasno: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko'rilgan zararlar, telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar; uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar	250	
xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jaramalar, penya hamda boshqa turdagi sanksiyalar	260	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda  
solig'i hisob-kitobiga 1-son ilova

Xarajatlar ro'yxati	Satr kodi	Summa
davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha boshqaruvchi kompaniyalar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lash, shuningdek, kompaniyalarning boshqa professional boshqaruvchilariga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar	270	
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan chegirilmaydigan xarajatlarga tegishli boshqa xarajatlar — jami (2801—28... satrlar yig'indisi)	280	
shu jumladan:		
	2801	
	2802	
	2803	
	2804	
	28...	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda  
solig'i hisob-kitobiga 2-son ilova**Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq keyingi hisobot davrlarining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar (9440-hisobvaraqda hisobga olingan xarajatlar)**

Xarajatlar ro'yxati	Satr kodi	Summa
Ushbu davrida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanmaydigan, biroq kelgusi hisobot davrlarining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar — jami (020—060-satrlar yig'indisi)	010	
shu jumladan:		
yangi ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlarni, shuningdek, seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari	020	
barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab ko'rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari	030	

<b>Xarajatlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar	040	
asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasiga muvofiq belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq	050	
shubhali qarzarlar bo'yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlar	060	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 3-son ilova

**Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar  
(012-balansdan tashqari hisobvaraqa ma'lumotlari bo'yicha)**

<b>Xarajatlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar — jami (020 — 060-satrlar yig'indisi)	010	
shu jumladan:		
yangi ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlarni, shuningdek, seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari	020	
barcha turdagi asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab ko'rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari	030	
ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar	040	
asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasiga muvofiq belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq	050	
shubhali qarzarlar bo'yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlar	060	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 4-son ilova

**Soliq solishdan ozod qilinadigan foyda**

<b>Imtiyozlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>	<b>Salmog'i, %</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushum («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» — 2-sonli shaklning 010-satri)	010		100
shu jumladan, tushumlar:			
protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan	020		
shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan	030		
tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan	040		
Soliq solinadigan foyda (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 090-satri)	050		X
Soliq solishdan ozod etilgan foyda — jami (070 — 110-satrlar yig'indisi)	060		X
shu jumladan:			
protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek, nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan (050-satr x 020-satrning 4-ustuni)	070		X
shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan (050-satr x 030-satrning 4-ustuni)	080		X

<b>Imtiyozlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>	<b>Salmog'i, %</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan (050-satr x 040-satrning 4-ustuni)	0090		X
investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi	100		X
Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi	110		X

*Izoh:* 4-ustunning 020, 030 va 040-satrlarida ko'rsatilgan tushumning salmog'i 3-ustunning 020, 030 va 040-satrlarining 3-ustunning 010-satriga nisbati sifatida aniqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 5-son ilova

### **Soliq solinadigan foydani kamaytirish**

<b>Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan xarajatlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
Soliq solinadigan foydani kamaytirish – jami (020-satr + 030-satr + 040-satr + 050-satr)	010	
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadigan foydani kamaytirish – jami (0201–0205-satrlar yig'indisi)	020	
shu jumladan:		
ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning 1% dan ko'p bo'lmagan miqdorda (haqiqatdagi xarajatlar bo'yicha, biroq Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 090-satrida keltirilgan summaning 1% dan ko'p bo'lmagan miqdorda)	0201	



Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 5-son ilova

<b>Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan xarajatlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30% dan ko'p bo'lmagan miqdorda (haqiqatdagi xarajatlar bo'yicha, biroq Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 090-satrida keltirilgan summaning 30% dan ko'p bo'lmagan miqdorda)	0202	
asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30% dan ko'p bo'lmagan miqdorda (haqiqatdagi xarajatlar bo'yicha, biroq Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 090-satrida keltirilgan summaning 30% dan ko'p bo'lmagan miqdorda)	0203	
yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10% dan oshmagan miqdorda (haqiqatdagi xarajatlar bo'yicha, biroq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 090-satrida keltirilgan summaning 10% dan ko'p bo'lmagan miqdorda)	0204	
diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari) xayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga	0205	
normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliq solinadigan foydani kamaytirish – jami (0301 — 03...-satrlar yig'indisi)	030	
shu jumladan:		
mahalliy lashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan foyda	0301	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 5-son ilova

<b>Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan xarajatlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 22-iyundagi PQ-386-son qarorining 2-bandi) (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 6-son ilovasining 090-satri)		
	0302	
	0303	
	0304	
	03...	
Soliq solinadigan foydaning investitsiyalarga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga kamaytirilishi (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi 7-ilovasining 060-satri)	040	
Soliq solinadigan foydaning zarar yoki zararning bir qismi summasiga kamaytirilishi (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 8-son ilovasining 080-satri)	050	

*Izoh:*

0302-satr va keyingi satrlar soliq to'lovchilar tomonidan normativ-huquqiy hujjatning tegishli bandlari, sanasi, raqami va nomini ko'rsatgan holda to'ldiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 6-son ilova

**Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan  
olingan foyda hisob-kitobi**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushum («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»— 2-sonli shaklning 010-satri)	010	
shu jumladan, mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum	020	
Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushumning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushumdagi salmog'i, % da (020-satr / 010-satr x 100)	030	
Realizatsiya qilingan mahalliyashtirilayotgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	040	
Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan yalpi moliyaviy natija (020-satr – 040-satr)	050	
Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari [(«Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»— 2-sonli shaklning 050-satri x 030-satr (mahalliyashtirilayotgan mahsulotning salmog'i)]	060	
Ma'muriy xarajatlar [(«Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»— 2-sonli shaklning 060-satri x 030-satr (mahalliyashtirilayotgan mahsulotning salmog'i)]	070	
Boshqa operatsion xarajatlar [(«Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»— 2-sonli shaklning 070-satri x 030-satr (mahalliyashtirilayotgan mahsulotning salmog'i)]	080	
Mahalliyashtirilayotgan mahsulot realizatsiya qilishdan olingan foyda (050-satr – 060-satr – 070-satr – 080-satr)	090	

**Izoh:**

Mahalliyashtirilayotgan mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritilayotgan taqdirda 060-satrdan alohida-alohida hisob yuritish bo'yicha xarajat summasi ko'rsatiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 7-son ilova

**Hisobot (soliq) davri uchun soliq solinadigan foydani kamaytiradigan, investitsiyaga (modernizatsiyalash, o'z ishlab chiqarishini texnik va texnologik qayta jihozlashga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga va lizing obyekti qiymatini qoplashga) yo'naltiriladigan mablag'lar summasi hisob-kitobi**

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Hisobot (soliq) davri			
		1 chorak	yarim yillik	9 oylik	yil
O'tgan soliq davrlarida investitsiya uchun mablag'larning qoplanmagan qoldig'i – jami (0101-satr + 0102-satr + 0103-satr)	010				
shu jumladan:					
_____ yil uchun	0101				
_____ yil uchun	0102				
_____ yil uchun	0103				
Tegishli hisobot (soliq) davrida hisoblangan amortizatsiya summasi	020				
Mablag'larning investitsiyalarga sarflanishi — jami (0301-satr + 0302-satr)	030				
shu jumladan:					
modernizatsiyalashga	0301				
ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlashga — jami (03021-satr + 03022-satr + 03023-satr)	0302				
ulardan:					
xarid qilingan yangi texnologik jihoz (ishlab chiqarishga joriy soliq davrida joriy etilgan)	03021				
investitsiya uchun olingan kreditni uzish	03022				
lizing obyekti qiymatini qoplash	03023				
Investitsiyalarning hisoblangan amortizatsiya summasidan ortishi (010-satr + 030-satr – 020-satr)	040				

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 7-son ilova

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Hisobot (soliq) davri			
		1 chorak	yarim yillik	9 oylik	yil
Hisoblangan soliq solinadigan foyda [Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining (090-satr – 1001-satr)] – [Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 5-son ilovaning (020-satr + 030-satr)]	050				
Soliq solinadigan bazaning investitsiyalar summasiga kamaytirilishi (040-satr, biroq 050-satrdan yuqori emas)	060				
Hisobot soliq davrida investitsiyalar uchun mablag'larning qoplanmagan qoldig'i (040-satr – 060-satr)	070	X	X	X	

*Izoh:* 010-satrdan o'tgan soliq davrida mablag'larning qoplanmagan qoldig'i ko'rsatiladi. Mazkur qoldiq soliq davri davomida o'zgartirishsiz ko'rsatiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 8-son ilova

**Hisobot (soliq) davridagi soliq solinadigan foydani kamaytiradigan o'tgan yil (o'tgan yillar) zarari yoki zararining bir qismi summasining hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Soliq solinadigan davrning boshiga o'tkazilmagan zarar qoldig'i – jami (020–060 satrlar yig'indisi)	010	
shu jumladan:		
2005-yil 1-yanvardan so'ng olingan zarar (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 090-satri):		
_____ yil uchun	020	

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
_____ yil uchun	030	
_____ yil uchun	040	
_____ yil uchun	050	
_____ yil uchun	060	
Hisoblangan soliq solinadigan foyda (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 7-son ilovaning 050-satri – 060-satri)	070	
Soliq davrida soliq solinadigan foydani kamaytiradigan zarar yoki zararning bir qismi summasi (010-satr, biroq 070-satr x 50% dan oshmagan holda)	080	
Soliq davrining oxiriga o'tkazilmagan zararning qoldig'i jami (010-satr – 080-satr)	090	
shu jumladan:		
_____ yil uchun	100	
_____ yil uchun	110	
_____ yil uchun	120	
_____ yil uchun	130	
_____ yil uchun	140	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga 9-son ilova

**Plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlardan olingan foydaning hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushum («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» — 2-sonli shaklning 010-satri)	010	
shu jumladan, plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	020	
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushumda plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar tushumining salmog'i, % da (020-satr / 010-satr x 100)	030	

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisobotiga 10-son ilova

**Eksport ulushiga qarab foyda solig'ini stavkasiga tuzatish kiritish**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushum («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» — 2-sonli shaklning 010-satri)	010	
shu jumladan:		
o'zi ishlab chiqargan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) EAVga eksportidan, shu jumladan:	020	
o'zi ishlab chiqargan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) EAVga eksportidan (mazkur ilova izohida ko'rsatilgan xomashyo tovarlar hisobga olinmaydi)	030	
o'zi ishlab chiqargan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) EAVga eksportidan tushumining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushumdagi ulushi, % da (030-satr / 010-satr x 100)	040	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi	050	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining tuzatish kiritilgan stavkasi	060	

*Izoh:*

Realizatsiyaning umumiy hajmi deganda faoliyatning barcha turlaridan olingan sof tushum summasi tushuniladi. Bunda eksport ulushi o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Eksport ulushini hisoblashda o'zi ishlab chiqargan xomashyo tovarlari — paxta tolasi, ip kalava, paxta linti, xom neft, gaz kondensati, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, elektr energiyasi, qimmatbaho, rangli va qora metallar, rangli va qora metallar prokati, siniqlari va chiqindilarini realizatsiya qilishga doir eksport hajmi hisobga olinmaydi.

Yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig'ini stavkasiga eksport ulushiga bog'liq holda tuzatish kiritish savdo-vositachilik korxonalarini tomonidan amalga oshirmaydi.

Agar soliq to'lovchi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasiga eksport ulushiga bog'liq holda tuzatish kiritmasa, 060-satrdan 050-satrdan belgilangan stavka ko'rsatiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisobotiga 11-son ilova

**Nogironlar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun foyda solig'ining tuzatish kiritilgan summasi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Xodimlarning umumiy soni	010	
shu jumladan, nogironlar	020	
Xodimlarning umumiy sonida nogironlarning ulushi, % da	030	
Ishga joylashtirilgan nogironlarning belgilangan me'yor, % da	040	3%
Belgilangan me'yordan ortishi, % da (030-satr – 040-satr)	050	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobining 140-satri)	060	
Nogironlar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun foyda solig'iga tuzatish kiritilgan summasi (060-satr x 050-satr)	070	

**Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlardan to'lov manbaida ushlab qolinadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa (so'm)
<b>I. Dividend ko'rinishidagi daromadlar</b>		
Hisobot (soliq) davrida aksiyadorlarga (ishtirokchilarga) hisoblangan dividendlar — jami	010	
Hisobot (soliq) davrida aksiyadorlarga (ishtirokchilarga) to'langan dividendlar jami – soliq solinadigan baza (0201-satr + 0202-satr)	020	
shu jumladan:		
O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'langan dividendlar	0201	
O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga to'langan dividendlar	0202	
Soliq solinadigan bazani kamaytirish — jami (0301-satr + 0302-satr + 0303-satr)	030	



Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa (so'm)
shu jumladan:		
ular olingan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan	0301	
investitsiya fondlariga ularning investitsiya portfelida turgan xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalari uchun to'langan	0302	
boshqa imtiyozlar — jami (03031—030... — satrlar yig'indisi)	0303	
shu jumladan:		
	03031	
	03032	
	030...	
Kamaytirishlarni hisobga olgan holda soliq solinadigan baza (020-satr — 030-satr)	040	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi, % da	050	10%
Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan soliq summasi (040-satr x 050-satr)	060	
<b>II. Foizlar ko'rinishidagi daromadlar</b>		
Hisobot (soliq) davrida hisoblangan foizlar —jami	070	
Hisobot (soliq) davrida to'langan foizlar jami — soliq solinadigan baza (0801-satr + 0802-satr)	080	
shu jumladan:		
O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'langan foizlar	0801	
O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga to'langan foizlar	0802	
Soliq solinadigan bazani kamaytirish — jami (0901-satr + 0902-satr + 0903-satr)	090	
davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha	0901	
O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pen-siya jamg'armasining vaqtinchalik bo'sh mablag'larini moliya bozorlarida joylashtirish	0902	
boshqa imtiyozlar — jami (09031-090... satrlar yig'indisi)	0903	

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa (so'm)
Shu jumladan:		
	09031	
	09032	
	090...	
Kamaytirishlarni hisobga olgan holda soliq solinadigan baza (080-satr – 090-satr)	100	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi, % da	110	10%
Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (100-satr x 110-satr)	120	

**Jami daromad summasi va to'lov manбайдan ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining umumiy summasi to'g'risida ma'lumotnoma**

T/r	Yuridik shaxsning (daromad oluvchining) nomi	STIR*	Hisoblangan sana	To'lov sanasi	Daromad turi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi	To'langan daromad summasi	Ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi	Imtiyozlar summasi (mavjud bo'lgan taqdirda)	Imtiyozlarni qo'llash uchun asos
1										
2										
3										
4										
5										
6										
7										
8										
9										
10										
11										
12										
...										
	Jami yuridik shaxslar bo'yicha	X	X	X						

\* STIR O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'yicha ko'rsatiladi.

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha  
joriy to'lovlarni hisoblash uchun**

**MA'LUMOTNOMA**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
Hisobot davrida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lagunga qadar taxmin qilinayotgan foyda summasi	010	
Taxmin qilinayotgan foydaning tuzatish koeffitsienti (110-satrning oldingi chorakda foyda solig'i hisob-kitobining 010-satriga nisbati x100), % da	020	
Hisobot davridagi taxmin qilinayotgan soliq solish bazasi (010-satr x 020-satr)	030	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i uchun belgilangan stavka, %	040	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (030-satr x 040-satr)	050	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar summasi (050-satr / 3)	060	

*Izoh:* Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitoblari o'sib boruvchi yakun bilan tuzilishini hisobga olib, tuzatish koeffitsientini hisoblab chiqarish uchun ma'lumotlar hisob-kitob bo'yicha 1-chorak, 2-chorak (1-yarim yillik ayiruv 1-chorak) va hokazo uchun aniqlanadi.

## Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisi to'g'risida ma'lumotda ko'rsatilgan faoliyat turlari bo'yicha (01-varaq)					
			asosiy faoliyat turi-1	2	3	4	5	6
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum	010							
Faoliyat turlari bo'yicha tushumning tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan jami tushumdagi salmog'i, %da	020	100						
Boshqa daromadlar (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi 1-ilovasi-ning 010-satri)	030			X	X	X	X	X
Soliqqa tortiladigan yalpi tushum (010-satr + 030-satr)	040							
Imtiyozlar — jami (0501-sao + 0502-satr)	050							
shu jumladan:								
soliq solish obykti sifatida qaralmaydigan daromadlar (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi 2-ilovasi-ning 010-satri)	0501			X	X	X	X	X
soliq solinadigan yalpi tushumni kamaytirish (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi 3-ilovasi-ning 010-satri)	0502							
Soliqqa solinadigan baza — jami (040-satr — 050-satr)	060							

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisi to'g'risida ma'lumotda ko'rsatilgan faoliyat turlari bo'yicha (01-varaq)					
			asosiy faoliyat turi-1	2	3	4	5	6
shu jumladan, hisoblangan:								
plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan tushumdan (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi 5-ilovasi-ning 030-satri x 060-satr)	0601							
0601-satr bo'yicha olingan tushum chegirilgan holdagi tushumdan (060-satr – 0601-satr)	0602							
Yagona soliq to'lovining belgilangan stavkasi	070	X						
Yagona soliq to'lovining tuzatilgan stavkasi:	080	X						
eksport qiluvchi korxonalar uchun eksport ulushiga nisbatan,%da (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi 6-ilovasi-ning 060-satri)	0801	X						
xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalar qo'llanib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan tushumga nisbatan, %da [0801-satr – (0801-satr x 10%)]	0802	X						
Yagona soliq to'lovi summasi – jami (0901-satr + 0902-satr)	090							

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisi to'g'risida ma'lumotda ko'rsatilgan faoliyat turlari bo'yicha (01-varaq)					
			asosiy faoliyat turi-1	2	3	4	5	6
shu jumladan, hisoblangan:								
0601-satrdagi ko'rsatilgan tushumdan (0601-satr x 0802-satr)	0901							
0602-satrdagi ko'rsatilgan tushumdan (0602-satr x 0801-satr)	0902							
Budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi (Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobining 030-satri)	100		X	X	X	X	X	X
Yagona soliq to'lovi summasini kamaytiradigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi (100-satr, biroq 090-satr x 50 foizdan ko'p emas)	110		X	X	X	X	X	X
Hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi (090-satr – 110-satr)	120		X	X	X	X	X	X
O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga chegirilgan holdagi yagona soliq to'lovi summasi [120-satr – (120-satr x 5%)]	130		X	X	X	X	X	X
Avvalgi davr uchun hisob-kitob bo'yicha yagona soliq to'lovining hisoblangan summasi (130-satr)	140		X	X	X	X	X	X

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisi to'g'risida ma'lumotda ko'rsatilgan faoliyat turlari bo'yicha (01-varaq)					
			asosiy faoliyat turi-1	2	3	4	5	6
Umumbelgilangan soliqlar bo'yicha qayta hisob-kitob qilishdagi qo'shimcha to'lanadigan yagona soliq to'lovi	150		X	X	X	X	X	X
O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladigan yagona soliq to'lovi summasi [(120-satr – (140-satr / 95%)) x 5%]	160		X	X	X	X	X	X

*Izoh:*

- 070-satr amalga oshirilayotgan faoliyat turiga qarab yagona soliq to'lovi stavkasi ko'rsatiladi.
- Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslar 100 va 110-satrlarga «0» qo'yadi.
- 130 va 160-satrlar O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasi mahalliy bo'limlari bilan o'zaro qo'llab-quvvatlash to'g'risida shartnomalar tuzgan soliq to'lovchilar (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar, lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar bundan mustasno) tomonidan to'ldiriladi.

**Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumda plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlardan olingan tushum salmog'i hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisi to'g'risida ma'lumotda ko'rsatilgan faoliyat turlari bo'yicha (01-varaq)					
			asosiy faoliyat turi-1	2	3	4	5	6
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum (Yagona soliq to'lovi hisob-kitobining 010-satri)	010							
shu jumladan:								
plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlardan olingan tushum	020							
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumda plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlardan olingan tushum salmog'i, %da (010-satr x 100 / 020-satr )	030							

*Izoh:* Mazkur ilova plastik kartochkalar qo'llanib xizmatlar ko'rsatgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari tomonidan to'ldiriladi.



**Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Summa</b>
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi (2-ilovaning 050-satri)	010	
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (3-ilovaning 050-satri)	020	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi (4-ilovaning 010-satr 4-ustun)	040	
Budjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr – 030-satr)	050	

**Hisobga olinadigan QQS hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Qiymat	QQS summasi
1	2	3	4
QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) (7-ilovaning 5 va 6-ustunlari yakuniy summalari)	010		
Hisobga olinadigan QQS summasiga tuza-tish kiritish:		X	X
umumbelgilangan soliqlarni to'lashga, shu jumladan, yagona soliq to'lovchisi tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga o'tilganda, shuningdek, imtiyoz bekor qilinganda QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelganda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qoldiqlari bo'yicha	020		
soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydiganlar toifasiga) o'tganda, shu jumladan, imtiyozlar tatbiq etilganda, tovar (ishlar, xizmatlar) qoldiqlari bo'yicha	030		
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (010-satr + 020-satr - 030-satr)	040		

**Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo'yicha jami oborotdagi salmog'i *	Realizatsiya bo'yicha oborot summasi	QQS
1	2	3	4	5
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum, jami (Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot — 2-sonli shaklning 010-satri)	010	100%		X
shu jumladan:				X
20 foizli stavka qo'llaniladigan	0101			X
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari)	0102			X
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlar eksporti:	00103	X	X	X
chet el valutasida	01031	X		X
jo'natish kuniga O'zR Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valutadagi ekvivalentda	01032			X
valuta tushumi kelib tushishi (chet el valutasida)	01033	X		X
kelib tushgan chet el valutasining salmog'i (01033-satr / 01031-satr x 100)	01034		X	X
soliq solinmaydigan tushum	0104			X
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (1-ilovaning 040-satri)	020	X	X	

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo'yicha jami oborotdagi salmog'i *	Realizatsiya bo'yicha oborot summasi	QQS
1	2	3	4	5
Olingan va realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun ishlatiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (alohida-alohida yuritiladigan hisob bo'yicha) (0301-satr+0302-satr+0303-satr+0304-satr)	030	X	X	
shu jumladan:		X	X	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun	0301	X	X	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun	0302	X	X	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valutasidagi eksporti uchun	0303	X	X	
qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan oborot uchun	0304	X	X	
Olingan va realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun ishlatiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (mutanosib usul bo'yicha) (020-satr – 030-satr)	040	X	X	
shu jumladan:		X	X	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (040-satr x 0101-satr)	0401	X	X	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (040-satr x 0102-satr)	0402	X	X	

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo'yicha jami oborotdagi ulushi	Realizatsiya bo'yicha oborot summasi	QQS
1	2	3	4	5
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valutasidagi eksporti uchun (040-satr x 01032-satr)	0403	X	X	
Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan oborot uchun (040-satr x 0104-satr)	0404	X	X	
Olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobga olinadigan QQS summasi (0501-satr + 0502-satr + 05031-satr)	050	X	X	
shu jumladan, realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun:		X	X	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (0301-satr + 0401-satr)	0501	X	X	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (0302-satr + 0402-satr)	0502	X	X	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valutasidagi eksporti uchun (0303-satr + 0403-satr)	0503	X	X	
shu jumladan, valuta tushumi kelib tushganlari bo'yicha (0503-satr x 01034-satrning 3-ustuni / 100)	05031	X	X	
Valuta tushumining to'liq kelib tushmaganligi munosabati bilan hisobga olinmaydigan QQS summasi (0503-satr - 05031-satr)	05032	X	X	
Hisobga olinmaydigan QQS summasi (020-satr - 050-satr = 0304-satr + 0404-satr + 05032-satr)	060			

\* *Izoh:* 0101, 0102, 01032, 0104-satrlarning 3-ustunlari qiymatlari ushbu satrlarning 4-ustunlarining 010-satr 4-ustuniga nisbati orqali aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobiga 3-ilova

**Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Qiymat	QQS summasi
1	2	3	4
Avvalgi soliq davrida nol stavka qo'llaniladigan tovarlar eksportining to'lov (chet el valutasida) kelib tushmagan qismi	010		X
Avvalgi soliq davrida eksport jo'natmalari uchun joriy soliq davrida haqiqatda kelib tushgan to'lov hajmi	020		X
Avvalgi soliq davrida eksport jo'natmalari uchun joriy soliq davrida haqiqatda kelib tushgan to'lov hajmining salmog'i (020-satr / 010-satr x 100)	030		X
Avvalgi soliq davrida valuta tushumi to'liq kelib tushmaganligi sababli hisobga olinmagan QQS summasi	040	X	
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (030-satr x 040-satr / 100)*	050	X	

\* *Izoh:*

Joriy soliq davrida valuta tushumi to'liq kelib tushmagan eksport mahsulotlarini realizatsiya qilish bo'yicha oborotlar uchun hisobga olinishi lozim bo'lgan QQS summasi budjetga bo'nak to'lovlari hisobining alohida hisobvarag'i – 4400 da yig'ib boriladi va valuta tushumining tushib borishi bilan hisobga olinib boriladi.

**Tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oborotlari**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Jo'nat- malar qiymati</b>	<b>QQS summasi</b>
1	2	3	4
Tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, jami (0101—0107-satrlar yig'indisi)	010		
ulardan			
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum (Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot — 2-sonli shaklning 010-satri)	0101		
shu jumladan:			
QQSdan ozod qilinadiganlari (5-ilovaning 010-satri)	01011		X
nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadiganlari (6-ilovaning 010-satri)	01012		X
boshqa soliq solinadigan realizatsiya (0101-satr — 01011-satr — 01012-satr)	01013		
tannarxidan past narxda realizatsiya qilingan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi va realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq	0102		
tovarlarni import qilishda QQS to'lash maqsadida bojxona organlari tomonidan aniqlangan narx va import qilingan tovarlarning QQS kiritilmagan holda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq summasi	0103		
asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish obyektlari realizatsiyasi (realizatsiya qilish narxi bilan ularning qoldiq qiymati o'rtasidagi QQS summasini ham o'z ichiga oladigan ijobiy farq)	0104		
mol-mulkni moliya ijarasiga, shu jumladan, lizingga topshirish (chiqib ketayotgan aktivlarning qiymati bilan ularning QQS summasini o'z ichiga oladigan qoldiq qiymati o'rtasidagi musbat farq)	0105		

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Jo'natmalar qiymati</b>	<b>QQS summasi</b>
1	2	3	4
mol-mulkni operativ ijaraga berish	0106		
Realizatsiya bo'yicha 0101, 0104-0106-satrlarda ko'zda tutilmagan boshqa oborotlar	0107		
	01071		
	01072		
	01073		
	01074		

*Izoh:*

0103-satr import qilingan tovarlarni sotish bo'yicha savdo faoliyatini yurituvchi import bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Qiymatiga QQS summasini ham o'z ichiga oladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha oborotlar bo'yicha QQS summasi (oborot  $\times$  20 / 120) formulasi orqali aniqlanadi.



**Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan tovarlarni  
(ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari**

<b>Realizatsiya bo'yicha oborotlar ro'yxati</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Soliq solinadigan baza</b>	<b>Imtiyozni qo'llash muddati</b>
1	2	3	4
Soliq solinmaydigan tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oborotlari (020-satr + 030-satr)	010		X
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksigi muvofiq — jami:	020		
shu jumladan:			
	0201		
	0202		
	0203		
	0204		
	0205		
	0206		
	0207		
	0208		
Boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliq solinmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha oborotlar — jami:	030		
shu jumladan:			
	0301		
	0302		
	0303		
	0304		
	0305		

*Izoh:*

Qo'shimcha imtiyozlar (030 va keyingi satrlar) normativ-huquqiy hujjatning bandi, sanasi, raqami va nomini ko'rsatgan holda to'ldiriladi.

**Nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hisob-kitobi**

<b>Soliq solinadigan obyektlar</b>	<b>Satr kodi</b>	<b>Soliq solinadigan baza</b>
1	2	3
Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar realizatsiyasi – jami (020+030+040+050+060+070 ...):	010	
shu jumladan:		
tovarlarni chet el valutasida eksportga realizatsiya qilish	020	
chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi	030	
«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) realizatsiyasi	040	
xalqaro yo'nalishda yuk tashish bo'yicha xizmatlar realizatsiyasi	050	
suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan olayotgan shunday xizmatlar realizatsiyasi	060	
QQS bo'yicha nol darajali stavka qo'llanilishi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi – jami	070	
shu jumladan:		
	0701	
	0702	
	0703	

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobiga 7-ilova

## Xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalar (hisobvara-q-faktura o'rnini bosadigan hujjatlar) reyestri

T/r	Yetkazib beruvchi nomi	Yetkazib beruvchi STIR	Hisob vara-q-faktura sanasi va raqami	Yetkazib berish qiymati (QQS-siz)	QQS summasi	Ulardan, hisobga olinmaydiganlari, shu jumladan:									
						Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish bo'yicha		Qiymati, QQS bilan birga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ishlar, xizmatlar bo'yicha		Tekinga olinganlari bo'yicha		Bo'sh vaqtni mazmuni o'tkazish, ko'ngilochar tomoshalar tashkil etish maqsadida olinganlari bo'yicha			
						Qiyamat	QQS	Qiyamat	QQS	Qiyamat	QQS	Qiyamat	QQS	Qiyamat	QQS
1		3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14		
	<b>Jami:</b>														
	QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati (5-ustun- 7-ustun- 9-ustun- 11-ustun- 13-ustun)					X									
	Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (6-ustun- 8-ustun- 10-ustun- 12-ustun- 14-ustun)														

**Hisobvaraƣ-fakturani to'ldirilishi**  
(raqamlar shartli)

Tovarlar (ish va xiz- matlar) nomi	Tovar- ning o'lchov birligi (dona, kg, metr va hokazo)	Yuklab jo'nati- ladigan tovar- larning miqdori yoki soni	Tovarlar ning shart- noma bo'yicha qo'shil- gan qiymat solig'isiz narxi (so'mni)	Tovar- larning jami yetkazib berish qiymati (qo'shil- gan qiymat solig' isiz) 3x4 (so'm- da)	Qo'shilgan qiymat solig'i		Jo'nati- layotgan tovar- larning qo'shil- gan qiymat solig'i bilan hisob- langan summasi (so'mda)
					qo'shil- gan qiymat solig'i stavkasi %(20 yoki «0») Agar qo'shil- gan qiymat solig'i- dan ozod bo'lsa chiziq- cha tortib qo'yiladi	Jo'nati- layotgan tovarlar bo'yicha tegishli stavka- larga ko'ra hisob- langan qo'shil- gan qiymat solig'i summasi	
1	2	3	4	5	6	7	8
Qalam	dona	1000	80	80000	20	16000	96000

## Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning va soliq solinadigan nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati — <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 070-satri</i>	010	
Soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi — <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 4-ilovaning 010-satri</i>	020	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan baza (010-satr — 020-satr)	030	
Belgilangan soliq stavkasi, %	040	
Tuzatilgan stavka, % — <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 6-ilovaning 060-satri</i>	050	
Soliq summasi (030-satr x 040-satr, yoki 050-satr)	060	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektining o'rtacha yillik qiymati — <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 080-satri</i>	070	
Soliq stavkasi, % da	080	
Soliq summasi (070-satr x 080-satr)	090	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunning o'rtacha yillik qiymati — <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 090-satri</i>	100	
Soliq stavkasi, % da	110	
Soliq summasi (100-satr x 110-satr)	120	
Budjetga to'lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi (060-satr + 090-satr + 120-satr)	130	
O'tgan hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi	140	
Qo'shimcha to'lashga	150	
Kamaytirishga	160	

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilova

## Soliq solinadigan obyektlarning o'rtacha yillik qiymati (o'rtacha yillik qiymati) hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Oxirgi kun holatiga:															
		Yanvar	fevral	mart	1-chorak uchun (qoldiq) qiymat (3-ust+4-ust+5-ust) / 12	aprel	may	iyun	1-yarim yillik uchun o'rtacha (qoldiq) qiymat (3-ust+4-ust+5-ust+6-ust+7-ust+8-ust+9-ust) / 12	iyul	avgust	sentabr	9 oylik o'rtacha (qoldiq) qiymat (3-ust+4-ust+5-ust+6-ust+7-ust+8-ust+9-ust+10-ust+11-ust+12-ust+13-ust) / 12	oktabr	noyabr	dekabr	O'rtacha yillik (qoldiq) qiymat (3-ust+4-ust+5-ust+6-ust+7-ust+8-ust+9-ust+10-ust+11-ust+12-ust+13-ust+14-ust+15-ust+16-ust+17-ust) / 12
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
<b>Asosiy vositalar:</b>																	
Boshlang'ich (tiklash) qiymati — Buxgalteriya balansining 010-satri	010				X				X				X				
Eskirish summasi — Buxgalteriya balansining 011-satri	020				X				X				X				X
Qoldiq (balans) qiymati (010-satr — 020-satr)	030																
<b>Nomoddiy aktivlar:</b>																	
Boshlang'ich qiymati — Buxgalteriya balansining 020-satri	040				X				X				X				X
Amortizatsiya summasi — Buxgalteriya balansining 021-satri	050				X				X				X				X



Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 2-ilova

**Normativ muddatlarda ishga tushirilmagan,  
qurilishi tugallanmagan obyektlarning**

**RO'YXATI**

<b>Qurilishi tugallanmagan obyektning nomi</b>	<b>Obyekt qurilishiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddat</b>	<b>Obyektini ishga tushirish muddati</b>	<b>Normativ muddatlarda tugallanmagan qurilish qiymati</b>

*Izoh:* Normativ muddatlarda ishga tushirilmagan qurilishi tugallanmagan obyektlarning ro'yxati Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi bilan birga har bir hisobot davri uchun ortib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 3-ilova

**Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar**

**RO'YXATI**

<b>O'rnatilmagan asbob-uskunalar nomi</b>	<b>Asbob-uskunalarining kelib tushgan sanasi</b>	<b>Asbob-uskunalarining loyiha-smeta hujjatlariga asosan o'rnatilish muddati, yoki O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan muddat</b>	<b>Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskuna qiymati</b>

*Izoh:* Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar ro'yxati Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi bilan birga har bir hisobot davri uchun ortib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.